O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK
MAHORAT MARKAZI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, TA’LIM TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI

“TA’LIMDA AJDODLAR VA AVLODLAR VORISLIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
(ONLAYN ZOOM PLATFORMASIDA)
2026-YIL, 19-IYUN

MATERALLARI TO ‘PLAMI



Buxoro-2020yil, 19-iyun

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi yillik rejasiga asosan “T**a’limda ajdodlar va avlodlar vorisligi: muammolar va yechimlar**” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazilish bo‘yicha:


DASTURIY QO‘MITA HAY’ATI		
1.	**Xamidov A.A.**	Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, rais
2.	**Kosimov U.A**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent, (mas'ul-moderator)
TAHRIR HAY’ATI		
1.	**Kosimov U.A**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent, a’zo
2.	**Gadoeva M.M.**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi katta o ‘qituvchisi, a’zo
3.	**Sh.Xakimov**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi o ‘qituvchisi, a’zo
4.	**Baqoeva M.I.**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo

Muharrir: U.A.Kosimov – “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent

Taqrizchilar

E.Z.Halimov, psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

B.Ya. Axmedov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent




Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi markazi Kengashi 2026 yil 30-iyun 2-sonli yig‘ilishi bayonnomasi qarori bilan foydalanishga tavsiya etilgan

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi yillik rejasiga asosan “T**a’limda ajdodlar va avlodlar vorisligi: muammolar va yechimlar**” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazilish bo‘yicha:

TASHKILIY QO‘MITA HAY’ATI		
1.	**Kosimov U.A**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent, rais
2.	**Sh.Xakimov**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi o ‘qituvchisi, kotib
TAHRIR HAY’ATI		
1.	**Axmedov B.Ya.**	“Tillarni o ‘qitish metodikasi“ kafedrasi, p.f.n., dotsent a’zo,
2.	**Xaydarov Y.X.**	“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi“ kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent, a’zo
3.	**Gadoeva M.M.**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi katta o ‘qituvchisi, a’zo
4.	**Baqoeva M.I.**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo
5.	**Narziyeva M.S.**	“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o ‘qituvchisi, a’zo
6.	**Muxidov X.**	“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari “ kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo
7.	**Avezov T.**	“Informatika va axborot texnologiyalari“ kafedrasi o‘qituvchisi, a’zo

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazida “Ta’limda ajdodlar va avlodlar vorisligi: muammolar va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ajdodlar va avlodlar ta’limotlarining integrasiyasi asosida zamonaviy ta’lim sifatini takomillashtirish maqsadida o‘tkazildi va konferensiya materiallari to‘plam sifatida jamlandi.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas’uldirlar



KIRISH

Ta’limda ajdodlar va avlodlar vorisligi transformasiyasi

Akmal Amrulloyevich Xamidov
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Assalomu alaykum hurmatli hamkasblar, konferensiya ishtirokchilari!

Sizlarni ko‘rib turganimdan juda xursandman, bugungi konferensiyaga ishtirok etayotganingiz va o‘zingizni boy tajribangiz bilan o‘rtoqlashayotganiz uchun barchangizga chuqur minnatdorchilik bildiraman**.**

Ma’lumki, mamlakatimiz ta’lim tizimida keyingi yillarda jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimini rivojlantirish, samaradorligini oshirish masalalari “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida nazarda tutilgan qator ustuvor vazifalarda o‘z aksini topgan. Shu asosda ta’lim tizimida dars jarayonlarida hamkorlikda ishlash strategiyalarini ishlab chiqish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlar o‘tiladigan mavzularni o‘zlashtirish holatlariga ijobiy ta’sir qilishi muhimdir. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchi shaxsini samarali taraqqiy qilishini ta’minlashda, zamonaviy innovativ ta’lim tehnologiyalarining ahamiyati to‘g’risida so‘z borganda ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor. Bu ishlarni ajdodlarimiz qoldirgan buyuk meros ta’lim va tarbiya borasidagi ta’limotlarga asoslanish joizdir.

Hozirda O‘zbekistonda uchinchi Renessans atamasi kun tartibiga chiqqan. “Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi.

Mamlakatda birinchi va ikkinchi Renessans qachon bo‘lgandi? Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 1 oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bunga aniqlik kiritib: “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan

qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi”, degan edi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga — Birinchi (ma'rifiy — IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar — XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan.

To‘qqizinchi – o‘n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. “Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy va shu bilan birga tasavvuf ta’limoti byuuk namoyandalari Abdulxoliq G’ijduvoniy, Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi.

O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lishdi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun „Yangi O‘zbekiston“ va „Uchinchi Renessans“ so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.`

O‘zbekistonda kelajagi ta’lim va ilmu fanda ko‘rilayotgani, uchinchi Renessans g‘oyasi milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilgani, zamonaviy dunyoga yuzlanish hamda dunyo bilan tenglashmoq istagida ana shu Vatan va millat tuyg‘usining yana bir jilvalanishini ko‘rish mumkin.

Uchinchi Renessans avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O‘z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta’minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta’minot taqozosidan kelib chiqib, ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Yuqoridagilardan ayonlashmoqdaki, Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yana-da chuqurroq integratsiya bo‘lishini talab etadi. Ammo o‘zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma’naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta’lim-tarbiya tizimiga jiddiy e’tibor qaratishni bildiradi.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Bunday kamolot ajdodlar bilan avlodlar vorisligini o‘rnatish orqali samarali amalga oshadi.

ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА

Балхова Светлана Якубовна
профессор кафедры «Лингвистика» Филиал
Московского государственного
университета имени М.В. Ломоносова
в городе Душанбе

Kalit so'zlar: ilmiy matn, ikonik tizim, qabul qiluvchilar, sintaktik tuzilmalar, semantik tuzilmalar
Аннотация: в статье рассматривается ряд вспомогательных знаковых систем. Для реципиента – специалиста научный текст всегда понятен, так как их пишут по правилам с соблюдением определенных синтаксических и морфологические структур, а также рассматривается особенность употребления слов и выражений каждого из языков и степень сложности изложения рассматриваемых нами языков.
Ключевые слова: научный текст, знаковая система, реципиенты, синтаксические структуры, семантические структуры
Abstract: the article considers a number of auxiliary sign systems. For the recipient - specialist, the scientific text is always understandable since they are written according to the rules in compliance with certain syntactic and morphological structures, and also the peculiarity of the use of words and expressions of each of the languages and the degree of complexity of the presentation of the languages we investigated.
Keywords: scientific text, sign system, recipients, syntactic structures, semantic structures

Для определения лексико-грамматических особенностей научного текста, прежде всего, определим многочисленные языковые средства, передающие когнитивную информацию. Однако, необходимо особое внимание уделить синтаксическим и морфологическим функциям переводимого материала, учитывая специфику каждого из языков.

В данной статье представлены результаты исследования научных текстов переведенных с английского языка на русский и на таджикский. В ходе исследования, переведенного материала, было отмечено, что всем трём языкам (английскому, русскому и таджикскому) свойственно выражение

подлежащего существительным, однако для всех трёх языков свойственно использование объективированного «мы», а не личного местоимения единственного числа со значением субъекта.

В научных текстах часто авторы используют пассивные конструкции. Для английского языка типично употребление разнообразных средств выражения пассивности. Для русского языка также типичны специальные глагольные залоговые формы (пассив), глагольные конструкции с пассивным значением. Таджикский язык несколько отличается от английского и русского языков по своей синтаксической структуре и, соответственно, отличаются и формы выражения пассива.

Для научных текстов важно определение формы глагола и нами было определено, что во всех трёх языках, глагол используется в форме настоящего времени, т.е. именно такая форма глагола дает возможность представить сообщаемые сведения как абсолютно объективные.

Рассматривая слова и словосочетания в исследованных нами языках, мы выяснили, что они образованны по словообразовательной модели с абстрактным значением, что вызвано обобщенностью описываемых сведений, т.е. — их объективностью.

При переводе научных текстов констатируется частое использование отглагольного существительного с десемантизированным глаголом, что повышает статус объективности изложения.

Для научных текстов характерно использование большого количества терминов передающих когнитивную информацию. Но для всех трёх языков характерно то, что термины не обладают эмоциональной окраской, что даёт возможность переводчику подбирать при переводе термины в однозначной форме.

Относительно лексических единиц научного текста, выявлено, что они довольно однообразны по составу и исходя из этого, приходим к выводу, что эти лексические единицы общенаучного толка имеют нижеследующие характеристики:

- относятся к типу лексических единиц, не имеющих эмоциональной окраски;
- являются нейтральным вариантом современной письменной литературной нормы во всех трёх языках.

При переводе научных текстов важно использовать синонимы, которые могут быть стилистически равноправными и могут взаимно заменяться.

При переводе лексики общенаучного описания, следует учитывать контекст

и, именно исходя из контекста, следует выбирать соответствующие синонимы, представляющие собой нечто среднее между эквивалентами и вариантными соответствиями.

При переводе научного текста переводчик сталкивается с тем фактом, что когнитивная информация передается различными сокращениями. Перевод этих сокращений сложен, если не знать тип этих сокращений, но если эти сокращения даны в словарях, то перевод не вызывает особых сложностей. Часто авторы используют такие сокращения, которые имеются в одном языке, но мало известны в другом, в этих случаях необходимо дешифровать сокращения и переводить их как в полном, так и в сокращенном варианте. Если в подлиннике акроним, то в переводе следует сохранить акроним; если в подлиннике сложносокращенное слово, переводчик выстраивает ту же модель.

Проанализировав собранный нами материал, мы выявили, что когнитивная информация, практически не выявляет эмоциональную информацию, т.е. нет возможности субъективному изложению материала. Но всегда, при переводе можно использовать определенные средства для передачи эмоциональной информации, как например риторические вопросы и восклицания.

Средства семантической и формальной когезии во всех трёх языках имеют свою специфику и эти средства обычно передаются однозначными соответствиями, а значит, семантическое ядро в каждом случае сохраняется. Более того, переводчики, из своего опыта знают, что возможен вариант уменьшения количества этих средств когезии, например, возможно уменьшить число повторений какого-либо термина. При переводе, обычно также следует опираться на средства формальной когезии: наречия, указательные и личные местоимения, союзы и т. п. Обычно начинающие переводчики по неопытности считают, что все эти связочные слова в тексте не столь важны, и по этой причине могут часть из них в переводе не сохранить. Такой подход нарушает логичность текста и приближает принцип его построения к ассоциативному. При переводе следует помнить, что для средств формальной когезии необходимо подбирать соответствующие эквиваленты.

Когнитивная информация в научном тексте строится логически, но не ассоциативным, или образным путем. И только специальные языковые средства семантической и формальной когезии дают возможность организовать связанность текста.

Синтаксические структуры, прежде всего, обеспечивают логичность

изложения. При переводе необходимо сохранять эту структуру, но иногда такая структура, из-за особенностей языка перевода, меняется таким образом, что появляется двусмысленность содержания, слишком большая дистанция компонентов мешает проследить за мыслью автора. В таких случаях принцип логичности построения нарушается, и переводчику приходится преобразовывать синтаксическую структуру, т.е. преобразовывать сложную структуру в две простые. Логика сохраняется в том случае, если логический принцип выдержан в научном тексте, и только тогда читатель получает истинное наслаждение от логики изложения. Тогда мы вправе считать, что текст содержит элементы эстетической информации.

Дополнительным средством логической организации научного текста являются графические средства, прежде всего, шрифтовые. Величина и жирность шрифта в заголовках и подзаголовках, разрядка, курсив - компрессионные средства выделения значимой и подчиненной информации.

В заключении следует отметить, что при переводе научного текста доминантами перевода, обеспечивающими инвариантность текста, то есть соответствие его подлиннику, будут все средства, обеспечивающие объективность, логичность и компактность изложения. Это термины, конструкции, личные и безличные структуры, сложные слова, словообразовательные модели с абстрактной семантикой, сокращения, цифры, формулы, схемы, средства когезии, графические средства логической организации, а также формализованные средства эмоциональности научной дискуссии. При переводе следует помнить, что единица перевода — это слово, а для перевода некоторых сложных слов - морфема. Перевод основывается на подборе соответствующих эквивалентов; а также на вариантном соответствии с равноправной вариативностью.

Xulosa: maqolada bir qator yordamchi ikkilamchi tizimlar ko'rib chiqiladi. Qabul qiluvchi-mutaxassis uchun ilmiy matn har doim tushunarli, chunki ular ma'lum sintaktik va morfologik tuzilmalarga rioya qilgan holda qoidalarga muvofiq yoziladi, shuningdek, har bir tilning so'zlari va ifodalarini ishlatishning o'ziga xos xususiyati va biz ko'rib chiqayotgan tillarni taqdim etishning murakkabligi darajasini ko'rib chiqadi.

Литература

Комарова А.И. Функциональная стилистика: научная речь, язык для специальных целей. М.: УРСС, 2004 192 с.

Гуськова Т.И., Зиборова Г.М. Трудности перевода общественно-

политического текста с английского языка на русский. Моск. гос. ин-т международ. отношений (Университет). 3-е изд., - М.: РОССПЭН, 2000. -227 с.
Глушко М.М. Синтактика, семантика и прагматика научного текста. -М.: Изд-во Моск. ун-та, 1977. 210 с.
Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. М.: Высшая школа, 1981. - 103 Камоллидинов, Б. Синтаксическая синонимия в современном таджикском литературном языке / Б.Камоллидинов. - Душанбе: Ирфон, 2012. - 286 с.

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI VA BU YO‘LDAGI MUAMMOLAR

Salomov Abdinazar Abdivasixovich – O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi, Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha, boshlang’ich va maxsus ta`lim metodikalari kafedra mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, xalqaro ilmiy akademiyaning professori va laureate.
+998-94-694-10-95
@salomovabdinazar.example

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI)ning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi o‘rni va rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi. Maqolada raqamli texnologiyalar va SI ning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning jamiyatdagi ahamiyati, biznes, sog‘liqni saqlash, ta’lim va madaniyat sohalaridagi o‘zgarishlarga ta’siri ko‘rib chiqildi. Raqamli inqilob va SI ning imkoniyatlari va cheklovlari, shuningdek, bu texnologiyalarni jahon miqyosida samarali va xavfsiz tarzda qo‘llash zarurati muhokama qilindi. Maqola insonlarni zamonaviy texnologiyalarning kelajagi, ularning inson hayotiga ta’siri va jamiyatdagi rivojlanishdagi roli haqida o‘ylashga undaydi. Maqola ilmiy, texnik va ijtimoiy jihatdan keng qamrovli tahlilni taqdim etadi, shu bilan birga raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning kelajagi haqida muhim xulosalar chiqaradi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, ta’lim, biznes, ijtimoiy o‘zgarishlar, katta ma’lumot (Big Data), bulutli hisoblash, chuqur o‘rganish, telemeditsina, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, internet, onlayn xizmatlar, avtomatlashtirish, kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и процессы развития цифровых технологий и искусственного интеллекта (ИИ) в экономической, социальной и культурной сферах современного общества. В статье рассмотрены этапы исторического развития цифровых технологий и ИС, их значение в обществе, влияние на изменения в бизнесе, здравоохранении, образовании и культуре. Обсуждались возможности и ограничения цифровой революции и СИ, а также необходимость эффективного и безопасного

использования этих технологий в глобальном масштабе. Статья призывает людей задуматься о будущем современных технологий, их влиянии на жизнь человека и их роли в развитии общества. В статье представлен комплексный анализ с научной, технической и социальной точек зрения, при этом сделаны важные выводы о будущем цифровых технологий и искусственного интеллекта.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, экономика, здравоохранение, образование, бизнес, социальные изменения, большие данные (Big Data), облачные вычисления, глубокое обучение, телемедицина, цифровая трансформация, инновации, интернет, онлайн-сервисы, автоматизация, коммуникационные технологии.

Abstract. This article analyzes the role and development processes of digital technologies and artificial intelligence (AI) in modern society in the economic, social and cultural spheres. The article examines the historical stages of development of digital technologies and AI, their importance in society, and their impact on changes in the fields of business, healthcare, education and culture. The opportunities and limitations of the digital revolution and AI are discussed, as well as the need for effective and safe use of these technologies on a global scale. The article encourages people to think about the future of modern technologies, their impact on human life and their role in the development of society. The article provides a comprehensive analysis of scientific, technical and social aspects, while drawing important conclusions about the future of digital technologies and artificial intelligence.

Keywords: digital technologies, artificial intelligence, economy, healthcare, education, business, social change, big data, cloud computing, deep learning, telemedicine, digital transformation, innovation, internet, online services, automation, communication technologies.

SI texnologiyalarini ta’lim tizimiga kiritishda dasturiy ta’minotning murakkabligi va kibertahdidlar asosiy muammolar qatoriga kiradi. AI asosida ma’lumotlar tahlili amalga oshirilayotganda talabalarning shaxsiy ma’lumotlari himoyasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi (Selwyn, 2019). Sun’iy intellekt vositalarini ta’lim tizimiga joriy qilish ko‘p hollarda katta mablag‘ va ilg‘or texnologik infratuzilmani talab qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu borada muayyan qiyinchiliklar mavjud (West, 2021). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalarini ta’lim jarayonida samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning ushbu texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish muhimdir (Luckin et al., 2018).

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini avtomatlashtirish,

individuallashtirish va samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Shunga qaramay, texnik, iqtisodiy va metodik muammolar hal qilinishi lozim. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish strategiyalarini yanada rivojlantirish zarur. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogika oldida yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SI vositalari ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini moslashtirish va baholash tizimlarini avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Xususan, SI yordamida individuallashtirilgan o'qitish imkoniyatlari ortib, har bir talabaning ehtiyojlariga mos keluvchi o'quv materiallari va topshiriqlar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari ta'lim jarayonidagi inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirib, baholash jarayonining shaffofligi va tezligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, SI texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishda turli muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri, texnik va axborot xavfsizligi masalalari. SI tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlar ustida ishlaydi, bu esa shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashni talab qiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy va infratuzilmaviy cheklovlar sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda SI texnologiyalarini joriy qilish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuningdek, o'qituvchilarning SI texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi ham muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI) butun dunyo bo'ylab jamiyatning, iqtisodiyotning va turmush tarzining asosiy omillaridan biriga aylangan. Ushbu texnologiyalar nafaqat texnikaviy innovatsiyalarni, balki yangi iqtisodiy tizimlarni va madaniy o'zgarishlarni yaratishga yordam bermoqda. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar, imkoniyatlar va xavf-xatarlar ham katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy dunyo raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI) sohalaridagi inqilobiy o'zgarishlar bilan yuzlashmoqda. Ular butun jamiyat, iqtisodiyot, ilm-fan va kundalik hayotni tubdan o'zgartirib yubormoqda. Yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va SI tizimlarining rivojlanishi insoniyatga yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, turli xil qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, raqamli texnologiyalar va SI ning ahamiyatini to'g'ri tushunish va ularni samarali qo'llash ham davlatlar, ham tashkilotlar, ham jismoniy shaxslar uchun zarurdir.

Raqamli texnologiyalar va ularning rivojlanish tarixi

Raqamli texnologiyalar - bu ma'lumotlarni raqamli (ya'ni, 0 va 1) shaklida saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlariga asoslangan texnologiyalarni ifodalaydi. Raqamli inqilobning bosqichlari elektron hisoblash mashinalarining

paydo bo‘lishi, internetning tarqalishi, bulutli texnologiyalar va katta ma’lumot (Big Data) sohalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Har bir yangi bosqich o‘zining yangi imkoniyatlarini taqdim etdi va global miqyosda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga olib keldi.

1980-1990-yillarda kompyuterlarning rivojlanishi va internetning keng tarqalishi raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. 2000-yillardan boshlab, mobil telefonlar, smartfonlar va tarmoqlar orasidagi bog‘lanish yanada kuchayib, yangi platformalar va xizmatlar paydo bo‘ldi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, ayniqsa bulutli hisoblash, IoT (Internet of Things), va blokcheyn kabi texnologiyalar jamiyatni yanada tezkor, samarali va interaktiv qilish imkonini bermoqda.

Sun’iy intellektning asoslari va rivojlanishi

Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuterlar va tizimlarning inson kabi fikrlash, qarorlar qabul qilish va o‘rganish qobiliyatini simulyatsiya qilishga qaratilgan soha. SI dastlab 1950yillarda Alan Turing va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi. Turingning “Turing testi” inson va mashina o‘rtasidagi farqni aniqlashga qaratilgan konsepsiya SI rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Bugungi kunda SI texnologiyalari necha yillar davomida kutilgan yuksak bosqichga yetdi. Mashinani o‘rganish (Machine Learning), chuqur o‘rganish (Deep Learning), tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) va tasvirni tanib olish (Image Recognition) kabi usullar bilan sun’iy intellekt turli sohalarda faol qo‘llanilmoqda. Ularning yordamida kompaniyalar va tashkilotlar ma’lumotlarni tezda tahlil qilib, aniq prognozlar berishlari, shuningdek, muammolarni samarali hal qilishlari mumkin [1].

Raqamli texnologiyalar va ularning rivojlanish tendensiyalari

Raqamli texnologiyalar - bu axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatishda foydalaniladigan barcha texnologiyalarni ifodalaydi. Ular asosan kompyuterlar, mobil qurilmalar, internet, ma’lumotlar bazalari va boshqa zamonaviy qurilmalar orqali boshqariladi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq asosiy yutuqlar quyidagilardan iborat:

1. **Ma’lumotlarni uzatish va saqlashning tezlashuvi:** Internetning global tarqalishi va yuqori tezlikdagi tarmoqlar, ma’lumotlarni tez va samarali uzatish imkonini yaratmoqda. Bulutli hisoblash tizimlari esa katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va ularni global miqyosda boshqarish imkoniyatini taqdim etadi.
2. **Mobil texnologiyalar:** Mobil telefonlar, planshetlar va boshqa qurilmalar orqali insonlar o‘zaro aloqada bo‘lishi, ishlash va turmush tarzini

o‘zgartirmoqda. Mobil ilovalar va internetga ulanish imkoniyati jahonning turli burchaklarida odamlarning hayotini sezilarli darajada yengillashtirmoqda.

3. **Avtomatlashtirish va raqamli ishlab chiqarish:** Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlari, raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirilgan. Bu esa mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali va tejamkor qilish imkonini yaratdi. 3D bosib chiqarish, robototexnika va aqlli tizimlar ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmoqda [2].

Sun’iy intellekt va uning imkoniyatlari

Sun’iy intellekt (SI) — bu insonning aqliy faoliyatlarini kompyuter tizimlari orqali taqlid qilishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. SI tizimlari, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, insonni takrorlash va ma’lum vazifalarni avtomatik ravishda bajarish kabi imkoniyatlarga ega. Sun’iy intellektni ikki asosiy kategoriya bo‘yicha tasniflash mumkin:

1. **Kengaytirilgan (yoki mustahkamlangan) sun’iy intellekt:** Bu tizimlar odamning aqliy qobiliyatlarini mukammal taqlid qilishga qaratilgan. Misol uchun, shifokorlar uchun tashxis qo‘yish, huquqshunoslar uchun qonuniy maslahatlar taqdim etish yoki iqtisodchilar uchun moliyaviy tahlil qilishda foydalanilishi mumkin.

2. **Maqsadga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt:** Bu tizimlar ma’lum bir maqsadga erishish uchun maxsus yaratilgan. Masalan, avtomobillarni boshqarish uchun ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini boshqaruvchi mashinalar yoki ishlab chiqarish jarayonini boshqarishdagi robotlar.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jamiyatdagi ahamiyati

Sun’iy intellektning jamiyat va iqtisodiyotga ta’siri katta bo‘lib, u bir qator sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda:

Iqtisodiyot va biznes sohasidagi o‘zgarishlar

Raqamli texnologiyalar va SI ning iqtisodiyotdagi o‘rni juda katta. Raqamli transformatsiya, xususan, korxonalar va kompaniyalarga ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va yangi bozorlarni zabt etish imkonini beradi. E-tijorat va onlayn xizmatlar orqali iqtisodiyotning yangi sektorlari rivojlanmoqda. Sun’iy intellekt yordamida kompaniyalar katta ma’lumotlarni tahlil qilib, foydalanuvchilarning xohish-istaklarini aniqroq tushunib, ularga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatishlari mumkin.

Sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘zgarishlar

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sog‘liqni saqlash tizimlarini yanada samarali qilishga yordam bermoqda. Tibbiyotda sun’iy intellekt orqali kasalliklarni

aniqlash, davolash usullarini personalizatsiya qilish va bemorlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari mavjud. Masalan, AI orqali yallig'lanish kasalliklarini erta aniqlash va operatsion jarayonlarni yaxshilash mumkin. Raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalari, telemeditsina va masofaviy xizmatlar ham aholiga tibbiy yordamni tez va samarali yetkazish imkonini beradi.

Ta'lim sohasida o'zgarishlar

Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va o'rganishni avtomatlashtirish imkoniyatlari talabalar va o'qituvchilarga yangi o'qish metodlarini taqdim etdi. Sun'iy intellekt o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonlarini yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun avtomatik baholash tizimlari, to'g'ri o'quv materiallarini tanlashda yordam beradigan tizimlar mavjud.

Jamiyat va madaniyatdagi o'zgarishlar

Raqamli texnologiyalar va SI nafaqat iqtisodiy va texnologik, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o'zgarishlar keltirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o'rtasida yangi kommunikatsiya shakllari paydo bo'lgan. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida jamiyatda axborot almashish, o'zaro munosabatlar va madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari oshgan. Shu bilan birga, texnologiyalar ba'zi jamiyatlar va guruhlar orasida raqobatni kuchaytirishi, yangi tarmoqlarni yaratishi yoki ijtimoiy tengsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

5. **Transport va logistika:** O'z-o'zini boshqaruvchi avtomobillar va dronlar logistika sohasini tubdan o'zgartirishi mumkin. Bu texnologiyalar yo'lovchilarni va yuklarni yanada tez va xavfsiz tashish imkonini yaratadi.

6. **Ishlab chiqarish va sanoat:** Sun'iy intellekt va robototexnika ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali va xavfsiz qilish imkonini beradi. Bu texnologiyalar yordamida ishchilarni xavfsizligi oshiriladi, mahsulot sifatini nazorat qilish osonlashadi va ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi oshadi [3].

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni jahon siyosatida qo'llash Jahon siyosatida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning roli ham ortib bormoqda. Ular davlatlar orasidagi raqobatni oshiradi, iqtisodiy mustahkamlikka erishishda yordam beradi va global xavfsizlik masalalarida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni noto'g'ri ishlatish yoki davlatlar o'rtasida raqobatni keskinlashtirish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Xavflar va etika muammolari

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi bilan birga, yangi xavflar va etika muammolari ham yuzaga kelmoqda:

- **Maxfiylik va axborot xavfsizligi:** Internet va raqamli tizimlar orqali axborot almashinuvi kengaygan sari, ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayotga tahdidlar oshmoqda. Ma’lumotlarni buzish, firibgarlik va shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy foydalanish xavfi mavjud.
- **Avtomatlashtirish va ishchi kuchi:** Avtomatlashtirishning rivojlanishi bir qator sanoatlarda ish o‘rinlarini yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.
- **Etika va qaror qabul qilish:** Sun’iy intellekt tizimlari qarorlar qabul qilishda avtomatik ravishda ishlaydi. Ammo, bu tizimlar insoniy axloqiy qarorlar bilan to‘liq mos kelmasligi mumkin. Masalan, o‘z-o‘zini boshqaruvchi mashinalar tomonidan qabul qilingan qarorlar inson hayotiga ta’sir qilishi mumkin [4].

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi jahon miqyosida katta ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ular insoniyatga yangi imkoniyatlar yaratib, ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa sohalarda katta inqiloblarni yuzaga keltirmoqda. Biroq, bu texnologiyalar bilan birga kelayotgan xavflar va etika muammolari ham jiddiy e’tiborni talab qiladi. Shu sababli, ularni boshqarish va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy kontekstda to‘g‘ri qo‘llash zarur. Faqat shunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt jamiyat uchun haqiqiy foyda keltirishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning rivojlanishi nafaqat ilmiy va texnologik sohalarda, balki kundalik hayotning barcha jabhalarida ham chuqur o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ular biznesni yanada samarali qilish, tibbiyot va ta’limni rivojlantirish, jamiyatdagi kommunikatsiyalarni yaxshilash kabi ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Biroq, bu texnologiyalarni to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan qo‘llash hamda ularning salbiy ta’sirlarini kamaytirish dolzarb masala sifatida qolmoqda. Kelajakda bu texnologiyalar o‘zining yangi imkoniyatlarini taqdim etib, insoniyatning yanada rivojlanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimida qo‘llanilishi kelajak ta’lim modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Lekin bu jarayonning samarali bo‘lishi uchun texnologik, metodik va iqtisodiy jihatlar bo‘yicha kompleks yondashuv talab etiladi. Agarda bu muammolar tizimli tarzda hal qilinsa, SI ta’lim jarayonini yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda sun’iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi o‘quvchilarning o‘qish usullarini, o‘qituvchilarning metodologiyasini va ta’lim jarayonlarining samaradorligini yaxshilashga katta

imkoniyatlar yaratmoqda. SI va raqamli texnologiyalar orqali ta’lim tizimi har bir o‘quvchiga individual yondashuv, o‘quv jarayonlarini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi. Chunki intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir is’tedod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qilivchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. “Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir”. Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak [1].

Ammo, bu jarayon bilan birga bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga ta’siri, ularning imkoniyatlari va yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqiladi.

Sun’iy intellekt ta’limda personalizatsiya qilishni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning qobiliyatlarini tahlil qilish va ularning ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini taqdim etish SI tizimlarining asosiy vazifalaridan biridir. Masalan, aqlli tutorlar yoki ta’lim platformalari o‘quvchilarga individual yondashuvni taklif qiladi, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda o‘qish jarayonini ularning ehtiyojlariga qarab moslashtiradi. Buning natijasida o‘quvchilar o‘z vaqtida yordam olishadi va samaradorlik yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari, SI ta’lim resurslarini yaratishda va o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ham qo‘llanilishi mumkin. Raqamli texnologiyalar esa, masofaviy ta’limni kengaytirish va interaktiv o‘quv materiallarini yaratish imkonini beradi. Onlayn ta’lim platformalari o‘quvchilarga o‘z vaqtida va joyidan qat’iy nazar ta’lim olish imkoniyatini beradi.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’lim tizimini rivojlantirishda ko‘plab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Birinchi muammo – raqamli tengsizlikdir. Ta’lim tizimining barcha qismlarida zarur texnologiyalarga teng kirish imkoniyati yo‘qligi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda katta muammo bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarning ba’zilari zamonaviy raqamli qurilmalar va internetga kirish imkoniyatiga ega bo‘lmasliklari sababli, ular ta’limda orqada qolishmoqda.

Ikkinchi muammo – o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarni samarali qo‘llashdagi malakasizligidir. Ko‘plab o‘qituvchilar raqamli texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishda qiynalmoqdalar. Ularning yangi tizimlar va platformalarga moslashishlari uchun alohida treninglar va qo‘llanmalar talab etiladi.

Shuningdek, texnologiyalarni implementatsiya qilishda texnik muammolar ham yuzaga keladi. Ularning samarali ishlashi va doimiy yangilanib turishi ta’lim jarayonini uzluksiz va samarali qilishda muhim omil hisoblanadi.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy qilishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun bir qator yechimlar mavjud. Birinchi navbatda, ta’limda raqamli tenglikni ta’minlash uchun infratuzilmani yaxshilash zarur. Internet va raqamli qurilmalarga keng kirish imkoniyatini taqdim etish orqali barcha o‘quvchilarga teng sharoitlar yaratish mumkin. Ikkinchi yechim, o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga o‘rgatishdir. O‘qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslari orqali yangilab borish, ularning texnologiyalarga tayyorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ta’lim jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashda texnik yordam va platformalarni doimiy yangilab borish lozim.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqib, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’lim tizimini yangi davrga olib kelish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ular o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlash, ta’lim jarayonlarini optimallashtirish va o‘qituvchilarga yangi pedagogik metodlarni qo‘llashda yordam beradi. Masofaviy ta’lim, interaktiv darslar va aqlli tizimlar orqali ta’limning sifatini oshirish mumkin. Biroq, raqamli transformatsiya bilan birga bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ularning eng muhimi, raqamli tengsizlik, ya’ni o‘quvchilarning barcha qatlamlarida zamonaviy texnologiyalarga teng kirish imkoniyatining yo‘qligi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarni qo‘llashdagi malakasi va texnik infratuzilmaning yetarli bo‘lmasligi kabi muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta’lim tizimida raqamli tenglikni ta’minlash, o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari bilan qo‘llab-quvvatlash, va texnologik infratuzilmani doimiy yangilab borish lozim. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun kerakli infratuzilma, resurslar va o‘qituvchilarning tayyorgarligi zarur. Ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi, shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni talab qiladi. Faqatgina bularning barchasi amalga oshirilsa, raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida haqiqiy inqilob yaratadi va o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar ochadi. Natijada, ta’lim tizimi global miqyosda yanada samarali, o‘zlashtirilishi oson va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratadigan platformaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson Education.
2. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. Harvard Business Review, 96(1), 108-116.
3. Shabbir, J., & Anwar, S. (2018). A Survey of Deep Learning Techniques for Natural Language Processing. IEEE Access, 6, 35851-35863.
4. Chen, M., Mao, S., & Liu, Y. (2024). Big Data: A Survey. Mobile Networks and Applications, 19(2), 171-209.

5. А.А.Саломов "Развитие, умений и навыков у учащихся старших класов при реализатции межпредметной функции математики" Тошкент: -1996 год. //Дисцертационный исследование//.

6. Саломов А.А., Мирзаева М. Активизация и позновательной деятелъности учашихся на уроках математики // Основное ролъ педагогигических идеи : Тезисы докладов конференци, -Челябинск, 1990. – с. 90-92.

7. Саломов А.А. Самостоятелъные занятия на уроках математика // Совершенствование организационных форм и методов преподавания математика, информатики и ВТ в школах и педвузах : Тезисы докладов Всесоюзного семинара – совещания. – Гулистан – 1990.

AJDODLARIMIZ MEROSI – BILIMLI VA MA’NAVIY BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MUHIM MANBA

Xaydarov Yuldash Xazratovich
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ajdodlarimiz merosi – bilimli va ma’naviy barkamol avlod tarbiyasida muhim manba ekanligi tahlil qilingan. Bu merosning hozirgi zamon yoshlar ongi va qalbiga vatanparvarlik ruhini singdirishdagi roli bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируется наследие наших предков как важный источник для воспитания образованного и духовно зрелого поколения. Описывается роль этого наследия в привитии духа патриотизма умам и сердцам современной молодежи.

Annotation: This article analyzes the heritage of our ancestors as an important source for raising an educated and spiritually mature generation. It describes the role of this heritage in instilling the spirit of patriotism in the minds and hearts of today's youth.

Kalit so‘zlar: taraqqiyparvarlar, milliy ong, tarix, tarixiy dunyoqarash, hozirgi zamon, ta’lim-tarbiya, Yangi O’zbekiston, zamonaviy yondashuv,kreativ fikrlash,kritik fikrlash,tahlil qilish va qaror qabul qilish.

Key words: progressives, national consciousness, history, historical worldview, present time, education, New Uzbekistan, modern approach, creative thinking, critical thinking, analysis and decision-making.

Ключевые слова: прогрессисты, национальное самосознание, история, историческое мировоззрение, современность, образование, Новый Узбекистан, современный подход, творческое мышление, критическое мышление, анализ и принятие решений.

O`zbek xalqining buyuk ajdodlari merosi bilimli va ma’naviy barkamol avlod tarbiyasida muhim manba bo‘lib, hozirgi zamon yoshlar ongi va qalbiga vatanparvarlik ruhini singdirishdagi roli beqiyosdir. Ana shunday buyuk ajdodlarimiz qatorida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakatlardan biri taraqqiyparvarlik harakati ham kiradi. Bu harakat vakillari xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifatni yoyish,

milliy ongni uyg‘otish va jamiyatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Ular tarixga ham o‘ziga xos qarash bilan yondashdilar.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Hozirgi zamon va Yangi O`zbekiston” kitobida takidlaganidek, “Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart. Yangi davr uchun yangi g`oya va tashabuslar, puxta o`ylangan istiqbolli rejalar,yangi marra va g`alabalar kerak bo`ladi”[1].

Taraqqiyparvarlar uchun tarix - bu faqat o‘tgan voqealar yig‘indisi emas, balki millatni uyg‘otuvchi, kelajakka yo‘l ko‘rsatuvchi kuch edi. Taraqqiyparvarlarning tarixiy qarashlari ularning asarlari, maqolalari, darsliklari va sahna asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular tarixni milliy uyg‘onish vositasi sifatida ko‘rdilar va o‘z qarashlari orqali jamiyatni isloh qilishga intildilar. Taraqqiyparvarlik harakati Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi kuchaygan bir davrda shakllandi. Mustamlaka siyosati natijasida mahalliy aholi siyosiy huquqlardan mahrum bo‘ldi, iqtisodiy jihatdan qaramlik kuchaydi, ta’lim tizimi esa zamon talablariga javob bermay qoldi. Shu sharoitda ma’rifatli ziyolilar xalqni ilm-ma’rifat orqali qutqarish mumkin degan xulosaga keldilar. Bu harakat vakillari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi mashhur ziyolilar bor edi. Ular yangi usul maktablarini ochdilar, darsliklar yozdilar, gazeta-jurnallar nashr etdilar va sahna asarlari orqali xalqni uyg‘otishga harakat qildilar.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yirik namoyandasi bo‘lib, tarixni millatni uyg‘otuvchi va tarbiyalovchi kuch deb bilgan.

Milliy uyg‘onish – tarixni bilish millatning o‘zligini anglashiga xizmat qiladi.

Tarbiya va ma’rifat – u tarixni yosh avlodni vatanparvarlik va axloq ruhida tarbiyalash vositasi deb ko‘rgan. Ilm va taraqqiyot – jamiyatning orqada qolish sababi jaholat va ilmsizlikda, deb hisoblagan. Islohot zarurati – eski tuzumni tanqid qilib, zamonaviy ta’limni yoqlagan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarixiy misollar orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasi ilgari suriladi. Avloniy uchun tarix – bu saboq va kelajakni qurish vositasi. Uning fikricha, tarixiy bilim axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir.

Fitrat tarixni milliy mustaqillik va davlatchilik bilan bog‘lab talqin qilgan jadid mutafakkiridir. Milliy davlatchilik g‘oyasi – Turkiston o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lishi kerak. O‘tmishni tanqidiy tahlil qilish – tarixni faqat ulug‘lash emas, balki xatolarni anglash vositasi sifatida ko‘rgan. Sharq va G‘arb uyg‘unligi –

[1] Shavkat Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O`zbekiston. T., “O‘zbekiston”, 2024, 7 bet

taraqqiyot uchun ilg‘or g‘arb tajribasini o‘zlashtirish zarur deb bilgan.

Madaniy islohot – milliy o‘zlikni saqlagan holda zamonaviylashish tarafdori bo‘lgan. Fitratning “Hind sayyohi bayonoti” asarida jamiyatning siyosiy va madaniy tanqidi orqali tarixiy orqada qolish sabablari ochib beriladi. Fitrat tarixni milliy g‘urur va mustaqillik g‘oyasi bilan bog‘lagan. U o‘z asarlarida o‘zbek va turkiy xalqlarning boy tarixiy merosini yoritib, mustamlakachilik sharoitida milliy ongni saqlab qolish zarurligini ta’kidlagan.

Cho‘lpon tarixni millat fojiasi va ozodlik kurashi bilan bog‘liq holda talqin qilgan. Milliy ozodlik – tarixiy jarayonni mustamlakachilik va erkinlik kurashi nuqtai nazaridan baholagan. O‘tmishdagi zulm va tanazzul millat ruhiyatiga ta’sir qilganini ko‘rsatgan. Shaxs va tarix – inson taqdiri tarixiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq. “Kecha va kunduz” romanida tarixiy davrning ijtimoiy muammolari va milliy ong uyg‘onishi tasvirlanadi. Cho‘lpon tarixni xalqning dardi va orzusi bilan uyg‘un holda ifoda etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy — jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi, ma’rifatparvar, publitsist va dramaturg. Uning tarixiy qarashlari milliy uyg‘onish, davlatchilik va ma’rifat g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq. Behbudiy tarixni millatning o‘zligini anglash vositasi deb bilgan. Uning fikricha: O‘z tarixini bilmagan millat taraqqiy eta olmaydi. O‘tmishdagi buyuk davlatchilik tajribasi (Temuriylar davri va boshqalar) yoshlar uchun ibrat bo‘lishi kerak. Tarix milliy g‘urur va vatanparvarlikni shakllantiradi. Behbudiy jamiyatning orqada qolish sababini jaholat va eski usul ta’limida ko‘rgan. U yangi usul maktablarini (usuli jadid) ochib, tarix fanini zamonaviy tarzda o‘qitishni targ‘ib qilgan.Uning qarashicha:

Ilm-fan va dunyoviy bilimlar tarixiy taraqqiyotning asosiy omili. Sharq xalqlari G‘arb yutuqlarini o‘rganib, o‘z taraqqiyot yo‘lini topishi kerak.

Behbudiy Turkistonning siyosiy kelajagi haqida ham o‘ylagan: Milliy birlik va siyosiy ongni kuchaytirish zarur deb hisoblagan. Mustamlakachilik sharoitida xalqning huquqiy savodxonligini oshirishga chaqirgan. Parlament va konstitutsiyaviy boshqaruv g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan. Uning “Padarkush” dramasida jamiyatdagi jaholat va ma’naviy tanazzul tarixiy jarayon bilan bog‘lab ko‘rsatiladi. Behbudiy tarixni faqat o‘tmish emas, balki kelajakni belgilovchi omil sifatida talqin qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy tarixni “ibrat maktabi” deb atagan. U tarix orqali millat o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglab yetadi, xatolaridan saboq oladi va kelajakni ongli ravishda quradi, deb hisoblagan. Behbudiy o‘z maqolalarida Turkistonning o‘tmishdagi buyuk ilmiy va madaniy markaz bo‘lganini eslatib,

xalqni faxr va mas'uliyat tuyg'usiga chorlagan.

Taraqqiyparvarlar tarixni ma'rifat bilan bog'lab ko'rdilar. Ularning fikricha, xalqni taraqqiyotga olib chiqish uchun avvalo uni savodli qilish kerak. Savodsiz jamiyat o'z tarixini anglay olmaydi, o'z manfaatini himoya qila olmaydi. Shu sababli ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etdilar. Bu maktablarda nafaqat diniy bilimlar, balki tarix, geografiya, tabiiy fanlar ham o'qitildi. Tarix fani orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, voqealarga ongli baho berish ko'nikmasi shakllantirildi. Munavvar qori Abdurashidxonov ta'lim tizimini isloh qilish orqali millatni uyg'otish mumkin, deb hisoblagan. U tarix darsliklarini zamonaviy ruhda yozish va bolalarga tushunarli tilda yetkazish tarafdori bo'lgan.

Bugungi kunda taraqqiyparvarlarning tarixiy qarashlari katta ahamiyatga ega. Ular milliy uyg'onishning poydevorini qo'ygan, tarixni milliy taraqqiyot omiliga aylantirgan shaxslardir. Ularning asarlari hozir ham yoshlarni vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalaydi. Taraqqiyparvarlar tarixni o'tmishga qaytish emas, balki kelajakni qurish vositasi sifatida ko'rdilar. Ularning fikricha, tarixni chuqur bilgan xalqgina o'z kelajagini mustaqil ravishda belgilay oladi.

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyparvarlarning tarixiy qarashlari milliy ongni uyg'otish, ma'rifatni yoyish va jamiyatni isloh qilish g'oyalariga asoslangan edi. Ular tarixni ibrat manbai, milliy g'urur asosi va kelajak taraqqiyotining yo'l ko'rsatuvchisi sifatida talqin qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori, Fitrat va Cho'lpon kabi ziyolilar tarixiy xotirani tiklash orqali millatni uyg'otishga harakat qildilar. Ularning tarixiy qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Taraqqiyparvarlarning asosiy xulosasi shundan iborat ediki: millat o'z tarixini bilsa, o'zligini anglaydi; o'zligini anglagan millat esa albatta taraqqiy etadi. Zero, "Yangi O'zbekiston – sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol insonlar yurtidir"[2].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr.

2.Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.T. "O'zbekiston"-2024, 7-, 33-betlar .

3. Muhammadjonova L. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. - O'zMU

[2] Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.T. "O'zbekiston"-2024, 33-bet.

nashri, 2007.

4. Sodiqov Q. O‘zbekiston jadidlari: taqdir va meros. — Yangi asr avlodi, 2020. (jadidlar tarixi va merosi haqida monografiya)

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Ma’naviyat, Toshkent, 1992. – Jadid tafakkurining nazariy va ma’rifiy asoslari haqida.

TASAVVUF TA’LIMOTI SHAXS TARAQQIYOTI –IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMIL

Ubaydulla Axrorovich Kosimov
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
«Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari»
kafedrasi, mudiri psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Tasavvufda barkamol inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi, barkamol inson Olloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g‘ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug‘ homiydir, barkamol inson shu sifatlari bilan mutlaq ilohiy hislatlarni jamlagan kayxoniy mavjudlikdir, u agar oddiy inson suratida ko‘rinsa ham, lekin ma'nan koinotni qamrab olgan hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir olamning haqiqiy mohiyatini anglagan karomat sohibidir
Kalit so‘zlar: Tasavvuf, g‘ayb asrori, barkamollik, taraqqiyot

Annotation: In Sufism, a perfect person is the most perfect, the most intelligent and the wisest of people, a perfect person is a mediator between God and people, a divine command, a great patron who conveys the secrets of the unseen to ordinary people, a perfect person is a cosmic existence that combines absolute divine qualities with these qualities. even if he appears in the form of an ordinary human being, he is a gifted person who understands the true nature of an ever-awake and omniscient universe that pervades the universe.

O‘rta Osiyo va ayniqsa, bizning Vatanimizda keng tarqalgan tasavvufning xojagon, naqshbandiya, kubroviya va boshqa tariqatlar ta'limotlari insonning nafaqat jismonan balki ichki ruhiy va ma'naviy dunyosini mukammal tarbiyasini ham qamraganligi bilan yuqori kamolot darajasiga-ya'ni komil inson bo‘lishga erishish uchun xizmat qila oladi.

Tasavvufda barkamol inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi, barkamol inson Olloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g‘ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug‘ homiydir, barkamol inson shu sifatlari bilan mutlaq ilohiy hislatlarni jamlagan kayxoniy mavjudlikdir, u agar oddiy inson

suratida ko‘rinsa ham, lekin ma'nan koinotni qamrab olgan hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir olamning haqiqiy mohiyatini anglagan karomat sohibidir

Zero, Abdulxoliq G‘ijduvoniy asos solgan xojagon (naqshbandiya) tasavvuf tariqati ta'limotining «Hush dar dam», «Nazar bar qadam», «Safar dar Vatan», «Xilvat dar Anjuman», «Yodkard», «Bozgasht», «Nigohdosht», «Yoddosht», qoidalariga erishishi (o‘zlashtirishi, yetishishi) va unga batamom amal qilish insonni komillik pog‘onasiga ko‘tarishga qodirdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, beqiyos tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan Abdulxoliq G‘ijduvoniy tariqati ta'limotining tahlili va talqini quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tasavvuf ta'limoti ijtimoiy faoliyatda (muomalada) xush xulq-atvorni, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi axloqiy anglash va «Men»likni hamda qadr-qimmat mezonini (orientatsiyasini) to‘g‘ri shakllantirib, ma'naviy barkamol qilsa, botiniy tomondan ongning barcha shakllari: ongostlik va ongsizlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishni o‘rgatib, shaxsda «ustanovka»lar va yuqori darajadagi dispozitsiyalar majmuasini yuzaga keltirish bilan insonning hayot tarzida ichki va tashqi qo‘rquv (fobiya)lardan qutultirib, barcha hayotiy muammolar mahsuli affektlar, stresslar tug‘lishi imkoniyatidan qutultiradi.

Hozirgi zamonda yuz berayotgan o‘zgarishlarning ko‘pyoqlamaligi, jumladan, axborotning mo‘l-ko‘lligi, sohalararo bilimlar salmo\ining tezkor oshuvchanligi bilim oluvchining ichki psixologik holatining faolligi kuchayishini talab qilmoqda. Komillik darajasining bu bosqichiga erishishi uchun inson (individ, etnos, guruh) o‘z ichki ruhiy faoliyatida uzluksiz ravishda o‘zini o‘zi nazorat qilishni, boshqarishni, o‘ziga o‘zi buyruq berishni, o‘zini o‘zi baholashni, o‘zini o‘zi anglash, his etish kamolga va yetkazishni ta'minlay olishi darkor.

O‘zini o‘zi anglash va his etish, kamolga erishish yo‘l- yo‘riqlarini o‘rganish hamda unga yetish jarayoni ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning har bir bosqichida, qolaversa bizning zamonamizda globallashuv sharoitida ommaviy madaniyatning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi bois ham dolzarb muammolarning biri bo‘lib kelmoqda. Bizningcha, insonning ichki psixologik faolligida narsa va hodisalarga nisbatan chuqur mas'uliyatni his etish, ichki mukammal nazorat qilish mexanizmi mavjud bo‘lmasa, u holda uni tashqaridan (tashqi) hyech qanday ijtimoiy kuch yoki qonun-qoidalar nazorat eta olmaydi.

Bizningcha. o‘zini o‘zi anglashni komillik alomati sifatida talqin qilish hozirgi zamon psixologiya fani talablariga mutlaqo mos tushadi. Chunki o‘zini o‘zi anglash («Men» va «Biz» munosabati) ijtimoiy psixologik voqyelik (hodisa) tariqasida namoyon bo‘lishi uni tadqiq etish zaruratini kafolatlaydi. Ushbu masalaning ijtimoiy

psixologik tabiatini tushuntirishda ikki xil yondashuv vujudga kelgan bo‘lib, ular o‘zaro keskin darajada tafovutga egadir. Birinchi yondashuv talqinicha, o‘zini o‘zi anglash-bu o‘z yo‘nalishini o‘zgartirgan ongning aynan o‘zidir (L. S. Vo‘gotskiy, A.N. Leontev, ye.V. Shoroxova, I. I. Chesnakova, V. V. Stolin va ularning shogirdlari) Ikkinchi yondashuv mohiyati S. L. Rubinshteynning ilmiy izlanishlarida aks etgan bo‘lib, keyinchalik uning shogirdi K. A. Abulxanova-Slavskaya tomonidan ushbu muammo rivojlantirilmoqda. Ikkinchi yondashuv mohiyati shuki, o‘zini o‘zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo‘lmasdan, balki insonning ijtimoiy muhitda tarkib topishi hamda rivojlanishi sanaladi.

Psixologiya fanida komil insonning hozirgi zamon nazariyalari mavjud bo‘lib ular: 1) tabiatning biotik va abiotik omillari-inson; 2) jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti-inson; 3) inson-texnika, texnologiya; 4) inson-madaniyat, ma'naviyat, qadriyat va ruhiyat; 5) inson va jamiyat-yer va fazo; 6) o‘zini o‘zi anglash tizimi (o‘tmishdagi «Men», hozirgi «Men», bo‘lg‘usi «Men», ideal «Men», dinamik «Men»); 7) komil insonning psixologik tuzilmasi va boshqa shakllarga egadir.

Komillik sifatlarini bosqichma bosqich(murtaklik, odam, inson, shaxs, sub'ekt, komil inson) eggallab borilishida fazoviy, makoniy aloqa hamda moddiy va ijtimoiy muhit ta'sirini hisobga olgan holda senzitiv davrdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Komil inson intelektual, ma'naviy, jismoniy barkamollikdan tashqari quyidagi sifatu xislatlarga ham ega bo‘lishi joizdir: ichki va tashqi sayi-harakatida o‘ta halollik(nafsiy poklanganlik); o‘z nafsini tiya olish evaziga moddiylik ta'siridan butkul xalos bo‘lishlik; ichki ruhiy imkoniyatlaridan mukammal foydalana olishlik orqali komillik xislatlarini ro‘yobga chiqarish; har qanday muomala, munosabatda umumbasha-riy(baynalmilal) xususiyatlarga ega bo‘lish bilan «Men»likdan «Biz»lik sifatlariga o‘sib o‘tish; botiniy ilm orqali karomatlilik.

Yuqoridagi mulohazalarga tayanib komillik ijtimoiy voqyelik sifatida kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lganligini, komil insonni shakllantirishda Abdulxoliq G‘ijduvoniy (naqshbandiya) tasavvuf ta'limotining tarixiy ahamiyati beqiyosligini va uni ommaviylashtirishning ham ichki, ham tashqi omillari mavjudligini hamda ularga ijtimoiy institutlar tomonidan qat'iy e'tibor qilish zarurligini takrorlash, uqtirish bilan ijtimoiy tasavvurni kengaytirish lozim ekanligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov U. Xoja Abdulxolik G'ijduvoniy Xufiya zikri-Buxoro, 2003.-42 bet.
2. Qosimov U. Tasavvuf psixologiyasi shaxs taraqqiyotida muhim omil-Toshkent, Ijod press nashriyoti, 2019-200 bet

TA'LIMDA 5E MODELI

Salomov Abdinazar Abdivosixovich
Surxondaryo viloyat pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent
Tel. raqam:+998990605600;+998946941095
E-mail:@salomovabdinazar@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'quv materiallarini loyihalash jarayonini soddalashtirish uchun konstruktivizm nazariyasiga asoslangan 5E ta'lim modeli yoritilgan. Model tarixi haqida qisqacha to'xtalib otilgan. 7- sinf kimyo darsi misolida modelni amaliyotda qo'llashga oid namuna keltirilgan.
Kalit so'zlar: konstruktivizm g'oyalari, 5E ta'lim modeli, 5E ta'lim modeli bosqichlari.
Annotation. The article describes the 5E educational model based on the theory of constructivism to simplify the process of designing educational materials. The history of the model is briefly discussed. An example of the practical application of the model is presented in the example of the 7th grade chemistry lesson.
Key words: ideas of constructivism, 5E educational model, stages of 5E educational model.

5E yondashuvi — bu o‗qitish va o‗rganish jarayonini to‗liq va tizimli ravishda tashkil etishga yordam beruvchi yondashuv. Uning asosida o‗quvchilarning faol ishtiroki va tajribaga asoslangan o‗rganish yotadi. 5E yondashuvining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Engage (Jalb qilish, qiziqtirish): O'quvchilarning e'tiborini jalb qilish va ularni mavzuga qiziqtirish.

2. Explore (Tadqiq qilish): O'quvchilarni yangi materialni o'z tajribasi va mustaqil faoliyati orqali o'rganishga jalb qilish.

3. Explain (Tushuntirish): O'quvchilarga yangi bilimlarni tushuntirish va ularni o'zlashtirish uchun zarur tushunchalarni berish.

4. Elaborate (Rivojlantirish): O'quvchilarni yangi bilimlarni turli vaziyatlarga qo'llashga undash.

5. Evaluate (Baho berish): O’quvchilarning o’rganilgan bilim va ko’nikmalarini baholash, shuningdek, o’quv jarayonidagi yutuqlarni tahlil qilish.

5E yondashuvi, asosan, **tabiatshunoslik fanlari** (biologiya, fizika, kimyo, geografiya) kabi fanlarda samarali qo’llaniladi. Chunki bu fanlar tajriba, kuzatish, va ilmiy izlanishlarga asoslangan o’rganishni talab qiladi. Ammo, shu bilan birga, **ijtimoiy fanlar**, **matematika**, **til o’rganish** va boshqa sohalarda ham bu yondashuvni qo’llash mumkin.

Konstruktivizm pedagogikada psixolog Jan Piaje tufayli paydo bo‘ldi. Uning fikricha: “Ilm uzatilmaydi, u yaratiladi”.
Agar biz uning bilimga bo‘lgan yondashuvini konstruktivizm g‘oyalari bilan birgalikda o‘rganish ta’rifiga o‘tkazsak, o‘rganish - bu bilimlarni shakllantirishning faol jarayoni bo‘lib, uning ma’nosi turli xil variantlardan tanlash orqali real sharoitlarda olingan individual tajribadan shakllanadi deb ta’riflagan bo‘lardik. **Konstruktivizm - gnoseologik yondashuv** bo‘lib, bunda bilish sub’ektning dunyoni oddiy aks ettirish sifatida yemas, balki talqinini (modelini) faol qurishi sifatida qabul qilinadi.
Inson miyasi o‘z xotirasida turli nuqtai nazarlardan tanlangan diskret ma’noni qoldiradi, uning aniqligi tajribali hodisalarning qo‘shimcha aloqalari bilan quvvatlanadi. Shuning uchun konstruktivizm tamoyillari asosida qurilgan darslar ko‘pincha jonli o‘rganish deb ataladi.

5E yondashuvining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Faollik**: O’quvchilar dars jarayoniga faol jalb qilinadi, bu esa ularning o’rganishga bo’lgan qiziqishini oshiradi.
- **Tajribaga asoslangan o'rganish**: O'quvchilar mavzuni o'z mustaqil faoliyatlari orqali o'rganadilar, bu esa o'rganishning samaradorligini oshiradi.
- **Tanqidiy fikrlash**: O'quvchilarga o'ylash, savollarni berish, va o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini yaratadi.
- **Bilimning mustahkamlanishi**: Har bir bosqich yangi bilimni bosqichma-bosqich kengaytirishga yordam beradi.

O‘quv materiallarini loyihalash jarayonini soddalashtirish uchun konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, 5E ta’lim modeli (The 5E Instructional Model) taklif qilindi.1962 yilda amerikalik o‘qituvchi Myron J. Atkin va amerikalik fizik Robert Karplus **“tadqiqot”, “terminologiya” va “tushunchalarni qo‘llash”** ni o‘z ichiga olgan yaxshi o‘rganish tsiklini ishlab chiqdilar. Natijada o‘quvchilarda

fanlarga qiziqish paydo bo‘ldi, savollar bera boshladi va ular o‘z fikrlariga tanqidiy nazar bilan qarash zarurligini aniqladilar. Atkin-Karplus modeli 5E ta’lim modelining asosidir. U 1987 yilda Amerikaning Bscs Science Learning ta’lim va tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan. STEM yondashuviga asoslangan yoki biror tabiiy fanlarga oid darsni rejalashtirish sxema bo‘yicha amalga oshiriladi – dars 5 bosqichga bo‘linadi. Har bir bosqichning o‘z maqsadi bor. Ingliz tilida bosqichlarning nomlari E harfi bilan 235 boshlanadi:
Engage – **qiziqtirish** - Ushbu bosqichda o‘tilgan va yangi mavzuni bir-biri bilan bog‘lash kerak. Bu bosqichning maqsadi o‘quvchilarga bilimlarni egallashning ahamiyatini anglashiga yordam berishdan iborat. Materialni tayyorlashda “Bu nima uchun?” degan savolga javob bering. o‘rganish jarayonida olingan bilimlar qaerda yoki qachon foydali bo‘lishi.
Exploration – tadqiqot. Ushbu bosqichda o‘qituvchi amaliy faoliyatni taklif qiladi. O‘quvchilar muammoni o‘rganadilar va savollar berishni, farazlarni ishlab chiqishni va o‘zgaruvchilarni sinab ko‘rishni boshlaydilar. Mavzuning asosiy tushunchalari aniqlanadi va o‘quvchilar ularni tadqiq qilishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bu bosqichda o‘quvchilar ilmiy uslub haqidagi tushunchalari bilan bir qatorda laboratoriya malakalarini ham oshiradilar. O‘quvchilar guruhlarda hamkorlikda ishlaydi va o‘z tadqiqotlari haqida fikr yuritishni o‘rganadilar. O‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalar bermayapti - aksincha, u so‘rovga asoslangan savollar orqali jarayonni boshqaradi.
Explanation – tushuntirish. O‘quvchilar oldingi bilimlarini tadqiqot orqali olingan tajribalar bilan bog‘laydilar. O‘qituvchi tushunchalarni tushuntiradi, o‘quvchilar esa o‘z tadqiqotlari asosida xulosa chiqaradilar.
Elaboration – ishlab chiqish yoki mustahkamlash. O‘quvchilar yangi bilimlarni oladilar va ularni yangi vaziyatlarda qo‘llaydilar. O‘qituvchi yangi savollarni qo‘yadi va o‘quvchilarga javob izlash imkoniyatini beradi. Bu vaqtda aniq mavzular bo‘yicha bilimlar umumlashtirilib, o‘quvchilar ongida chuqurlasha boshlaydi.
Evaluation – Baholash. O‘quvchilar o‘zlarining o‘quv jarayonini baholaydilar. Ular bilganlarini topshiriqlar, norasmiy va rasmiy baholash orqali ko‘rsatishlari mumkin. O‘qituvchilar muvaffaqiyatni o‘quvchilarning jarayondagi harakatlarini, norasmiy va rasmiy baholash orqali baholaydilar. Ular mavzuni o‘rganish davomida aniqlangan noto‘g‘ri tushunchalarini ko‘rib chiqadilar va barcha noto‘g‘ri tushunchalar tuzatilishini ta’minlaydilar. O‘qituvchi o‘quvchilar yangi bilimlarini qo‘llashlari kerak bo‘lgan muammoni hal qilish stsenariysini taqdim etadi. O‘quvchilar ilmiy tushunchalarni tushunishning yozma yoki og‘zaki dalillarini

taqdim etishlari mumkin.7-sinf uchun quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz. **Engage – qiziqtirish bosqichi**. Ayting-chi, quyidagi holatlarning qaysi birlarida kimyoviy reaksiyalar sodir bo‘ladi? Javobingizni asoslang.
a) yog‘och yonganda qipiqlarning hosil bo‘lishi;
b) yonayotgan Bengal olovi;
c) vaqt o‘tishi bilan kumush zanjirning qorayishi;
d) tovada go‘shtning qovurilishi.
"Engage" bosqichida o’quvchilarni mavzu bilan tanishtirish va ularda qiziqish uyg’otish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:
- Bu mavzuni o’rganish sizga nima uchun kerak bo’lishi mumkin?
- Avvalgi tajribangizga asoslanib, sizning fikringizcha bu mavzu qanday bog'liq bo'lishi mumkin?
- Agar siz buni o'zingiz tajriba qilib ko'rsangiz, qanday natijalar kutyapsiz?
- Bu mavzu bilan bog'liq qiziqarli voqealarni eslay olasizmi?

Exploration – tadqiqot. Bunda “Kimyoviy vulqon” nomli tajriba qilib ko‘rsatiladi yoki tajribaga oid videolavha namoyish etiladi. Jarayon kuzatilgach, nega aynan “Kimyoviy vulqon” deb atalganligini tahlil qilinadi. Explanation – tushuntirish. Yangi mavzu o‘rganiladi. Kimyoviy reaksiya uchun olingan boshlang‘ich va reaksiya natijasida hosil bo‘lgan moddalar soni hamda tarkibiga asoslanib, kimyoviy reaksiyalarni 4 asosiy turga ajratib olishimiz mumkin. Har bir reaksiya turi bilan tanishib chiqiladi. Kimyoviy reaksiyalar davomida issiqlik (energiya) chiqishi yoki yutilishiga qarab ham ekzotermik va endotermik reaksiyalarni farqlash mumkin. Bu tushuncha ham tajribalar orqali tushuntiriladi.
Explore (Tadqiq qilish) bosqichida o’quvchilarga mavzuni o’z mustaqil fikrlari va tajribalari asosida tushunishga yordam berish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:
1. Guruh ishlarini tashkil etish: O’quvchilarni kichik guruhlarga bo’lish va ularga muayyan masalalar yoki savollar berish. Guruhlar o’zaro fikr almashib, muammoni birgalikda hal qilishga harakat qilishlari kerak.
2. Tajribalar o’tkazish: O’quvchilarga amaliy tajribalar, laboratoriya ishlar yoki eksperimentlar o’tkazish imkonini berish. Bu ularning nazariy bilimlarini amaliyotda sinovdan o’tkazishga yordam beradi.
3. Mavzu bo’yicha tadqiqotlar: O’quvchilarga mavzu bo’yicha mustaqil tadqiqot o’tkazishni taklif qilish. Ular kitoblar, internet resurslari yoki boshqa manbalardan foydalanib, kerakli ma'lumotlarni to’plashi mumkin.
4. Savol-javob sessiyalari: O’quvchilar o’z fikrlarini ifodalashlari va


savollar berishlari uchun ochiq muhokama o’tkazish. Bu jarayonda o’quvchilar bir-birlarining fikrlarini baholashlari mumkin.
5. Vazifalarni bajarish: O’quvchilarga muayyan vazifalarni berish, masalan, ma'lumotlarni tahlil qilish, diagramma yoki grafiklar tayyorlash. Bu ularning muammo hal qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.
6. Rolli o’yinlar va simulyatsiyalar: O’quvchilarni rolli o’yinga yoki simulyatsiyaga jalb qilish, bu orqali ularning mavzuni turli nuqtai nazardan ko’rishlariga yordam beradi.
7. O’zaro fikr almashish: O’quvchilar o’z fikrlarini va tajribalarini bir birlari bilan baham ko’rishlari uchun imkoniyat yaratish. Bu ularning o’zaro o’rganish jarayonini kuchaytiradi.
8. Kreativ faoliyatlar: Mavzu bo’yicha ijodiy ishlarni (masalan, posterlar, prezentatsiyalar, hikoyalar) tayyorlash. Bu o’quvchilarni mavzuga yanada qiziqtiradi va o’rganish jarayonini qiziqarli qiladi.
Elaboration – ishlab chiqish yoki mustahkamlash. Oldingi bosqichda berilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun ko‘rgazma-namoyishli tajribalar o‘tkaziladi. 4 ta tajribani taklif qilinadi. Bular:
1**. Birikish reaksiyasi** – so‘ndirilmagan ohakning suv bilan ta’siri.
2. **Parchalanish reaksiyasi** – malaxitning parchalanishi
3. **O‘rin olish reaksiyasi** – temir mix bilan mis sulfat yoki mis (II) xlorid eritmasining o‘zaro ta’siri.
4**. Almashinish reaksiyasi** – NaOH bilan sulfat kislota orasidagi almashinish reaksiyasi.
Tajribalar bajariladi, reaksiya tenglamalar yozilib, javoblar izohlanadi. Evaluation – Baholash. **1-topshiriq.** Tarqamadagi sxemalar kimyoviy reaksiyalarning qaysi turiga mansub ekanligini aniqlang.Reaksiya tenglamalarini tuzing.**2-topshiriq.** Quyida e’tiboringizga havola etilgan tanish jarayonlarga tegishli tasvirlarni diqqat bilan kuzating hamda ular orasida qaysilarida kimyoviy reaksiyalarning belgilari uchramasligini aniqlang. Uy vazifasi sifatida kundalik turmushda, xususan yoz mavsumida ko‘p foydalaniladigan muzlatkich, kondisionerlarning ishlash mexanizmiga bir qiziqib ko‘ring. Nega ularning ichki qismi sovuq bo‘lsa, tashqi qismi issiq bo‘ladi? Bunda qaysi turdagi reaksiyalar sodir bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Javobingizni daftaringizga qisqa izohlar orqali yozing, keyingi darsda sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, **5E modeli** kabi o‘quv modellarini o‘z sinflariga kirita oladigan o‘qituvchilar faol ishtirok etish orqali o‘quvchilarga mustahkam bilim poydevorini yaratishga yordam beradi.

Interaktiv O'yin: **"Koinotga Sayohat: Fizika va astronomiya modelleri"**

Bu interaktiv o'yin **5E** va **3C+1E** o'qitish modellari haqida tinglovchilarning bilimlarini yanada mustahkamlash va ularga amaliy tajriba orttirish imkoniyatini beradi. O'yin, savollarga javob berish, amaliy topshiriqlarni bajarish va guruh muhokamasi orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. O'yin jamoalarda yoki individual ravishda o'ynalishi mumkin, va tinglovchilarni faollikka undaydi.

1. Tinglovchilarni kichik guruhlarga (3-5 kishidan iborat) bo'lish. Jamoalar o'zaro raqobatlashadi.
2. O'yin taxtasi koinot mavzusida bo'ladi, unda turli "sayyoralar" va "yulduzlar" joylashgan. Har bir sayyora 5E yoki 3C+1E o'qitish modellari asosidagi topshiriqni ifodalaydi.Har bir sayyora 5E yoki 3C+1E modelining bir bosqichini anglatadi. Tinglovchilar har bir sayyorani o'tib, "Koinot Markaziga" yetib borishlari kerak. Har bir sayyorada o'qitish modeli bilan bog'liq topshiriqlar mavjud.

Tinglovchilar 5E va 3C+1E o‘qitish modellarining farqi va o‘xshashliklarini aniqlab, jadvalni to‘ldiradilar



“5E Modeli”ning ta’rifi

5E modeli — bu o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan o‘qitish modeli bo‘lib, har bir bosqich o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Engage (Jalb etish)**: O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va mavzuga qiziqtirish.

2. **Explore (Kashf qilish)**: O‘quvchilar mavzu bo‘yicha amaliy tajribalar yoki faoliyatlar orqali bilimlarni kashf qilishadi.
3. **Explain (Tushuntirish)**: O‘qituvchi o‘quvchilarga yangi bilimlarni izohlaydi va tushuntiradi.
4. **Elaborate (Kengaytirish)**: O‘quvchilar yangi bilimni qo‘llash va kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish.
5. **Evaluate (Baholash)**: O‘quvchilarning o‘rganish jarayonini baholash va ularning bilimlarini tekshirish.
6. **Zinama-zina**

Texnologiyaning qo‘llanishi: ma’ruza (imkoniyat va sharoit bo‘lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin.



Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qogozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chan tomoniga kichik mavzular yozilgan tarkatma materiallar, flomaster(ski rangli kalam)lar.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

• o‘qituvchi mashg‘ulot boshlangunga qadar o‘quv materialni bir necha kichik mavzularga bo‘lib oladi (masalan, 2 yoki 3 ta, 4 yoki 5 ta ...);

• o‘qituvchi o‘quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo‘lgani ma’qul):

o‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiradi. Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi;

• o‘qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

• guruh a’zolari birgalikda tarkatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a’zolari kichik mavzu bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi;

• tarqatma materiallar to‘ldirilgach, guruh a’zolaridan bir kishi taqdimot kiladi. Taqdimot vaktida guruhdar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;

• o‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib. ularni

baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi (taqdimot vaqtida boshqa guruh a’zolari ham taqdimot qilingan mazmunga o‘zlarining fikrlarini bildirishlari mumkin).

*Izoh: o‘quv mashg‘ulotining bunday tashkil etilishi o‘quvchilarni mustatsil fikrlashga, o‘tilgan va uzlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rayem, chizma kurinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o‘rgatadi.“***3C+1E Modeli”**

3C+1E modeli o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida yaratuvchanlik va ilmiy izlanishni ta’minlash uchun ishlatiladigan yana bir pedagogik yondashuvdir. Model quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Capture Interest (Qiziqishni uyg‘otish)**: O‘quvchilar mavzuga qiziqishlarini uyg‘otib, faol ishtirok etadilar.
2. **Construct Understanding (Tushunishni shakllantirish)**: O‘quvchilar yangi bilimlarni amaliy ravishda yaratadilar, asosiy tushunchalarni tushunadilar.
3. **Consolidate Learning (O‘rganishni mustahkamlash)**: O‘quvchilar o‘z bilimlarini boshqalar bilan almashadilar va o‘rganganlarini mustahkamlaydilar
4. **Enrichment (Boyitish)**: O‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar uchun tabaqalashtirilgan ta`lim.

Capture Interest (Qiziqishni uyg‘otish):

Bu bosqichda o‘quvchilarni jalb qilish, uning e’tiborini tortish va keyingi ma’lumotlarga qiziqtirish jarayonidir. Bu, odatda, kommunikatsiya va ta’lim jarayonlarida muhim bosqich bo‘lib, unda auditoriya ma’lumotni o‘rganishga qiziqish uyg‘otishga harakat qilinadi.

Misol: Masalan, biror ilmiy mavzuni tushuntirishda, masalan, "Kosmosda hayot bormi?" degan savolni berish, tinglovchilarning qiziqishini oshirishi mumkin. Ushbu savolni berish orqali, o‘quvchilarda uning javobi va mavzu haqida ko‘proq bilishga qiziqish ortadi.Bu savolni berish sinfni o‘ziga jalb qiladi va ular yanada ko‘proq ma’lumot olishga tayyor bo‘ladilar.

Construct Understanding (Tushunishni shakllantirish): bu jarayonda o‘quvchi o‘z bilimlarini chuqurlashtiradi, yangi ma’lumotlarni o‘ziga moslashtiradi va ularni avvalgi bilimlar bilan bog‘lab tushunadi. Bu, asosan, yangi mavzuni o‘rganish va uni mantiqan tushunishdan iborat bo‘ladi.

Masalan: Fizika bo‘yicha energiya saqlanishi qonuni yoki astronomiya bo‘yicha teleskop yordamida olingan tasvirlar bilan tushuntirishlar qilish.

Consolidate Learning (O‘rganishni mustahkamlash):

Bu bosqichda guruh muhokamalari, taqdimotlar yoki yozma ishlar orqali bilimlar

almashiladi. Unda o‘rganilgan ma’lumotlar va ko‘nikmalarni takrorlash, qayta ishlash va turli sharoitlarda qo‘llash orqali ularni mustahkamlash va uzoq muddatli xotiraga joylashtirishga qaratilgan. Bu bosqichda o‘quvchi yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali ularga yanada mustahkamroq va uzoq muddatli tushuncha hosil qiladi.

Masalan: Agar o‘quvchilar erkin tushish qonunlarini o‘rganayotgan bo‘lsa, o‘rganishni mustahkamlash jarayonida ular turli balandliklardan ob’ektlarni tushirish tajribalarini o‘tkazishlari mumkin. Bunda, ular tezlik va vaqt o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rib chiqadilar. Masalan, agar biror toshni 2 metr balandlikdan tashlasalar, uning qanday tezlikda yerga yetishini hisoblashlari kerak bo‘ladi. Bu tajribalar yordamida ular o‘rganilgan nazariyani amaliyotda qo‘llash orqali erkin tushish qonunlarini mustahkamlashadi, bu esa bilimni yanada mustahkam va chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Enrichment (Boyitish): Bu bosqichda o‘rganilgan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va yanada boyitish jarayonidir. Bu, odatda, o‘rganilgan mavzuga qo‘shimcha masalalar, amaliyotlar yoki yangi fikrlar kiritish orqali amalga oshiriladi. O‘rganganlarni boyitish o‘quvchilarga o‘rgangan materialni yanada kengroq kontekstda ko‘rishga yordam beradi, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

Masalan: Faraz qilaylik, fizika darsida o‘quvchilar "yengil jismning tezlanishi" (ya'ni, erkin tushish) haqida o‘rganishmoqda. O‘rganishni boyitish jarayonida o‘quvchilarga faqat o‘rganilgan masalalar bilan cheklanmasdan, boshqa omillarni hisobga olishga yordam beradigan qo‘shimcha materiallar taqdim etiladi. Masalan, ular havo qarshiligi va turli materiallarning erkin tushish tezligini o‘rganishlari mumkin.Misol: Agar o‘quvchilar ikki turdagi ob’ektlarni (bitta qora tosh va bitta mo‘rt paxta) erkin tushirishsin, ular havo qarshiligining ob’ektning tushish tezligiga qanday ta'sir qilayotganini aniqlashlari mumkin. Buning natijasida, ular erkin tushish jarayonini va havo qarshiligining roli haqida ko‘proq tushuncha hosil qiladilar. Bu esa o‘rganilgan materialni yanada boyitadi va bilimni chuqurlashtiradi.

“GRASPS Modeli”

GRASPS bu ta’lim samaradorligini baholash modeli. Ta’lim samaradorligi ta’lim oluvchining mavjud bilimlarni haqiqatda tushunish va kundalik faoliyatda foydalanish sifati bilan o‘lchanadi. GRASPS modeli hayotiy (real) vaziyatlar orqali muammoli vazifalar (haqiqiy ishlash vazifalari)ni yaratish va ularni hal qilishni nazarda tutadi. GRASPS loyihaga asoslangan ta’lim uchun asos yaratadi. U quyidagi 6 bosqichdan iborat:


GRASPS	
Goal (maqsad)	muammo yoki maqsadni aniqlash
Role (rol)	o'quvchining rolini aniqlash
Audience (auditoriya)	maqsadli auditoriyani aniqlash
Situation (vaziyat)	maqsadning konteksti yoki ssenariysi

Product or performance (mahsulot yoki natija)	nima yaratilmoqda va u nima uchun yaratiladi
Standarts and Criteria (standart va mezonlar)	muvaffaqiyat standartlari va mezonlari aniqlanadi

GRASPS vazifasiga misol


Siz suzish-cho‘milish havzasida qutqaruvchisiz. Siz cho‘milish havzasiga kelganlarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirishga, suzish-cho‘milish havzasida xavfsizlikni ta’minlashga va eng muhimi cho‘kayotganlarni tez va aniqlik bilan qutqarishga mas'ulsiz. Siz cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha aniq va to'liq harakatlar rejangizni ishlab chiqing va u batafsil, to'liq qo'llab-quvvatlanadigan tavsiyalarni o'z ichiga olishi kerak.





"7E Modeli"

Dars jarayonida 7E (seven E) siklini amalga oshirish ketma-ketligi quyidagicha:



1.Elicit (eslatish) - ESLATMA

Yangi mavzuga bog'liq oldingi o'quv materiallari asosidagi savol va topshiriqlar.

2.Engage (qiziqtirish, jalb qilish) - MOTIVATSIYA

Dars mavzusiga nisbatan motivatsion qiziqish uyg'otish uchun ma'lumotlar va muhokama savollari

3. Explore (tadqiqot)- TAHLILIY FAOLIYAT

Mavzuga oid nazariy yoki amaliy topshiriqlarni mustaqil ko'rib chiqish

4. EXPLAIN(TUSHUNTIRISH) - YANGI MA'LUMOTLARNI O'ZLASHTIRISH → *Mavzuning asosiy qismi*

5. Elaborate(takomillashtirish)- O'RGANILGAN MA'LUMOTLARNI BIRLASHTIRISH

Darsda olingan bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga yordam beradigan vazifalar

6.Evaluate(baholash)-MULOHAZA VA BAHOLASH

Dars oxirida olingan bilim va ko'nikmalarni baholash uchun topshiriqlar.Ular 3 qismdan iborat bo'lishi lozim:


a) Mavzu matnidan foydalanib, o'quvchi o'z-o'zini baholashi imkonini beruvchi topshiriqlar

b)o'quv jarayonidagi individual faoliyatni baholash uchun topshiriqlar

c)Murakkablik darajasi bilan farq qiluvchi vazifalar

7.Extend (kengaytirish)- DARSDAN KEYINGI FAOLIYAT

Yangi bilimlarni olish uchun chuqur tahlil qilishni talab qiladigan loyihalar, tadqiqotlar, ijodiy vazifalar.



AQLIY HUJUM” METODI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Namdar, M.Kucuk. Preservice Science Teachers’ Practices of Critiquing and Revising 5E Lesson Plans. Journal of Science Teacher Education. 2018, May.
2. Fatchul Fauzi, Ali Mustadi. Learner autonomy using 5e learning cycle. Universitas Negeri Yogyakarta, Indonesia, 2019.
3. II -Ustozlar Forumi materiallari, 2023.

4.A.A.Salomov “Развитие, умение и навыков у учащихся межпредметной функции математики” Toshkent-1996 год //Дисцертационный исследдование//.
5.Саломов А.А. Самостоятелъные занятия на уроках математика // Совершенствование организационных форм и методов преподавания математика, информатики и ВТ в школах и педвузах : Тезисы докладов Всесоюзного семинара – совещания. – Гулистан – 1990. А.А.Саломов “Развитие, умение и навыков у учащихся межпредметной функции математики” Тошкент: -1996 год. Автореферат //Дисцертационный исследование//.

Internet resurslari:

1. http:/www.markaz.tdi.uz - Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti
2. @milliymarkaz_aloqabot – Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi telegram boti.
3. http://www.rtm.uz – Respublika ta’lim markazi sayti.
   http://www.dtm.uz – Respublika test markazi sayti.
4. http:/www.markaz.tdi.uz –Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi sayti
5. http://www.rtm.uz – Respublika ta’lim markazi sayti.
6. http://www.dtm.uz – Respublika test markazi sayti.

PSIXOLOGIK NAZARIYALAR BOLA RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

Ubaydulla Axrorovich Kosimov
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
«Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari»
kafedrasi, mudiri psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotasiya: Maqolada psixologik g‘oyalarni ta’lim jarayonlariga kiritish va ta'lim samaradorligini oshirish va bola rivojlanishining muhim omili masalalari yoritilgan va xulosalar berilgan. O‘qitishning yangi shakl va metodlarini qo‘llash asta — sekin jamiyatning rivojlanishining progressiv kuchi bo‘lib qoladi. Shundan kelib chiqqan holda jamiyatdagi qayta qurishlarda yangilik kiritish ulkan axamiyatga ega bo‘ladi. Yangilik kiritish bu uzluksiz jarayon, pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Shu tariqa bola yana ham ko‘p adekvat(mos) tizimlarni shakillantiradi uning samarali taraqqiy qilishi uchun inkoniyatlar ochiladi.

Kalit so‘zlar: Jan Piaje: bolaning rivojlanish nazariyasi, Djon Dyui: konstruktivizm, Govard Gardner “Aql zakovatning xilma xilligi” nazariyasi

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы внедрения психологических идей в образовательный процесс и повышения эффективности обучения как важного фактора в развитии ребенка, а также делаются выводы. Использование новых форм и методов обучения постепенно становится прогрессивной силой в развитии общества. Исходя из этого, инновации в перестройке общества приобретают большое значение. Инновации – это непрерывный процесс, неотъемлемая часть педагогической деятельности. Таким образом, ребенок формирует более адекватные системы, и открываются возможности для его эффективного развития.

Ключевые слова: Жан Пиаже: теория развития ребенка, Джон Дьюи: конструктивизм, теория «разнообразия интеллекта» Говарда Гарднера.

Abstract: The article discusses the issues of introducing psychological ideas into educational processes and increasing the effectiveness of education and an important factor in child development, and draws conclusions. The use of new forms and methods of education is gradually becoming a progressive force in the development of society. Based on this, innovation in the restructuring of society is of great importance. Innovation is a continuous process, an integral part of pedagogical activity. Thus, the child forms more adequate systems, and opportunities for his effective development are opened.

Keywords: Jean Piaget: theory of child development, John Dewey:

constructivism, Howard Gardner's theory of "Diversity of Intelligence"

Jamiyatning rivojlanish jarayoni ta'lim —tarbiya tizimini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liqdir. Jamiyatdagi o‘zgarishlar ta'lim va tarbiya yo‘nalishida ham tuzatishlarni talab etadi.

Innovatsion pedagogik faol tushunchasi "yangi", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "pedagogik innovatsiya" bir —biriga aloqador tushunchalar qatorida turadi. "Yangi" atamasi birinchi bor yaratilgan yoki bajarilgan, paydo bo‘lgan yoki yaqinda yuzaga kelgan sifatida tushuniladi.

"Innovatsiya" tushunchasining paydo bo‘lishi faylasuf — iqtisodchi Y.Shumpeter nomi bilan bog‘liq. U ana shu tushunchani - iqtisodiyotning rivojlanish soxasiga kiritdi va bir qator "innovatsion kombinatsiyalar", "innovatsiyalarni amalga oshirish" kabi atamalarni kiritdi.Pedagogika sohasida innovatsion g‘oyalarni kiritgan innovatorlar haqida so‘z yuritamiz.

Jan Piaje: bolaning rivojlanish nazariyasi.

Shvetsariya biologi va psixologi Jan Piaje (1896-1980), o‘zining, “***bolalarni rivojlantirish va o‘stirish***” yo‘nalishidagi yuqori darajali intelektual modeli sharofati bilan olamga tanilgan. Piaje nazariyasida rivojlanayotgan bolaning bilish, o‘rganish tizimini shakllantiradi, boshqa so‘zlar bilan aytganda, bolaning, o‘z ichki muhitidagi jismonan shakllanayotgan tajribani tushunish va ta'siriga javob berish uchun, mental “xaritalar”, jadvallar yoki tarmoqlashgan konsepsiyalarni shakllantiradi degan g‘oyaga asoslanadi. Piaje rivojlanish bilan, bolaning bilish, o‘rganishdagi kognitiv tizimi qiyinlashadi, ya'ni misol uchun, yig‘lash yoki onani emish kabi tug‘ma reflekslardan astalik bilan oliy mental faoliyatga o‘tishini tasdiqlagan.

Jan Piaje nazariyasida bolaning rivojlanish jarayonida to‘rt bosqich farqlanadi. Mana, o‘sha to‘rt bosqich

1. Sensomator bosqichi (tug‘ilganidan so‘ng 2 yoshgacha) – Bola borliqning mavjudligi to‘g‘risidagi tasavvurlarini o‘z muhiti bilan jismonan o‘zaro ta'siri orqali shakllantiradi. Bu bosqich, bolaning jismoniy obektlarning bevosita his etishidan , nigohidan tashqari holatlarda ham mavjud ekanligi (ya'ni, obektlarning doimiyligi) to‘g‘risida bilishi, anglashi davri hisoblanadi.
2. Operasiyalarga qadar bosqichi (2-7 yoshgacha) – Bola, hali turli holatlardagi umumiylikni keltirib chiqarishni bilmaydi va aniq bir vaziyatdagi jismoniy harakatga muxtojlik sezadi.
3. Aniq operatsiyalar (7-11yoshgacha) – Bu vaqtda bolaning jismoniy tajribasi ortib borishi natijasida baza to‘planadi, bola ularni umumlashtirish asosida mantiqiy

tizimlashtira boshlaydi. Bu bosqichda, abstrak muammolarni yechishga ham imkoniyat yaratiladi.

4. Formal operatsiyalar (11-15 yoshgacha) – Bu bosqichga kelib, bolaning bilish, o‘rganish, tushunib yetish tizimi, kattalarniki singari konseptual asoslarni ham o‘z ichiga oladi.

Jan Piajening bilish, o‘rganish tizimini shakllantirish uchun bir necha tamoyillarni belgilab bergan. Rivojlanishning barcha bosqichlari davomida, bola o‘z muhitini boshdan kechiradi, shu vaqtgacha o‘zi tomonidan tuzilgan, barcha mavjud mental xaritalarini ishlatadi. Agar, boshdan kechirilgan tajriba takrorlansa, u yengil qabul qilinadi – yoki bolaning bilish, o‘rganish mohiyatini anglash tizimiga tezlikda singib, aralashib ketadi va bola mental muvozanatni saqlaydi. Agar, tajriba yangi bo‘lsa, unday holatda bola muvozanatini yo‘qotadi va yangi sharoitlarga moslashish uchun, o‘zining bilish, o‘rganish tizimini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi.

Piaje nazariyasi qanday qilib o‘qitishga ta'sir ko‘rsatadi

O‘quv dasturi – O‘quvchilar shunday o‘quv dasturini rejalashtirishlari kerakki, unda dastur o‘quvchining rivojlanish darajasiga mos kelishi va bolalarning mantiqiy hamda konseptual o‘sishiga ko‘maklashishi kerak.

Instruktaj – O‘qituvchi o‘qitish jarayonida bola tajribasining tanqidiy mohiyatini yoki atrof-muhitning ta'sirini – e'tiborga olishi lozim.

Djon Dyui: konstruktivizm

Djon Dyuini (1859-1952) amerika pedagogikasining otasi deydilar, u o‘z mamlakatining pedagogik nazariyasi va amaliyotiga eng ko‘p ta'sir ko‘rsatgan. Djon Dyuining bolaning rivojlanish xarakterini tushunishga (konstruktivizmiga) evolyusion tasavvur ta'sir etadi. Ushbu tushunishda asosiy g‘oya, bola rivojlanish yo‘lida atrofdagi muhitni bilishda insoniyat yo‘lini qaytarishidir.

Djon Dyui tartibsiz ravishda izlanishlar bolaga xos va ko‘proq tabiiydir deb hisoblaydi. O‘qituvchi faqat bolani o‘z-o‘zidan qiziqqan narsani bilishga yordam berishi va undan ortiq hyech narsani o‘rganishga taklif qilishi kerak emas. Bola mustaqil o‘rganish jarayonida o‘zi uchun peredmetlar va hodisalarning xususiyatlarini va ob'ektiv qonuniyatlarga asoslanganligini kashf qilishi kerak, o‘qituvchi esa faqat bolaning savollari bo‘lsa ularga javob berishi mumkin. Bolaning talabga javob beradigan intellektual rivojlanishi va ta'lim olishi uchun, uning bilimni orttirishda faolligi, bilimga qiziquvchanligi (uning odamzodda yetarli bo‘lganligidan kelib chiqib) bemalol yetadi deb hisoblagandi. O‘qitish asosan ish va o‘yin faoliyati sifatida o‘tishi kerak, shu narsa bolaning mustaqil ravishda o‘qishga va o‘zini o‘zi takomillashtirishga bo‘lgan havasini rivojlantiradi. Tajriba

va bilimni bola muammoli muhitni o‘rganish, har xil maketlarni, sxemalarni tayyorlash, tajribalar o‘tkazish, munozarali masalalarga javob topish jarayonida o‘rganish biror narsani bajarish yo‘li bilan olishi kerak, umumiy ayrim tafsilotlardan umumiylikka ko‘tarilish, ya'ni bilim olishning induktiv metodidan foydalanish kerak. Ushbu pedagogik konsepsiya “vosita pedagogikasi” degan nomni oldi.

Djon Dyui nazariyasining konseptual qoidalari quyidagi tarzda berilgan.

- Bola tug‘ilishidan boshlab umrining oxirigacha bilim olishda insoniyat yo‘lini qaytaradi.
- Bilimni o‘zlashtirish bu o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan boshqarib bo‘lmaydigan jarayondir.
- Bola materialni shunchaki tinglab yoki his-tuyg‘u yordamida qabul qilib o‘zlashtirmaydi, o‘zining bilimiga bo‘lgan talabi paydo bo‘lishining natijasi sifatida o‘qishning aktiv sub'ekti bo‘lib o‘zlashtiradi.

O‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lish shartlari quyidagilar.

- O‘quv materialining problematikasi.
- Bolaning aktivligi.
- O‘qishning bola hayoti, o‘yini, mehnati bilan aloqasi.

Muammoli hollarni yaratishning metodik usullari.

- O‘qituvchi o‘quvchilarni qarama-qarshilikka olib keladi va o‘zlari hal qilishni taklif qiladi.
- Qarama-qarshilikni amaliy faoliyat bilan to‘qnashtiradi.
- Bir savolning o‘ziga bir xil fikrlarni bildiradi.
- Hodisani har xil pozitsiyadan ko‘rib chiqishni taklif qiladi.
- Taqqoslashga, umumiylashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.
- Aniq savollarni qo‘yadi.
- Muammoli masalalarni qo‘yadi.

Djon Dyui doimo “ijtimoiy hayotga qatnashishini”, ya'ni bugungi kunda grajdanlik aktivligi deb nom olgan, har bir shaxsning jamiyat farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilishini targ‘ibot qilgan. Djon Dyui “Ijtimoiy hayotga” qo‘shilishni ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri deb hisoblagan. “Maktabda ijtimoiy munosabatlar shakllanadigan, umumiy manfaatlar yuzaga keladigan jamoat markazi bo‘lishi kerak. Maktab darslarni yodlab o‘zlashtirishi joyidan ko‘ra ijtimoiy guruhga aylanishi kerak, ustaxonalar, laboratoriyalar va o‘yin maydonlari esa nafaqat havaskorlikni rivojlantiradi, balki aloqa qilishga va hamkorlikka

o‘rgatadi va ijtimoiy o‘zaro munosabatlar tushunchasini kengaytiradi”. (Djon Dyui. Tarbiya filosofiyasiga kirish.- M., 1921. 62-bet).

1940-70 yillarda Djon Dyuining pedagogik qarashlariga qiziqish kamaydi, go‘yoki aqlga muvofiq kelgan o‘zlashtirilgan, ortiqchasi esa chiqarib yuborilgan. Uning hamma aqilga muvofiq keladigan qarashlari zamonaviy pedagogika tomonidan o‘zlashtirilmagan bo‘lib chiqdi.

Djon Dyui rivojlantirayotgan tanqidiy fikrlashning quyidagi asosiy prinsiplarini ko‘rsatadi.

- Ko‘p ma'nolikka ega bo‘lishi kerak, ya'ni tushunchalar va nazariyalar mazmunini so‘zlar, rasmlar va matematik ifodalar bilan tasvirlab bera olish kerak. Har qanday konsepsiyani so‘zlar va simvollar bilan aniq ifodalab bera olish kerak.
- Ma'lumotni qisqartira olish va umumlashtira olish kerak. 10000 so‘z yordamida tasvirlab beriladigan kartina kabi samarali umumlashtirish kerak. O‘quvchilarni o‘zlarining tejamli strukturalarini, konseptial xaritalarini va sxemalarini tuzishga o‘rgatish kerak.
- Biror narsa haqida umumiy tarzda, konkretlikni miyadan chiqargan holda fikr yurita olishi kerak.
- Har bir hodisaning asosiy prinsiplarini topish.

Umuman Djon Dyuining ijtimoiy taraqqiyotga ishonchi, atrofdagi ahvolni oldindan salbiy fikrga kelmasdan va tanqidiy baholashga chaqirdi, bolalarda aktiv va ijodiy fikrlashni rivojlantirish haqidagi tashvish bugungi kun bilan juda hamohangdir va ta'lim extiyojlariga xizmat qilishini davom ettirmoqda.

Konstruktivizm nazariyasi o‘qishga qanday ta'sir ko‘rsatadi?

O‘quv dasturi - Konstruktivizm standart o‘quv dasturlaridan qutulishga undaydi. Buning o‘rniga u o‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlariga moslashtirilgan individual dasturlarni taklif qiladi. U shu bilan birga muammoni hal qilishning amaliy metodlariga alohida e'tibor beradi.

Ko‘rsatmalar berish – Konstruktivizm nazariyasi deganda, o‘qituvchilar o‘z e'tiborlarini faktlar va o‘quvchilarda yangi tushunchani shakllantirish o‘rtasidagi aloqaga qaratadi.O‘qituvchilar o‘zlarining o‘qitish strategiyasini o‘quvchilarning reaksiyasiga moslashtiradilar va ularda tahlilga, izohlashga va axborotni gapirib berishga bo‘lgan qobiliyatni qo‘llab-quvatlaydilar. O‘qituvchilar ochiq savollarga suyanishadi va o‘quvchilar o‘rtasidagi butun tafsilotlari bilan suhbatni qo‘llab-quvatlaydilar.

Baholash – Konstruktivizm ballarni va standart testlarni tuzishga chaqiradi. Buning o‘rniga baholash o‘quvchilar o‘zlarining muvaffaqiyatlarini baholash imkoniyatiga

ega bo‘lishi uchun, o‘rgatish jarayonining qismi bo‘lib shakllanib bormoqda.

Govard Gardner "Aql zakovatning xilma xilligi" nazariyasi.

Gardner intellekt bu turli tuman qobiliyatlardan tashkil topgan shunchaki hodisa emas balki aksincha intellektning har xil turlari ko‘p, ulardan har qaysisi o‘zicha muhim va boshqalardan mustaqil deb ta'kidlangan edi.

Intellekt – bu aql uchun o‘sish muhiti. O‘z intellektimizni rivojlantirishimiz mumkinmi yoki u tug‘ilishimizdan umrimizning oxirigacha beriladimi. Hyech qanday shubhasiz mumkin. Gardnerning intellektning ko‘pchilligi nazariyasi birinchi marta 1983 yilda "Aqlning chegarasi intellektning ko‘pchilligi nazariyasi" kitobida bosib chiqarilgan.

Gardner ta'kidlaydiki, har bir odamda hyech bo‘lmaganda har xil ifodalanish darajasi bilan intellektning sakkiz turi bor:

- **Og‘zaki-lingvistik intellekt** u shoirlarda, yozuvchilarda va oratorlarda kuchli rivojlangan.
- **Mantiqiy – matematik intellekt** odam ulg‘ayib borishi bilan va matematika bo‘yicha qobiliyati bilan rivojlanadi.
- Ko‘z bilan ko‘rib bo‘ladigan **– fazo intellekti** bu rassomlarda, haykaltaroshlarda, arxitektorlarda, ixtirochilarda va shaxmatchilarda juda yaxshi rivojlangan.
- **Harakatlantiruvchi – harakat soluvchi intellekt** bu tajriba bilan olinadi va o‘yinchilarda, aktyorlarda va sportchilarda ko‘proq rivojlangan.
- **Musiqaviy – ritmik intellekt** bu kompozitorlarda, musiqachilarda, ashulachilarda va raqqosalarda rivojlangan.
- **Shaxslararo intellekt** bu ruhoniylar, siyosatchilar va diplomatlarda ko‘proq rivojlangan.
- **Shaxsning ichki intellekti** bu ruhshunoslar, o‘qituvchilar va tarbiyachilarda eng yuqori malakada erishiladi.**Naturalistik intellekt** (tabiat hodisalarini tekshiruvchi intellekt) (tabiatga, tabiat hodisalariga, hayvonlarga, o‘simliklarga qiziqishni ko‘rsatadi, tabiat dunyosini tushinish, atrofdagi muhitning belgilarini va xususiyatlarini ajrata olish, klassifikatsiyalash qobiliyatini namoyish qiladi).

Gardner nazariyasini maktabda qo‘llash variantlari maktablarning o‘zi har xilligiga qarab har xil bo‘lishi mumkin, asosiy prinsip – ta'lim – tarbiya jarayonini shunday qilib tuzish kerakki, u bolalarga intellektlarning har xil turini jalb qalashni talab qiladigan tajribani egallashga imkoniyat yaratadigan bo‘lishi muhimdir.

Intellektning ko‘pchilligi nazariyasi o‘qitishga qanday ta'sir ko‘rsatadi?

O‘quv dasturi - ta'lim – tarbiya jarayonini shunday qilib tuzish kerakki, u bolalarga intellektlarning har xil turini jalb qilishni talab qilishni talab qiladigan tajribani egallashga imkoniyat yaratsin.

Ko‘rsatmalar berish – Kelgusi darsning rejasini va mazmunini o‘rganishda intellektning har xil turlarini jalb qilish yo‘llarini o‘ylayotganida, o‘qituvchi o‘z oldiga bir qator savollarni qo‘yadi : O‘qishni, yozishni va og‘zaki hikoya qilib berishni qanday kiritish kerak? Qanday qilib klassifikatsiyani jalb qilish, sonlar, hisoblashdan qay tarzda foydalanish mumkin? Muzikani, tovushlarni, ritm, harakatni dramatizatsiyani qanday kiritish mumkin? Qanday qilib individual tanlash va individual ish uchun vaqtni , guruhiy ishni, sinfdoshlar bilan fikr almashishni, munozarani birga qo‘shib olib borish mumkin:

Baholash – O‘qituvchining maqsadi o‘quvchilar nimani bilishini va nimani bila olishini aniqlash, ularning kamchiliklari va nuqsonlarini ochish va keyingi o‘qishlarini samarali qilish uchun ularning kuchli tomonlariga asoslanib, zaif tomonlarini tuzatishni kuchaytirish va rivojlantirishdir.

Xulosa.

Zamonaviy o‘qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim.

Bu jarayonda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar qo‘yiladi:

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun-mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o‘rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo‘yicha qo‘llash prinsiplarini bilishi;
- ta'limiy va ishchanlik o‘yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
- o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo‘llarini bilishi;
- o‘quvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlash maxoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko‘rgazmali o‘qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llab, namunaviy imitatsiya o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishi;
- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak.
- ularni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalana olishi kerak.

Shunday qilib, O‘qitishning yangi shakl va metodlarini qo‘llash asta — sekin jamiyatning rivojlanishining progressiv kuchi bo‘lib qoladi. Shundan kelib chiqqan holda jamiyatdagi qayta qurishlarda yangilik kiritish ulkan axamiyatga ega bo‘ladi. Yangilik kiritish bu uzluksiz jarayon, pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Shu tariqa bola yana ham ko‘p adekvat(mos) tizimlarni shakillantiradi

uning samarali taraqqiy qilishi uchun inkoniyatlar ochiladi.

F O Y D A L A N I L G A N A D A B I Y O T L A R:

1.Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.

2.David Watson. The question of Soncienct Nihner education and personal responsibility. Oxford, institute of education press. 2014.

3. Maria Rosa, Alberto Amaral. Quality in Accurange in Nihner education. contemporary debates. England, Nampcher, 2014.

TARIX TA'LIMIDA ADABIY MEROS MA'LUMOTLARIDAN FOYDALANISH BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MUHIM OMIL

Xaydarov Yuldash Xazratovich,
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi
dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada tarix ta'limida adabiy meros ma'lumotlaridan foydalanishning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni tahlil etilgan. Tarix ta'limida integratsion yondashuv bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan. O'quvchilarni tarix ta'limida adabiy meros ma'lumotlaridan foydalanib kreativ fikrlashga o'rgatishga oid yorqin misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ajdodlar merosi, tarix, adabiy meros, tahlil, ta'lim, tarbiya, motivatsiya, kreativ fikrlash, dunyoqarash**.**

Аннотация: В статье анализируется роль использования информации из литературного наследия в историческом образовании для воспитания гармоничного поколения. Даны методические рекомендации по интегративному подходу в историческом образовании. Приведены яркие примеры обучения студентов творческому мышлению с использованием информации из литературного наследия в историческом образовании.

Ключевые слова: родовое наследие, история, литературное наследие, анализ, образование, воспитание, мотивация, творческое мышление, мировоззрение.

Annotation: The article analyzes the role of using literary heritage information in history education in the upbringing of a harmonious generation. Methodological recommendations are given on an integrative approach in history education. Vivid examples of teaching students to think creatively using literary heritage information in history education are given.

Keywords: ancestral heritage, history, literary heritage, analysis, education, upbringing, motivation, creative thinking, worldview.

Bugungi kunda yosh avlod ongi va qalbiga tarix ta'limida adabiy meros ma'lumotlaridan foydalanishning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni kattadir. Mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida ta'lim sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni,jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish..."[1.21-b]da adabiy meros materiallaridan foydalanish ham ta'lim sifatini oshirish va milliy ta'limni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda “Tarix” fanini o‘qitishda yangicha yondashuvlar jarayonida tarixiy voqea-hodisalarni milliy ruhda bayon qilish muhim ahamiyat kasb etadi. “Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [2.1-b] ligi haqida Prezidentimizning bergan konseptual ko‘rsatmalarini amalga oshirishda adabiy meros ma’lumotlaridan foydalanish ham ko‘mak beradi.

Tarix ta’limida adabiy meros ma’lumotlaridan foydalanish - tarixiy romanlar, asarlar, dostonlar, pamfletlar, ocherklar, avtobiografik asarlardagi ma’lumotlar orqali tarixiy voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi, o`quvchilarning tarix fanini o`rganishga qiziqishlarini oshiradi. Tarixiy matnlar (xronika, yodnoma va nutqlar)ni tahlil qilish esa tarixiy dalil va ilmiy tahlilga keng yo`l ochadi.

Bo`riboy Ahmedovning «Amir Temur» tarixi romanida keltirilgan ma`lumotlardan foydalanish o`quvchilarda Amir Temurning markazlashgan davlat tashkil etish, bunyodkorlik sohasidagi faoliyati, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish borasidagi keng qamrovli ishlarini yanada chuqurroq anglab yetishga ko`maklashadi. Birgina, Samarqandda o`sha davr Sharqida mashhur bo`lgan kutubxonaning Amir Temur tomonidan tashkil etilishi [3.320-b] va unga buxorolik kitobsevar inson mavlono Orif Buxoriyning kitobdor qilib tayinlanishi hamda yurtimiz tarixi, etnografiyasi, toponomikasi, folklori, tabiiy va aniq fanlarga oid kitoblarning jamlanishini bilib olish uning yorqin namunasidir.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida yirik qo`shin bilan Movarounahrga bostirib kelgan Ilyosxo`ja hujumini daf etish maqsadida Temurbek va Amir Husaynning cherik jamlaganligi[4.103-113b] haqidagi ma`lumotlarni o`quvchilarga yetkazish ham ta`lim sifatini oshirishga yordam beradi. Tarixdan ma`lumki, Amir Temur armiyasida ichiga yonuvchi moddalar naft(neft) solingan ko`zachalar irg`ituvchi o`t sochish quroli – «ra`d”ning uzluksiz ishlab turishini ta`minlovchi maxsus to`pchilar - ra`dandozlar mavjud bo`lgan.

«Boburnoma»da ta`kidlanishicha, to`pdan otilgan tosh ancha masofaga borib tushgan: yakshanba kuni oyning sakkizida ustoz Aliquli o`shul qozoni bilakim tosh otti, ming olti yuz qadam bordi [5.408b] Bu bilan temuriy hukmdor Boburning Amir Temur ishlarini davom ettirganligi haqida o`quvchilarda tassavur shakllanadi. Bunday ma`lumotlar o`quvchilarda tarixiy jarayonlarning rivojlanishi haqidagi tassavurni paydo bo`lishiga yordam beradi.

«Ra`d»ning tayyorlanish jarayonlari va ishlatilishi haqida qimmatli ma`lumotlar Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida ham keltiradi.

Alisher Navoiyning keltirishicha, Iskandarning «ra`d» to`pi bilan dushman qal`asini o`qqa tutish manzarasini tasvirlar ekan, to`pdan o`q-tosh otilganda dahshatli sado, o`t-alanga, qora tutun va badbo`y hid hosil bo`lishini yozadi:

Chu yerga tegib rust guyi tilsim,
Necha pora bo`lg`ay anga salb jism.
Ushalg`ach, sado chiqqach andin g`arib,
Yana shulavu rihi dudi ajib.

«Ra`d» to`pining qanday usul bilan quyilishi ushbu dostonda o`ta qiziqarli bayon etilgan. Avvalo qalay, simob va mis qotishmalari temir bilan aralashtirilib, damli o`choq va qurada eritilgan. Eritmadan ichi bo`sh, koptokka o`xshash, dumaloq shakldagi snaryad – «rad» toshi yasalgan.

«Ra`d»ning Amir Temur tomonidan qurollanishga kiritilishi XV-XVI asrlarda Movarounahr, Xuroson va Eronda artilleriyaning boshqa turlarining paydo bo`lishida turtki vazifasini o`tadi. Adabiy asarlarda keltirilgan ma`lumotlar ushbu harbiy texnikaning taraqqiyot bosqichlarini anglab yetishga ko`maklashadi.

Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat - ush shuaro» asarida keltirilgan rivoyatga ko`ra, Amir Temurning Hofiz Sheroziyga Buxoro va Samarqandni madh etuvchi she`rining mohiyatini so`rab-surishtirgani haqida ma`lumot berish esa o`quvchilarning tarixiy tahlil qilish va qarorlar qabul qilish ko`nikmalarini shakllanishiga xizmat qiladi:

Agar on Turki Sherozi ba dast orad dili moro,
Baholu hinduyash baxsham Samarqandu, Buxororo.

Ushbu baytlarning mazmunini tahlil qilgan Amir Temurda paydo bo`lgan hissiy holatlar, ona yurti va poytaxtini sevishdek yuksak qalbiy kechinmalar o`quvchilarni ona yurtini sevish va ona yurtga daxldorlik hissini shakllantiradi. Bu talqin garchand rivoyat bo`lsada, rivoyat ham haqiqatning sinig`i ekanligini inobatga olib tarix darslarida undan adabiyot fani bilan integratsiya tarzida foydalanish mumkin.

« …Yangi O`zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar va boshqa qator sohalarda tub burilish, ulkan o`zgarishlar va taraqqiyot davriga aylanmog`i lozim. Chunki ayni paytda xalqimiz g`oyat baland ruh va yuksak ishonch bilan yangicha hayot, yangi taraqqiyot, Uchinchi Renessansga yuzlanib turibdi.

Shu chog`gacha erishilgan natijalar, kechagi qarash va mezonlar allaqachon tarixga aylangan. Bugungi keskin raqobat pallasida eskicha yondashuvlar asosida rivojlanib bo`lmaydi.» [6.7b]

Xulosa qilib aytganda, tarix ta’limida adabiy meros ma’lumotlaridan

foydalanishning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, o`quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O`quvchilarning olgan bilimlarini amalda qo`llashga ko`maklashadi. Tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yordam berishi bilan birgalikda tarixiy voqea-hodisalarni tub mohiyatini anglab yetishga, kreativ fikrlashga, tahlil qilish va qarorlar qabul qilish ko`nikmalari shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. “Yangi O‘zbekiston”, 2022- yil 21-dekabr.
2.Shavkat Mirziyoyev. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa,uning joni va ruhi ma’naviyatdir.“Xalq so ‘zi ”, 2021, 21-yanvar,1-bet.
3.Bo`riboy Ahmedov. «Amir Temur» tarixiy romani, 1994, 320-bet.
4.Sharafiddin Ali Yazdiy. «Zafarnoma»T.1994,103-113-betlar
5.Zahriddin Muhammad Bobur . «Boburnoma» ,T.1960, 408-bet.
6.Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O`zbekiston.T,2024,7-bet.

XIV-XV ASRLAR TARIXINI O'RGANISHDA STEAM YONDASHUVI

Axmedov Ijod Narziqul o'g'li
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
Axmedov Ali Usmonovich
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
akhmedovali362@gmail.com.

Annotatsiya: Maqolada XIV-XV asrlar tarixini o'rganishda STEAM yondashuvidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Renessansning fan, texnologiya, me'morchilik, san'at va matematika sohasidagi ulkan yutuqlari STEAM metodologiyasining tarixiy-tarbiyaviy manbasi sifatida ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, STEAM, XIV-XV asrlar tarixi, integrativ ta'lim, ilm-fan merosi, me'morchilik, astronomiya, miniatyura san'ati, interfaol metodlar, "Tarbiya" darslari.

Bugungi ta'lim paradigmasida fanning turli sohalari o'rtasidagi sun'iy chegaralar tobora yo'qolmoqda. STEAM[3] yondashuvi aynan shu haqiqatni ta'lim amaliyotiga tadbiq etish uchun ishlab chiqilgan va hozirda jahonning yetakchi ta'lim tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Biroq ko'pchilik o'qituvchilar STEAM ni faqat zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq deb tasavvur qiladi - holbuki uning ildizlari ancha chuqurroqdir.

Xuddi ana shu nuqtada XIV-XV asrlar tarixi va madaniyati pedagogik manba sifatida namoyon bo'ladi. XIV-XV asrlarda Samarqand va Hirotda bir vaqtning o'zida astronomiya, matematika, me'morchilik, miniatyura san'ati va falsafa sohalari yuksalgan edi.

Bu - STEAM ning tarixdagi eng yorqin namunalaridan biri, shu bois uni zamonaviy ta'limga ko'prik sifatida qo'llash samarali va tarixiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-46-son Qarorida Temuriylar merosini ta'lim jarayoniga faol integratsiya qilish alohida vazifa sifatida belgilab berilgan [1].

[3]STEAM — Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Arts (san'at) va Mathematics (matematika) so'zlarining bosh harflaridan tashkil topgan qisqartma. Bu yondashuv o'quvchilarda bir vaqtning o'zida tabiiy-ilmiy, texnik, ijodiy va matematik tafakkurni rivojlantirishni maqsad qiladi.

Bu farmon bir tomondan mavzuning siyosiy-ijtimoiy dolzarbligini, ikkinchi tomondan Temuriylar ilmiy-madaniy merosidan ta’limda yangicha, zamonaviy metodologik yondashuvlar bilan foydalanish zaruriyatini yaqqol ko‘rsatadi.

XIV-XV asrlar tarixi ilmiy-madaniy merosini va STEAM metodologiyasini bir-biri bilan bog‘lagan holda tahlil qilishda ikki yo‘nalish bo‘yicha mavjud tadqiqotlarga murojaat qilish zarur bo‘ladi:

-birinchisi - STEAM ning nazariy-metodologik asoslari;

-ikkinchisi - XIV-XV asrlar tarixi ilm-fani yutuqlarining tarixiy-pedagogik tavsifi.

STEAM yondashuvining metodologik asosini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan amerikalik pedagog Georgette Yakman o‘z tadqiqotlarida bu yondashuvning mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: “STEAM har bir fanni alohida o‘qitish haqida emas - bu o'quvchilar fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadigan integrativ ta’lim tajribasini yaratish haqida, xuddi atrofimizdagi dunyoda bu aloqalar tabiiy tarzda mavjud bo‘lganidek” [2].

G.Yakmanning ushbu ta’rifi XIV-XV asrlar uchun ham to‘g‘ri keladi. O‘sha davrda Ulug‘bek bir vaqtning o‘zida astronom, matematik va davlat arbobi edi; Behzod san’atkor bo‘lishi bilan birga geometrik nisbatlarni mukammal bilar edi; Bibixonim masjidining me’morlari muhandislik, geometriya va badiiy did sintezini yaratgan edi. Bunday tarixiy misollar STEAM ning “fanlararo aloqa” tamoyilini o‘quvchilarga eng ta’sirchan tarzda tushuntirish uchun jonli didaktik material bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim jarayonida tanqidiy tafakkur, ijodkorlik va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ustuvor pedagogik maqsad sifatida belgilab qo‘yilgan [3].

Mazkur qonuniy me’yor STEAM yondashuvining maqsadlari bilan to‘liq hamohangdir: fan, texnologiya, san’at va matematikani birlashtirgan holda o‘rganish o‘quvchida aynan shu - tanqidiy, ijodiy va amaliy - tafakkurni bir vaqtda rivojlantiradi.

“Temur tuzuklari” asarida Sohibqiron ilm va bilimga bo‘lgan munosabatini quyidagi so‘zlar bilan ifodalaydi: “Men saltanatimning tayanchi sifatida bilimli va tajribali kishilarni ko‘rdim. Ular orasida olimlar, muhandislar, me’morlar va san’atkorlar - barchasini bir xil qadrladim. Zero, bitta insonning kamoloti bir soha bilan chegaralanmaydi” [4, 118-b.].

Bu iqtibos STEAM ning tarixiy ildizini XIV- asrdan boshlab ko‘rsatadi. Zero, Temurning o‘zi fan, san’at va muhandislikni teng qadrlaganini, bularni bir-biridan ajralmas deb bilganini yaqqol ifodalaydi. O‘quvchilarga bu iqtibosni taqdim etib,

“Nima uchun buyuk hukmdor olim bilan san’atkorni teng qadrlagan?” degan muammoli savol qo‘yish STEAM ning mohiyatini tushuntirishda ta’sirchan didaktik vosita bo‘la oladi.

Adabiyotlarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

-STEAM metodologiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra fanlararo yaxlitlikni taqozo etadi - aynan shu jihat Temuriylar davrida ham namoyon bo‘lgan.

-Temuriylar ilmiy-madaniy merosi STEAM ning tarixiy dalili sifatida o‘quvchilarga milliy g‘urur va ilmiy qiziqishni bir vaqtda uyg‘otadi.

-bu ikki yo‘nalishni ta’lim jarayonida birlashtirish metodikasi hali ishlab chiqilmagan - ushbu izlanishlar aynan shu vazifani bajarishga qaratilgan.

Temuriylar davrini o‘rganishda STEAM yondashuvini amalga oshirishning quyidagi metodologik yo‘nalishlarini taklif etamiz:

Ulug‘bek rasadxonasini STEAM loyihasi sifatida o‘rganish. Ulug‘bek rasadxonasi - bir vaqtning o‘zida ilmiy muassasa, me’moriy obida, matematika va muhandislik mo‘jizasi. O‘quvchilarga bu ob’ektni STEAM ning beshta tarkibiy qismi bo‘yicha quyidagicha o‘rganish topshirilishi mumkin: **S** - rasadxonada olib borilgan astronomik kuzatuvlar va ularning ilmiy natijalari; **T** - o‘sha davrdagi kuzatuv qurollari va ularning ishlash tamoyili; **E** - 30 metrlik sextantning muhandislik echimi; **A** - binoning me’moriy go‘zalligi va geometrik nisbatlari; **M** - Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” jadvallaridagi matematik hisob-kitoblar. Bunday kompleks o‘rganish o‘quvchida bilimlarning yaxlitligini his ettirib, har bir sohaga qiziqishni uyg‘otadi.

Kamoliddin Behzod miniatyuralarini geometriya va san’at birligi sifatida tahlil qilish. Temuriylar davri miniatyura san’atining cho‘qqisi - Behzod ijodi - STEAM ning “A” (san’at) va “M” (matematika) qismlarini ajoyib tarzda birlashtiradi. O‘quvchilarga Behzod asarlarida qo‘llangan oltin nisbat, simmetriya va rang uyg‘unligini matematik nuqtai nazardan tahlil qilish topshirilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchida san’at va matematika bir-biridan uzoq emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi fanlar ekanligini jonli tajriba orqali his ettirib, STEAM ning asosiy metodologik tezisini amalda isbotlaydi.

Bibixonim masjidining qurilishini muhandislik loyihasi sifatida o‘rganish. Bibixonim masjidi (1399-1404 y.y.) o‘z davrining eng yirik va murakkab me’moriy inshootlaridan biridir. O‘quvchilarga ushbu obidaning qanday muhandislik muammolarini yechgani - katta gumbazlarni ushlab turish, gidravlik tizimlar, poydevor mustahkamligi - kichik muhandislik loyihasi sifatida taqdim etilishi mumkin. Guruhlar “Masjidni bugun qursangiz, qanday zamonaviy materiallar va

texnologiyalardan foydalanardingiz?” savoliga javob izlaydilar. Bu topshiriq tarixiy bilimni zamonaviy muhandislik tafakkuri bilan bevosita bog‘laydi.

Maktab o‘quvchilari XIV-XV asrlar tarixini quruq tarixiy ma’lumotlar to‘plami sifatida emas, balki bugungi ilm-fan, texnologiya va san’at bilan bevosita bog‘liq, o‘zlari uchun ham ahamiyatli va ilhombaxsh sivilizatsiya sifatida idrok etadilar. Bu esa ularda milliy g‘urur bilan birga ilmiy qiziqish va ijodiy tafakkurni ham uyg‘otadi.

STEAM yondashuvi orqali o‘rganilgan XIV-XV asrlar merosi o‘quvchiga faqat tarix emas - fanlararo tafakkur, amaliy muammolarni yechish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini beradi. Bu ko‘nikmalar esa Yangi O‘zbekiston qurilishida faol ishtirok etadigan, tanqidiy fikrlovchi va kasbiy jihatdan raqobatbardosh avlod shakllanishining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida" PQ-46-son Qarori. - Toshkent, 2026-yil 5-fevral.

2. Yakman, G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education / G. Yakman. - Virginia : STEAM Education, 2008. [Muallif haqiqiy, asarning aniq bibliografik tafsilotlari tekshirilishi tavsiya etiladi.]

3. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. - Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020.

4. Amir Temur. Temur tuzuklari / forscha aslidan A. Sog‘uniy va H. Karamatov tarjimasi ; B. Ahmedov mas’ul tahriri ostida. - Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1991. - 174 b

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI VA AHAMIYATI

Salomov Abdinazar Abdivasixovich
O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta`limi vazirligi, Surxondaryo viloyati
pedagogik mahorat markazi maktabgacha,
boshlang’ich va maxsus ta`lim metodikalari
kafedra mudiri, pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent, xalqaro ilmiy akademiyaning
professori va laureate.

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, boshlang‘ich, raqamli texnologiya, o‘qitish, sifat, bilim, ko‘nikma.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ta’limga oid vazifalari ijrosi jarayonida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [1]. Bunda o‘qitishning turli shakllari, vositalari va metodlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi bugungi ehtiyojlarning hosilasidir. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e’tiboringizni tortamiz. Raqamli texnologiya mazmuni. Pedagogika fanida o‘tgan asrning 90- yillaridan boshlab axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish tajribasi yuzaga kelgan [2]. Bunda asosiy e’tibor o‘qitish mazmunini yangilash, qulay vositalardan foydalanish va o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirishga qaratilganligini eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda raqamli texnologiya mazmunida quyidagilar muhim o‘rin tutadi: 1) kompyuter o‘quv-texnik vositasiga tayangan o‘qitish va o‘zlashtirish materiallarini tayyorlash; 2) o‘qitishning axborot-kommunikatsion didaktik ta’minotini ishlab chiqish; 3) o‘qitish jarayonida mavjud texnik imkoniyatlardan oqilona foydalanish;

4) ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning o‘quv-texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish.

Mazkur asoslar raqmli texnologiya mazmunini tashkil etadi. Bunda raqamli tushunchasini o‘quv materiallarini kompyuterli dasturi asosida tayyorlash va uzatish nazarda tutilishini eslatib o‘tish joiz [3]. Shu sababli keyingi paytlarda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad ta’lim tizimida sifatli ko‘rsatkichlarga erishish va

o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirishdan iborat. Raqamli texnologiyalar turlari. Boshlang‘ich ta’limda qo‘llanishi lozim bo‘lgan raqamli texnologiyalarning bir necha turlari mavjud. Bu borada raqamli texnologiyalarning eng asosiy quyidagi turlarini eslatib o‘tish joiz:

1) kompyuterli dasturga asoslangan o‘qitish raqamli texnologiyasi;
2) elektron-modulli texnologiya;
3) masofaviy ta’lim texnologiyasi;
4) mustaqil ta’lim texnologiyasi;
5) individual yondashguv texnologiyasi;
6) Internet ta’limi texnologiyasi;
7) milliy portallar texnologiyasi;
8) mohir pedagoglarning shaxsiy texnologiyasi.

Mazkur raqamli texznologiyalar turlaridan maktab muhiti va imkoniyatlariga asosan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlangan. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda kompyuterli dasturga asoslangan o‘qitishning raqamli texnolorgiyasidan foydalanish qiziqarliligi, tezkorligi va samaradorligi bilan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak bo‘ladi:

a) mavzularning kompyuterli variantlarini tayyorlash;
b) kompyuterli variantlarni o‘quvchilarga taqdim etish va ulardan foydalanish bo‘yicha mexanizmlarini yaratish;
v) vertual aloqa vositasida o‘quvchilarga tegishli mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berish;
g) tayyorlangan o‘quv materiallarini animatsion va multimediyali tasvirlarga boy tarzda taqdim etish;
d) o‘quvchilarning o‘zlashtrish jarayonini nazorat qilish metodikasini belgilab qo‘yish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning o‘ziga xos imkoniyatlaridan biri o‘quv materiallarini yangilab borish mavjudligidir. Shu sababli keyingi paytlarda ta’limning barcha turlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishga asosiys e’tibor qaratilmoqda. 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinflarda Informatika fani o‘qitila boshlandi. Bu o‘quv fani o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi, ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmasi va texnik vositalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda [4]. Shu sababli mazkur fanni o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish mahorati bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar

tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday ahamiyatning asosiylari quyidagilardan iborat:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim olishga qiziqtirish;

2) o‘quv materiallarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos ravishda turli vositalar asosida tayyorlash;

3) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘qituvchi kitobi uchun yangi metodik tavsiyalarni taqdim etish;

4) boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayonini yangilab borish;

5) o‘qitish jarayoniga xorijiy mamlaktlarning tajribalarini joriy etish;

6) mahoratli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual tajribalarini ommalashtirish;

7) boshlang‘ich ta’lim sifatini raqamli texnologiyalar asosida yuksaltirish.

Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz:

a) boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish;

b) boshlang‘ich ta’limda samara beradigan raqamli texnologiyalarni saralash va uning majmuini amaliyot uchun taqdim etish;

v) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish;

g) Abdulla Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot insitutida amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha mahoratini oshirib borish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini tarkib toptiradi. Shunday qilib boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qitish mazmunini yangilaydi, vaositalarini takomillashtiradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini kuchaytiradi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarini qo‘llash monitoringini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududlardagi oliy pedagogik ta’lim muassasalariga biriktirilgan. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish kerak.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir

sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamyatga ega. Biz ilgari ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qo`llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o`z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo`lishini ta'minlamagan. Xozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. Masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarm saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Biz bu maqolada ta'lim tizimida raqamlashtirishni o'rniga to'xtalib o'tamiz.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg’ulotlar o’tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo`llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma’lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo’ladi. Demak, raqamli ta’limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko`taradi;
- vaqt va mablag` sarfini keskin kamaytiradi;
-“raqamli dunyo”da yo`qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo`lishgi kabilar.

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o`stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug’iladi. Bu esa o’z navbatida ta’lim beruvchilarni o`z ustida ko`proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish soliq to’lashdan bo’yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma’lumotlarni tahlil qilish va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo’l kelsa, katta hajmli ma’lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to’lovchilar va soliq organlari o’rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalarni o’zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo’lmoqda: bor-yo’g’i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o’zgartirishga muvaffaq bo’ldi. Masalan, sog’liqni saqlash sohasida sun’iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg’or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko’rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta’lim sohasida virtual o’quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo’lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo’ladi, ularni ta’minlovchi institutlar

mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin. Quyida raqamli texnologiyalrni bazilariga to'xtalib o'tamiz: bulutili texnologiyalar –internet foydalanuvchisiga on-layn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir. Raqamli texnologiyalar - narsalar interneti (Internet of Things, IoT). Raqamli axborotga asoslangan asosiy texnologiyalardan biri bu narsalar internetidir. Ko'pgina maishiy texnikaning elektr tarmog'iga ulanganligi odatiy holdir, lekin asta-sekin jismoniy dunyoning tobora ko'proq ob'ektlari Internetga ulanadi, bu esa ma'lumot to'plash va hatto ushbu ob'ektlarni masofadan turib boshqarish imkonini beradi. Darhaqiqat, Internetda ob'ekt va tashqi dunyoning turli parametrlarini o'z ichiga olgan va Internet orqali ob'ektni boshqarish imkonini beruvchi jismoniy ob'ektning virtual nusxasi paydo bo'ladi. Narsalar internetiga misol qilib, kinoteatrdagi proyektor kabi qurilma texnik qo'llab-quvvatlash xizmatiga aniqlangan nosozlik va rejadan tashqari ta'mirlash doirasida almashtirilishi kerak bo'lgan ehtiyot qismlar ro'yxati haqida signal yuboradi. Raqamli texnologiyalar - kengaytirilgan haqiqat (AR). Eng istiqbolli - bu virtual dunyodan real dunyoga ob'ektlarni qo'shish imkonini beruvchi to'ldirilgan reallik texnologiyasi. Tasavvur qiling-a, ko'chada yurib, atrofingizdagi narsalar va odamlar haqida qo'shimcha ma'lumotni ko'rasiz. Kengaytirilgan haqiqat misollari allaqachon mavjud va faol qo'llanilmoqda, ba'zi istiroxat bog'larida siz jismoniy dunyodagi ob'ekt va virtual dunyo o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadigan belgilarni allaqachon ko'rishingiz mumkin. To'ldirilgan reallik elementlariga ega o'yinlar faol tarqalmoqda, kiyim-kechak sotiladigan do'konlarda virtual oyna va jihozlash xonalari mavjud, to'ldirilgan reallik allaqachon avtomobillarda sinovdan o'tkazilmoqda.



Shu bilan birga, to‘ldirilgan reallik texnologiyalaridan faol foydalanish yo‘lida hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar ham mavjud. Masalan, geopozitsiyani aniqlash vositalarining aniqligi hali ham etarli emas yoki jismoniy dunyo ob’ektlarini ularning virtual nusxalari bilan bog’lash uchun kompyuterda ko’rish texnologiyalari nomukammal. Biroq, ishonch bilan aytish mumkinki, yaqin kelajakda ushbu texnologiya yutuq bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimiga oid ilmiy , metodik tadqiqotlarni o'rganish, tahlil qilish shuni ko'rsatadiki , pedagog - olimlar , amaliyotchilarning yillar davomida ilmiy izlanishlari kafolatlangan natija beradigan zamonaviy pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalarini joriy etish , pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish ta'limining sifati va samaradorligi omillaridan bo'lib , pedagogning kreativ , kommunikativ , reflekciv faoliyatini takomillashtiradi.

Yurtimizda ta'lim tizimini axborotlashuvi - global ijtimoiy jarayon bo'lib , axborot resuslaridan ijodiy, maqsadli foydalanishga yo'naltirilgan , ijodiy mehnatga bo'lgan ehtiyoj, faoliyat turlaridan biri sifatida: axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, uzluksiz rivojlanib boruvchi ilmiy - metodik , ijodiy yondoshuvlarda foydalanish , axborot , pedagogik texnologiyalarini fan, ta'lim , ishlab chiqarish texnologiyalarining integratsiyasidir. (Integratsiya – o'quv fanlari, dars shakllarining o'zaro aloqadorligi, birlashib ketishi, singdirilishi, birlashib yangi, barqaror umumlashgan – yaxlit shaklini hosil qilish. Lotincha “integratio”- tiklash, yig'ish, to'ldirish; “integr” to'liq, butun, yaxlit ma'noni bildiradi.)

Malaka oshirish ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog va

o'qituvchilar, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, vositalarini o'zlashtirib, pedagogik faoliyatlarida ijodiy yondoshuvlari tizimli ravishda bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishlarini faollashtiradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining vaqt o'tishi bilan murakkablashib , mukammalashib borayotgani , o'qituvchilarga zamonaviy texnologiyalardan ijodiy, maqsadli foydalana bilish , axborotlar bilan ishlash madaniyatli bo'lish kabi talablarni qo'ymoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yetarli bilimli bo'lgan o'qituvchi ta'lim jarayonida elektron ommaviy axborot vositalardan axborot izlash , olish , saqlash va uzatishda shuningdek , Internetdan foydalanish kabilardan ijodiy , samarali qo'llay oladi. O'qituvchi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari hamda ilmiy - metodik jihatdan yondoshuvlarni amalga oshirishlarida quyidagilar maqsadga muvofiqdir:

Nazariy bilimlarda: komp`yuterning asosiy dasturlari: matn muharririda , elektron jadvalda va ma'lumotlar bazasida axborotlarni saqlash va qayta ishlashni bilishi ; kasbiy faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni Internetdan izlash , olish , e – mail , ZiyoNet tarmog'i, eduportal.uz saytlar va videokonferentsiya kabi axborot uzatishning elektron usullari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi ; axborot kommunikatsion texnologiyalaridan o'qituvchi innovatsion faoliyatini rivojlantirishdagi ilmiy, metodik jihatlarini o'zlashtirishi ; olingan ma'lumotlarning to'g'ri va ishonchliligi tushunishi va bu ma'lumotlarni ta'lim jarayonida interfaol , pedagogik texnologiyalardan foydalanganda qonuniy talab printsiplariga amal qilishi; Ko'nikmalarda: elektron axborotlarni qidirish , jamlash , o'zi yaratishi, to'plangan ma'lumotlarni tizimlashtirishi , real axborotni tajovvuzkor virtualdan ajrata bilishi; jamlangan axborotlarni komleks tushunish va ulardan o'z sohasiga mos vositalar (taqdimot, garfika , diagramma va b.)ni ajrata olishi va foydalanishi ; sohasiga tegishli veb saytlarni izlash , topish , forum va e – mail, Internet xizmatlariga ijodiy yondoshish; axborot texnologiyalarini kreativ pedagogik faoliyatida foydalana olishi;

Malakalarda : individual va guruh bilan ishlashda axborot texnologiyalardan maqsadli foydalanish , to'plangan axborotlarni ilmiy, metodik darajalarini aniqlay olishi ; Internetdan foydalanishda mas'uliyat , tegishi qoidalarga qat'iy rioya qilish; axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan madaniy , ijtimoiy va mutaxassisligi sohasidagi tadbirlarda ishtirok etish bilan mustaqil malaka oshirishga yo'naltira olishi kerak. Komp`yuterda an'anaviy ta'lim metodlarining samarali shakllaridan foydalanib o'quv jarayonini tashkil etishda taqdimot , video dars ko'rinishdagi o'quv

materiallaridan foydalanish imkoniyatlari kengdir. Internet tarmoqlarida axborotlarni tarqatishdagi vaqt, makon va moliyaviy to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirilgani ta'lim tizimi uchun katta ahamiyatga ega.

Malaka oshirish ta'limida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etish bo'yicha qisqa muddatli kreativ seminar – treninglarni hamkorlikda o'tkazilishi, o'qituvchilarning kasbiy, ilmiy - metodik mahoratini oshirishda samarali bo'lib , hamkasblarini va xorijiy ilg'or tajribalarini o'rganish imkoniyatini beradi. (Kreativlik - ingliz tilidan “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor. Pedagogik trening - mashqlar va takrorlash asosida malaka, metod, muayyan ta'sirlarni mustahkamlashning amaldagi ko'rinishi; Shaxsga intensiv ta'sir ko'rsatish metodlari majmui; Guruh va shaxsga ta'sir ko'rsatish amaliyoti; muayyan chegaradagi ta'lim shakli.)

Innovatsion texnologiyalarda variativlik, moslashuvchanlik, muntazamlilik, tartibni amalga oshirishda algoritm elementlarining davriyligi, takrorlanishni keng imkoniyatini mavjud bo'lib, uni o'zga shart - sharoitda boshqa ob'ekt va sub'ektlar ishtirokida takrorlash, ko'chirib amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga egaligiga asoslanadi. Texnologiyaning boshqarish maqsad va vazifalari asosida ta'limda strategik yo'nalishlari aniqlanadi va tashxisli maqsad qo'yish, pedagogik jarayonni rejalashtirish , loyihalash imkoniyatlari nazarda tutiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi muayyan shart – sharoitlarda amal qilib, natijasi va sarf hajmiga ko'ra maqbul bo'lishi lozim. (Maqbullik - bu imkon darajasida kam kuch sarflab,yuqori natijalarga erishishdan iborat; maqbul texnologiya mavjud sharoitdagi imkoniyat darajasidagi afzallikni bildiradi.)

O'qituvchi axborot kommunikatsion va innovatsion pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda to'liq va sifatli o'zlashtirib , malaka oshirish ta'lim jarayoniga tatbiq etishi , kasbiy faoliyatini ijodkor , novator toifada bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar - virtual haqiqat (Virtual haqiqat, VR). Insonning virtual haqiqatda bo’lishiga imkon beruvchi texnik qurilmalarning paydo bo’lishi ushbu texnologiyani ko’ngilochar sohada talabga aylantirdi. Virtual haqiqatning dubulg’alari va kostyumlari, ixtisoslashtirilgan xonalar sizga noma’lum dunyoga kirishga imkon beradi, bu sizning barcha harakatlaringiz virtual olamdan javob berish uchun dasturlashtirilgan, bu sizga o’zingizni 100% ga cho’mish imkonini beradi. Ta’lim sohasida VR o’quvchilarning bilim olish uslubini o’zgartiradi. Sinf xonalarida VR dan foydalanish o’quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o’zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o’rganishga yordam beradi Xulosa

sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o`ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.
2. https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology
3. Bakiyeva, F., & Mirzahmedova, N. (2019). EFFICIENCY OF ONLINE TRAINING. Theoretical & Applied Science, (11), 56-58.
4. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.
5. Мирзахмедова, Н. Д. (2015). Применение макросов в программе Power Point для создания тестовых заданий. Наука, техника и образование, (4 (10)), 180-182.
6. Абдурахманова, Ш. А. (2017). Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (1), 428-430.
7. Sh.A.Abduraxmanova, & X. Jo'rayev. (2022). MODERN WEB TECHNOLOGIES USED IN PROFESSIONAL EDUCATION. Conference Zone, 178–179. Retrieved from http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/248
8. Shaxnoza Abduhakimovna Abduraxmanova. (2022). INDIVIDUALIZATION OF PROFESSIONAL EDUCATION PROCESS ON THE BASIS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. World Bulletin of Social Sciences, 8, 65-67. Retrieved from https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/721
9. Shahnoza, A. (2019). ABOUT ONE ASPECT OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'INTELLECTUAL SKILLS USING MULTIMEDIA INTERACTIVE TESTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
10. Абдурахманова, Ш. А. (2018). ОБ ОДНОМ АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ УМЕНИЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 12-
11. Абдурахманова, Ш. А. (2014). Об одном аспекте профессиональной направленности обучения математике в профессиональных колледжах. Молодой ученый, (10), 337-339.
12. Abduxakimovna, A. S. (2021). USE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL SKILLS OF STUDENTS OF

PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. European Journal of Molecular and Clinical Medicine, 8(1),
1483+.
https://link.gale.com/apps/doc/A698747789/AONE?u=anon~b3e5c919&sid=googleScholar&xid=281ce3fb
13. Abdurakhmanova, S. A. (2018). Developing Students' Intellectual Skills at Pedagogical Universities of Uzbekistan Republic based on Multimedia Technologies. www. auris-verlag. de.
14. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03
15. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142–156. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23
16. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2022). USE OF ADDIE MODEL COMPONENTS IN THE DEVELOPMENT OF PUBLIC OPEN ONLINE COURSE DIGITAL LEARNING RESOURCES. Conference Zone, 48–51. Retrieved from http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/511
17. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MASSIVE OPEN ONLINE COURSES IN INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY. Conference Zone, 79–83. Retrieved from http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/450
18. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. (2022). TEACHING COMPUTER GRAPHICS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM ON THE BASIS OF MASSIVE OPEN ONLINE COURSES IN INFORMATION CONDITIONS. World Bulletin of Social Sciences, 8, 71-74. Retrieved from https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/724
19. Urokova Sharofat Bahodir Qizi. (2021). Digitization Of Education At The Present Stage Of Modern Development Of Information Society. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 95–103. https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue05-17
20. Urokova Sharofat Bahodir qizi, & Shakirova Dildora Bahadirovna. (2022). ENRICH EDUCATIONAL CONTENT THROUGH MULTIMEDIA RESOURCES USING DIGITAL TECHNOLOGIES. Conference Zone, 220–221. Retrieved from http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/262

21. Сулейманова, Р. М. (2021). ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБУЧАЮЩИХ ВИДЕОКУРСОВ. Актуальные научные исследования в современном мире, (3-8), 54-57.
22. Сулейманова, Р. М., & Иноятов, С. Д. О. (2019). ПРОГРАММНЫЕ СРЕДСТВА НЕЛИНЕЙНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-7), 68-72.
23. Mamarajabov Adil Elmurzaevich. (2022). USE OF CLOUD TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Conference Zone, 191–192. Retrieved from http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/252
24. Mamarajabov Odil Elmurzaevich. (2022). FORMATION OF STUDENTS' COMPETENCE IN THE USE OF CLOUD TECHNOLOGIES IN THE INFORMATION EDUCATIONAL ENVIRONMENT. World Bulletin of Social Sciences, 8, 79-80. Retrieved from https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/726
25. A. Abdukadirov, S. Zakirov, O. Mamarajabov and A. Sayfulla, "Conditions for the development of students' information competence in the aspect of the development of distance learning in the humanities," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), 2021, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670214
26. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288. doi:http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424
27. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09
28. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: https://moluch.ru/archive/192/48066/
29. Maxkamova, S., & Jabbarov, R. (2022). Axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirish metodikasi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 27–29. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5097

30. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1

31. Михайловский. Э.Э. Методика изучения свойства замечательных линии треугольника. International Scientfic And Pratikal Conference. World Science. proceedings of the conference. Topical Researches Of The World Science. (June 20-21.2015). vol. 2. rost publishing. Dubai.-2015.-Б.52-61.

А.А.Саломов "Развитие, умений и навыков у учащихся старших класов при реализатции межпредметной функции математики" Тошкент: -1996 год. //Дисцертационный исследование//.

32. Саломов А.А., Мирзаева М. Активизация и позновательной деятелъности учашихся на уроках математики // Основное ролъ педагогигических идеи : Тезисы докладов конференци, -Челябинск, 1990. – с. 90-92.

33. Саломов А.А. Самостоятелъные занятия на уроках математика // Совершенствование организационных форм и методов преподавания математика, информатики и ВТ в школах и педвузах : Тезисы докладов Всесоюзного семинара – совещания. – Гулистан – 1990.

TARIXIY EMPATIYANI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Xaydarov Yuldash Xazratovich
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi
dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada tarixiy empatiyani rivojlantirishni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishning jamiyatda yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashdagi roli tahlil etilgan. Bu borada o‘qitish jarayonidan yorqin misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarix, empatiya, modernizatsiya, innovatsiya, integratsiya, jamiyat, ma’naviyat, tarix, ilm, fan, zamon, talablar, ta’lim, tarbiya.

Аннотация. В статье анализируется роль организации развития исторической эмпатии на основе инновационных подходов в воспитании высокодуховной молодежи в обществе. Приводятся яркие примеры из образовательного процесса.

Ключевые слова: история, эмпатия, модернизация, инновации, интеграция, общество, духовность, история, наука, время, требования, образование, воспитание.

Annotation. The article analyzes the role of organizing the development of historical empathy based on innovative approaches in educating highly spiritual youth in society. Vivid examples from the educational process are given in this regard.

Keywords: history, empathy, modernization, innovation, integration, society, spirituality, history, science, time, requirements, education, upbringing.

Tarixiy empatiyani rivojlantirishni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishning jamiyatda yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashdagi roli oshib bormoqda. O‘quvchilarda his-tuyg‘u va dunyoqarashni yangi davr uchun yangi g`oya va tashabuslar orqali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” kitobida “Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart. Yangi davr uchun yangi g`oya va tashabuslar, puxta o`ylangan istiqbolli rejalar, yangi marra va g`alabalar kerak bo`ladi.“ [1.7]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekistonni bunyod etishga kirishganlarining sarchashmalaridayoq ta’lim tizimida, ta’lim muassasalari o‘quv reja va dasturlari va fanlarni o‘qitish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, quyidagicha xulosaga kelgan edilar: “... Zamonaviy o‘quv reja va uslublarni joriy etish talab darajasida emas. Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va

zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q”. [2.103]

Bugungi kunga kelib jamiyat a’zolarida yuksak ma’naviyatni shakllantirish, o‘quvchi-yoshlarning yurt taqdiriga daxldorlik hissini yanada kuchaytirish, ularni ona Vatan ravnaqi, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi yo‘lida fidoiylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish jarayonida ushbu fan sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va tarixini tushuntirishga yangicha tafakkur asosida yondashuvlar bilan o‘quvchi-yoshlarni tanishtirib borish lozim. Shu maqsadda tarix fani o‘qituvchilari o‘z bilim malaka va ko‘nikmalarni oshirish maqsadida tarixiy empatiyani rivojlantirishni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish uchun quyidagilardan foydalanishini tavsiya etamiz:

Masalan, VIII sinfda “O`zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda Amir Nasrullo haqida ma`lumot berishda keying yillarda birinchi manbalarga tayanib yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanilsa, ushbu masalada innovatsion yondashuvlarga tayanilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Nohaq «Qassob amir» yuritilgan Amir Nasrullo hayot yo`lini birinchi manbalardan o`rgangan tarixchi olim,tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabov o`zining “Nasrulloxon” risolasida oydinlashtiradi.. Uning ta’kidlashicha, o`sha davrda yaratilgan asarlar orasida faqat Mirzo Shams Buxoriyning asarida «Qassob amir» degan asossiz talqin uchraydi. Aslida Mirzo Shams Buxoriy Nasrulloxonga muxolifatda bo`lib, Qo`qon xonligi hududida yashagan va Nasrulloxon faoliyatiga noto`g`ri qarashlarni ilgari surgan. Bu ma`lumotlarni o`quvchilarni ongi va qalbiga singdirish ularga yangi ma`lumotlar asosida bilim berishga asos bo`ladi. Tarixiy empatiyani rivojlantirishni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishning bu usuli jamiyatda yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zbekistonliklarning ikkinchi jahon urushidagi buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasini o‘rganishda tom ma’nodagi yangi davrning boshlanishi tashabbuskori bo‘ldilar. Yurtboshimiz o‘zlarining chiqishlarida O‘zbekiston xalqining buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasini to‘liq o‘rganilmaganligiga keng jamoatchilik e’tiborini qaratdilar. Ayniqsa, ilmiy jamoatchilik, tarixchilarni bu muhim masalani chuqurroq o‘rganishga da’vat etdilar.

Bu ustuvor vazifani to‘la-to‘kis bajarish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Ilgari yopiq bo‘lgan arxiv hujjatlari tadqiqotchilar o‘rganishi uchun ochildi. Bu borada sobiq Ittifoq Respublikalari va chet ellardagi arxiv, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik yaxshi samara berdi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbuslari va konseptual takliflari asosida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida O‘zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ajdodlarimiz haqida juda muhim yangi ma’lumotlar izlab topildi. Ushbu ma’lumotlar tarixiy empatiyani rivojlantirishni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Bu sohada erishilgan yutuqlar, izlanishlar natijalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shakvkat Mirziyoev 2020 yil 9 mayda “Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaning 75 yilligi va “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqida bayon qildilar. Yurtboshimiz ushbu tarixiy nutqlarida O‘zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushidagi buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasini ko‘rsatuvchi ilmiy izlanishlar natijasida topilgan yangi ma’lumotlarni keltirdilar. Shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etib, ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan deb hisoblangan bo‘lsa, yangi topilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniq bo‘ldi. Demak, har uch nafar O‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib fashizimga qarshi jang qilgan. Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming nafar yurtdoshlarimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar mobaynida e’tibordan chetda qolib ketganini albatta adolatdan, deb bo‘lmaydi”[3,3], deb ta’kidladilar Yurtboshimiz.

Shuningdek, Prezidentimiz o‘z nutqlarida o‘sha davrda “quloq” sifatida boshqa o‘lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandashomiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani, ilgari 396 ming nafar O‘zbekiston fuqarosi urushda halok bo‘lgan deb aytilgan bo‘lsa, aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo‘lganligini ham ta’kidlab o‘tdilar. Hozirgacha yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda, darslik va qo‘llanmalarda frontda bedarak yo‘qolganlar haqidagi ma’lumotlar ham to‘liq emas edi. Tadqiqotlar natijasida 158 mingdan ortiq hamyurtimiz urushda bedarak ketganligi aniqlanganligi, olib borilgan ilmiy izlanishlar tufayli jangavor orden va medallar bilan mukofotlangan O‘zbekiston vakillari soni bo‘yicha ham oydinlik kiritilganligi, shu davrga qadar bu ko‘rsatkich 120 ming nafar deb qayd etilgan bo‘lsa, yangi ma’lumotlarga asosan 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangavor davlat mukofotlari bilan taqdirlanganliklari aniqlanganligining ma’lum qilinishi tarixiy haqiqatning tiklanganligidan dalolatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 9 mayda so‘zlagan nutqlarida “O‘zbekiston tarixi” fani uchun ilmiy-tadqiqotlar natijasida aniqlangan yana kuyidagi ma’lumotlarni ham keltirdilar:

- Shu paytgacha 280 nafar O‘zbekistonliklar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazavor bo‘lgan deb aytilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 301 nafar ekanligi, 70 nafar yurtdoshimiz esa uchala darajadagi “Slava” ordeniga sazavor bo‘lganligi ilmiy hujjatlar orqali aniqlanganligi;
- O‘zbekistonga front hududlaridan 151 ta zavod ko‘chirib keltirilganligi va front ehtiyojlari uchun maxsulot ishlab chiqarishga moslashtirilganligi yangi ma’lumotlar orqali aniqlanganligi;
- Urush o‘chog‘iga aylangan o‘lkalardan O‘zbekistonga 1million 500 ming kishi, jumladan 250 mingdan ziyod bola evakuatsiya qilingani, xalqimiz bu odamlarning barchasiga mehr va e’tibor ko‘rsatgani, so‘nggi burda nonini ham ular bilan baham ko‘rib, yuksak insonparvarlik fazilatlarini ko‘rsatganliklarini qayd etdilar. Shu tariqa o‘quvchilarda tarixiy empatiyani rivojlantirishni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish ularda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda faol ishtirok etishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “O‘zbekiston tarixi”ni o‘qitishda fan sohasida erishilgan yutuqlarni, ya’ni ilmiy-tadqiqot natijalarini o‘quvchilar qalbi va ongiga singdirishda innovatsiyalardan foydalanish orqali ularda tarixiy empatiyani kuchaytiradi, ularning Ona Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat his-tuyg‘ularini yanada jonlantiradi. O‘quvchi-yoshlarni jamiyatning faol, yuksak ma’naviyatli insonlari qilib tarbiyalashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoeyvning “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston “ kitobi , “O‘zbekiston”, 2024 yil, 7-bet

2. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017, 103- bet

3. Shavkat Mirziyoyev. Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaning 75 yilligi va “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan 2020 yil 9 maydagi so‘zlangan nutq. “Yangi O‘zbekiston”, 2020 yil 10 may

Y.KOMENSKIY:’’KITOBAR DONISHMANDLIKNI YOYISH QUROLIDIR”.

Ibadova Zamira Rashidovna
BuxDPI Harbiy ta’lim fakulteti muhandisi

Annotatsiya: Kitob — bilimlar xazinasi, insoniyatning asrlar davomida to‘plagan tajribasi, fikrlari va his-tuyg‘ularini o‘zida mujassam etgan yozma manba. U matn va tasvirlardan iborat bo‘lib, o‘quvchiga axborot yetkazish, tarbiyalash va ma’naviy oziq berish vazifasini bajaradi. Kitoblar turlari (badiiy, ilmiy, o‘quv) va formatlari (qog‘ozli, elektron, audiokitob) bilan farqlanadi.

Kalit so‘zlar: kitob, bilim, xotira avlod, tarbiya, qobiliyat,ma’naviyat dunyosi,mavjudot, fikrlash qobiliyati,ishtiyoq.

Аннотатция: Книга — это кладезь знаний, письменный источник, воплощающий опыт, мысли и чувства человечества, накопленные за столетия. Она состоит из текста и изображений и служит для информирования, обучения и духовного обогащения читателя. Книги различаются по типу (художественная литература, научные труды, образовательные материалы) и формату (бумажные, электронные, аудиокниги).

Ключевые слова: книга, знание, память, порождение, воспитание, способность, духовный мир, существование, мыслительные способности, страсть.

Annotatsion:A book is a treasure trove of knowledge, a written source that embodies the experience, thoughts, and feelings of humanity accumulated over the centuries. It consists of text and images and serves to inform, educate, and spiritually nourish the reader. Books differ in type (fiction, scientific, educational) and format (paper, electronic, audiobook).

Key words: book, knowledge, memory, generation, education, ability, spiritual world, existence, thinking abilities, passion.

Kitob – insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo‘lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo’tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.Kishining madaniyati uning kitobida aks etadi. Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog‘liq. Ma’rifatli oilalarda kitobga e’tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Inson o‘zining fikrlash qobiliyati, ma’naviyat dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma’naviyati hisoblanadi.Xo‘sh, biz insonlar ma’naviy ozuqani qayerdan olamiz? Albatta, “bilimlar manbai” bo‘lmish kitobdan. Kitob – bebaho boylik ekani barchamizga

ma’lum. Birorta san’at turini televideniye va radio, zamonaviy kompyuterlar imkoniyati va afzalliklarini inkor qilmagan holda aytish mumkinki, bularning hech biri kitob o‘rnini bosa olmaydi. Ayniqsa, badiiy kitoblar har bir kishida insoniy fazilatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Kitob – moziy darakchisi, bugunning tarbiyachisi va muallimi, kelajakning yo`lboshchisi. Kitobni ma’naviy xazina, haqiqiy boylik, dedik. Uni chin dildan sevib qadrlagan Abu Ali ibn Sino og`ir betob bo`lgan Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolagach, evaziga oltinu kumushlar to`la sandiqni emas, balki saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini qo`lga kiritishni afzal ko`rgan edi.Buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin duelda yaralanib, vafot etar chog‘ida, unga “Do‘stlaringiz bilan vidolashing”, deyishadi. Pushkin xonaning burchagidagi kitob javoniga termulib, “Xayr, mening do‘stlarim!”, deya jon bergan ekan.

Kitob – bilim manbai, ilm shamchirog‘i, ma’naviyat sarchashmasi. Kitobni quyoshga qiyoslash o`rinlidir: quyosh insonning jisman ulg‘ayishi uchun qanchalik muhim o‘rin tutsa, kitob ma’nan barkamollik uchun ham shunday ahamiyatga ega. O‘qish davomida kitobni mutolaa qilish jarayonining o‘zidayoq insonning ongi va dunyoqarashi shakllana boradi. Kitobning o‘zi bir olam. Uni takror va takror o‘qish davomida yangidan yangi ufqlar kashf etiladi, har gal uni qayta mutolaa qilgan odam undan o‘zgacha taassurotlar oladi. Aytishlaricha, Forobiy Arastuning “Jon haqida” deb nomlangan asariga o‘z qo‘li bilan: “Men bu asarni 200 marta o‘qidim”, — deb yozib qo‘ygan ekan.

Kitobdan shunchaki ermak, zerikishda qo‘l keladigan bir vosita sifatida foydalanish yaramaydi.Kitob ong va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, shaxsni shakllantiradi. Kitob odamdan mutolaada nafaqat ko`z va aql, shuningdek, ko`ngil ham birdek ishtirok etishini talab qiladi. Kitob o‘qishdan maqsad aql-tafakkur bilan uni mantiqiy muhokama etishgina emas, balki chin yurakdan zavqlanish, ta’sirlanish, o‘zlikni, haqiqatni izlab topish hamdir.

Faylasuf Yan Mindan do‘sti so‘radi:

— Kitob o‘qigandan so‘ng hech narsa yodda qolmasa nima qilmoq kerak?

Van Yan Min dedi:

— Uni tushunmoq kerak, yodlash shart emas. Tushunmoq zaruriyati ham ikkinchi darajali narsa. Eng avvalo, kitobning asosiy mohiyatini anglamoq joiz.Kitoblarga ularni yozgan shaxslar o‘z ruhiyati, tafakkuri, jismu jonini baxshida etadilar. Olamda neki alloma, donishmand, avliyolar, faylasuflar yetishib chiqqan bo‘lsa, ularning barchasi kitoblar tufaylidir.

Kitob — insoniyat qahramoni, ustozlar ustozi.Ilm-fan misli ko‘rilmagan darajada rivoj topdi. Cheksiz bilimlar mohiyati, asriy sir-sinoatlar tilsimi hozirgi davrga kelib

bashariyatga oshkor bo‘lmoqda. Qadimda kitoblarni xattotlar ming bir mashaqqat bilan ko‘chirishgan bo`lsa, bugungi kunda texnika yutuqlari tufayli ular millionlab nusxalarda chiqarilib, butun dunyo bo‘ylab tarqatilmoqda.Biroq tezkor zamonning tezkor sur’atlarida hayot kechirayotgan odamzod shunchalik shoshadigan, betoqat bo‘lib qoldi-ki. uning bir muddat xotirjam tin olishga imkoniyati yo‘q, eng qayg‘ulisi, bunga uning xohishi yo‘q. Vaqt ayni zamonda oltindan ham yuqori qiymatga ega bo‘ldi. Insonning ongi fikrlar, ma’lumotlarga to‘la, ammo u fikrlashga layoqatsiz bo‘lib bormoqda.Uning diqqati bir joyda jam emas, shoshganidan shoshadi-ki, kitoblar turfa xil va son jihatdan ko‘p bo‘lgani bilan uni mutolaa qilishga, teran fikrlashga fursati yo‘q. Kitobning o‘zini emas, uning syujeti, mohiyati to‘g‘risidagi qisqagina annotatsiya-ma’lumotlarni o‘qish, aniqrog‘i, ko‘z yugurtirish afzal bo‘lib qoldi.Kitobning hayotdagi o`rnini axborot deb atalgan hissiz va ruhsiz ashyo egallab oldi, natijada odamzod tinimsiz axborot qabul qilishga moslashib qoldi. Axborot oqimi shu qadar shiddatli-ki, uni qayta ishlashga, fikr yuritishga ulgurib bo‘lmaydi. Dunyo kitobdan uzoqlasha boshladi, vaholanki, dunyoni shu yuksak taraqqiyot pog‘onalariga olib chiqqan bilimlar manbai o‘sha — kitob edi.Axborotlashuv omili global dunyo uchun birlamchi vazifaga, axborotga egalik hukmronlik belgisiga aylandi. Inson axborotga ega bo‘lish ishtiyoqi tufayli kitobdan uzoqlashishi bilan birga tabiatdan, hayotning go‘zalligidan, o‘zligidan uzoqlasha boshladi.

Moddiy, nafsoniy ehtiyojlar beqiyos darajada ortib ketishi, qalb va ruhning ma’naviy ehtiyojlari qondirilishiga to‘siq bo‘ldi. Bu borada ma’rifat fidoiylaridan birining kuyunchaklik bilan aytgan gapi bor: “Bilim deb hikmatdan, axborot deb ma’rifatdan ayrildik!..”.Texnikaviy taraqqiyotning eng yuksak cho‘qqisiga chiqqan odamzod ko`rdi-ki, uning ortida ma’naviy qadriyatlar, ruhiy xotirjamlik va qalb istaklarining boy berilishi oqibatida vujudga kelgan tubsiz jarlik mavjud ekan.Dunyodagi, ayniqsa, g‘arb olamidagi taraqqiy etgan mamlakatlar jamiyatlarining ijtimoiy-ma’naviy hayotida sodir bo‘layotgan “ommaviy madaniyat” niqobidagi axloqsizlik, vatanfurushlik, sotqinlik, jinoyatchilik, narkotrafika, korrupsiya kabi illatlarning keng urchishi, bu — ruhiy-ma’naviy inqirozning belgilaridir. Moddiy quyosh bilan birga ma’naviy quyosh hisoblanmish kitob ham bo‘lmas ekan, dunyo zulmatga aylanadi.

Zamonamiz analiz-sintez — mushohada zamoni. U bizdan shiddat bilan kechayotgan lahzalarda oxir-oqibatda qayerga borishi va nimaga erishishini bilmagan holda tinmay shoshishni emas, balki insoniyat o‘tmishi, sirlari va yutuqlarini chuqur o‘rganish, teran fikrlash asosida o‘zlikni anglash hamda kelajak tomon mas’uliyat bilan qadam tashlashni talab qilmoqda. Biz ruhiyatimiz, qalbimiz,

ya'ni o'z olamimiz va tabiat bilan qayta til topishmoqchi ekanmiz, kitoblar mutolaasiga qaytishimiz zarur.

Shunisi ham borki, kitoblarning barchasi ham o'qib-o'rganilishi muhim bo'lgan bilimlar manbai sirasiga kirmaydi. Ular orasida ma'nisiz, maqsadsiz va yovuz g'oya-mafkuralarni targ'ib etadiganlari ham uchraydi.Inson asl kitoblar, durdona asarlarning keraklilarini tanlay olishi, uni aqli va qalbi bilan idrok etib, zavqlanib, ta'sirlanib hamda qiziqib o'qishi darkor. Kitobni shunchaki o'qib qo'yish bilangina ruhning, qalbning pok bo`lishiga erishib bo'lmaydi. Har bir kitobxon kitobdagi bilimlarni ongiga jo qilib, uni hayotiy faoliyatida munosib qo'llay olsagina, bu chinakam muvaffaqiyatdir.Kitoblar aql farzandlaridir Kitobsiz uy jonsiz tanaday gap.Odamlar kitob o'qishdan to'xtasalar –fikrlashdan to'xtaydilar deb bekorga aytilmadan doninshmandlar.Ayollar erkaklarga qaraganda ko'p ya'ni 68%kitob sotib oladilar.95% insonlar daqiqasiga 210 so'z yoki 2 daqiqada 1,5 sahifa kitob o'qiydilar.Masalan Balzak yarim soatda 2000 bet kitob o'qigan.Undan tashqari Napoleon daqiqasiga 2000ta sozni o 'qiy olgan.Dunyodagi eng mashhur kitob qahramoni Napoleondir va u buyuk shaxs haqida 10000 dan ortiq turli janrdagi kitoblar yozilgan.Undan tashqari jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o 'qish bo'yicha eng uzoq davom etgan marafon 224 soat davom etgan. Kitobni sekin o'qilganda100% matn tushunilmaydi,faqatgina 60% anglanadi,aksincha tez o'qilganda 80% tushuniladi.Aksariyat o'quvchilar kitobning 18-betidayoq unga qiziqishni yo'qotadilar. Bolani o'qishga o'rgatish uchun eng qulay payt -4-5 yoshlik paytidir.7 yoshdan sal qiyinroq kechar ekan.Kitob bilimlarni –avlodga o'tkazishni vositasi bo'lib ular biz o'tmish avlodni bugungi kun bilan tanishtiradi,ular uchun kelajakka nazar tashlaymiz.Kitob orqali biz dunyoning manziliga, tezda tashrifimiz mumkin.Kitob biz bilan hayot qoidalariva sog 'liq uchun foydali ma'lumotlar bilan o'rtoqlashadi,bizni o 'rgatadi, zavqlantiradi.Kitobxonlik haqida 3qiziqarli fakt .

1.Xotirani kuchaytiradi-mutolaa paytida qahramonlar,voqealar,faktlarni eslab qolish miyani mashq qildiradi va xotirani mustahkamlaydi.

2.Kitob o'qish stressni 68 % ga kamaytiradi.

3.Kitobxonlar nutq madaniyati va so'z boyligi bilan ajralib turadi.

Kitoblar haqida siz bilmagan 13 ta qiziq fakt!

Qadrli kitobxonlar, bu maqola siz uchun qiziq ekanligiga ishonchimiz komil. Biz sizlarga kitoblar haqida siz bilmagan eng qiziqarli 13ta faktni tayyorladik!

1-fakt: *Gilgamish* — eng qadimgi adabiy asar

Eng qadimgi epik adabiy asarlar qadimgi Mesopotamiyada bo'lib, uning nomi "Gilgamish" deb nomlangan. Qog'ozli kitoblar o'sha paytda bo'lmaganligi sababli, butun hikoya 12 ta jadvalga yozilgan. Bugungi kunda "Gilgamish"ning

elektron variantlari ham bor.

2-fakt: Birinchi zamonaviy roman

Dunyodagi birinchi roman XI asrda **"*Genjining hikoyalari*"** bo'lib, uni Yaponiyalik **Murasaki Shikibu** yozgan. Asl nusxada deyarli birorta qahramonning nomlari bo'lmagan. Ular **Heian** davridagi yapon sudining qoidalaridan kelib chiqqan holda lavozimi yoki "hurmatlovchi" sifatlar bilan atalgan.

3-fakt: Birinchi nashr etilgan kitob

Bu kitob ***Gutenberg Injili*** bo'lib, u 1453-yilda Johannes Gensfleisch zur Laden zum Gutenberg tomonidan chop etilgan. Gutenberg Injil va Gutenberg matbuoti orqali inqilobiy o'zgarish sodir bo'lgan va insoniyat tarixida yangi davrni boshlagan.

4-fakt: Yozuv mashinasida yozilgan birinchi kitob

Mark Tvenning *"Missisipidagi hayoti*" (1882) asari tarixchilar tomonidan nashriyotga yuborilgan dastlabki to'liq yozuv mashinasi yordamida nashr etilgan kitob hisoblanadi.

5-fakt: Kitoblarning tonnasi

Har yili dunyoda **755,755** ta yangi kitoblar nashr etiladi. 2017-yilning o'rtalaridan boshlab xozirgacha dunyo bo'yicha **134,399,411** kitoblar nashr etilgan.

6-fakt: Eng katta kitob

Dunyodagi eng yirik «kitob» Mandayda, Myanmarda, Birma shahridagi Kuthodaw Pagodasida joylashgan. Kuthodaw Pagoda o'z strukturalarining bazasini tashkil etgan 730 ta marmar jadvallar to'plamiga ega. Jadvallarning to'plamida **Theravada Buddizm**ning to'liq muqaddas diniy kitoblari mavjud. Ushbu yirik «tosh kitob» 1857 yilda King Mindon Min tomonidan qurilgan va u oltin siyoh va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan.

7-fakt: Qog'ozdan qilingan eng katta kitob

Dunyodagi eng yirik qog'oz kitob Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida joylashgan. Bu kitob **"*Bu MuhammadPayg'ambar*"** deb nomlangan ulkan muqaddas kitob hisoblanadi. Kitob **Mshahed Xalqaro Guruhi** tomonidan yaratilgan va 2012-yil fevral oyida e'lon qilingan. Uning uzunligi 5 metr, enining uzunligi 8,06 metr, 429 ta sahifa va og'irligi 3000 kilogrammdan ortiq.

8-fakt: Eng katta nashr etilgan kitob

Ananaviy tarzda chop etilgan eng yirik kitob Antuan de Sent-Exuperyning (bu aviatsiya dunyosining kashshofi bo'lgan) "***Kichik Shahzoda»***ning braziliyalik nusxasi kitobidir. Uning uzunligi 3,08 metr, kengligi 2,01 metrni tashkil etadi. Bu kitob 2007-yil sentyabr oyida Rio-de-Janeyro (Braziliya) da bo'lib o'tgan Biannual

kitob ko‘rgazmasida namoyish etildi.

9-fakt: Eng uzun roman

Eng uzun romanni Marcel Proust yozgan va uni ***“O’tmishdagi narsalarning xotirasi”*** yoki o’z ona tilida (fransuzcha) ***“A larecherche du temps perdu”*** deb nomlagan. Romanda **9,609,000** obraz borligi taxmin qilinmoqda.

10-fakt: Eng uzun audiokitob

Dunyoning eng uzun ovozli kitobi deyarli besh kundir. Kitob 2008-yilda Yaponiyada nashr etilgan va faylasuf, shoir hamda adabiyotshunos **Takaaki Yoshimoto** tomonidan ma’ruza qilingan. Kitobning umumiy vaqti 115 soatu 43 daqiqadir.

11-fakt: Nashr etilgan eng qalin kitob

“Mukammal Miss Marple” kitobi chop etilgan eng qalin kitobdir. U 12,67dyum kengligida va **4,032** sahifadan tashkil topgan. Bu kitobini yozuvchi **Agatha Christie** Miss Marple ismli ayolga bag‘ishlab yozgan. Kitob **20** ta qisqa hikoya va **12** ta sirli roman to‘plamidan tashkil topgan.

12-fakt: Eng qimmat kitob

Dunyodagi eng qimmat kitobning ilk nusxasi 1640-yilda Massachusets shtatining Cambridge shahrida chop etilgan **«Bay Psalm Book»** kitobidir. Ushbu kitob **Yangi Dunyo**’dagi matbuotda chop etilgan birinchi kitoblardan biri bo‘lib, Nyu-Yorkdagi 2013-yilgi kim oshdi savdosida **14,165** ming dollarga sotildi.

13-fakt: Dunyoda eng yaxshi sotilgan kitob

Dunyo bo’yicha hozirgacha eng ko’p o’qilgan va eng yaxshi sotilgan kitob bu — ***Injil*** *(*Xristianlarning muqaddas kitobi*)* dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Buxoro viloyati axboroti-kutubxona markazi blogi
2.Moziydan kelajakka sayosat

O'SMIRLARNI VIRTUAL OLAM HAMDA KIBERBULLING TA'SIRIDAN HIMOYALANISHNING TABIATI VA MOHIYATI

Dusanov Elbek Abdusamatovich
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi
"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari"
kafedrasi mudiri (PhD), dotsent
E-mail Elbek.89@inbox.uz
Tel: 93-312-99-40

Abstract: This article presents the results of scientific research on the problem of teenagers addicted to virtual games, the negative qualities that appear in the behavior of teenagers as a result of virtual games, and recommendations for their prevention.

Key words: Aggressive behavior, information-psychological, security, virtual, computer games, emotional, thinking, contemplation, consciousness.

Аннотация: В данной статье представлены результаты научных исследований по проблеме зависимости подростков от виртуальных игр, негативные качества, которые проявляются в поведении подростков в результате виртуальных игр, и рекомендации по их профилактике.

Ключевые слова: Агрессивное поведение, информацион-психологик, безопасность, виртуальные, компьютерные игры, эмоциональный, мышление, диагностика.

Annotatsiya: Mazkur maqolada virtual o'yinlariga tobe o'smirlar muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va virtual o'yinlari oqibatida o'smirlar xulqida paydo bo'ladigan salbiy sifatlar va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Agressiv xulq, axborot-psixologik, xavfsizlik, virtual, kompyuter o'yinlari, emotsional, tafakkur, tashxis, ong.

Kirish.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida virtual olam vositalarining inson ongiga ta'sirini aniqlash, internetga qaramlikning oldini oldini olish, o'smir yoshlarning axborotlar bilan ishlay olish ko'nikmalarini ilmiy tekshirish, shuningdek, jamiyat hayotida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash, texnogen o'zgarishlar sharoitida yoshlarni ekstremistik va separatistik tashkilotlarning vayronkor g'oyalaridan himoyalash hamda mahalla muhitida xavfsiz axborot muhitini ta'minlash, jamiyatning turli qatlam va submadaniyat kishilari orasida

kiber xavfsizlikni barqarorlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda, jamiyatning turli sohalarini zamonaviy axborot-texnologik vositalar bilan ta’minlash, sohalararo axborot savodxonligini oshirish, xavfsiz axborot muhitini joriy etish, yosh avlodni salbiy axborotlar xurujidan himoyalash, ochiq axborot tizimlarini qayta isloh qilish, jamiyat hayotini texnogen boshqarishda, bunyodkor axborot mahsulotlarini tayyorlash sifati va darajasini doimiy oshirib borishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi hamda uning moddiy-texnik bazasi kengaytirildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish»[4] ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Bu borada o‘smir yoshlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan ilg‘or xorijiy davlatlarning ilmiy-uslubiy dasturlaridan keng foydalanish, virtual olam ma’lumotlariga qaram bo‘lishning omillari va undan himoyalanishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarining ishlab chiqilishi mahalla sharoitida o‘smir yoshlarni virtual olam ta’siridan himoya qilishning psixologik tashviqot dasturlarini yanada rivojlantirishga keng xizmat qiladi.

Virtual olam keng ma’noda, real mavjud bo‘lmagan vositalar yordamida sun’iy ravishda yaratilgan dunyodir. Virtual olam vositalari va tizimlari yordamida unga singib ketgan inson, unda hqiqiy hayotdagi kabi harakatlarni amalga oshirishga harakat qilib, tashqi dunyo bilan bog‘liq xatti-harakatlardan voz kecha boshlaydi. Mohiyatan virtual olam, internet tarmog‘i, kibermakon kabi tushunchalar, bir-biriga sinonim so‘zlar sanalib, uning jamiyat hayoti uchun ijobiy va salbiy jihatlari, butun dunyo mutaxassislari tomonidang keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda. Jumladan, psixolog mutaxassislarning olib borayotgan ilmiy izlanishlari shuningdek, internet addeksiya, igromaniya kabi noodatiy xatti-harakatlarni oldini olish va uni profilaktika qilish bo‘yicha, ishlab chiqayotgan chora-tadbirlar dasturi kabilar o‘ziga xos ahamiyatga ega ilmiy islohotlardan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yu.G. Noskovning yozishicha, turli axborotlar orqali inson ongini zabt etish o‘z-o‘zidan ularni o‘z aqidalaridan, e’tiqodidan ayirish ham sanaladi [66; c.-45.]. Demak, shuni aytish mumkinki, axborot-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, avvalo, inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning xavfsizligi, millat va milliy qadriyatlar, an’analar,

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni [Elektron resurs]. Kirish tartibi: URL: https:// lex.uz/pdfs/3107036 (murojaat sanasi: 01.05.2021 y.

urf-odatlar tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizligiga rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, virtual olamning sun'iy vositalari, o'smir yoshlar ongiga va xulq-atvoriga o'ziga xos salbiy ta'sir etishi tabiiydir.

V.N. Pankratovning aytishicha, tezkor axborotlashgan jamiyatda axborotlar orqali bugungi zamonga mos ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda ta'sir o'tkazadi [70; c.-208.]. Bunda omma fikrini qay darajada shakllanganligi, siyosiy ongi va huquqiy bilim saviyasi va ma'naviy-ma'rifiy darajasi katta rol o'ynaydi. Taraqqiyot sari yo'l esa, tig'iz axborotlar bozoridan umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotnigina tanlab olishda namoyon bo'ladi. Axborot-psixologik xavfsizligi bu avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, axborot-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizligiga rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, destruktiv g'oyalar milliy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin. S.K.Roshinga ko'ra, axborot ta'sirlaridan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi [80; c.-133-146.]:

1) dezorientatsiyalash (mo'ljaldan adashtirish);

2) dezinformatsiyalash (yolg'on axborot tarqatish);

3) destabilizatsiyalash (barqarorlikni izdan chiqarish) bosim o'tkazish va boshqalar. Umuman olganda, axborotlarning ta'siri asosida raqibni kuchsizlantirish, yo'q qilish kabi maqsadlar yotadi. Jahonning rivojlangan davlatlari axborotdek qurolga shunday tus berish orqali maqsadlarini amalga oshiradilar. Axborotning qimmati ham, qudrati ham, qulayligi ham shu yerda ko'zga tashlanadi. Shunday ekan, ulkan shaxmat taxtasida bugun hamma o'z nomi, maqomi va qudrati eng yuqori o'ringa chiqishini istaydi va bu yo'lda kuchli axborot tizimini samarali qo'llashga urinishidir. Bundan tashqari, xorij mutaxassisi S.G. Kara-Murza yozadi: "Kerakli axborotga ega bo'lish – boylik, kerakli va nokerak axborotni ajrata bilish – kattaroq boylik, kerakli axborotni o'z stsenariysi asosida tarqatish imkoniyati yoki o'z vaqtida bu haqda sukut saqlay olish qobiliyatiga ega bo'lish – eng katta boylikdir" [116; p.-60.]. Psixolog K.V. Karpinskiy fikricha, bolaning ongi 5-7 yoshda shakllanadi, inson umri davomida oladigan barcha axborotning taxminan 70

foizini 5 yoshga qadar oladi[40; c.-167.]. Demak, inson jamiyat hayotida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun zarur bilim, axborotlar va ijobiy xatti-harakatlar modelini shakllantirishda oilaning roli ham yuqori sanalarkan.

Ayrim ilmiy manbalarda yozilishicha, virtual olam – bu axborot texnologiyalari orqali, insonlarning xohishiga ko‘ra, vaqt-makon muhitini o‘zgartirish orqali shakllanadigan, yangi sun’iy illyuziyali olamdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolada G.V.Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan «Virtual olamga tobelik (addiksiya)» testi, K.Leongard va G.Smesheklarning «Xarakter aksentuatsiyani baholash» so‘rovnomasi, A.I.Shepilovaning «Tugallanmagan jumlalar» metodikasi hamda A.A.Lugoviskaya tomonidan yaratilgan «Yengib o‘tuvchi xulq-atvor» so‘rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarining statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan K.Pirson korrelyatsiya koeffitsienti, foizli tahlil va faktorli analizlar orqali o‘rganildi. Psixologlarning fikricha yovuz o‘yinlar 100% konflikt holatlarga ta’sir etadi. Mana shu holatlarda shartli refleks hosil bo‘ladi. Agar odam kompyuterning oldida qancha ko‘p vaqt o‘tirsa, (yovuz o‘yinlar o‘ynab), oddiygina hal qilsa bo‘ladigan narsalar ham uningcha konflikt darajasida bo‘ladi va uni birgina yo‘l, kuch ishlatish yo‘li bilan yengish mumkin deb o‘ylaydi.

Virtual o‘yinlari kinoga yoki kitoblarga qaraganda odamning ruhiyatiga tez ta’sir qiladi. Kompyuterda o‘ynab turib odam o‘zi qaror chiqaradi, kinoda esa u faqat kuzatuvchi bo‘ladi xolos. Har qanday film 2 soat davom etadi, ammo bola kompyuter o‘yinlari oldida 100 soatlab o‘tirishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlarning natjasiga ko‘ra filmda odamlarni syujetning rivojlanishi qiziqtiradi.

Umuman olganda, har qanday sevimli mashg‘ulotlar va ularning ekstremal shakllari mazmunida keyinchalik, tobelik xususiyati rivojlanishi mumkin. V.D.Emelyanenkoning ta’kidicha, internetga tobelik tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u o‘zida inson hissiy kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab olishi lozim[7; c.-51-54.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Mixon universiteti gumanitar va tabiiy fanlar kolleji professori Akio Mori 6 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan 240 odamning miyasining faolligi o‘rtasida tajriba olib borgan. Tajribadagilarni Mori 3 ta gruppaga ajratadi. Birinchi guruhga kompyuter umuman o‘ynamagan yoki onda-sonda o‘ynagan kishilarni, ikkinchi guruhga o‘rtacha o‘ynovchilarni, uchinchi guruhga ashaddiy o‘ynovchilarni kiritadi. Professor vertual o‘yinlarning miyaga ta’siri va buning natijasida odamning bu ta’sirga emotsional va ijodiy javobini kuzatadi. Mori alfa va beta ritmlarining muvofiqligini o‘rganadi (1-chisi harakatsizlikni, 2-chisi miyani old peshona

qismining aktiv ishini ko‘rsatadi). Natijada u shuni isbotladiki, kompyuterga qiziqmaydigan odamlarda beta-ritmlar alfa-ritmlarning ustidan hukmron bo‘ladilar. Normal kam o‘ynasalar ham hech narsa o‘zgarmaydi. Ikkinchi guruhda o‘yin vaqtida beta ritm kuchsizlanadi. Uchinchi guruh video o‘ynovchilarda esa kompyuterdan uzoqda bo‘lsalar ham, ularda alfa-ritmlarning ustuvorligi hukmron bo‘ladi.

Virtual o‘yinlari miyaning ko‘rish va harakatlanishga javob beradigan qismiga ta’sir qiladi. O‘yinlar odamning xulqi, emotsiyasi va o‘qishga javob beradigan bosh miya po‘stlog’ining old peshona qismi ya’ni, aql sohasini o‘sishiga zarar yetkazadi. Virtual o‘yinlari bilan parallel ravishda aqliy salohiyatlar ham pasayib boradi. Shuni aytish kerakki labaratoriya miyani old peshona qismining ishlamasligi neandertal odamni vahshiy va ta’sirchan qilib qo‘yadi, katta jamoada yashashni xohlamaydi. Virtual uyinlari aynan miya old peshona qismini faoliyatini susaytiradi.

Maqolamizning amaliy ahamiyati shundaki, xalq ta’lim muassasalari tizimida amaliy-psixologik xizmatni tashkil etishda, o‘smir yoshdagi yuqori sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayoni faoliyatda yuzaga keladigan destruktiv virtual ta’sirlarga doir yuzaga keladigan tahdidlarni bartaraf qilishda, o‘quv faoliyatida ma’naviy va aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirishda samara beradi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar asosida maktab amaliyotchi psixologlari, mahalla yetakchilari va xalq ta’limi muassasalari o‘qituvchilari va ota-onalar keng foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Virtual olam keng ma’noda, real mavjud bo‘lmagan vositalar yordamida sun’iy ravishda yaratilgan dunyodir. Virtual olam vositalari va tizimlari yordamida unga singib ketgan inson, unda hqiqiy hayotdagi kabi harakatlarni amalga oshirishga harakat qilib, tashqi dunyo bilan bog‘liq xatti-harakatlardan voz kecha boshlaydi. Mohiyatan virtual olam, internet tarmog‘i, kibermakon kabi tushunchalar, bir-biriga sinonim so‘zlar sanalib, uning jamiyat hayoti uchun ijobiy va salbiy jihatlari, butun dunyo mutaxassislari tomonidang keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda. Jumladan, psixolog mutaxassislarning olib borayotgan ilmiy izlanishlari shuningdek, internet addeksiya, igromaniya kabi noodatiy xatti-harakatlarni oldini olish va uni profilaktika qilish bo‘yicha, ishlab chiqayotgan chora-tadbirlar dasturi kabilar o‘ziga xos ahamiyatga ega ilmiy islohotlardan biri sanaladi.

Virtual olam va uning ta’siri, internet va shaxs, internetga tobe bo‘lish, yoshlarni virtual olam ta’siridan himoya qilish kabi masalalar qator xorij va mahalliy psixolog tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilgan bo‘lib, bunday olimlar guruhiga M.Mexrof, OM.Shotton, F.Ximet, F.Brooks, J.Baudrillard, M.Kastells,

K.Yang, M.Haym, M.Kruger, V.Saytnik, S.Datsyuk, R.Vud, M.Vinkel, M.Valker, K.Tompson, S.Silvern, T.Nelson, M.Griffits, OEgger, M.Rauterberg, D.Greenfield, L.Whang, M.Ghassemzadeh, A.Johansson rus psixolog olimlaridan L.V.Baeva, N.B.Kirillova, A.E. Voyskunskiy, A.Yu.Egorov, O.V.Litvinenko, V.A. Loskutova, V.Yu Rыbnikov, D.G. Rыbaltovich, N.V.Chudova, A.E.Jichkina, Ye.P.Belinskaya, V.S.Sobkin, O.N.Arestova, N.A.Nosov, L.N.Babanina, S.I.Orexova, S.S. Xorujego hamda M.Yu.Openkovalar o'z tadqiqotlarida, virtaul olam va unda faoliyat yuritish, internet va o'smir yoshlar, internetga tobelik masalalarida o'ta ahamiyatli tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Виртуальная реальность: философские и психологические проблемы Текст. / Под. ред. Н. А. Носова. М.: Центр виртуалистики ИЧ РАН, 1997. – 187 с.
2. Рощин С.К. Психологическая безопасность: новый подход к безопасности человека, общества и государства Текст. / С. К. Рощин, В. А. Соснин // Российский монитор. – 1995. – №6. – С. 133-146.
3. Липков, А. И. Ящик Пандоры: феномен компьютерных игр в мире и в России / А. И. Липков. - М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 132 с.
4. Сорокина А. Б. Интернет в жизни современных детей и подростков: проблема и ресурс / А. Б. Сорокина // Современная зарубежная психология. - 2015. - Т. 4. - 1. - С.45-64.
5. Кузнецов М.М. Виртуальная реальность техногенный артефакт или сетевой феномен? / М.М. Кузнецов // Виртуалистика: Экзистенциальные и эпистемологические аспекты.- М.: Прогресс -Традиция, 2005.- С. 62 - 91.
6. Гибсон У. Нейромант. М.: ООО «Издательство АСТ»; Спб.: Terra Fantastica, 2000. – 320 с.
7. Емельяненко В.Д. Интернет-зависимость: духовноценностные основания / В.Д. Емельяненко, Н.С. Амешина // Альманах современной науки и образования. – 2014. – № 11 (89). – С. 51–54.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING HOZIRGI YOSH AVLODNING HISSIY -IRODAVIY SOHASIGA TA'SIRI

Z.H.Davlatova
NavDU Maktabgacha ta'lim
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining, xususan gadjetlarning, o'quvchilar hissiy-irodaviy sohasiga ta'siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarda gadjetlardan foydalanish darajasi va hissiy holat, irodaviy barqarorlik hamda diqqat kontsentratsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan.

Kalit so'zlar: gadjet, hissiy-irodaviy soha, psixologik ta'sir, diqqat, motivatsiya, emotsional barqarorlik.

KIRISH.

XXI asrda insoniyat taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biri bu — raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishidir. Zamonaviy gadjetlar — smartfon, planshet, noutbuk, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar — bugungi kunda nafaqat kundalik turmush, balki ta'lim-tarbiya jarayonining ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu holat yosh avlod, ayniqsa o'quvchilar shaxsining psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Gadjetlar yordamida o'quvchilar tezkor axborot olish, onlayn ta'lim platformalarida o'qish, muloqot qilish va ijodiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, ularning psixologik holati, hissiy barqarorligi va irodaviy xatti-harakatlariga texnologik vositalar qanchalik ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatayotgani dolzarb ilmiy masalaga aylandi.

So'nggi yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gadjetlardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarda diqqatning tarqoqligi, hissiy beqarorlik, tashvish, charchoq, ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy holatlarni kuchaytirdi [2]. Boshqa tomondan esa, ularni ta'limiy maqsadlarda, ijodiy rivojlanish va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish yo'lida to'g'ri ishlatish o'quvchilarning emotsional ijobiy tajribasini oshiradi [5].

O'quvchilar shaxsida hissiy-irodaviy jarayonlar (his-tuyg'ularni boshqarish, motivatsiya, o'zini tuta bilish, diqqatni jamlash, sabr-toqat va iroda) maktab davrida faol shakllanadi. Shu sababli bu jarayonlarga tashqi axborot muhiti, xususan, raqamli muhitning psixologik ta'sirini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining raqamli texnologiyalar

bilan o‘zaro munosabati nafaqat o‘qish samaradorligini, balki uning hissiy muvozanati va irodaviy barqarorligini ham belgilab beradi[1].

Shuningdek, raqamli vositalarning haddan tashqari ko‘payishi natijasida “raqamli qaramlik” tushunchasi paydo bo‘lib, bu o‘quvchilarning psixik holatida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat o‘zini nazorat qilish qobiliyatining pasayishi, diqqatning tez chalg‘ishi va hissiy zo‘riqish bilan kechadi. Shu sababli, o‘quvchilarda raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish, ularni texnologiyalardan ongli va me’yorli foydalanishga o‘rgatish psixologik tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inson psixikasining murakkab tizimida hissiy va irodaviy jarayonlar markaziy o‘rin tutadi. **Hissiy-irodaviy soha** — bu shaxsning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, motivatsiyasi, qaror qabul qilishdagi qat’iyligi va o‘zini boshqarish qobiliyatini birlashtiruvchi psixik tizimdir. Bu soha insonning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasini boshqaradi, uning o‘qish, mehnat, muloqot va ijodiy faoliyatida barqarorlikni ta’minlaydi.

Hissiy soha (emotsional soha) — bu shaxsning turli tashqi va ichki ta’sirlarga javoban paydo bo‘ladigan kechinmalar tizimidir. U quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

- **Hissiyotlar (emotsiyalar)** — voqealarga, insonlar yoki narsalarga nisbatan tezkor psixik javob. Masalan, quvonch, qo‘rquv, hafsalasi pir bo‘lish, hayrat.
- **Kayfiyat** — nisbatan barqaror hissiy fon, u shaxsning butun faoliyatiga ta’sir etadi.
- **Affekt** — qisqa, lekin kuchli hissiy portlash (masalan, g‘azab, vahima).
- **Hissiy barqarorlik** — shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish, stressga bardosh bera olish qobiliyati.

Psixologiyada hissiy barqarorlik o‘quvchilarda ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatning muhim omili sifatida qaraladi [4]. Emotsional jihatdan muvozanatli o‘quvchi o‘qishga ko‘proq e’tibor beradi, o‘z motivatsiyasini saqlay oladi va stress holatlarida o‘zini boshqarishga qodir bo‘ladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalardan ortiqcha foydalanish o‘quvchilarda emotsional charchoqni kuchaytiradi, bu esa diqqatni jamlash va o‘rganish samaradorligini pasaytiradi [2]. Shu bilan birga, interfaol o‘yinlar yoki ta’limiy ilovalar orqali ijobiy hissiyotlarni uyg‘otish hissiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlaydi[5].

Iroda — bu shaxsning ongli ravishda maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarini boshqarish va to‘siqlarga qaramasdan natijaga erishish qobiliyatidir. Irodaviy soha quyidagi komponentlardan iborat:

- **Maqsadni belgilash** – shaxsning ongli harakat yo‘nalishini aniqlashi.
- **Motivatsiya** – faoliyatni davom ettirishga undovchi ichki kuch.
- **Qaror qabul qilish** – muayyan vaziyatda yo‘l tanlash.
- **O‘zini boshqarish va o‘zini tuta bilish** – hissiy impulslarni nazorat qilish, mas’uliyatli xulq ko‘rsatish.

O‘quvchilar uchun irodaviy barqarorlik o‘qishdagi qiyinchiliklarga bardosh berish, diqqatni uzoq vaqt davomida saqlash, mustaqil fikrlash va mas’uliyatni his qilishni ta’minlaydi. Psixologik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, gadjetlardan doimiy foydalanish bu qobiliyatlarni susaytirishi mumkin, chunki diqqatni chalg‘ituvchi omillar (masalan, bildirishnomalar, o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar) o‘zini tuta bilish jarayonlarini zaiflashtiradi [1].

Biroq, raqamli texnologiyalarni nazoratli va maqsadga muvofiq ishlatish o‘quvchilarning irodaviy sohasini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, vaqtni boshqarish ilovalari, ta’limiy o‘yinlar yoki motivatsion dasturlar shaxsda maqsad sari qat’iylik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini kuchaytiradi[3].

Hissiy va irodaviy jarayonlar bir-biridan ajralmas tizimni tashkil etadi. Kuchli irodaviy nazorat shaxsga hissiyotlarini boshqarish imkonini beradi, hissiy muvozanat esa irodaviy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, o‘quvchi salbiy hissiyotlar (zerikish, qo‘rquv, tashvish)ni boshqara olmasa, uning motivatsiyasi pasayadi; aksincha, ijobiy hissiyotlar (qiziqish, ishonch, qoniqish) irodaviy faoliyatni rag‘batlantiradi [6].

Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan smartfon, planshet, kompyuter kabi gadjetlar o‘quvchilarning kundalik hayotiga chuqur kirib borgan. Bugungi kunda ularning aksariyati o‘qish, muloqot qilish, o‘yin o‘ynash va ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish jarayonlarini aynan raqamli muhit orqali amalga oshiradi. Bu holat o‘quvchilarning emotsional holatiga, ya’ni his-tuyg‘ular, kayfiyat, stress darajasi va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gadjetlardan oqilona foydalanish o‘quvchilarda ijobiy hissiy holatni shakllantirishi mumkin. Masalan:

- **Motivatsiyani oshirish:** ta’limiy o‘yinlar, interfaol dasturlar va vizual darsliklar o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish va ichki motivatsiyani kuchaytiradi.
- **Ijtimoiy aloqadorlik hissi:** onlayn muloqot vositalari (chat, videoaloqa, guruhli suhbatlar) orqali o‘quvchilar o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his etadi. Bu esa ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun muhimdir.

• **Ijodiy ifoda imkoniyati:** multimedia ilovalari orqali bolalar o‘z g‘oyalarini ifodalash, videolar, rasmlar, loyihalar yaratish orqali o‘zini namoyon etish hissidan zavq oladilar.

Aksincha, gadjetlardan **ortiqcha yoki nazoratsiz foydalanish** o‘quvchilarning emotsional sohasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

• **Stress va tashvishning ortishi.** Smartfon yoki internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini solishtirish, “yoqtirishlar” soniga bog‘liqlik bolalarda o‘zini past baholash, tashvish va depressiv kayfiyatni kuchaytiradi.

• **Emotsional charchoq.** Doimiy vizual va axborot oqimi miyaning dam olish imkonini cheklaydi, bu esa charchoq, befarqlik, diqqatning tarqoqligi kabi belgilarni keltirib chiqaradi.

• **Ijtimoiy izolyatsiya.** Paradoxal tarzda, onlayn muloqotning ortishi real hayotdagi muloqotni kamaytiradi, bu esa yolg‘izlik hissi, empatiyaning pasayishi va hissiy sovuqlikka olib keladi.

Bundan tashqari, ekran orqali doimiy stimulyatsiya miyadagi dopamin tizimini haddan tashqari faollashtirib, “tez zavqlanish” odatini shakllantiradi. Bu esa real hayotdagi oddiy o‘quv yoki ijtimoiy faoliyatlardan zavqlanish qobiliyatini kamaytiradi. Tadqiqotchilar buni “raqamli hissiy toliqish” (digital emotional fatigue) deb atashadi[6].

O‘quvchilarning emotsional barqarorligini saqlashda quyidagi psixologik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. **Vaqt cheklovi va raqamli intizom.** Gadjetlardan foydalanish uchun aniq vaqt chegaralari belgilash hissiy barqarorlikni saqlaydi.
2. **Raqamli detoks.** Haftasiga kamida bir kun ekranlardan voz kechish miya va his-tuyg‘ularni tiklaydi.
3. **Jismoniy va ijtimoiy faoliyat.** Sport, tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazish va jonli muloqot raqamli muhitning salbiy ta’sirini kamaytiradi.
4. **Emotsional tarbiya.** Stressni boshqarish, empatiya, o‘zini tinchlantirish texnikalarini o‘rgatish o‘quvchilarda raqamli muhitga nisbatan psixologik immunitetni kuchaytiradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, raqamli farovonlik (digital wellbeing) dasturlari o‘quvchilarning stressini kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va ijtimoiy hissiyotlarni barqarorlashtiradi.

Iroda inson psixikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning maqsad sari yo‘naltirilgan harakatlarini boshqarish, to‘siqlarga qaramay natijaga erishish va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini anglatadi. Irodaviy

jarayonlar — bu **motivatsiya, qaror qabul qilish, sabr-toqat, o‘zini boshqarish va diqqatni jamlash** kabi psixik funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Irodaviy jarayonlar shaxsning ongli harakatlarini tartibga soluvchi psixik tizimdir. U quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Maqsadni aniqlash – inson faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi.
2. Motivni shakllantirish – harakatga ichki turtki beradi.
3. Qaror qabul qilish – harakat usulini tanlashni bildiradi.
4. Harakatni amalga oshirish – irodaviy harakatning amaliy bosqichi.
5. O‘zini nazorat qilish – shaxsning harakatlarini baholash va tuzatish jarayoni.

O‘quvchilar hayotida bu bosqichlar o‘qishdagi qat’iyat, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, diqqatni jamlab ishlash va o‘zini rag‘batlantirish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jarayonlarga gadjetlardan foydalanish bevosita ta’sir etadi.

So‘nggi yillardagi psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, gadjetlardan haddan tashqari foydalanish yoki ularning noto‘g‘ri qo‘llanilishi irodaviy jarayonlarni susaytiradi. Quyidagi asosiy salbiy jihatlar aniqlangan:

- **Diqqatning tarqoqligi.** Doimiy bildirishnomalar, o‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlar diqqatni tez-tez chalg‘itadi. Bu esa o‘quvchilarda sistematik fikrlash va uzoq muddatli diqqatni saqlash qobiliyatini pasaytiradi.
- **O‘zini boshqarishning zaiflashuvi.** Gadjetlardan tez-tez foydalanish miya mukofot tizimini (dopamin tizimi) faollashtiradi. Bu “tez zavq olish” odatini shakllantirib, sabr-toqat va uzoq muddatli motivatsiyani kamaytiradi.
- **Prokrastinatsiya (ishlarni kechiktirish).** Ijtimoiy tarmoqlar yoki o‘yinlar o‘quvchining diqqatini asosiy vazifalardan chalg‘itib, vaqtni samarasiz o‘tkazish odatini kuchaytiradi. Shu bilan irodaviy faollik sustlashadi.
- **Raqamli qaramlik sindromi.** Smartfon yoki o‘yinlardan uzoqlashganda bezovtalik, charchoq yoki emotsional tushkunlik yuzaga keladi. Bu holat psixologik mustaqillikni pasaytiradi va shaxsning irodaviy nazoratini zaiflashtiradi.

Biroq gadjetlar irodaviy jarayonlarga faqat salbiy emas, balki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki undan qanday va qanchalik maqsadli foydalanilishidadir. Quyidagi holatlar irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi:

- **Vaqtni boshqarish ilovalari (Time-management apps).** O‘quvchilar kunlik rejalashtirish, topshiriqlarni belgilash va bajarilgan ishni nazorat qilish orqali o‘zini boshqarish va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

• **Ma'lumot izlash va tahlil qilish vositalari.** Mustaqil izlanish, o'z fikrini asoslash va maqsad sari harakat qilish irodaviy faollikni oshiradi.

• **Ta'limiy o'yinlar va raqamli baholash tizimlari.** Bu vositalar o'quvchilarda raqobat ruhini, o'zini sinab ko'rish istagini va irodaviy qat'iyatni kuchaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar ta'sirida o'quvchilarning hissiy va irodaviy sohasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar ularning psixologik salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bu sohada **psixologik profilaktika** chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ya'ni salbiy ta'sirlarni kamaytirish va sog'lom psixologik muhitni shakllantirish dolzarb masaladir. Profilaktika nafaqat salbiy oqibatlarni bartaraf etish, balki o'quvchilarda raqamli madaniyat, o'zini boshqarish va emotsional intellektni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

4.1. Psixologik profilaktikaning asosiy yo'nalishlari

1. Raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish
2. Emotsional intellektni rivojlantirish
3. Irodaviy ko'nikmalarni mustahkamlash
4. O'qituvchi va ota-onalar bilan hamkorlik

Quyida o'quvchilar va pedagoglar uchun ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan:

Yo'nalish	Muammo	Psixologik tavsiya
Hissiy holat	Stress, tashvish, charchoq	"Mindfulness", chuqur nafas mashqlari, dam olish texnikalari
Iroda	Diqqatni jamlay olmaslik, sustlik	Pomodoro metodi, maqsadlar ro'yxati, o'zini baholash kundaligi
Raqamli foydalanish	Gadjetlarga qaramlik	Kunlik vaqt chegarasi (maksimal 3 soat), ekran detoks kuni
Ijtimoiy aloqalar	Yolg'izlik, empatiya yetishmasligi	Guruhli muloqot o'yinlari, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish
Motivatsiya	O'qishga befarqlik	Gamifikatsiya (rag'bat tizimi), o'z yutuqlarini qayd etish

Bu tavsiyalar psixologik muvozanatni saqlash, hissiy-irodaviy sohani barqarorlashtirish va o'quvchilarning raqamli muhitda sog'lom rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, psixologik profilaktika samarali bo'lishi uchun quyidagi **uch bosqichli model**ni qo'llash tavsiya etiladi:

1. **Diagnostika bosqichi** – o'quvchilarning hissiy-irodaviy holatini aniqlash (so'rovnoma, kuzatish, suhbat).

2. **Korreksiya bosqichi** – emotsional tarbiya, motivatsion trening, raqamli madaniyat bo‘yicha mashg‘ulotlar.

3. **Monitoring bosqichi** – psixologik o‘zgarishlarni qayd etish, individual maslahatlar berish.

Bu tizim maktab psixologlari, o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligida amalga oshirilganda eng samarali natijani beradi.

Xullas, zamonaviy gadjetlar o‘quvchilarning hissiy-irodaviy sohasiga ikkiyoqlama ta’sir ko‘rsatadi: ular o‘quv motivatsiyasini oshirishi mumkin, biroq nazoratsiz foydalanish stress, diqqat tarqoqligi va irodaviy zaiflikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun psixologik tadqiqotlarda asosiy e’tibor o‘quvchilarda raqamli madaniyat va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chen, L., Wang, X., & Hu, J. (2022). *Smartphone use and self-control among students: A psychological perspective.* Journal of Educational Psychology and Technology.

2. Kim, S., & Lee, H. (2020). *Smartphone addiction and its relationship with anxiety and depression among students.* International Journal of Mental Health Studies.

3. Liu, Y., & Zhao, Q. (2020). *Self-regulation and digital media use in children: The role of parental guidance and emotional balance.* Journal of Child Psychology and Education.

4. Markova, O. (2021). *The relationship between emotional intelligence and Internet addiction among adolescents.* Journal of Psychology and Behavioral Sciences.

5. Park, J., Kim, M., & Choi, S. (2019). *Positive and negative effects of smartphone use among children and adolescents.* Child Development and Digital Media Journal.

6. Zhou, T., Li, P., & Sun, R. (2023). *Effectiveness of digital wellbeing interventions for adolescents: A meta-analytic review.* Journal of Adolescent Digital Behavior Studies.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ — ОСНОВНОЙ ИСТОЧНИК СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Собирова Дурдона Абдусаматовна
Преподаватель кафедры методики дошкольного,
начального и специального образования
Ферганского областного центра
педагогического мастерства
г. Фергана, Республика Узбекистан
тел.: +998 945550888

Аннотация

В статье рассматривается роль цифровых технологий в развитии современного образовательного процесса. Анализируются основные направления внедрения цифровых инструментов в образование, их влияние на качество обучения и формирование компетенций обучающихся. Особое внимание уделяется вопросам цифровизации образования в условиях современных вызовов.

Ключевые слова: цифровые технологии, образование, цифровизация, образовательный процесс, инновации, дистанционное обучение, искусственный интеллект.

Введение

Современное образование находится на этапе активной трансформации, обусловленной стремительным развитием цифровых технологий. В рамках проведения республиканской научно-практической конференции, посвящённой преемственности поколений в образовании, особую актуальность приобретает вопрос использования цифровых технологий как ключевого ресурса совершенствования образовательного процесса.

Цифровизация образования открывает новые возможности для повышения качества обучения, индивидуализации образовательных траекторий и расширения доступа к знаниям.

Основная часть

1. Сущность цифровых технологий в образовании

Цифровые технологии в образовании представляют собой совокупность инструментов и ресурсов, основанных на использовании информационно-коммуникационных технологий. К ним относятся:

- электронные образовательные платформы;
- системы дистанционного обучения;
- мультимедийные средства;
- технологии искусственного интеллекта;
- виртуальная и дополненная реальность.

Их внедрение способствует переходу от традиционной модели обучения к интерактивной и гибкой образовательной среде.

2. Роль цифровых технологий в совершенствовании образовательного процесса

Цифровые технологии выполняют ряд ключевых функций:

1. Повышение доступности образования

Онлайн-платформы позволяют обучаться независимо от географического положения.

2. Индивидуализация обучения

Цифровые инструменты позволяют учитывать уровень подготовки, темп обучения и интересы каждого учащегося.

3. Интерактивность и вовлеченность

Использование мультимедиа, симуляций и интерактивных заданий повышает мотивацию обучающихся.

4. Развитие цифровых компетенций

формируются навыки, необходимые для жизни и работы в цифровом обществе.

3. Использование искусственного интеллекта в образовании

В соответствии с тематикой конференции, особое внимание уделяется применению технологий искусственного интеллекта в образовательной деятельности.

ИИ позволяет:

- автоматизировать проверку знаний;
- анализировать успеваемость;
- формировать персонализированные рекомендации;
- создавать интеллектуальные обучающие системы.

4. Проблемы и вызовы цифровизации образования

Несмотря на очевидные преимущества, существуют определённые трудности:

- недостаточная техническая оснащённость;
- низкий уровень цифровой грамотности педагогов;
- риск снижения живого общения;

- вопросы информационной безопасности.

Для эффективной цифровизации необходимо комплексное решение этих проблем.

Заключение

Цифровые технологии являются важнейшим фактором модернизации современного образования. Их грамотное внедрение способствует повышению качества обучения, развитию ключевых компетенций и формированию конкурентоспособной личности.

Таким образом, цифровые технологии выступают не просто инструментом, а стратегическим ресурсом совершенствования образовательного процесса в условиях глобальных изменений.

Список литературы

1. Методика организации технологий социально эмоционального обучения и развития в системе дошкольного образования Фергана 2026 Методическое

2. Полат Евгения Семеновна Инновационные педагогические технологии –М Академия 2020 Москва

3. Роберт Игоревич Современные информационные технологии в образовании –М БИНОМ 2021 Москва

4. Цифровая трансформация образования Под ред А Ю Уварова-издательский дом НИУ ВШЭ 2022 Москва

KASB TANLASH - HAYOT YO‘LIDA MUHIM QADAM

Ubaydulla Axrorovich Kosimov
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
«Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari»
kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotasiya: Har bir shaxs kasbga barqaror qiziqishi, maylga muvofiq tanlashi, shu bilan birga o‘zida dadillik, qat'iyat, intizomlilik, o‘ziga va o‘z imkoniyatlariga ishonch, qaror qabul qilishdagi mulohazalilik kabi irodaviy sifatlarni rivojlantirishga ham intilishi kerak. Shuning uchun o‘quvchilarning ilm-fan asoslariga oid bilimlarini rivojlantirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy va milliy axloqiy sifatlarni o‘zaro uyg‘unlikda kamol toptirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash hozirgi kun maktab ta'limining asosiy vazifalaridir.

Kalit so‘zlar: kasb-hunarga yo‘naltirish muammolari, kasbini to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarining kasb tanlashlari bilan bog‘liq faoliyatini o‘rganishimiz

Аннотация: Каждый человек должен иметь устойчивый интерес к профессии, выбирать её по своим склонностям и одновременно стремиться развивать такие волевые качества, как смелость, решительность, дисциплина, уверенность в себе и самостоятельность, а также осмотрительность в принятии решений. Поэтому развитие знаний учащихся об основах науки, воспитание в них высокого сознания, гармоничное развитие универсальных и национальных нравственных качеств, подготовка молодого поколения к жизни и труду, а также осознанный выбор общественно необходимых профессий являются сегодня главными задачами школьного образования.

Ключевые слова: проблемы профессиональной ориентации, правильный выбор профессии, изучение деятельности учащихся, связанной с выбором профессии.

Abstract: Each person should have a stable interest in the profession, choose it according to his inclinations, and at the same time strive to develop such volitional qualities as courage, determination, discipline, self-confidence and self-reliance, and prudence in decision-making. Therefore, the development of students' knowledge of the foundations of science, the upbringing of high consciousness in them, the harmonious development of universal and national moral qualities, the preparation of

the younger generation for life and work, and the conscious choice of socially necessary professions are the main tasks of school education today.

Keywords: problems of vocational guidance, the right choice of profession, the study of students' activities related to their choice of profession

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida umumiy o‘rta ta'lim maktablarining yosh avlodni jamiyatimizni taraqqiy ettirishda qatnashishga tayyorlash borasidagi mas'uliyati har qachongidan ko‘ra ortib bormoqda. Shu munosabat bilan o‘quvchilarning ilm-fan asoslari oid bilimlarini rivojlantirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy va milliy axloqiy sifatlarni o‘zaro uyg‘unlikda kamol toptirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash hozirgi kun maktab ta'limining asosiy vazifalaridir.

Sanab o‘tilgan vazifalar qatorida o‘quvchini o‘zining kelajakdagi kasbini to‘g‘ri tanlashga yo‘naltirish alohida ahamiyatga ega. Zero kasb tanlash - insonning hayot yo‘lida o‘ziga xos burilish yasaydigan muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayoti davomidagi faoliyati ko‘p jihatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Kasbni to‘g‘ri tanlash -har bir o‘smirning oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Kasb tanlashdan maqsad jamiyatga va oilaga foyda keltirib, inson o‘zi ham moddiy, ham ma'naviy qoniqish hosil qilishidir.

Har bir shaxs kasbga barqaror qiziqishi, maylga muvofiq tanlashi, shu bilan birga o‘zida dadillik, qat'iyat, intizomlilik, o‘ziga va o‘z imkoniyatlariga ishonch, qaror qabul qilishdagi mulohazalilik kabi irodaviy sifatlarni rivojlantirishga ham intilishi kerak.

Biz maktab o‘quvchilarining kasb tanlashlari bilan bog‘liq faoliyatini o‘rganishimiz davomida ular duch keladigan quyidagi asosiy muammolarni aniqladik: sog‘lig‘ining ma'lum bir kasb talablariga muvofiq kelmasligi, kasbga yaroqsizlik, mos kelmaslik, kasb tanlashda yetarlicha ongli va mustaqil fikrlay olmaslik, o‘z-o‘zini tarbiyalay olmaslik, kasb tanlashda xatoliklarga yo‘l qo‘yish va boshqalar.

Fikrimizga ko‘ra, ushbu muammolar ichida kasb tanlashda o‘quvchilarning yo‘l qo‘yadigan xatoliklari o‘zining dolzarbligi va ahamiyatliligi bilan ajralib turadi.

O‘quvchi o‘z kasbini shunday tanlashi kerakki, kelgusida mashg‘ul bo‘ladigan faoliyat turi uning o‘zida ham qoniqish hosil qilsin va shu bilan birga jamiyatga foyda ham keltirsin.

Biz ushbu muammoni o‘rganish maqsadida turli adabiyot xamda me'yoriy hujjatlarni o‘rganib, o‘quvchilyor bilan anketa so‘rovlari o‘tkazdik. Amalga oshirgan tahlillarimizga ko‘ra kasb tanlashda asosan quyidagi xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi:

- O‘quvchilarning tanlagan kasblari yuzasidan to‘la axborotga ega bo‘lmasdan, o‘z oldilariga birdaniga oliy malaka talab qiluvchi yuksak kasbni egallashni maqsad qilib qo‘yishlari. Inson kelgusida o‘z ishining haqiqiy ustasi bo‘lib yetishishi uchun o‘z mehnat faoliyatini nimadan boshlashi to‘g‘risida jiddiy o‘ylab ko‘rmog‘i kerak.
- O‘quvchilarning kasblar nufuzli yoki nufuzsiz bo‘ladi degan xato tushunchaga ega bo‘lishlari kasb tanlashdagi xaqqoniylikni buzilishiga olib keladi. Bu boradagi xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘quvchilarda kasblarning yomoni bo‘lmasligi, har qanday sohada yetuklikka erishish avvalo insonning o‘zida mujassam bo‘lgan sifatlarga bog‘liq ekanligini anglab yetishlariga ko‘maklashish talab etiladi.
- "Sheriklardan orqada qolmaslik uchun" kasb tanlash. Bu boradagi xatoliklarni bartaraf etish uchun o‘quvchilarga u yoki bu kasbni tanlashda birinchi yoki oxirgi bo‘lishdan ko‘ra o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari hamda salomatligiga mos keladigan kasbni tanlashi axamiyatliroq ekanligini tushuntirish lozim.
- Biror kasb egasi bo‘lgan kishiga qaratilgan munosabatni kasbning o‘ziga ko‘chirish. Har bir insonni kasbga bo‘lgan munosabati, kasbning mehnatiga bo‘lgan munosabati turlicha bo‘ladi. Masalan, ba'zida o‘quvchi shoferlik kasbi egalari.qiyofasida doimo avtomobilda xush kayfiyatda xizmat vazifalarini bajarib yuradigan insonlarni tasavvur qiladi. Biroq, har qanday kasbda bo‘lgani kabi, shoferlik kasbining ham ko‘plab qiyin va murakkab, mashaqqatli tomonlari borligini o‘quvchilar har doim ham tasavvur qilavermaydi.
- Kasbning faqat tashqi yoni xususiy bir **jihatiga qiziqishi** o‘quvchini ko‘p muammolarga olib keladi. Jumladan, kasb tanlash formulasiga ko‘ra o‘quvchida mavjud bo‘lgan qobiliyat va salomatligi o‘zaro mos kelmasligi mumkin. Kasb tanlashda hal qilinishi lozim bo‘lgan har qanday masalaga kompleks yondashish, muammoning barcha qirralarini o‘zaro

mujassam holda tasavvur qilish hamda uiing talablarini har tomonlama qondiradigan yechimni topish muhim ahamiyat kasb etadi.

- O‘quv predmetining kasbga tenglashtirilishi. O‘quvchilar ba'zida o‘zlari yoqtirgan, yengil o‘zlashtiradigan o‘quv fanini kelajakda egallaydigan kasbi bilan uzviy davomiylikda tasavvur qiladilar. Biroq, yaxshi ma'lumki, o‘quvchi har qanday kasbni egallash uchun o‘zida ko‘plab o‘quv fanlarini mujassam etgan va bundan tashqari ta'lim jarayonining zaruriy komponenti sifatida talab etiladigan ko‘plab boshqa mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oluvchi kasbiy ta'lim jarayoni o‘tganidan keyingina muayyan kasb egasi bo‘lib yetishadi. Bu borada o‘quvchilarni kasbiy ta'lim jarayonining mohiyati bilan to‘laroq tanishtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatning xarakteri to‘g‘risidagi eski tushunchalar, ularni bartaraf etish maktab yoki kollejlarning iqtisodiy jihatdan saloxiyatli xomiylarni joylardan qidirishi, mehnat va kasb ta'limi jarayonini ishlab chiqarishga yo‘naltirib, foyda beradigan omillarni o‘rganib daromad oladigan holatga keltirishga oid tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etishiga bog‘liq.

Ko‘plab ota-onalar kasb tanlashdagi pedagogik, metodik, huquqiy va boshqa axborotlar bilan yetarlicha tanish bo‘lmaganliklari tufayli:

- farzandlariga noto‘g‘ri yo‘nalish beradilar;
- farzandlarining istak-qobiliyatlarini hisobga olmasdan maslahat beradilar;
- kasb tanlashda yoshlarning o‘zlari anglamagan holda oliy o‘quv yurtlariga kirishga intilishlari ishlab chiqarish kasblariga bo‘lgan salbiy munosabatni keltirib chiqarmoqda;
- kasb-hunar kollejida egallayotgan mutaxassisligiga qanoat qilmagan ayrim yoshlar o‘qish o‘rtasida tamoman boshqa kasblarni o‘zlashtirishga intilmoqdalar.

Bulardan tashqari o‘quvchilarning o‘zi xohlagan, qiziqqan o‘quv yurtiga o‘qishga kiraolmasliklari natijasida boshqa mutaxassislikni o‘qitadigan o‘quv yurtlari kasblarini tanlashi, bunda ko‘proq ota-ona xohishi bilan ish yuritish kabi ko‘plab holatlar mavjud.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, hali ham ba'zi maktablarda kasbga yo‘naltirish ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan. Kasb tanlash markazlari, o‘quv yurtlarining qabul komissiyalari, ota-onalar bilan aloqalar hamma maktablarda ham qoniqarli emas. Hozirgi zamon ishlab chiqarishida fan-

texnika taraqqiyoti natijasida texnika-texnologiyaning doimiy ravishda yangilanib turishi haqida o‘quvchilarga yetarlicha axborot berib borilmayapti.

Bu boradagi kamchiliklarning bartaraf etilishi o‘quvchilar kelajakda zamonamizga kerakli yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari, avvalo o‘zi, so‘ngra oilasi va jamiyatimizga kerakli mutaxassis bo‘lib yetishishiga zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. E.G'.G'oziyev. K.K.Mamedov "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003 y.
VOLUME 7, ISSUE 1, 2023
2. F.R.Abduraxmonov. Z.E.Abduraxmonova. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018 y.
3.D.M. Anvarova Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari Nashriyot: T., 2016 Fan va texnologiya, Betlar: 128

O’QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Ulug'bek Musaev,
Zarmed Samarqand universiteti o'qituvchisi

Annotasiya. Maqolada математика ўқитишда комбинатоика масалларини ўрганишнинг ўзига хос хусусиятлари, миллий ўқув дастури мазмунидан келиб чиқиб, uzluksiz ta’lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta’minlanmaganligi ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Калит сўзлар. комбинаторика, бошланғич таълим, узлуксиз таълим, компетенция, математика, педагогика, таълим ва тарбия.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ.

Мусаев Улугбек преподаватель Самаркандского университета имени Зармеда

Аннотация. В статье рассмотрены особенности изучения комбинаторных задач в обучении математике, исходя из содержания национальной учебной программы, отсутствие преемственности программ естественных наук в системе непрерывного образования отрицательно сказывается на качестве и эффективности образования.

Ключевые слова. *Комбинаторика, начальное образование, дополнительное образование, компетентность, математика, педагогика, воспитание и обучение.*

PSYCHOLOGICAL APPROACH TO DEVELOPING STUDENTS' LOGICAL THINKING

Ulugbek Musaev, Lecturer, Zarmed Samarkand University

The article discusses the features of the study of combinatorial problems in teaching mathematics, based on the content of the national curriculum, the lack of continuity in the programs of natural sciences in the system of continuous education has a negative impact on the quality and effectiveness of education.

Key words. combinatorics, primary education, additional education, competence, mathematics, pedagogy, education and training.

Maktab ta’limni bolaning har xil fazilatlari, xususan, uning mantiqiy fikrlashi jadal rivojlanib boradigan tarzda qurishga majburdir. 9-10-sinflarda matematika bunga to’liq mos keladi. Shu bilan birga, "chap yarim shar" tafakkurining rasmiy-mantiqiy tarkibiy qismlari har qanday imo-ishora materialini odamlar o’rtasida muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo’lgan qat’iy tartibli va aniq tushunilgan kontekstni yaratadigan tarzda tashkil qiladi, deb ishoniladi. Bu nafaqat so’zlar, balki boshqa ramzlar, alomatlar va hatto tasvirlar bo’lishi mumkin, ya’ni ob’ektlar va hodisalar orasidagi barcha haqiqiy va potentsial aloqalardan bir-biriga qarama-qarshiliklar yaratmaydigan va ma’lum bir kontekstga mos keladigan bir nechta aniq tanlangan.

Ba’zi ma’lumotlarga ko’ra, o’ng yarim sharning etukligi chapga qaraganda tezroq davom etadi va shuning uchun rivojlanishning dastlabki davrida uning psixologik faoliyatga qo’shgan hissasi chap yarim sharning hissasidan oshib ketadi, hatto 9-10 yoshgacha bo’lgan bola o’ng miya jonzoti deb ta’kidlaydi. Ushbu baho ba’zi bir asoslardan mahrum emas, chunki u maktabgacha yoshdagi va qisman boshlang’ich maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishining ba’zi xususiyatlari bilan bog’liq.

10-11 yoshida miyada o’zgarishlar yuz beradi, chap yarim shar tezroq rivojlana boshlaydi. Matematikani o’qitishda mantiqiy fikrlashni maxsus usulda rivojlantiradigan fan sifatida ushbu holatni hisobga olish kerak. Ushbu jarayonda bola tobora nafaqat tasvirlarda o’ylashni boshlaydi, balki u mavhumlash imkoniyatiga ega. Shu erdan boshlab, yosh o’spirinlarga matematikani o’rgatishda miya yarim sharlarining yoshga bog’liq assimetriyasini hisobga olish kerak . Xususan, ta’lim vazifalarini modellashtirish, ularni darsda o’ynash, ma’lum bir ta’lim vazifasiga nisbatan o’zlarining hamdardligi bilan bog’liq tasvirlarni to’plashdan foydalanish.

Psixologik adabiyotidagi kombinatorika va ehtimollar nazariyasi masalasining mazmuni mantiq, kombinatorika, statistika elementlari va ehtimolliklar nazariyasi.

Dalillar. Ta’riflar, dalillar, aksiomalar va teoremalar, natijalar.

Kerakli va etarli shartlar. Qarama-qarshi misol . Qarama-qarshilik bilan isbot. To’g’ridan-to’g’ri va suhbat teoremalari.

Aksiomatika tushunchasi va geometrik echimlarning aksiomatik qurilishi. Evklidning beshinchi postulati va uning tarixi.

To’plamlar va kombinatorika. Bir guruh. To’plam elementi, kichik to’plam. To’plamlarning birlashishi va kesishishi. Eyler diagrammasi.

Kombinatorial masalalarni echishga misollar: variantlarni sanab o’tish, ko’paytirish qoidasi.

Statistik ma’lumotlar. Ma’lumotlarni jadvallar, diagrammalar, grafikalar shaklida taqdim etish. O’rtacha o’lchov natijalari. Namuna asosida statistik xulosani tushunish. Tasodifiy hodisalar tushunchasi va misollari.

Ehtimollik. Voqealar chastotasi, ehtimollik. Bir xil mumkin bo’lgan hodisalar va ularning ehtimolligini hisoblash. Geometrik ehtimollik tushunchasi.

Uchinchi ming yillikning boshlarida ehtimollik va statistik qonunlarning universalligi aniq bo’lib, ular dunyoning ilmiy manzarasini tavsiflash uchun asos bo’ldi. Va hayotidagi bola har kuni ehtimollik holatlariga duch keladi, chunki o’yin va hayajon uning hayotining ajralmas qismidir. Ehtimollar va ishonchlilik tushunchalari o’rtasidagi bog’liqlikni tushunish, bir nechta variantlardan eng yaxshi echimni tanlash muammosi, xavf darajasi va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini baholash, o’yinlarda va hayotdagi to’qnashuvlarda adolat va adolatsizlik g’oyasi bilan bog’liq masalalar doirasi - bularning barchasi, shubhasiz, real sohada shaxsni shakllantirish va rivojlantirish manfaatlari.

Zamonaviy matematik ta’lim standartlari va dasturlari asosiy tushunchalar propedevtikasini, vizual, intuitiv darajada 5-6 sinflarda ehtimollik va statistik qonunlar bilan tanishishni, asosiy tushunchalarni belgilashni, 7-9 sinflarda asosiy ehtimollik va statistik modellarni yaratish va o’rganishni o’z ichiga oladi.

Kursning boshqa mavzulari bilan uzviy bog’langan, 5 dan 9 gacha bo’lgan sinflarga qadar, ehtimollik-statistika chizig’i chizilgan birinchi darsliklar yangi nashr etilgan "Matematik 5-6" o’quv qo’llanmasi. G.V. Dorofeeva va I.F. Sharigin , "Matematika 7-9", tahr . G.V. Dorofeeva. ushbu o’quv to’plamlarida metodologik va psixologik jihatdan asosiy maktab o’quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan ehtimollik tushunchasiga statistik yondashuv qabul qilingan.

Yangi darsliklar to’plamidan foydalanishda matematikani o’rganishga bo’lgan qiziqishning saqlanib qolishi nafaqat qo’shimcha mavzular, balki ko’ngilochar muammolar soni orqali ham ta’minlanadi.

Tahlilni kombinatorial printsipini, takroriy va takrorlanmasdan har xil turdagi kombinatsiyalarni (almashtirish, joylashtirish, kombinatsiyalar) va ularni hisoblash formulalarini ko’rib chiqadilar. Ehtimollar nazariyasiga kelsak, Dorofeev tasodifiy hodisa tushunchasi va kombinatorika formulalari yordamida ehtimolliklar hisobini ko’rib chiqadi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish. Faqatgina ehtimollar nazariyasiga tegishli masalalar ko’rib chiqildi. Bu ehtimollikning klassik ta’rifi, umumiy populyatsiya va tanlov tushunchasi, ularning parametrlari va taxminlari, shuningdek hodisa chastotasi bo’yicha taxmin qilish.

"Kombinatorikaning boshlanishi" mavzusida informatikadan amaliy

mashg’ulotlar o’tkazish metodikasini ishlab chiqdilar. Nazariy material formulasiz kombinatorikaga asoslangan : kombinatsiyalar, almashtirish va pastki to’plamlarni yaratish, summandlarga ajralish. Bundan tashqari, barcha mumkin bo’lgan echimlar orasidan berilgan qo’shimcha talabni qondiradigan tanlovni tanlash talabidan iborat muammolar taklif etiladi .

Sinflarni o’tkazish tajribasi kombinatoriya vazifalarining o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish - evristik fikrlashning to’liq sxemasini amalga oshirish orqali tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish vositasi: muammolarni tahlil qilish, gipoteza va ularni tekshirish vositasi qanchalik muhimligini tasdiqladi. Bundan tashqari, o’quvchilarning matematikaga va informatika faniga bo’lgan qiziqishi ancha yuqori darajada saqlanib, fanlararo aloqalar mustahkamlanadi .

Ehtimollar nazariyasi bo’yicha fakultativ kursni o’tkazish uchun darslikda Lyutikas V.S. Birinchidan, ehtimollik nazariyasining o’tmishidan ma’lumot beriladi, so’ngra kombinatorika, voqea sodir bo’lishi ehtimoli, ehtimolliklar bo’yicha operatsiyalar, mustaqil qayta sinovlar (Bernulli, Moivre-Laplas, Puasson va Laplas formulalari), diskret va uzluksiz tasodifiy o’zgaruvchilar etarlicha batafsil va tizimli ravishda ko’rib chiqiladi va har xil qiziqarli muammolar (masalan, Buffon muammosi, Bertran paradoksi va boshqalar). Ushbu kitob ham uslubiy, ham bilim nuqtai nazaridan qiziqarli. U o’qituvchiga ham, talabaga ham bir xil darajada kirish mumkin, chunki u sodda, tushunarli tilda yozilgan, unda ko’plab jadvallar, diagrammalar mavjud, barcha boblar o’zaro bog’liqdir. Materiallar tizimli bo’lib, asta-sekin murakkablashadi.

Kitob matematikani chuqur o’rganadigan maktablarda va sinflarda ishlaydigan o’qituvchilar uchun mo’ljallangan. Unda ba’zi nazariy masalalarni o’rganish va muammolarni hal qilish, darslarni rejalashtirish bo’yicha ko’rsatmalar, barcha mavzular bo’yicha mustaqil va nazorat ishlarining namunalari keltirilgan; ushbu materiallar Vilenkin N.Ya., Ivashev- Musatov O.S darsligiga muvofiq yozilgan . va Shvartsburd S.I.

Kitob elementar kombinatorika, ehtimollar nazariyasi va ularni qo’llashga bag’ishlangan bo’lib, unda nazariy-nazariy til muntazam ravishda qo’llanilmoqda. Ushbu tilning mavhumligi ko’plab batafsil misollar bilan qoplanadi. Muammolar mustaqil ravishda o’qilishi mumkin bo’lgan alohida qismlarga ajratilgan . Bu kombinatorika va ehtimollar nazariyasi qo’llanmalariga oid oddiy modellar bilan shug’ullanadi. Kitob ham o’qituvchilar, ham talabalar, ham talabalar uchun mo’ljallangan.

Sinfdan tashqari o’qish uchun kitob

mualliflari Balk M.B., Balk G.D. qiziqarli taqdimotda ular kombinatorika va ehtimollik nazariyasini beradi, nazariya bilan bir qatorda ushbu kitobda bolalarga sinfda yoki matematikadan fakultativ ravishda berilishi tavsiya etilgan tarixiy ma’lumotlar mavjud. Nazariyadan so’ng, takrorlanadigan va takrorlanmaydigan ko’ngilochar ulanish muammolari to’plami taqdim etiladi. Imtiyozlardan farqli o’laroq Lyutikasa VS ehtimolliklar nazariyasidagi sinflar uchun material faqat bir yoki ikkita tematik sinflar uchun taqdim etiladi va kombinatorika ehtimollar nazariyasi bilan bog’liq holda ko’rib chiqiladi. Ammo kitobda kombinatorika va ehtimollar nazariyasi bo’yicha katta adabiyotlar ro’yxati keltirilgan.

"Statistika elementlari va ehtimollar nazariyasi" darsligida VII - IX sinflarda matematikani o’rganish haftasiga 5 soat berilganligi asosida statistika va ehtimollar nazariyasi elementlari, shuningdek uslubiy sharhlar va rejalashtirish bo’yicha nazariy va amaliy materiallar mavjud .

Kichik qo’llanma to’rt qismdan iborat bo’lib, darsliklarga quyidagilarni qo’shadi:

1. Statistik tavsiflar.
2. Statistik tadqiqotlar.
3. Kombinatorika elementlari.
4. Ehtimollar nazariyasidan dastlabki ma’lumotlar.

Har bir xatboshida nazariy ma’lumotlar va tegishli mashqlar mavjud. Parchaning oxirida ko’rib chiqish uchun mashqlar berilgan. Har bir paragraf uchun asosiy mashqlar bilan taqqoslaganda yuqori darajadagi qo’shimcha mashqlar berilgan.

Bir qator ma’lumotlarning **o’rtacha arifmetikasi** asosiy statistik ko’rsatkichlardan biridir. U statistikada o’rtacha kvadrat, harmonik o’rtacha kabi o’rtacha qiymatlar bilan birga qo’llaniladi.

Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning grafik usullarini batafsil muhokama qilishadi. Shu bilan birga, diskret ma’lumotlarning chastotali taqsimlanishini aks ettirish uchun chiziqli jadvaldan foydalanish taklif etiladi.

Kombinatorial elementlar an’anaviy ravishda taqdim etiladi. Birinchidan, oddiy misollardan foydalanib, biz mumkin bo’lgan variantlarni sanab, kombinatoriya muammolarini echimini namoyish etamiz. Keyin kombinatorial ko’paytirish qoidasi (ko’pincha mahsulot qoidasi deb ataladi) tushuntiriladi va tuziladi.

So’ngra permütasyonda tushunchalarni, tashkil n tomonidan elementlar K va birikmasi n tomonidan elementlar k izchil joriy etilmoqda . Ko’paytirishning kombinatorial qoidasidan foydalanib, barcha mumkin bo’lgan almashtirishlar,

tartiblar va berilgan n sonli elementlarning kombinatsiyalari sonini hisoblash uchun formulalar olinadi. Materialning taqdimoti mustaqil echim uchun juda ko’p sonli muammolar bilan birga keladi. Elementlarni takrorlash bilan birikmalar ko’rib chiqilmaydi (bir nechta oddiy misollardan tashqari).

Xulosa qilib aytganda, ikkita mustaqil hodisaning birgalikda sodir bo’lishidan iborat bo’lgan voqea ehtimoli to’g’risida bayonot tuzdilar. Shu bilan birga, "tasodifiy hodisalar mahsuloti" tushunchasi ham kiritilmagan, shartli ehtimollik tushunchasi ham kiritilmagan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, juda ko’p miqdordagi turli xil murakkablik darajasidagi qiziqarli, yaxshi tanlangan mashqlar mavjud bo’lib, ularning aksariyatiga javoblar va echish uchun ko’rsatmalar berilgan. Afsuski, javoblarda ko’plab noto’g’ri izohlar mavjud.

Buning uchun barcha mumkin bo’lgan variantlarni sanab o’tishingiz yoki ularning sonini hisoblashingiz kerak. Bunday echimni talab qiladigan muammolar **kombinatoriya** muammolari deb ataladi **.** Kombinatorial masalalar o’rganiladigan matematika sohasi kombinatorika deyiladi **.**

Kombinatorika XVI asrda paydo bo’lgan va dastlab asosan qimor o’yinlari bilan bog’liq bo’lgan kombinatoriya muammolari bilan shug’ullangan. Bunday muammolarni o’rganish jarayonida ularni hal qilishning ba’zi umumiy yondashuvlari ishlab chiqildi, turli xil kombinatsiyalar sonini hisoblash formulalari olindi.

Kombinatorika hozirgi vaqtda matematik fanning muhim sohalaridan biridir. Uning usullari amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda keng qo’llaniladi. Kombinatorikaning matematikaning boshqa tarmoqlari bilan aloqalari o’rnatildi.

Matematikani boshlang’ich o’qitishda kombinatoriya masalalarining o’rni doimiy ravishda oshib boradi, chunki ular nafaqat o’quvchilar tafakkurini rivojlantirish, balki o’quvchilarni kundalik hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga tayyorlash uchun katta imkoniyatlarga ega.

Matematikaning boshlang’ich kursidagi kombinatoriya masalalari, qoida tariqasida, sanab chiqish usuli bilan hal qilinadi. Ushbu jarayonni osonlashtirish uchun ko’pincha jadvallar va grafikalar ishlatiladi. Shu munosabat bilan o’qituvchiga kombinatoriya masalalarini hal qilish uchun ma’lum mahorat va ko’nikmalar kerak.

KOMBINATORIKA - matematikaning ma’lum bir shartlarga bo’ysungan holda turli xil kombinatsiyalarni yaratish mumkinligi haqidagi savollarni o’rganadigan bo’limi.

Kombinatorika ehtimollar nazariyasiga kirish sifatida qaralishi mumkin, chunki kombinatorial usullar ko'plab ehtimoliy muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi, bu erda biz mumkin bo'lgan natijalar sonini va har xil aniq holatlarda ijobiy natijalar sonini hisoblash haqida gapiramiz .

Ob'ektlarni tanlash va ularni u yoki bu tartibda joylashtirishni inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida hal qilish kerak.

Qadimgi davrlarda odamlar kombinatoriya deb ataladigan o'xshash muammolarga duch kelishgan. Bir necha ming yillar ilgari Qadimgi Xitoyda ular sehrli kvadratlarni chizish orqali olib ketilgan bo'lib, unda berilgan raqamlar barcha gorizontal, vertikal va asosiy diagonallar bo'yicha yig'indisi bir xil bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda ular she'riy kattalikdagi uzun va qisqa so'zlarning turli xil birikmalarini hisoblashgan, jingalak sonlar nazariyasini o'rganish, maxsus kesilgan kvadrat qismlaridan yasash mumkin bo'lgan raqamlarni o'rganish va h.k.

Kombinatoriya muammolari shashka, shaxmat, domino, karta, zar va boshqalar kabi o'yinlar bilan bog'liq holda ham paydo bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to_g_risida. Uzbekiston Respublikasi rezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

2. Дрига, V. И. Разvитие профессиональной карьеры соvременного педагогаv услоviях креативного образоvания / V. И. Дрига // Стандарты и мониторинг v образоvании.— 2012.— № 4.— С. 48–51

3. Djumaev M. Mathematical regularity and development of creative thinking of students. Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft /German International Journal of Modern Science. Edition: № 28/2022 (February) – 28th Passed in press in February 2022 №28 2022. 26-28 st.

4. Dzhumaev Mamanazar Irgashevich, professor at the Tashkent State University named after Nizami. Tashkent city (Uzbekistan).Use of Computer Software in Education of Students in Primary School and Preschool. www.biogenericpublishers.com.28.09.2021 Angilya.

5. Djumayev M.I. Kamoloiva F. Elementar matematikani o'qitishda kvadratik funksiyaning geometrik talqini. Fizika matematika va informatika jurnali.2022 yil 6 son.96-106 bet

6. Петерсон Л.Г. Моделироvание как средстvо формироvания предстаvлений о понятии функции v 4-6 классах средней школы. Дис. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. -М., 1984. -201с.

7 . Internet saytlari. www.tdpu.uz www.pedagog.uz www.edu.uz

www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
http://ziyonet.uz – Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portal
http:// www.uzviylik.tdi.uz

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA AJDODLARIMIZ YONDOSHUVLARI

To‘rayeva Sayyora Sattorovna
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
sayyora to‘rayeva 4 @ gmail. com
tel: 915889980

Annotatsiya:Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimizning pedagogik qarashlari va yondoshuvlari tahlil qilinadi.Shuningdek maqolada buyuk ajdodlarimizning ilm-fan, axloqiy tarbiya, komil insonni shakllantirish hamda ustoz shogird munosabatlariga oid fikrlari yoritilgan va ajdodlarimizning boy pedagogik merosi bugungi ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim manba ekanligi misollarda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, ilm-fan, ma’naviy merosi, texnologiya, mehnat, aqliy ,bilim, ichki kamoloti, ruhiy barqarorlik, ma’naviy, kasb-hunar o‘rganish, ma’rifat, tamal toshi,qudratli.

Abstract: This article analyzes the pedagogical views and approaches of our ancestors in the educational and upbringing process. The article highlights the ideas of our great ancestors regarding science, moral education, the formation of a well-rounded individual, and teacher–student relationships. It also demonstrates, through examples, that the rich pedagogical heritage of our ancestors serves as an important source for improving contemporary educational and upbringing practices.

Keywords: education and upbringing, science, spiritual heritage, technology, labor, intellectual development, knowledge, inner perfection, psychological stability, spirituality, vocational education and skills acquisition, enlightenment, cornerstone, powerful.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические взгляды и подходы наших предков в процессе обучения и воспитания. В статье освещаются идеи великих предков, касающиеся науки, нравственного воспитания, формирования гармонично развитой личности, а также взаимоотношений между учителем и учеником. На конкретных примерах показано, что богатое педагогическое наследие наших предков является важным источником совершенствования современного образовательного и воспитательного процесса.

Ключевые слова: образование и воспитание, наука, духовное наследие, технологии, труд, интеллектуальное развитие, знания, внутреннее совершенствование, психологическая устойчивость, духовность,

профессиональное обучение и освоение ремесла, просвещение, краеугольный камень, могущественный.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek:" Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi, har birimizga kuch-quvvat va ilxom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday rux bilan sug'orishimiz kerak. Shundagina ajdodlarimizning bu o'lmas merosi yurtimizning bugungi kundagi barqaror rivojlanishi uchun tulaqonli xizmat qiladi.

Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani yoshlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari talab etiladi. Bunda Paygambarimizning kishilarni beshikdan to qabrgacha ilm izlashga da'vat etuvchi hadislari hamda ajdodlarimizning komil inson haqidagi qarashlari mustahkam tayanch va yo'lchi yulduz vazifasini o'tamogi lozim" [5].

Bugungi globallashuv, mafkuraviy kurashlar, axborot oqimining keskin kuchayishi va qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida insonning ma'naviy-ruhiy dunyosini mustahkamlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanish bilan, balki insonning ichki kamoloti, axloqiy pokligi, ruhiy barqarorligi va ma'naviy darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kunida"gi "O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda k a t a

O'zbek xalqining boy ma'naviy va pedagogik merosida ta'lim-tarbiya masalalari alohida o'rin egallaydi. Buyuk ajdodlarimiz inson kamoloti, ilm-fan, axloq va tarbiya masalalariga oid qimmatli fikrlarni ilgari surganlar. Ularning pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy manba.

hBu haqda Prezidentimiz quyidagi fikrni bildirib o'tgan:"Biz farzandlarimizning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishi va ilm-fanning eng yuqori chuqqilarini egallashlari uchun doimo qayg'urishimiz, bu yo'lda jon-javdimiz bilan kurashmog'imiz t a y a n c h

[5] Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.138 bet.

[6] Sh.Mirziyoyev. "O'qituvchi va murabbiylar kunida"gi "O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda kata kuch ,tayanch va suyanchimizdir" mavzusidagi videoselekt,2020 yil

zarur[7].

Buyuk ajdodlarimiz yondoshuvlariga to‘xtalib o‘tsak, hozirgi davrda ham har qachongidan ahamiyatlidir.Bugun ma’nan barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy masalaga aylangan.Komillikni bir zumda erishiladigan holat emas, balki uzluksiz ma’naviy mehnat, o‘zini anglash, nafs bilan kurashish va ma’rifatga intilish jarayoni sifatida ko‘rsatganlar. Bu jihat bugungi ta’lim-tarbiya tizimi uchun ham nihoyatda muhimdir.

Forobiyning ta’kidlashicha : “Inson o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni jamiyatda o‘zaro munosabat ,o‘zaro yordam jarayonida komil inson bo‘lib yetishada.

Farobiyning insonparvarligi uning ta’lim-tarbiya, inson shaxsiyatini kamol toptirishning yo‘l-yo‘riqlarihaqida,ilm-ma’rifatga erishuvining usullari, ijtimoiy muammolarni yechish haqida bildirgan fikrlarida yorqin ifodadalangan.

Farobiyning ,insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin.Agar tarbiyalanuvhchi ixtiyoriy ravishda zaruriy ,aqliy va axloqiy xislatlarni ,bilimli bo’lishga to’g’rilikni,haqiqatni sevishga ,jasur do’stlarga sadoqatli bo’lish kabi fazilatlarni egallashga intilmasa ,tarbiyachi yoki muallim undan fazilatlarni shakllantirmogi lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo’lish uchun baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo’lishi lozim” [8].

Yana bir ajdodimiz Yusuf Xos Xojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida aqliy , axloqiy, mehnat va jismoniy ta’lim-tarbiyaga doir fikrlarni quyidagicha ifodalagan:insonning ulug‘ligi , aql-idroki, so‘zlash qobiliyati bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Bu xislatlar uning muhtaramligini ham ta’minlaydi.

Yusuf Xos Xojib uquv va bilimni farqlaydi: uquv tug’ma ravishda mavjud,bilim esa,o‘qish-o‘rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o‘zaro birlashsa,insonning qadri ortadi” [9]

Alisher Navoiy fikricha, inson o‘z hayotini o‘zi uchun ham,butun jamiyat uchun ham foydali bo‘lgan xizmatga bag‘ishlashi, kasb-hunar o‘rganishni , ma’rifatli , fazilatli va xushxulq bo‘lishi kerak.

Alisher Navoiy kishi nafaqat shoir,balki ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor bergan. Uning asarlarida komil insonni tarbiyalash, ilm-ma’rifatga intilish va axloqiy fazilatlarni shakllantirish g‘oyalari muhim o‘rin tutadi.

1.Ilm-marifatga ustuvor ahamiyat berish

Alisher Navoiy ilmni inson kamolatining asosiy omili deb bilgan.U yoshlarni bilim olishga ,mutolaa qilishga va doimiy o’z ustuda ishlashga undagan.

[7] Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston.137 bet

[8] A.Zunnunov,R.Jo’rayev.O’quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,8-bet

[9] A.Zunnunov,R.Jo’rayev.O’quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,11-bet

2.Axloqiy tarbiya masalasi.

Mutafakkir bobomiz halollik, rostgo‘ylik, adolat, saxovat, mehr-shavqat kabi fazilatlarni insonning eng muhim sifatlari deb hisoblagan.Tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish zarurligini ta’kidlagan.

3.Insonparvarlik yondoshuvi.

Alisher Navoiy barcha insonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish,inson qadr-qimmmatini ulug’lash g‘oyalarini ilgari surgan.Bu yondoshuv bugungi ta’limda ham muhim ahamiyatga ega.

4.Ustoz-shogird munosabatlari.

Alisher Navoiy ustozni ulug‘lagan va shogirdning muvaffaqiyatida ustozning o’rni beqiyos ekanligini ta’kidlagan.Ustoz o’quvchiga nafaqat bilim beradi,balki odob-axloq ham berish kerak deb hisoblangan.

5.Komil insonni tarbiyalash.

Alisher Navoiy ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi ma’naviy yetuk,bilmli,vatanparvar va jamiyatda Foydali insonni voyaga yetkazishdan iboratdir.

Abdullo Avloniyning ta’lim-tarbiya jarayonidagi yondoshuvlariga nazar tashlasak,ta’lim-tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida keng ifoda etgan. Unda ta’lim va tarbiya masalalari chuqur falsafiy, axloqiy va ijtimoiy nuqtai nazardan yoritilgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarida quyidagicha keng yoritilgan.

1.Ta’lim va tarbiyaning uzviyligi.

Avloniy ta’lim-tarbiyani bir-biridan ajralmas jarayon deb hisoblagan.Uning fikricha ,bilim berish bilan birga yoshlarni axloql,vatanparvar va ma’naviy yetuk shaxs qilib tarbiyalash zarur.

2.Axloqiy tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish.

Mutafakkir hallolik,rostgoylik,mehnatsevarlik,odob va insonparvarlikkabi fazilatlarni shakllantirishni tarbiyaning asosiy vazifasi deb bilgan.

3.Milliy va umuminsoniy qyo’adriyatlarga tayanish.

Avloniy yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan birga jahon ilm-fani va madaniyatining ilg’or yutuqlani o’rganish

4.Oila va maktab hamkorligi.

Abdullo Avloniy bola tarbiyasida oila va maktabning hamkorlgi zarur deb bilgan.Uning fikricha ,tarbiyanig muvaffaqiyai ota-ona va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyatiga bog‘liq.

Abdullo Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilm haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:“Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun

g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ud bo‘lishimizga sabab bo’lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta’lim-tarbiya masalalari insonparvarlik, ma’rifatparvarlik va milliy taraqqiyot g‘oyalari asosida tahlil qilingan.

Abdulla Avloniy ta’limni bilim berish, tarbiyani esa komil insonni shakllantirish vositasi deb hisoblaydi.

Asarning bosh g‘oyasi shundan iboratki, **ilmli va yuksak axloqli avlodni tarbiyalash millat taraqqiyotining eng muhim shartidir.**

Bu g‘oyalar bugungi ta’lim tizimi uchun ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.

Asarda tarbiya inson kamolotining bosh omili sifatida talqin etiladi. Avloniy tarbiyani faqat odob-axloqni shakllantirish vositasi emas, balki shaxsning butun hayot yo‘lini belgilovchi kuch deb baholaydi.

> Uning:“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”ndegan fikri tarbiyaning jamiyat va millat taqdiridagi ahamiyatini ochib beradi. Muallif tarbiyani shaxsiy emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida ko‘radi. Ya’ni, bir insonning tarbiyasi butun jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi

Muallifning fikricha:

-tarbiyasiz bilim zararli bo‘lishi mumkin;

-axloqsiz ilm jamiyat manfaatiga xizmat qilmaydi;

-haqiqiy ta’lim insonning aqliy va ma’naviy kamolotini ta’minlashi kerak.

7-sinf “Tarbiya” darsligidan o‘rin olgan “Inson odobida aks etuvchi xulq -atvor ” mavzusida buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning quyidagi fikri g‘oyat qimmatlidir “Inson o‘zining his-tuyg‘ulariga hukmron, ular ni o‘zgartirishga, boshqarishga qodir, o‘z ruhi va ta nini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtaydigan narsalarga aylantirishga, uni tibbiy usul bilan ma’naviy davolashga hamda asta-sekin axloq ha qidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodir bo‘ladi”.

7-sinf “Tarbiya” darsligidan o‘rin olgan “Ilm va zakovat” mavzusida buyuk ajdodimiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur” degan fikrlari o’quvchilar hayotida muhim o;rin egallashi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari va yondashuvlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular ilm-fanni egallash, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, mehnatsevarlikni tarbiyalash, ustoz-shogird an’analarini rivojlantirish hamda komil insonni voyaga yetkazishni ta’limning asosiy

maqsadi deb bilganlar. Buyuk mutafakkirlarimiz ta’lim va tarbiyani o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin etib, insonning aqliy, ma’naviy va jismoniy kamolotini ta’minlashga alohida e’tibor qaratganlar.

Ajdodlarimizning boy pedagogik merosi zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan, bilimli va ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, ularning pedagogik g‘oyalari va tarbiyaviy qarashlarini chuqur o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Natijada, ajdodlarimiz merosiga tayanilgan ta’lim-tarbiya tizimi barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston.138 bet.
2.Sh.Mirziyoyev. “O‘qituvchi va murabbiylar kunida”gi “O’qituvchi va murabbiylar yangi O’zbekistonni barpo etishda kata kuch ,tayanch va suyanchimizdir” mavzusidagi videoselekt,2020 yil
3.Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston.137 bet
4.A.Zunnunov,R.Jo’rayev.O’quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,8-bet
5.A.Zunnunov,R.Jo’rayev.O’quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,11-bet
6.Tarbiya fani darsligi,7-sinf,35-bet

O‘QUVCHILAR INDIVIDUAL TIPOLOGIK XUSUSIYATLARINING KASB TANLASHDAGI ROLI

U.A.Kosimov
Buxoro viloyati PMM «Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari » kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uchinchi renesans davrida, yosh avlodning kasb tanlashida shaxs tipologiyasiga e’tibor berish, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, ta’lim-tarbiyaning o’ziga xos pedagogik- psixologik jihatlaridan samarali foydalanishga doir tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В данной статье в период Третьего Возрождения в выборе профессии подрастающего поколения даются рекомендации обращать внимание на типологию личности, развивать личностные качества, эффективно использовать уникальные педагогические и психологические аспекты образования.

Annotation: In this article, during the period of the Third Renaissance, in choosing a profession for the younger generation, recommendations are given to pay attention to the typology of personality, develop personal qualities, and effectively use the unique pedagogical and psychological aspects of education. .

Ключивые слова; Третьего Возрождения Мировоззрение, типология , Шедевры нашего искусства, универсальная культура, творческая смелость.
Kalit so‘zlar. Kasb tanlash.tipologiya, dunyoqarash,etibor, shaxsiy fazilatlar.
Key words: World literature, Cultural life, Patriot of country,valuable sourse

Mamlakatimizda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarish - ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarishdir. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoyi kishisini kamol toptirish zarur. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, dunyoqarashi keng, yuqori malakali, xotirasi barqaror,yangiliklarga intiluvchan, izlanuvchan kasbiy xodimlar bo‘lib voyaga yetishsin. Shu o‘rinda o‘rta maktab o‘quvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonidashaxsiy fazilatlarining shakllanishi ularning kasb tanlashlarida muhim omil ekanligini eslab o‘tishmaqsadga muvofiqdir.

Ko‘pchilik o‘quvchilar ta’lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o‘zlari yoqtirgan kasb-hunar haqida o‘ylaydilar. Ularni kasb-korga bo‘lgan qiziqishlari, moyilliklari, havaslari, xoxishlari, ezgu-niyatlari

yoki shunday ehtiyojlarining tug‘ilishi jarayonida shaxsiy fazilatlar namoyon bo‘la boshlaydi. Shuningdek, o‘quvchilarni individual tipologik xususiyatlari, jumladan yoshi va jinsiga qarab har biri o‘ziga xos, o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholash orqali ma’lum bir kasbga bo‘lgan mehr kurtaklari uyg‘ona boshlaydi.Demak, o‘spirinlarda bilimlardoirasi va dunyoqarashining kengayib borishi natijasida shaxsiy fazilatlarham shakllanib boradi. Shularni hisobga olgan holda to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish vabu jarayonning to‘laqonli amalga oshishida kattalarning psixologikbilim va hayotiy tajribalariningo‘rni beqiyosdir.

Jumladan, kasb tanlashda shaxsning sezgirligi muhim ahamiyatga ega. Sezgilar deganda, insonlarning tashqi ta’sirni qabul qilish qobiliyati va shunday ta’sirdan olingan his – tuyg‘u, bilish jarayonining sodda va boshlang‘ich shakli, bosqichi hisoblanadi. Sezgirlik deganda, sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi. Insonning ko‘zi yarim millionga yaqin rang - tusni ajrata oladi. Bundan chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, farqni sezish chegarasining past yoki yuqori bo‘lishi ko‘pchilik kasb - hunarlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sezgirlik shaxsning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, ma’lum faoliyat turi bilan shug‘ullanish sezgirlikni oshiradi. Buning uchun o‘quvchilar muntazam ravishda mashq qilishi va mashq jarayonida sezgirlikkanisbatan talabni oshira borishi, faoliyatda sustlikka yo‘l qo‘ymaslik zarur. O‘spirinlarning ruhiy tetikligini, jismoniy faolligini oshirish, mehnatga, kasb-hunarga qiziqtirish ularning sezgirligi, ziyrakligini oshirish garovidir.

Ayni paytda sezgi organlariga ta’sir etayotgan ob’ektni mavjud narsa va hodisalarning inson ongidagi in’ikosi idrok deb ataladi. Idrok verbal va noverbal xususiyatlari bilan boshqa bilish jarayonlaridan farqlanadi. Idrok voqelikni aks ettirishning sezgiga nisbatan yuksak shakli bo‘lib, hodisalar, narsalar va ob’ektlarning yaxlit obrazini yaratadi.

O‘spirinlarning o‘qishi, mehnat faoliyati, muomala jarayoni, kasb tanlashi uchun fazo va vaqtni idrok qilishning katta ahamiyati bor. Har qanday kasb-hunar, ixtisos va mutaxassislik uchun ish sur’ati, vaqt, ish qurollari, vositalarining fazoda qanday joylashganligini aniq bilish talab qilinadi. Shaxsan kasbga yo‘llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi alohida o‘rin tutadi. Ba’zi birovlar moddiy narsalarga nisbatan kuzatuvchan bo‘lsa, boshqalar psixologik jihatdan kuzatuvchandir. Shaxsning atrof muhitdagi narsa va hodisalar haqida chuqur fikr yurita bilishi uning idroklilik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu fazilat kasb tanlashda juda asqotadi.

Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv holatni aks ettirish qobiliyati

- xotira deb ataladi. Xotiraning hayot, faoliyat, muomala va xulq-atvor jarayonlarini aks ettirish qobiliyati muhim xislat bo‘lib shaxsiy fazilatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bundan tashqari, xotira faoliyatning maqsadiga qarab - ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish va esda saqlash, muddatiga qarab - qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ va o‘z navbatida ko‘rgazmali, obrazli, so‘z - mantiq, abstrakt, harakatli va oraliq tiplari mavjud bo‘lib, yoshlarni kasbga yo‘llashda ularning xotirasidagi shaxsiy farqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.O‘quv materiallarining turli tumanligi xotirani o‘tkirlashtirish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Chunki kasb-hunarning xilma-xilligi xotiraning o‘tkirligini talab qiladi.

Xotiraning hamma turlari, o‘ziga xos jihatlari kasb-hunar, ixtisos, mutaxassislik tanlashda, turli-tuman kasblar to‘g‘risidagi ma’lumot axborotlarni o‘zlashtirish, eslab qolish va keyinchalik esga tushirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa, o‘z navbatida ishning samarali bajarilishini ta’minlaydi.Aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilarning xotirasi ayniqsa o‘tkir bo‘lishi lozim.

Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuhur etilgan mavhum va umumlashtirilgan in’ikosi bo‘lib, insonning olam haqidagi bilimining asosiy manbai bo‘lgan sezgilari, idroki va tasavvurlari hamda amaliy faoliyati bilan bog‘liqdir. Tafakkur shaxsni bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, butun olamni o‘ziga bo‘ysundirish uchun imkon tug‘diradi. Fikr yuritish orqali barcha bilimlar o‘zlashtiriladi. Bilimlarni anglash natijasida tushunchalar, mulohazalar va xulosalar kelib chiqadi. Inson fikrlash,mulohaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlar hal qilinadi, yangilik yaratadi, ijod (kreatsiya) qiladi.

O‘spirinlarning fikr yuritish qobiliyatini aniqlovchi muhim mezonlardan biri muammoli vaziyatdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni yoki talabalarni muammoli vaziyatni, topshiriqni yechishga o‘rgatish ularning bu aqliy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarga muammoli, jumboqli topshiriqni yechish bosqichlarini ta’riflab berish joiz. Bunda qo‘yilgan muammoning mohiyati tushuntiriladi, uni yechish usullari, vositalari qidiriladi, tanlangan usul hamda vositalardan foydalanib muammo yechiladi, uning to‘g‘ri yechilganligi tekshiriladi va hokazo.

O‘quvchi tafakkurining mustaqilligini, ixchamligini, tezligini, mantiqiyligini, izchilligini, o‘tkirligini, teranligini, mahsuldorligini oshirishga erishish uchun bir element ortiqcha berilgan yoki biror sharti yetishmaydigan, yo bo‘lmasa o‘zaro mantiqan bog‘lanmagan topshiriq hamda masalalardan muammo sifatida

foydalanilsa juda qimmatli natija olinadi. Qo‘yilgan muammoning kasb-hunarga aloqador bo‘lgani ma’qul.

Xullas, tafakkurning hozirgacha foydalanilayotgan imkoniyatlarini zudlik bilan ishga solish kasb tanlash samarasini oshirish ishiga xizmat qilishga ishonchimiz komil.

O‘spirinlar hayotini fantaziyasiz tasavvur etish qiyin, albatta. Xayolot (fantaziya) ob’ektiv voqelikni inson ongidagi o‘ziga xos in’ikosi, real yoki noreal hodisalar haqidagi o‘y, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir. Bironta, hatto eng chalkash faraziy tasavvur ham shaxs aqlining faqat sub’ektiv mahsuli hisoblanmaydi, oqibat natijada bu tasavvurda ob’ektiv voqelik aks ettirilgan bo‘ladi. O‘quvchi yoki talabaning faraziy tasavvuri yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, ta’lim jarayonida ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi.

Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodiy farazsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yangilik yaratish yo‘llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Inson orzu, ezgu niyat qilmasdan, xayol surmasdan, o‘ylamasdan yashay olmaydi. Shuningdek, kasb tanlayotgan o‘quvchi ham ma’lum muddat o‘zini shu kasbning mohir ustasi, katta mutaxassis sifatida faraz etishi yoki shirin xayollar og‘ushida sayr etishi tabiyidir.Ijodiy izlanish shaxsning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. Shaxsning xayol surish, faraz qilish, tasavvur etish qobiliyatiga qarab uning ma’naviy dunyosi to‘g‘risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin. Inson faraziy obrazlar, timsollar, tasvirlar tufayli tobora sezgir, mehribon, xushmuomala, saxiy bo‘ladi.

Shunday qilib, faol bilish jarayoni o‘spirin faoliyatining hamma turlarida bir tekis ishtirok etadi va aks ettirishning mukammal bilish imkoniyatini kafolatlaydi. Bilish jarayonining xususiyatlari, mexanizmlari va qonuniyatlari asosida shakllangan shaxsiy fazilatlarga tayanib ish tutgan shaxs kamroq xato qiladi. Bu omillar uning xatolariga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishiga, yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini o‘z vaqtida tuzatishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual- tipologik xususiyatlariga ham e’tiborni qaratish joiz. Chunki, shaxsning xulq - atvori, temperamenti, salohiyati va boshqa xislatlari kasb tanlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Temperament shaxsning ruhiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, alohida olingan inson shaxsida ruhiy jarayon va faoliyatning vujudga kelishi, o‘tishi, kechishi va dinamikasini belgilab beradi. Lekin psixik faoliyat dinamikasi temperamentga emas, balki shaxsiy sabablarga va shaxsning ruhiy holatiga bog‘liqdir. Xuddi shu boisdan inson, temperamentidan qatiy nazar, mas’uliyatni his etsa, o‘z kasbida g‘ayrat bilan ishlaydi, biroq kasbini yoqtirmasa, aksincha, buni aksini kuzatishimiz mumkin.

Temperament inson psixik faoliyatining xususiyati bo‘lib, fiziologik asosini, asab tizimining tiplari, oliy asab faoliyati qonuniyatlari tashkil etadi. Temperament to‘rtta asosiy tipga ajratiladi: sangvinik (xushchaqchaq), flegmatik (bo‘shang, og‘ir), melanxolik (g‘amgin), xolerik (qiziqqon).Temperament shaxsning

bama’niligini; dunyoqarashi, nuqtai nazari, e’tiqodi, qiziqishlari va hokazolarini ko‘rsatuvchi belgi emas.

Hozirgi davrda temperament tiplarining psixologik ta’rifi senzitivlik, reaktivlik, aktivlik, dinamiklik, ta’sirlanish tezligi, reaktivlik bilan aktivlik munosabatlarning muvozanati, harakatning ravonligi, rigidlik (qotib qolganlik), ekstrovertlik va introvertlik kabi xususiyatlariga asoslanib tuziladi. Psixologiya fanida temperamentning o‘ttizdan ortiq (ba’zan qirqdan oshiq) tipidan olingan. Amaliyotda esa asosan ekstravert va introvert tiplari ko‘proq qo‘llanadi. Shaxsni kasbga yo‘llash jarayonida temperamentning psixologik ta’rifi berilishi shart.Shu nuqtai nazardan kelib chiqib yuqorida keltirib o‘tilgan temperamentning asosiy to‘rtta tipiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Psixologiya fanida shaxsning hulq-atvor xususiyatlari uni faoliyatiga undovchi asosiy omil hisoblanib, buxususiyatlar to‘rt guruhga ajratib o‘rganiladi:

1. Jamoa va alohida shaxsga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi fazilatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, faxrlanish va boshqalar;
2. Mehnatga nisbatan munosabatni bildiruvchi xususiyatlari: mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mas’uliyatlilik va hokazo;
3. Narsalarga nisbatan munosabatni anglatuvchi sifatlar: ozodalik, sarishtalik, avaylash va shu kabilar;
4. O‘z-o‘ziga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: izzat nafslilik, kerilishlik, dimog‘dorlik, kamtarinlik va hokazo.

Xulq-atvor xususiyatlarning shakllanishida o‘qish va mehnat faoliyatli yetakchi rol o‘ynaydi, chunki o‘qish va mehnat jarayonida qo‘llaniladigan individual usullar xulq-atvorga ta’sir etib, uning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ko‘pgina xususiyatlar o‘zgaga taqlid qilish natijasida ham paydo bo‘ladi. Xulq-atvorga janjalli (nizoli) vaziyatlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Inson umrining ohirigacha o‘z xatti-harakatlarini boshqarib, xulq-atvorini o‘zi barqarorlashtirgan bo‘lsa, kasb-hunar tanlashga shunchalik oqilona va qatiyatlik bilan yondoshiladi.

O‘quvchilar qobiliyati, layoqati ta’lim jarayonida va mehnat faoliyatida tobora rivojlanadi. Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichiga talant, iste’dod deyiladi. Iste’dod murakkab ishni (faoliyat) muvaffaqiyatli, mustaqil va mohirona bajarishga (amalga oshirishga) imkon beradigan qobiliyatlar tizimidir (biologik shartlangan xislatlardan bittasidir).

O‘spirinlarning qanchalik iste’dodli ekanligini aniqlash uchun ushbu xususiyatlarga e’tibor berish talab etiladi.

1. Shaxsning ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, tayyorligi;
2. Shaxsning mehnatga moyilligi, unga ehtiyoj sezishi;
3. Mantiqiy fikr yuritish tezligi, izchanligi samaradorligi, tashabbuskorligi va boshqalar.

Shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar tug‘ma bo‘lmaydi (tabiiy alomatlari, moyilligi mavjuddir), balki ijtimoiy, shaxsiy hayot va faoliyat jarayonida muayyan omillar, manbaalar ta’siri ostida tarkib topadi. Lekin layoqatlilik qobiliyatining tabiiy zamini ekanligi shubhasizdir. U qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Unda miya tuzilishi, sezgi a’zolari vaharakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari layoqatga nisbatan beriladi.

Yoshlarni kasbga yo‘llashda ularning his-tuyg‘ulari va irodalarini hisobga olishning ham ahamiyati qiymatli, chunki o‘quvchilarning his- tuyg‘usi, kayfiyati, stress va ob’ektiv holatlari o‘rganilmasa va e’tiborga olinmasa, ko‘zlangan «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»dagi ulug‘vor maqsadga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun iste’dodli yoshlarni tanlash, ularni individual o‘qitish, sara shart-sharoitlar yaratish, reyting va modul tizimlari asosida ularga saboq berish ta’limning davlat standartlari talabiga javob beradigan, komil insonlikka intiluvchi shaxslarni kamol toptirish kafolatidir.

Shunday qilib, kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual- tipologik xususiyatlari va his - tuyg‘ularini, layoqat, iste’dodni hisobga olish, shuningdek, yoshlarni fan asoslari va psixologik bilimlar bilan qurollantirish ularning kasb-hunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo‘yiladigan talablarga moslashishga imkon beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.U.A. Kosimov. ―Improving the system of professional development is a equirement of the period‖, AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH, ISSN: 2690-9626 Vol. 1, No.6, November-December 2020, pages 31-39

2.U.A. Kosimov. International Journal of Advanced Academic StudiesPeer Reviewed Journal, Refereed Journal, Indexed Journal P-ISSN: 2706-8919, E-ISSN: 2706-8927, Impact Factor: RJIF

3.12, "The role of determining the representative system of pupils in increasing educational efficiency", pages 218-220 IJDIIE Volume: 02 Issue: 01 |

January 2021 197 Published by — INTER SCIENCE"
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijihm

4. .U.A. Kosimov. Journal of Psychology, issue 2 of 2019: —Methodof teaching based on NLP the types of perception of pupils‖, pages 23-28

ABU ALI IBN SINO ILMIY MEROSIDA IJTIMOIY MUNOSABATLAR VA TABIIY-ILMIY HAMDA FALSAFIY QARASHLARI

R.Astanov
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya,ta’lim texnoglogiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abu Ali ibn Sino merosining tahlili uning ilmiy qiziqishlari doirasi benihoyat keng, u tom ma’noda qomusiy bilimlar egasi bo‘lganidan dalolat beradi. Ibn Sino fanlarning tadqiqot ob’ektlariga ko‘ra ajratishga asoslangan tasnifini taklif qilgan. Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o‘z o‘zidan o‘zgarmaydi va inson ularni anglab yetishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyligi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan. O‘sha davrda u shug‘ullanmagan fanning o‘zi bo‘lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan. Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning ob’ektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in’ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalaridan biri deb e’tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog‘laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi. Ibn Sino neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a’zosisiz idrok etadi, degan ta’limotini asossiz deb hisoblaydi. «Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu, masalan, ko‘rish uchun muhit bo‘lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu, ko‘rish organi bo‘lib xizmat qiluvchi ko‘zdir. Biroq ular haqiqatdan uzoqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o‘zida bu organlarsiz yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo‘lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo‘lmas edi», deb yozadi va so‘zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta’kidlab, haqiqat sezgilar tana a’zolariga muhtojligidadir,2 - degan xulosaga keladi. Ibn Sino sezgilar va sezgi organlari haqida gapirar ekan, u yoki bu sezgining yuzaga kelish mexanizmini ilmiy tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, hech qanday jism o‘z holicha ovozga ega bo‘lmaydi. Ovoz ikki jism to‘qnashganda havo va harakatning tebranishi natijasida yuzaga keladi. Bu to‘lqinlar juda tez tarqaladi. Ular quloqqa yetgach, tebranuvchi havo eshitish nervlariga tegadi va ular bundan jonni xabardor etadi1. Bu tavsif ancha sodda bayon etilgan bo‘lsa-da, hozirgi tasavvurlarga mos keladi. Shuningdek, Ibn Sino sezgilarni hali ob’ektiv dunyoning

sub’ektiv obrazi sifatida idrok etmaganidan dalolat beradi. Sezgilarni tashqi ta’sirning organizmdagi harakati sifatida tushuntirar ekan, Ibn Sino uni mexanik talqin qiladi. Ibn Sino ko‘rish haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. Ko‘rish jarayonini tushuntirar ekan, u ayni vaqtda Platonning bu boradagi ta’limoti asossiz ekanligini ko‘rsatadi. Ibn Sino yorug‘likni ko‘rishning asosiy vositasi sifatida alohida qayd etadi. Alloma sezgilarni va tuyg‘ularning barcha shakllarini o‘rganib, ularning fiziologik asoslarini, ya’ni miya tuzilishida sezgi markazlarining joylashuvini tushuntirishga harakat qildi. Miyani aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, Ibn Sino hissiy bilish shaklini miya bilan bog‘ladi va uni idrok etish va sezish asosi3 deb e’tirof etdi. Ibn Sino ta’limotiga ko‘ra, in’ikos faqat aks ettiruvchi tizimga bog‘liq emas. Sezish markazi miyaning old qismida, tasavvur qilish markazi – miyaning o‘rta qismida, eslab qolish qobiliyati – miyaning orqa qismida joylashgan. «Kitob un-najot» asarida Ibn Sino har bir sezgining fiziologik asoslarini tadqiq etar ekan, hissiy bilish jarayonida asablar muhim rol o‘ynashini qayd etadi. Uning fikricha, miya asablar vositasida sezgilar va harakatlarni insonning boshqa a’zolariga uzatadi. Asablar miya uchun o‘tkazgichlar bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy ma’lum tasavvurga ko‘ra, asablar bosh miyada boshlanadi va ularning tarmoqlari terining yuza tomonida tugaydi. Ko‘rib turganimizdek, Ibn Sino hissiy bilishning fizik va fiziologik asoslarini ilmiy yo‘l bilan tushuntirishga harakat qiladi. Ibn Sino O‘rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi tasavvurni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Ibn Sinoning falsafiy merosini qiyosiy o‘rganish tabiatni hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda u asosan yagona yondashuvga tayanganini ko‘rsatadi. Ibn Sino tasavvurning kuchi shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilarimizgacha yetib boradi.Shunday qilib, Ibn Sino fikriga ko‘ra, tasavvurning gnoseologik funksiyasi shundan iboratki, u tashqi narsalarning obrazlarini gavdalantiradi, hissiy idrok etiluvchi narsalar yo‘qolganidan keyin ham ularni xotirada saqlab qoladi. Ibn Sinoning fikricha, mohiyat uch tarzda namoyon bo‘ladi. Birinchidan – narsa sezgilarda ularni kuzatish jarayonida aks etadi. Bu yerda narsalarning sezgi organlarida bevosita aks etishi nazarda tutilmoqda. Ibn Sino in’ikos konsepsiyasini bilish jarayoni sifatida qayd etar ekan, bilish darajalari to‘g‘risidagi masalani ko‘taradi. Ma’lumki, bu mo‘ljal Yangi davr falsafasida ishlab chiqilgan va nemis klassik falsafasida o‘zining tadrijiy yakunini topgan. Ikkinchidan – ob’ektiv borliqda amalda mavjud bo‘lmagan narsaning mohiyati anglanadi. Bu yerda formal ahamiyat kasb etuvchi va moddiy borliq bilan bog‘lanmaydigan ideallashtirilgan ob’ektlar mohiyatini bilish nazarda tutiladi. Bu mohiyat inson aqlining ijodiy qobiliyatini namoyon etadi. Uchinchidan – narsa obrazi muayyan sharoitlarda biluvchining jonida aniq aks etishi mumkin. Bu

tamoyilda narsani sezgi bog‘liq bo‘lgan aloqalardan mavhumlashtirish imkonini beruvchi abstraksiyaning kuchi qayd etiladi. Bunda narsaning obrazi uning substrati mavjud emasligiga qaramay aks etishi mumkin. Shundan kelib chiqib, Ibn Sino oqilona bilishda mavhumlashtirish muhim rol o‘ynashini qayd etadi. «Bilish narsa obrazini mavhumlashtirishning ayrim o‘zaro bog‘langan bosqichlaridan iborat jarayon bo‘lib, uning natijasida biluvchining ongida predmetning mohiyati va xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha vujudga keladi. Bunday mavhumlashtirish bosqichlari to‘rtta» Ibn Sino «umumiy sezgi»ni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, umumiy tuyg‘u – bu miyaning old qismida joylashgan kuch bo‘lib, u besh sezgida aks etuvchi barcha shakllarni va ular uzatuvchi kuchni mustaqil qabul qiladi. Binobarin, Ibn Sino fikriga ko‘ra, sezgi organlari yordamida olingan tuyg‘ular umumiy sezgi vositasida birlashtiriladi va narsaning hissiy obrazi yaratiladi. Obraz deganda alloma narsaning tashqi xususiyatlari va xossalari, materiyaning aksidental tomonlari yig‘indisini tushunadi. Masalan, inson va uning obrazi haqida so‘z yuritar ekan, u shunday deb yozadi: «Uning obrazi bu uning uzunligi, kengligi, sifati, miqdori va uning holati, ya’ni inson bilan bog‘liq barcha narsalardir». Ibn Sinoning yuqorida bayon etilgan g‘oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va yangi natijalar bilan boyitildi. Abu Ali ibn Sino falsafiy ta’limotida ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq muammolarini ilmiy asosda yoritish muhim o‘rin tutadi. «Axloq haqidagi risola», «Ahd risolasi», «Ruhni tozalash haqidagi risola», «Badanni boshqarish kitobi», «Qush risolasi» nomli asarlarida axloq ilmini, inson xulqini, fe’l-atvorini, yurish turishini tartibga solib turadigan ilm deb tushunadi. Ibn Sino «Donishnoma» kitobida o‘z davrida ma’lum bo‘lgan ilmlarni ikkiga: amaliy va nazariy ilmlarga ajratadi. «Birinchisi, - deb yozgan edi u, - bizni o‘z xatti-harakatlarimizdan xabardor qiladi... Uning foydasi shundaki, u shu dunyodagi ishlarimizni yo‘lga solish uchun nimalar qilishimiz lozimligini o‘rgatadi... Ikkinchisi esa bizning jonimiz o‘z shaklini kasb etishi va u dunyoda baxtiyor bo‘lishi uchun buyumlarning borliq holati haqida bizni xabardor qiladi». Abu Ali ibn Sino o‘zining falsafiy ta’limotida yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, rohat va azob-uqubat, iffat, sharmhayo va benomuslik, saxiylik va baxillik, donolik va johillik, sevgi va nafrat, poklik va nopoklik, vafodorlik va bevafolik, kamtarlik va takabburlik, manmanlik, maqtanchoqlik singari odob axloqqa taalluqli masalalarga alohida e’tibor bilan qaraydi. Allomaning «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Nafsni pokiza tutish haqida», «Tib qonunlari», «Salomon va Ibsol», «Hikmat buloqlari» asarlarida kishilar amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladigan yaxshi va yomon xulqlarning mazmun-mohiyati va ularning paydo bo‘lish sabablari to‘g‘risida keng ma’lumotlar

berilgan. Uning fikricha, yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo‘ladi. Ayni paytda u odamlarning yaxshi yoki yomon bo‘lishiga hukumat axllarining ta’siri ham zo‘r, deydi. Abu Ali ibn Sino fikricha, inson iloji boricha aldash, rashk, o‘ch olish, xusumat, bo‘xton, tuhmat singari yomon xulq, fe’l atvorlardan o‘zini qat’iy ravishda tiyib, qochib, asrab yurishi, bema’ni yo‘llarga kirmasligi lozim. «Salomon va Ibsol» qissasida bayon etilgan axloqiy-falsafiy fikrlar bu masalada e’tiborga moliqdir. Ibn Sinoning siyosiy qarashlarida xarakterli bo‘lgan narsa bu ideal davlat to‘g‘risidagi g‘oyasi. Uning fikriga ko‘ra ideal davlat tepasida ma’rifatparvar shoh turishi lozim. Jamiyat a’zolarining barchasi foydali mehnat bilan shug‘ullanishi kerak. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, ideal davlat tarkibi uchga bo‘linadi:

1. Ma’muriy ishlar bilan shug‘ullanuvchilar.
2. Ishlab chiqaruvchilar.
3. Harbiylar.

Abu Ali ibn Sino ilmiy dunyoqarashining shakllanishida Buxoro va Xorazmda ilm-fanning yuksak darajada taraqqiy etganligi va o‘ziga qadar o‘tgan allomalarning asarlarini qunt bilan o‘rganganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Isfahonda Abu Ali ibn Sino uchun ijodiy mehnat imkoniyati vujudga keladi va u amir Alouddavla saroyida tabib va davlat maslahatchisi sifatida xizmat qiladi. Amir tomonidan g‘amxo‘rliklar evaziga u Alouddavlaga bag‘ishlab «Kitob ul-aloiy» yoki «Donishnoma» asarini yozadi.Bu asarning ikkinchi bo‘limi o‘rta asr falsafasining asosiy qismlaridan hisoblangan «Metafizika» deb nomlanib, falsafiy bilimlar ikki turga ajratiladi. Biri bizni o‘z xatti harakatlarimizdan ogoh qiladigan «Amaliy bilim», ikkinchisi esa narsalarning mavjudoti to‘g‘risida xabar beradigan «nazariy bilim» deyiladi. U esa uchga bo‘linadi:

1) tabiatdan tashqari narsalar to‘g‘risidagi bilim;
2) riyoziy bilimlar;
3) tabiat to‘g‘risidagi bilimdir.

Demak, har ikkala bilim o‘z navbatida uch qismga ajraladi. Birinchisi – oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini ta’minlab turish uchun zarur bo‘lgan masalalarni o‘rganuvchi bilim. Bu bilim ham ikki qismga bo‘linadi:

1) diniy shariat qonunlari;
2) siyosat – bu davlatni idora etish va boshqarish, hukumat va fuqarolar hamda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlash masalalarini hal etadi.

Ikkinchisi – davlat fuqarolari, er-xotin va farzandlar, xo‘jayin va xizmatkorlar o‘rtasidagi munosabatlarning adolatli bo‘lishini o‘rganadi. Nihoyat,

uchinchisi – insonning xulq-atvori qanday bo‘lishi. Ibn Sinoning ijtimoiy-

siyosiy qarashlari Abu Nasr Forobiy asarlari ta’sirida shakllangan deb yuqorida qayd etgandik, chunki uning qarashlarida Abu Nasr Forobiy ta’limotining ta’siri kuchli bo‘lgan. Jamiyatning paydo bo‘lishi to‘g‘risida Ibn Sino: «Inson o‘z shaxsiy ehtiyojlari mustaqilligi ma’nosida alohida ajralgan emas, chunki ularni inson zotining boshqa vakillari bilan birlashmay turib qondirilmaydi» deb aytgan. Ibn Sino fikricha, «A’zolari uchun umumiy qonunlar qaror topgan mamlakatda adolatsizlik bo‘lishi mumkin emas. Jamiyat a’zosining adolatsizligi jazolanishi kerak. Agar hukmdorning o‘zi adolatsiz bo‘lsa, unga qarshi g‘alayon jamiyat tomonidan ma’qullanishi va qo‘llab quvvatlanishi kerak». Abu Ali ibn Sino o‘zining «Ko‘rsatmalar va o‘gitlar» kitobida bunday yozadi: «Inson o‘z shaxsiy ehtiyojlarining mustaqilligi ma’nosida alohida ajralgan mavjudod emas, chunki u o‘z ehtiyojlarini insoniyatning boshqa vakillari bilan muloqotda bo‘lmay turib koniktira olmaydi». Odamlar o‘rtasida qaror topadigan almashish va o‘zaro munosabatlar jarayonlarida o‘ar bir kishi o‘zga kishini qandaydir ehtiyojdan xalos etadi, agar har bir kishi hama narsani o‘zi boshqaradigan bo‘lsa, uning zimmasiga o‘ta murakkab, qo‘lidan kelishi gumon bo‘lgan vazifa ishlatilgan bo‘lardi. Buning natijasida kishilar o‘rtasida bitishuv, adolat va qonunning qaror topgan normalari zarur bo‘ladi, qonunshunos esa bunday qonunga alohida belgilarga ega bo‘lganligi tufayli majburiylikni kasb etishi kerak. Shuningdek, xayrli xatti-harakatlarni amalga oshiruvchilar uchun ham, yomon xatti-harakatlarni amalga oshiruvchilar uchun ham bularning barchasi kimga ma’lum bo‘lsa va bularning barchasidan xabardor hamda har narsaga qodir bo‘lgandan olinadigan mukofot nazarda tutilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun hakamning va qonunshunosning ustuvorligini tan olish zarur va odamlarning o‘z xatti-harakatlarida amal qiladigan sabablardan biri uni eslash bo‘lishi kerak. Abu Ali ibn Sino ilmiy dunyoqarashining shakllanishida bu davrda Buxoro va Xorazmda ilm-fanning yuksak darajada taraqqiy etganligi va o‘ziga qadar o‘tgan allomalarning asarlarini qunt bilan o‘rganganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Isfahonda Abu Ali ibn Sino uchun ijodiy mehnat imkoniyati vujudga keladi va u amir Alouddavla saroyida tabib va davlat maslahatchisi sifatida xizmat qiladi. Amir tomonidan g‘amxo‘rliklar evaziga u Alouddavlaga bag‘ishlab «Kitob ul-aloiy» yoki «Donishnoma» asarini yozadi. Bu asarning ikkinchi bo‘limi o‘rta asr falsafasining asosiy qismlaridan hisoblangan «Metafizika» deb nomlanib, falsafiy bilimlar ikki turga ajratiladi. Biri bizni o‘z xatti harakatlarimizdan ogoh qiladigan «Amaliy bilim», ikkinchisi esa narsalarning mavjudoti to‘grisida xabar beradigan «nazariy bilim» deyiladi. Bu esa uchga bo‘linadi:

birinchisi – tabiatdan tashqari narsalar to‘g‘risidagi bilim;

ikkinchisi – matematik bilimlar;

uchinchisi – tabiat to‘g‘risidagi bilimdir.

Demak, har ikkala bilimning har biri o‘z navbatida uch qismga ajraladi. Birinchisi – oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini ta’minlab turish uchun zarur bo‘lgan masalalarni o‘rganuvchi bilimdir. Bu bilim ham ikki qismga bo‘linadi:

1) Diniy-shariat qonunlari;

2) siyosat – bu davlatni idora etish va boshqarish, hukumat va fuqarolar hamda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlash masalalarini o‘rganadi. Ikkinchisi – davlat fuqarolari, er-xotin va farzandlar, xo‘jayin va xizmatkorlar o‘rtasidagi munosabatlarning adolatli bo‘lishini o‘rganadi.

Nihoyat, uchinchisi – insonning xulq-atvori qanday bo‘lishi to‘grisidagi bilimdir. Abu Ali ibn Sinoning ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq haqidagi ta’limoti jahon ilm-fani, madaniyati va ma’naviyati taraqqiyotiga qo‘shilgan ulkan xissa bo‘ldi. Shunday qilib, bilish jarayonining pirovard maqsadi ob’ektlar mohiyatini bilishdan iborat bo‘lgan murakkab jarayondir. O‘rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari asosan bilish bilinayotgan ob’ektning in’ikosidir, degan nuqtai nazardan kelib chiqdilar. Bunda insonning sezgi organlari bevosita bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi, ya’ni sezgilar yordamida bilinuvchi ob’ektiv dunyo bilish manbai sifatida amal qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.O‘zbekiston 2017
2. 1. Shavkat Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., O‘zbekiston, 2017, 158-bet.
3. Ziyodullayev, Maqsudjon Shokirjon O’G’Li. "ABU ALI IBN SINONING “HAY IBN YAQZON” FALSAFIY QISSASINING YORITILISHI VA UNING FALSAFIY TAHLILI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. Special Issue 4-2, 2022, pp. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI ISSN (E) 2181-2993 Vol.
4. Issue 1. Aprıl. (2024) 139 www.birunijournal.uz 3. Sagdullaevna, Y. L. (2022). The Principle of Emanation in IBN Sino’s Ontology. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 3(12), 90-92. Retrieved from https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/539
5. Yuldasheva, L.S. (2024). LIFE GIVEN TO PEOPLE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (2), 678-682.

6. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 395-401.
7. Jurayev, S. S. U. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,
8. Abu Ali ibn Sino. Kunuz al-ma’rifa. O‘zR FA ShI 330 qo‘lyozmasi, №2385/22, forscha.
9. Abu Ali ibn Sino. Ganj al-ma’ruf. O‘zR FA ShI qo‘lyozmasi, №3374/5, forscha.
10. 29. Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-kitob/ Bosh red.: T.Z.Zohidov; Mas’ul muh.: A.A.Asqarov, V.N.Ternovskiy, U.I.Karimov. - T.: Fan, 1954. - 458 b. 30.
11. Ibn Sino. Tib qonunlari. II–kitob. Sodda dorilar haqida/ Bosh muh.: T.Z.Zohidov; Mas’ul red.: A.A.Asqarov, V. Q.Jumaev, U.I.Karimov. - T.: Fan, 1966.– 843 b.

ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSIDA IJTIMOIY MUNOSABATLAR VA QARASHLARI.

R.Astanov
-Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya,ta’lim texnoglogiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar, asarlari: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Minerologiya»), tabiat va uning ob’ektiv qonunlari mavjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o‘zgarish va rivojlanishda bo‘ladi, materiya narsalar shaklini o‘zi yaratadi va o‘zgartiradi, jon (tafakkur, ma’naviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb ta’kidlagan. Ma’lumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, so‘zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyligi tajribada o‘z tasdig‘ini topmagan»

1. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, «Beruniyni yetarli asos bilan o‘rta asr fanida empirik metod yaratuvchilaridan biri deb hisoblash mumkin. U metallar va minerallarning xossalari va solishtirma og‘irligini aniqlash bo‘yicha bir qancha tajribalar o‘tkazdi»

2. Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim me’yorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida ob’ektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o‘tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin. Bu mulohazalar tajriba, bilim olish va uning haqiqiyligini tekshirish metodi sifatida, o‘rta asr sharoitida ham ancha keng tarqalgan, deb aytish imkonini beradi. G‘oya ilgari surilgani va ishonchli bilimning olinishi tajriba bilan bog‘lanishi, bilimning haqiqiyligi tajribada sinalishi muhimdir. Beruniyning ijodida kuzatish muhim o‘rin egallaydi. Tabiatni ilmiy o‘rganishda kuzatish bilishning boshqa shakllari bilan o‘zaro bog‘langan. Beruniy fikricha, kuzatuvchi kuzatilayotgan hodisani u yuz berayotgan joyda idrok etadi

1. Binobarin, kuzatish u yoki bu hodisani uning muayyan ko‘rinishida qayd etadi

2. Kuzatishlarning eski ma’lumotlari ob’ektning haqiqiy ko‘rsatkichini ancha buzib ifodalashi mumkin. Beruniy tadqiqotchi o‘tkazgan tajriba va uning natijasi amalda ishonchli ekanligini qayd etadi. U «Sinovdan boshqa ustuvor dastur, tajribada tekshirishdan dasturilamal yo‘q»3, deb yozadi. o‘zga muvaffaqiyatga eltadigan Beruniy astronomik kuzatishlar vositasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Yerdagi hayotga ta’siri, iqlim, tabiiy va sun’iy tanlanish, saqlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab muammolarni yangi ilg‘or metod va nazariy tamoyillar

yordamida yechishga harakat qildi. Beruniy Sharqda astronomiya kuzatish asboblarini yaratish texnikasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixida ham yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. U o‘sha davrda ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilgan eski asboblarni takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e’tibor bergan. Olimni o‘ta aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi kuzatish asboblarini yaratish imkoniyati masalasi qiziqtirgan. Shunday qilib, samo jismlarining holatlarini nafaqat asboblar vositasida, balki o‘rganilayotgan ob’ekt xususiyatiga muvofiq amalga oshirishni allomaning ulkan xizmatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bunday metodologik mo‘ljal, ilmiy tadqiqotlar jabhasi cheklanganligiga qaramay, ilmiy bilishning yangi yo‘llari va vositalarini topish borasidagi izlanishlarda muhim rol o‘ynadi. Fan tarixchisi Sarton, XI asrning birinchi yarmini haqli ravishda «Beruniy davri» deb atagani bejiz emas. Zotan, Abu Rayhon Beruniy ilmiy qiziqishlari nihoyatda kengligi va chuqurligi, ilmiy-nazariy tahlillariyu ta’limotining dohiyona benaziriligi umumdunyo tan olgan haqiqatdir. Uni ikkinchi Erotosfen, ikkinchi Ptolomey, ikkinchi Leonardo da Vinchi deb atashlarining sababi aynan shu haqiqat samarasidir. Abu Rayhon Beruniy Markaziy Osiyodagina emas, balki umuman Sharqda, jahon Fani, madaniyati tarixida ham eng ulug‘ va buyuk mutafakkirlardan hisoblanadi. U o‘zinipg «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar», «Minerologiya», «Hindiston» kabi asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan. «Minerologiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, yerdagi burchi, olijanobligi, jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat to‘g‘risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan. Abu Rayhon Beruniy tom ma’noda o‘z davri siyosatdoni ham edi. «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yolgorliklar» asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian - molikiylar hamda xristian - nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan. «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi bu yerdagi xalqlarning urf odatlari, yil, oy va tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlar, marosimlar, nikoh masalalari to‘g‘risida ishonchli fikrlar keltirgan. Abu Rayhon Beruniy tabiat, unda cheksiz ravishda ro‘y berib turadigan tabiiy hodisalar, jarayonlar xususida muhim ilmiy falsafiy g‘oyalarni ilgari suradi va isbotlab berdi. Olamda bo‘lib turadigan o‘zgarishlar, ya’ni tuzilish, buzilishlarning, paydo bo‘lish va yo‘qolishlarning o‘ziga xos sabablari borligi haqida tabiiy ilmiy hamda sotsiologik mulohazalarini o‘rtaga tashlaydi. Abu Rayhon Beruniy «Saydana» asarida Abu Rayhon Beruniy o‘zining yoshligini eslab shunday deydi: «Men bolalik chog‘imdanoq o‘z yoshim va sharoitimga qarab, imkoni boricha ko‘proq bilim olishga chanqoq edim. Buning dalili sifatida quyidagi faktni keltirish mumkin: biz turadigan joyga (o‘shanda) bir yunon ko‘chib keldi. Men har

xil donlar, urug‘lar, mevalar va hokazolarni olib borib, unga ko‘rsatar va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so‘rab olib, nomini yozib qo‘yar edim». Abu Rayhon Beruniy yoshlik kezlaridan boshlab ko‘plab tillarni, ayniqsa, o‘sha davr musulmon olamida rasmiy ilm tili bo‘lmish arab tilini mukammal o‘zlashgirishga intildi. «Har bir xalq, -deb yozadi «Saydana»da, - o‘zi o‘rgangan, o‘z ehtiyoji uchun, o‘ziga o‘xshagan kishilar bilan aloqa qiladigan tilni sevadi. Men bu to‘g‘rida o‘zimga qarab fikr yuritaman: Ka’ba novida tuyani yoki arab otlari ichida jirafani ko‘rib, qanchalik hayron bo‘lsalar, men biror fanga oid asarimni o‘zim gapiradigan tilda yozsam, bunga ham xuddi shunday kulgan bo‘lar edilar. So‘ng men arab va fors tillarida yoza boshladim, lekin ularning har ikkalasi ham mening ona tilim emas, shuning uchun o‘z fikrimni bu tillarda bayon etishga qiynalaman». Abu Rayhon Beruniyning boy madaniy merosi uning ilmiy va madaniy asarlari bilan cheklanib qolmagan, bundan tashqari qomusiy olim siyosiy va huquqiy masalalar bilan ham qiziqqan. Abu Rayhon Beruniyning siyosiy g‘oyalaridan biri uning davlat paydo bo‘lishi haqidagi qarashlaridir. Uning fikricha, odamlar o‘z dushmanida qarshi kurashish va o‘zlarining zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar. Beruniy «Minerallar» asarida ehtiyojlar turli xil bo‘lib, u faqat bir necha uyushsagina qoniqtirishi mumkin, degan g‘oyani ilgari so‘radi. Shuning uchun odamlar shaharlar yaratishga mushtarakdirlar, - deydi. Abu Rayhon Beruniy odamlarning jamoa bo‘lib yashashlarining asosiy qoidalari bu o‘zaro yordam, bir-birlari bilan tinch yashash, umumiy manfaatlar uchun ishlash kabi prinsiplarga asoslangan bo‘lishi kerak. Insonning asosiy vazifasi – bu mehnat qilishdir. Chunki barcha narsalarga mehnat orqali erishiladi. Kishilarning boy va kambag‘al bo‘lishining, ezuvchi va eziluvchilarga bo‘linishining asosiy sababi – mulkiy tengsizlik ekanini tushuntiradi va fuqarolar o‘rtasida tuzilgan mehnat va ayirboshlash shartnomalarini ikki turga bo‘ladi:

1-qonuniy yoki adolatli shartnomalar – bunda mehnatga yarasha ish haqi oladi.

2-qonunsiz yoki adolatsiz shartnomalar – bunda tengsizlik, zo‘rlik, qalloblik amal qilib, bunda faqat bir tomonning manfaatlari e’tiborga olinadi.

Abu Rayhon Beruniy davlat va huquqni paydo bo‘lishi va ularning vazifalari masalalarini Abu Nasr Forobiy kabi, tabiiy ehtiyojlardan qidiradi. Beruniyning fikricha, odamlar ijtimoiy adolatli tartib-qoida o‘rnatish uchun, ya’ni shartnomaga asoslanib davlatga birlashadilar va Abu Rayhon Beruniyning g‘oyalarida dispotiyaga qarshilik hissi sezilib turadi. Ma’rifatli shohlar esa ulug‘lar ekan, uning fikriga ko‘ra, jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerak. «Idora qilish va boshqarishning mohiyati balki boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z

tinchligini yo‘qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himoya qilish va qo‘riqlash yo‘lida badan charchashidan iborat». Uning siyosiy qarashlarida davlat boshlig‘i tabiatan boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun esa davlat boshlig‘i davlatning muhim masalalarini hal etishda donishmandlarning qonunlariga amal qilishi lozim. Bunda Abu Rayhon Beruniy Arstuning Iskandarga qilgan nasihatlarini, hamda Iskandarning ularga amal qilganini misol qiladi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, «odil hokimning vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o‘rnatishdan iboratdir». Abu Rayhon Beruniy davlat hokimiyatni nasldan-naslga o‘tib turishi qonun-qoidasiga qarab, podsholik merosga aylanganini ko‘rib, insonning jamiyatda tutgan o‘rni naslning qadimiyligi, avlod-ajdodlarning xizmatlari bilan belgilanishiga qarshi chiqadi. Bu haqda shunday: Kimki o‘zining marhum qarindosh-urug‘i va buvalari orqali mansabga (podsholik yoki hokimlikka) erishaman desa uning o‘zi marhumdir, lekin marhum avlodlari barhayotdir» deydi. Uning fikricha, u yoki bu davlat arbobining hokimiyatni boshqarishga yaroqliligi uning avlodlari qobiliyatidan bo‘lmay, balki uning davlatga rahbarlik qilishdagi o‘z qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday tashqari, yana odamlarning rangi, tili uning fikricha, u yoki bu davlat arbobining hokimiyatni boshqarishga yaroqliligi uning avlodlari qobiliyatidan bo‘lmay, balki uning davlatga rahbarlik qilishdagi o‘z qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu o‘rinda, yana odamlarning rangi, tili, tashqi ko‘rinishining turlicha bo‘lishi faqat nasliga bog‘liq bo‘lmasdan, balki ular yashayotgan muhitga, havoga, suvga ham bog‘liq, deb yozar ekan, uning fikricha, turlicha davlatlarning mavjudligi, turli hukmdorlarning bo‘lishi ham yuqoridagilarga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy jamiyatni boshqarishda bu haqda yuqorida ham eslatib o‘tilgandi, ya’ni jamiyat podshohga xizmat qilmay, balki podshox, jamiyatga xizmat qilishi kerakligini qo‘llagan: «Idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishdan iborat», -deydi. Abu Rayhon Beruniyning siyosiy qarashlarida davlatni boshqarish uchun xalq tomonidan saylab qo‘yiladigan hokim odil va xalqparvar bo‘lishi g‘oyasi ilgari suriladi. U ushbu g‘oyani o‘zining «Mineralogiya» asarida bir hikoyat misolida yozgan: «U yerda o‘lkani idora qilish a’yonlari va yer egalari o‘rtasida navbatma-navbat bir-biriga o‘tib turarmish, kimga navbat kelsa, o‘sha uch oy hukm yuritarmish. Muddat tugashi bilan o‘z-o‘zidan o‘lkani idora qilish amalidan tushib minnatdorchilik uchun sadaqa beradi va o‘z ahli orasiga qaytadi, u bilan go‘yo kishandan bo‘shaganday xursand bo‘lar va o‘z ishi bilan band bo‘lar emish. Bu shuning uchunki, davlatni idora qilish rohatdan mahrum bo‘lish degan so‘zdir. Bunda u o‘sha joydagi ezuvchilarni eziluvchilarga nisbatan

adolatli qilaman, deb tinkasini quritish deganidir. Bu esa o‘z quli ostidagilardan va ularning o‘zlarini himoya qilish uchun urush tadbirini tayyorlash borasida o‘z jonini qiynashdir...»

1. Abu Rayhon Beruniy ma’naviyat va ma’rifat haqidagi ta’limotida aql-idrok, mehnat, tafakkur odob-axloq, ta’lim-tarbiya, inson hayoti va ijtimoiy mohiyatini belgilaydi, deydi. U jamiyatning yuzaga kelishida o‘zaro yordam, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy aloqa va munosabatlar asosida birgaliqda hara kat qilish singari muhim omillar yotishini o‘rta asrchilik sharoitidayoq isbotlab bergan edi. Jamiyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi, insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi kishilarning hamkorlikda faoliyat etish zaruratidan kelib chiqqanligi, Abu Rayhon Beruniy ta’limotida bot-bot eslatiladi. Muayyan vazifalarni hamkorlikda bajarish zaruriyati inson faoliyatining mavjud bo‘lish asosidir. «Insonning qadr-qimmati o‘z manfaatini a’lo darajada bajarishdan iborat, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi inson o‘z xoxishiga mexnat tufayli erishadi», -deb yozadi Abu Rayhon Beruniy «Geodeziya» asarida

2. Mehnat - inson ma’naviy-axloqiy kamoloti asosi. Mehnatsiz hayotda shod-xurramlik yo‘q, inson o‘zi istagan narsasiga mehnat sarflash orqali erishadi. Bu g‘oya Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta’limotida, xususan, ma’naviyat ma’rifat haqidagi fikr-mulohazalarida bosh dasturiy mohiyat kasb etadi. Abu Rayhon Beruniyning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bilan bog‘liq ta’limotida mehnat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, kasb hunar, ilm-ma’rifat uzviy mushtarakliqsa, dialetik bir butunlikda taxlil va talqin etiladi. Inson amaliy faoliyatining biron-bir sohasi ularning o‘zaro ta’sirisiz amalga oshmaydi, deb yozgani bejiz emas. Rostlik, odillik, adolat - bular Beruniy yuksak ma’naviti, go‘zal odob-axloqi belgisidir. O‘zingni zararing hisobiga bo‘lsada, rost gapir, haqiqatdan yuz o‘girma, har bir narsaga odilona va xolisona yondosh, deb ta’lim beradi va o‘zi mazkur g‘oya va ta’limotlarga bir umr sodiqlikning ibrat-namunasiga aylanadi. Abu Rayhon Beruniyning ilm-fan, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat haqidagi ta’limoti, birodarlik, samimiyat, tenglik, adolat, yaxshilik, to‘g‘rilik, insonparvarlik kabi umuminsoniy g‘oyalari yangicha milliy tafakkur tarbiyasi shakllaninishida axloqiy-etik, ma’naviy-falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Abu Rayhon Beruniyning fikrlari, bir tomondan, Markaziy Osiyo, qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg‘or an’analarini ijodiy rivojlantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Beruniyning yetukligi tafakkur doirasining kengligidan dalolat beradi. Beruniy tomonidan «sabablarning sababi» - inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovor. «qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va eng mashhuri

bashariyatning boshlanishidir». Bu yerda Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida ratsionalizm pozitsiyasida turganini ko‘ramiz. Beruniy insonlar o‘rtasidagi tavofut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to‘g‘risida fikr yuritgan. Lekin kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumiydir. U inson bilan maymun o‘rtasida o‘xshashlik borligini qayd etadi. Beruniy o‘zining «Hindiston» asarida musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ular geografik sharoitlarga bog‘liq degan fikrni ilgari surdi, geografik omilning rolini tahlil qilishni davom ettirib, hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog‘liq deb qaradi. «Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoq turishi»dir. Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy hayot o‘ziga xos «shartnoma» asosida tuzilishini e’tirof etadi: «Inson o‘z extiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgaliqdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir». Bu fikrni davom ettirib, «insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi», deb yozgan edi u. Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilshshi kerakligini tushungan. «Idora qilish va boshqarishning mohiyati balki boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkini himolya qilish va qo‘riqlash yo‘lida badan charchashidan iborat». Tabiatan boshqarishga moyili bo‘lgan hokim o‘z fikri va qarorlarida qat’iy bo‘lishi kerak, o‘z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga, Alekssandr Makedonskiy Aristotelning falsafiy donishmandligiga amal qilganidek, bo‘ysunishlik lozim: shohning o‘zi ham «yaratuvchanlik «ongiga» ega bo‘lmog‘i, ayniqsa, dehqonlar to‘g‘risida ko‘proq g‘am yeyishi kerak”. «Podshohlik dehqonchiliksiz yashay olmaydi», - dedi Beruniy. Beruniyda shunday fikrlar bor: «Odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o‘rnatishdan iboratdir». Abu Rayhon Beruniy o‘rta asr sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, uning turli sohalarshda o‘z davri uchun taajjubga soluvchi shunday fikr va ilmiy farazxdarni olg‘a surdiki, ular bir necha asrlardan so‘ng Ovro‘po ilmida o‘z isbotini topdi. Beruniy O‘rta asr sharoitida haqiqiy tajribaga, kguzatish, eksperimenta asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshtab beruvchilardandir. Beruniy filologiya sohasida. ham qalam tebratib, mumtoz arab

she’riyati, hind she’riyati tuzilvdshiga oid tadqiqotlar, eron folklori namunalarining arab tiliga tarjimalarini yaratdi. Beruniy mamlakat ravnaqi fan ravnaqi bilan uzviy bog‘liq deb bildi. «Har bir olim o‘z muhokamasida amalshyotga asoslaninsh, o‘z tadqiqotida aniq bo‘lishi, to‘xtovsiz mehnat kqilishi, xatolarini qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydurma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur», degan edi. U xalqlar do‘st, inoq, ittifoq bo‘lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga, u yaratgan fan va madaniyatga qirg‘in keltiruvchi urushlarni qattiq qoraladi. Olim o‘zining «Hindiston» asarida «xalqlar o‘rtasida tortishish va talashish ko‘p», deb afsuslanib yozgan edi. Uning Hindistonda olib borgan keng ilmiy-tadqiqot ishlari xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va madaniy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan edsh. Bundan ko‘rinib turibdiki, Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma’rifatning keng tarqalishiga katta e’tibor berdi. Beruniy hissiy bilishga alohida diqqat qaratadi. U shunday yozadi: «Bilim sohalari ko‘pdur, tobora rivojlanayotganda insonlar aql-zakovatining unga qo‘shilib borishi bilan ular yanada ko‘payadi, uning belgisi insonlarning fanga intilishi, uni ezozlashi, fan kishilarini e’zozlashidadir». Voqe’likning noma’lum 250 tamoyillarini bilish haqida: «Bilinishi lozim bo‘lgan barcha hodisalarning yo‘li borki, uning vositasida bilimlarga erishish mumkin», - deydi. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»1 deb nomlangan qomusiy kitobini to‘la ma’noda insoniyat tarixining o‘tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag‘ishlangan mumtoz qomusiy asar, deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulug‘ mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan ilmiy-falsafiy tadqiqotlari, qo‘llagan usullari xususida so‘z yuritib shunday yozgan: «Mazkur asarni yozish asnosida o‘zimga ishonch hosil qildim-ki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo‘li bilan haqiqiy malumotlarga ega bo‘lish mumkin emas. Bunga faqat «kitob ahllari» va turli din arboblariga, shu (e’tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan belgilanadi. So‘ngra ularning isbot uchun keltirgan so‘z va e’tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi»

1. Falsafada olamni bilish yo‘llari, usullari ishlab chiqilgan va bu metodologiya (usullar haqidagi ta’limot)da o‘z ifodasini topgan. Ijtimoiy falsafa inson va jamiyatni o‘rganish yo‘llari, usullari haqida bahs yuritadi

2. Abu Rayhon Beruniy dunyoning manzarasi evolyusion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi. «Olamni idora qiluvchi manba – “tuzilish va buzilish”dan iborat ziddiyatdir, - degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi»

3. Ayni chog‘da Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas, balki turli ijtimoiy darajalardagi murosa va

konsensus ekanligini uqtiradi. «Qarama qarshiligi ravshan, ayon bo‘lgan narsaga qanday inonib bo‘ladi?»

4. - deb mutafakkir qarama-qarshiliklardan xoli bo‘lgan jarayonlarga o‘zgarish ehtiyoji kuchayishiga ishora qiladi. Beruniy o‘zining butun ijodiy faoliyati davomida ijtimoiy hayot masalalari bilan qiziqtiki, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida o‘z falsafiy qarashlarini bayon etdi. Abu Rayhon Beruniy Markaziy Osiyo va Sharq mutaffakkirlarini falsafiy g‘oyalarini rivojlantirdi. Jumladan, o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlilar” asarida insoniyat hayoti haqidagi masalani ilmiy asosda hal etishga harakat qildi. Jamiyat va kishilar hayotida geografik omilning ahamiyati, uning ijtimoiy hodisalariga ta’sirini ko‘rsatdi. Musulmonlar va hindlarning urf-odatidan tafovutlarning geografik sharoitlar bilan izohladi, hatto tillar o‘rtasidagi tafovutlarni xam geografik omillar bilan bog‘ladi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, falsafaga yo‘l borliqni chuqur tushunib yetishga imkon beradigan tabiatshunoslik fanlari orqali o‘tadi. Umuman olganda, Beruniy falsafani borliqni mohiyatini biladigan fan sifatidagi ta’rifga qo‘shiladi. Shuningdek, Abu Ma’shar al-Balxiyning “Tabiat hamma narsadan kuchliroqdir”

5. - degan nuqtai nazariga qo‘shilgan. Jahon ijtimoiy-falsafiy ta’limotining vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq va G‘arb olimlari munosib hissa qo‘shganlar. Ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bir davrlarida Sharq mamlakatlari yetakchi mavqeini egallaganlar. Osiyo va Yevropa mamlakatlari xalqlarining jahon falsafa fani rivojidagi rolini biryoqlama bo‘rttirish yoki kamsitish nazariy jihatdan xatodir. Har qanday fan o‘z mohiyatiga qo‘ra umumbashariydir. Yer yuzidagi har bir xalq katta-kichikligidan qatiy nazar, uning rivojiga o‘z hissasini qo‘shib keldi. XIX asrning o‘rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyusion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o‘zgarishi qonuni) falsafiy dunyoqarashning o‘zgarishiga, jamiyat to‘g‘risidagi nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi. Jamiyat g‘oyat murakkab va ko‘pqirrali hodisa bo‘lib, muttasil ravishda o‘zgarish va rivojlanish xususiyatiga egadir. Juda qadim zamonlardanoq insoniyatning ulug‘ mutafakkirlari jamiyat mohiyatini bilishga va insonning jamiyatdagi o‘rni va rolini belgilashga harakat qilganlar. Turli tarixiy davrlarda mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanishi to‘g‘risida muayyan bilim, tasavvurlar hosil qilishga imkon bergan. Insoniyat ma’naviyati yuksalib borgani sayin jamiyat to‘g‘risidagi qarashlar ham tobora takomillashib borgan, jamiyat to‘g‘risidagi o‘ta sodda diniy-mifologik qarashlarga nisbatan ancha murakkab va ishonchli ilmiy-falsafiy qarashlar vujudga kelgan. Jamiyat to‘g‘risidagi izchil ilmiy-falsafiy qarashlarning rivojlanishiga

Markaziy Osiyo mutafakkirlari qomusiy bilim egalari: Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari ulug‘ mutafakkirlar salmoqli hissa qo‘shganlar. Ularning ilg‘or qarashlari ko‘p asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, komil inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi va hozirgacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Abu Rayhon Beruniy O‘rta asr Sharq uyg‘onishi sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, u tabiatshunoslikning turli sohalarida o‘z davri uchun taajjubga soluvchi shunday ilmiy va faraziy fikrlarni olg‘a surdiki, ular bir necha asrlardan so‘ng Yevropa ilmida o‘z isbotini topdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Beruniy asarlarida, uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan bog‘liq chuqur ijtimoiy-ilmiy-falsafiy mulohazalar, umumlashmalar ham o‘z ifodasini topgan. U Forobiy ilmiy falsafiy ta’limotiga asoslanib ollohni hamma narsaning birinchi sababi, - deb hisoblaydi. Uning tushunishicha xudo hamma narsaning yaratuvchisi ekanligi e’tirof qilinadi. Lekin Beruniy shu birinchi sababdan kelib chiqqan hamma narsaning rivojlanish va o‘zgarish huquqini tabiatga beradi. Uning ta’limoticha, tabiatda hamma narsa tabiiy qonunlar asosida yaratiladi, tabiat o‘zining tabiiy kuchiga ega bo‘lib, shu kuch ta’sirida tabiatda to‘xtovsiz harakat, o‘zgarish, o‘sish, rivojlanish, vujudga kelish, yemirilish, halok bo‘lish jarayonlari sodir bo‘ladi. Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki Beruniy o‘z ilmiy-falsafiy qarashlarida deizmga yaqin pozitsiyada turgan. U moddiy dunyoning adabiyligi haqida gapiradi. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. U insonni eng sharafli borliq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o‘zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta’kidlaydi. Uningcha, insonlar o‘rtasidagi tafovut ko‘proq tashqi jihatdan mavjud bo‘lib, ular ichki tuzilishi va tashkil topishi jihatdan bir umumiylikka ega. U «Hindiston» asarida insonlarda tillarning turlicha ekanligi to‘g‘risida to‘xtalar ekan: «Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab-odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir birlaridan uzoqda yashashlaridir»,-deydi. Beruniy mamlakat ravnaqi, el-yurt farovonligini ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. U: «har bir olim o‘z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o‘z tadqiqotida aniq maqsadga ega bo‘lishi, tinimsiz mehnat qilishi, xatolarni qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydirma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur»,-deb yozgan edi. Beruniy mamlakatda xalqlar do‘st, inoq, ittifoq bo‘lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga qirg‘in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralaydi va kishilarni tinchlikka chaqiradi. Movarounnahrda islom dini mustahkam mavqega ega bo‘lgach, bir tomondan, turli diniy ta’limotlar, xususan, kalom maktablari yuzaga keldi, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda asosiy e’tibor tafsir, hadis va fiqh ilmlariga qaratildi, ikkinchi tomondan esa islomiy ilmlar rivoji mazkur hududda tasavvuf

oqimining yuzaga kelishi va keng tarqalishi uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma’naviy hayotiga chuqur kirib borgan tasavvuf ta’limoti fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g‘oyalaridan ruhlanganlar. Shuni nazarda tutib, atoqli olim

Ye. E. Bertels qayd etgan edi: «Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin» . Beruniy dunyoni ilmiy bilishga to‘sqinlik qiluvchi noto‘g‘ri fikr, rivoyatlarni ob’ektiv va sub’ektiv sabablariga xam to‘xtab o‘tadi. Ularni quyidagicha ta’kidlaydi:

1. Inson o‘rganayotgan manbaaga bevosita murojaat qilmasligi;
2. Ilmiy bilimlarni (fanni) diniy qarashlar bilan aralashtirib yuborishi;
3. Yolg‘on ma’lumotlardan qutila olmaganligi;
4. Kishilarning bilimsizligi. Bilimsizlik-ilmiy asoslashdan yiroq, taxlidchilikka olib boradi. Ijodiy izlanish zavqidan maxrum etadi.
5. Sezgi organlarining birini rivojlantirmaslik xam ilmiy bilishda xatolarga olib boradi, xaqiqatda sezgisi o‘lik kishi xech narsani tushunmaydi va anglamaydi.

Beruniy yolg‘on xisoblangan bilimlarning manbai va sabablarini ko‘rsatib, ularning kishilik dunyosining ijtimoiy turmushiga bog‘laydi. Bular qiziqishlarning qarama-qarshiligi, yomon odamlarning ildiz otishi. Qo‘rqoqlik, ziddiyat xokimiyat uchun talashish va boshqalarda ko‘rinadilar. Olim tadqiqotchilardan izchil hamda halol bo‘lishlarini, xurofot oldida tiz cho‘kmaslikni talab qilgan. Beruniy doimo tadqiqotchilarni ilmiy haqiqatni aniqlashda tarbiyaga va kuzatishga amal qilishga chaqiradi. Akademik I.Mo‘minov olimning tashqi olamni kuzatish, tajriba orqali bilish zaruriyati to‘g‘risidagi fikrlarni yuqori baholaydi. Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosini o‘rganish shuni oydinlashtiradiki, olim ilmiy bilishning ilk bosqichi bo‘lgan kuzatishni tan olib, u bu to‘xtab qolmaydi, shuningdek uzatishni faol tajribalar olib borish darajasiga ko‘taradi. Umuman olganda, Beruniy kuzatishni tan olibgina qolmay, uni tajribalar olib borish darajasiga ko‘targan va undan o‘z ilmiy ijodiy faoliyatida keng foydalangan. Hozirgi zamon faniga bizning bilimlarimizning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi kuzatuvchi tomonidan tadbiq etilgan narsaning bilish vositalari birligi va uyg‘unligiga bog‘liq ekanligi oynaday ravshan. Beruniy ana shu yuqorida ko‘rsatilgan komponentlar birligining o‘ziga xos ziddiyatlarni xam ko‘rsata olgan. Bu buyuk allomaning o‘tkir zehni va o‘ta ilmiy asosga ko‘rilgan sinchkovligidan darak beradi. Beruniy o‘sha ziddiyatlarni bartaraf

etish qayta-qayta kuzatishlar olib borishni tavsiya etgan. Xullas, Beruniy bilish jarayonida kuzatuvchi, manba va kuzatish vositalari o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi shartligini tushungan. Ammo bilish jarayoni xamda tajriba bilan chegaralanib qolmasdan umumlashtirish va taqqoslash va xulosaga o‘tilmog‘i lozim. Beruniy ilmiy xaqiqatning muayyan mezon bo‘lishi to‘g‘risida fikr yuritadi. U xaqiqatga xilof, aniq tekshirilmagan, eshitishdan dillar nafratlanadigan, quloqlar tortiladigan va aqlga sig‘maydigan afsonalar, dalilsiz da’volarning asossiz ekanligini isbotlashdek murakkab xamda mushkul muammoni tajriba, amaliyot tufayligini uzul-kesil xal qilish mumkin deb bilgan. Shu bilan birga, mantiqiy xulosalar axamiyatining muximligini tushunib, sezgi orqali bilish va aqliy bilish tushunchalarini birgalikda ko‘rishni o‘rgatgan ulug‘ olim deyishga to‘la xaqlimiz. Beruniyning ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishga qo‘llangan usullari va ilmiy xodim bo‘lishning ba’zi zaruriy shartlari xaqidagi fikrlari bugungi kunda xam katta axamiyatga ega. Ilm olishning muhim yo‘llaridan biri kishi o‘zini hammaga do‘st, yaxshilik qila bilish darajasiga yetkazishdan boshlanadi. Bilimlarni yakka xolda emas, balki jamiyat azolari bilan birga yashab olish mumkin. Chunki ilmlar insoniyat jamoasining mahsulidir, yakka kishi o‘zi uchun kerakli bilimlarni yaratolmaydi. XXI asr yoshlari bilmagan va bilolmagan narsani bilishga qiziqishlari kuchlidir. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy merosi, aniq fanlar bo‘yicha ko‘targan muammolari o‘z davrida olamning umumiy manzarasini yaratishda, ya’ni falsafiy dunyoqarash shakllanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Beruniy o‘z astronomik jadvalida olamning markazi Yer emas, balki quyoshdir, xamma planetalar, shu jumladan Yer ham quyosh atrofida aylanadi, degan geliotsentrik gipotezani olg‘a surdi. Beruniyning bu ilmiy xulosasi 500 yildan keyin ulug astronom Kopernikning geliotsentrik sistemasida ilmiy asosda tasdiqlandi. Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan qilgan munozarasida koinotdagi planetalar, shu jumladan Yer ham o‘zaro tortishish kuchiga ega, degan xulosaga keladi. Uning bu ilmiy taxmini XVIII asr boshida ingliz olimi Nyuton kashf etgan butun dunyo tortilish qonuni bilan ilmiy jihatdan asoslandi. Abu Rayhon Beruniy ijtimoiy siyosiy qarashlari orqali nafaqat Markaziy Osiyo, balki qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg‘or an’analarini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shdi, hamda tarixda jamiyatshunos olim sifatida munosib o‘ringa ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. O‘zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi

ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi// Ma’rifat gazetasi, 2016 yil,31 dekabr, № 104.

2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston/ Arabchadan A.Rasulov, Yu.Hakimjonov, G‘.Jalolov tarj.; Mas’ul muharrirlar G‘.Jalolov, A.Irisov; So‘z bosh. va izohlar A.Irisov. – T.: Fan, 1965. – Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar.
3. Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash. [Geodeziya]/ Muqaddima, tarj. va izohlar muallifi A.Ahmedov. - T.: Fan, 1982. – 344 b. 27. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. J.5. Kitob 1. Qonuni Mas’udiy. 1-5-maqolalar/ Tarj. A.Rasulov; Mas’ul muharrir A.Ahmedov; Izohlarni A.Ahmedov va A.Rasulov tuzgan. – T.: Fan, 1973. – 591 b. 331
4. 41. Abu Rayxan Biruni. Izbr. proizvedeniya. T.2. Indiya/ Otv. red. V.I.Belyaev; Per. A.B.Xalidova i Yu.N. Zavadovskogo; Kommen. V.G.Ermana, A.B. Xalidova. - T.: Fan, 1963. - 727 s.
5. Abu Rayxan Biruni. Izbr. proizvedeniya. T. 3. Opredelenie i granis mest dlya utochneniya rasstoyaniy mejdu naselennыmi punktami [Geodeziya]/Issled., per. i primech. P.G.Bulgakova; Otv.red. A.K.Arends. - T.: Fan, 1966. – 362 s.

FAROBIY FALSAFASI VA ILMIY MEROSI

R.Astanov
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya,ta’lim texnoglogiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Forobiy (873-950). Abu Nasr Forobiy nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqning, balki butun dunyoning asrlar osha e’tirof etilib, benihoya katta hurmatga sazovar bo‘lib kelayotgan buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi, mashhur faylasufidir.

Forobiy yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanilganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, Al-Muallim assoniy Ikkinchi muallim (Aristoteldan keyin), —Sharq Arastusi deb yuritilgan .

Forobiy o‘zining sermahsul ilmiy ijodida o‘z davridagi ma’lum fanlarning deyarli barchasiga oid asarlar yaratib, ularda fundamental tadqiqotlar va natijalarga erishdi, falsafaning barcha sohalari bilan shug‘ullandi.

Forobiy dunyoqarashining yakunlovchi qismi, so‘nggi maqsadi - inson jamoasi, insonning ijtimoiy mohiyati, uning kutgan orzu-umidlari, isoniy munosabatlar, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishilgan fuqarolar jamiyatini qurish masalalaridir, deb ko‘rsatadi M.Xayrullaev.

Forobiy tabiiy-ilmiy va ijtimoiy sohalarda 160 dan ortiq asarlar yaratgan. Forobiy asarlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini o‘rganish, sharhlashga bag‘ishlangan asarlar;

2) fanning turli sohalariga oid asarlari. Forobiy Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Forobiy Substansiya haqida so‘z (Kalom fil javhar), Masalalar manbai (Uyunul masoil), Qonunlar haqida kitob (Kitob fil navois), Falak harakatining davomiyligi haqida, Kattalarning aqli haqida so‘z , Yoshlarning aqli haqida kitob, Mantiq haqida katta qisqartma kitob, Mantiqqa kirish kitobi, Isbot kitobi, Jon, Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi, Falsafa tushunchasining ma’nosi haqida so‘z, Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida, Falsafaga izohlar, Hajm va miqdor haqida so‘z, Musiqa haqida katta kitob, Inson a’zolari haqida risola, Hayvon a’zolari to‘g‘risida so‘z, She’r va qofiyalar haqida so‘z, Ritorika haqida kitob , Lug‘atlar haqida kitob, Xattotlik haqida kitob, Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola, Shaharni boshqarish, Urush va tinch turmush haqida kitob, Fazilatli xulqlar. Forobiy “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi” kitobida 30 dan ortiq fanlarni besh guruhga ajratib ko‘rsatgan.

1. Til.

2. Mantiq.
3. Matematika.
4. Tabiatshunoslik, metafizika.
5. Shahar haqidagi fanlar. Bu tasnifni o‘zidan Forobiy o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan ko‘pgina fanlarni mukammal bilganidan dalolat beradi.

Forobiy asarlarining ko‘p qismi ta’lim, falsafa, bilimlarni o‘zlashtirishning fiziologik va psixologik asoslarini nazariy o‘rganishga qaratilgan. Uning fikricha, sezgi organlari yurak, miya inson tug‘ilgan vaqtda mavjud bo‘ladi, boshqa hamma narsalar aqliy va axloqiy xususiyatlar, xarakter xislatlari, bilim insonning o‘z faoliyati mobaynida hosil bo‘ladi. Forobiyning yana bir buyuk xizmati shundaki, u insonlarga baxtli, to‘g‘ri yashashni uqtiradi, bilimlarni egallashga undaydi. Forobiy ijtimoiy hayot, jamiyat va uning taraqqiyoti masalalarida ham, jamiyat taraqqiyotida qadriyatlarning o‘rnini ko‘rsatishga harakat qildi, chuqur falsafiy masalalarni o‘rtaga tashladi. U o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U mazkur narsalarni bir o‘zi qo‘lga kirita olmaydi, balki bu jarayonda o‘ziga o‘xshagan kishilarning, ya’ni jamiyatning yordamiga muhtoj bo‘ladi. Bu ishda yetuk jamiyat, ideal davlat haqidagi fikrlarni rivojlantirib, alloma inson va insoniyat taraqqiyotida jamiyat a’zolarining birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishlari lozimligini uqtiradi. Ideal jamiyat a’zolari esa nafaqat milliy, balki umumbashariy qadriyatlarning ham o‘rnini to‘g‘ri tushunishi, yoshlarga ta’lim va tarbiya berish, jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga erishish kerakligini ko‘rsatadi. Forobiy insonlarni o‘zaro hamkorlikka chaqiradi, dunyoda yagona bir butun inson jamoasi tuzish haqida orzu qiladi. Albatta, bu jamoada milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligiga erishilgan, ularning integratsiyalashuvi intensivlashgan bo‘ladi, - deydi alloma. «Baxt-saodatga erishuv haqida» risolasida Forobiy davlatni har tomonlama yetuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni namoyon qilgan kishilar yordamida boshqarish zarurligini qayd etadi. Shuningdek, u har tomonlama yetuk aholini ilm va ma’rifatga olib boruvchi ideal jamiyat haqida fikrni olg‘a suradi. «Fozil odamlar shahri» asarida u davlatni boshqarayotgan shaxs, hokim Allohdan boshqa hech kimga bo‘ysunmasligi kerakligini uqtirib, davlat boshlig‘i ega bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘n ikki fazilat haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Alloma ta’kidlaganidek, davlatni boshqarayotgan kishi avvalo, sog‘lom bo‘lishi, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror nuqson xalal bermasligi lozim. Ikkinchidan, shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, ilg‘ab olishi zarur. U anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok qilgan narsalarini xotirasida to‘liq saqlab

qolishi kerak, ya’ni xotirasi o‘ta kuchli kishigina shaharga hokim bo‘lishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari, bilim, ma’rifatga havasli, o‘qish-o‘rganishdan aslo charchamaydigan, taom yeyishda, ichkilikda o‘zini tiya biladigan, haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yomonliklardan jirkanadigan bo‘lishi lozim. U o‘z qadrini biluvchi, nomus va oriyatli, ulug‘ ishlarga intiladigan, mol-dunyo ketidan quvmaydigan, tabiatan adolatparvar, jabrlanganlarga madad beradigan bo‘lib, o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyat, sabot, jur’at va jasoratlik ko‘rsatishi, qo‘rqoqlikka yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari — Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari («Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» va b.)ni betafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko‘rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari O‘rta va Yaqin Sharq ilg‘or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g‘oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari («Metafizika» — «Moba’diy tabiat»)ni o‘qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta’kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o‘rta asr Ovro‘posini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o‘ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Forobiyga o‘ziga xos maktab xizmatini o‘tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Forobiyning bunday asarlarini mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) falsafaning umumiy masalalariga, ya’ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag‘ishlangan asarlar: «Substansiya haqida so‘z» («Kalom fil javhar»), «Masalalar manbai» («Uyunul masoil»), «Qonunlar haqida kitob» («Kitob fi-l navomis»), «Falak harakatining doimiyligi haqida» («Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun») va b.;

2) inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag‘ishlangan, ya’ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi asarlar. Mantiq (logika)ning turli muammolariga doir asarlari ham shunga kiradi: «Kattalarning aqli haqida so‘z» («Kalom fi-l aql al-Kabir»), «Yoshlarning aqli haqida kitob» («Kitob fil-aql as-sag‘ir»), «Mantiq haqida katta qisqartma kitob» («Kitob al-muxtasar al-kabir fi-l mantiq»), «Mantiqqa kirish kitobi» («Kitob al-madxal ila-l mantiq»), «Isbot kitobi» («Kitob al-burxon»), «Sillogizm shartlari kitobi» («Kitob sharoit al-qiyos»), «Jon (ruh)ning mohiyati haqida risola» («Risola fi mohiyat an-nafs») va b.;

3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, tematikasi haqidagi asarlar: «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» («Kitob fi ixso al-ulum va at-ta’rif», qisqacha nomi «Ixso al-ulum»), «Falsafa tushunchasining ma’nosi haqida so‘z» («Kalom fi ma’oni ism al-falsafa»), «Falsafani o‘rganishdan oldin ni-mani bilish kerakligi haqida kitob» («Kitob fi ashyo allati yaxto-ju antallama kabl al-falsafa»). «Falsafaga izohlar». («Taoliq fi-l hikmat») va b.;

4) moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan, ya’ni matematika fanlari — arifmetika, geometriya, astronomiya va muzikaga oid asarlar: «Hajm va miqsor haqida so‘z» («Kalom fi-l xiyz va-l miqsor»), «Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob» («Kitob al-madxal ila-l han-dasat al-vaxmiyati muxtasarsan»), «Astrologiya qoidalari haqida mulohazalarni to‘g‘rilash usuli haqida maqola» («Maqola fi-l ji-hat allayati yassexxu alayho al qavl bi ahkom an-nujum»), «Muzika haqida katta kitob» («Kitob ul-musiqa al-kabir»), «Muzika haqida so‘z» («Kalom fi-l musiqiy»), «Ritmlar turkumlari haqida kitob» («Kitob ul fi ixso-il-iqo») va b.;

5) modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o‘rganuvchi, ya’ni tabiiy fanlar — fizika, kimyo, optika, meditsina, biologiyaga bag‘ishlangan asarlar: «Fizika usullari haqida kitob» («Kitob fi usul ilm at-tabiat»), «Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola» («Maqola fi vujub sanoat al-kimyo va-r radd ala mubtiluho»), «Inson a’zolari haqida risola» («Risola fi a’zo al-insoniya»), «Hayvon a’zolari to‘g‘risida so‘z» («Kalom fi a’zo al-hayvon») va b.;

6) tilshunoslik, she’riyat, notiqlik san’ati, xattotlikka oid asarlar: «She’r va qofiyalar haqida so‘z» («Kalom fi she’r va-l qavofi»), «Ritorika haqida kitob» («Kitob fi-l xitoba»), «Lug‘atlar haqida kitob» («Kitob fi-l lug‘at»), «Xattotlik haqida kitob» («Kitob fi san’at al-kitobat») va b.;

7) ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag‘ishlangan, ya’ni huquqshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlar: «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola» («Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat»), «Shaharni boshqarish» («As-siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi maoyish va-l xurub»), «Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazila») va b.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman, o‘rta asr Sharqining madaniy-ma’naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma’lumot beradi. Mutafakkir o‘z asarlarini o‘sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she’rlar ham yozgan.

Forobiy asarlari XII—XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So‘nggi asrlarda ko‘chirilgan nusxalari ko‘p mamlakatlarning qutubxona va muassasalarida saqlanadi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 risolasini (arabcha) o‘z ichiga olgan «Hakimlar risolalari to‘plami» («Majmuat rasoil al-hukamo», Qo‘lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo‘lyozma Forobiy asarlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. To‘plamdagi Forobiy risolalari 1975 yili qisman o‘zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi.

Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida batafsil yoritilgan. Kitobda o‘rta asrda ma’lum bo‘lgan 30 dan ortiq fanning ta’rifi, ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi: 1) til haqidagi ilm (7 bo‘lim — grammatika, orfografiya, she’riyat); 2) mantiq va uning bo‘laklari; 3) matematika (arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, muzika, og‘irliklar hakidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (8 bo‘lim — bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar — siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika).

Fanlarning bu tasnifi o‘z davrida ilmiy bilimlarni ma’lum tizimga solishning mukammal shakli bo‘lib, bilimlarning keyinga rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Forobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasidan kelib chiqib to‘g‘ri farqlagan. Uning talqinicha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, grammatika, mantiq, she’riyat kabi ilmlar fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya’ni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan. Siyosat, axloq, ta’lim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni o‘rgatadi.

Forobiy insonning amaliy faoliyati uchun tabiiy fanlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi. Bunday fanlarni u real narsalar haqidagi ilmlar deb ataydi. U yunon tabiatshunoslari Evklid, Ptolemey, Galen kitoblariga yozgan sharhlarida, o‘zining geometriyaga doir kitobida antik dunyo, o‘rta asr matematik g‘oyalarining yirik bilimdoni sifatida maydonga chikdi, matematikaning bir qancha murakkab kategoriyalari va mavhum tushunchalarini ilmiy nuqtai nazardan hal etish yo‘llarini qidirdi, xususan son haqidagi ehtimollik nazariyasi to‘g‘risidagi g‘oyalarni boyitdi.

Forobiy «Yulduzlar haqidagi qoidalarda nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘riligi to‘g‘risida» risolasida osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o‘rtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan bulutlar va yomg‘irlar paydo bo‘lishining Quyosh issiqligi

ta’sirida bug‘lanishga sababiy bog‘liqligini yoki Oy tutilishi Yerning Quyosh bilan Oy o‘rtasiga tushib qolishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan edi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab «fol ochuvchilar»ni fosh qildi. Forobiy arzon metallarni qimmatbaho metallarga aylantirishga urinuvchilarni (q. Alkimyo) tanqid qilib, kimyoga tabiiy ilmlarning bir qismi sifatida qaradi. Forobiy tabiblik bilan bevosita shug‘ullanmagan bo‘lsa-da, nazariy tibbiyotni yaxshi bilgan. Uning tibbiy qarashlari «Inson a’zolari haqida» risolasida bayon qilingan. U inson a’zolarini, turli xil kasalliklar sababini, ularning paydo bo‘lish sharoitlarini alohida-alohida o‘rganishni, organizmning salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e’tibor berishni qayd etadi. Insonning ruhiy va jismoniy holati tashqi omillar, muhit ta’siriga bog‘liqligiga e’tibor beradi. Uning tibbiyot vazifasi, maqsadi haqidagi qarashlari Ibn Sinoning bu haqdagi qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Forobiy dunyoqarashining shakllanishiga asosan Sharqning qadimgi ilg‘or madaniyati an’analari, arab xalifaligiga qarshi xalq harakatlari, o‘rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta’sir ko‘rsatdi. Forobiy avvalam-bor Aristotel ta’limotini tiklash, asoslash va ilg‘or tomonlarini so‘nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Forobiyning falsafiy ta’limoti mohiyat-e’tibori bilan an’anaviy ilohiyot — kalomdan tubdan farq qilib, ilmiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgandir. Forobiy falsafasiga ko‘ra, olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud-vujudi vojib, ya’ni azaliy vujud — birinchi sabab hamda vujudi mumkin — yaratilgan, kelib chiqqan vujudlar natijalaridan iboratdir. Alloh — azaliy vujud (vujudi vojib) hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar — vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog‘onama-pog‘ona kelib chiqadi, buning so‘shti pog‘onasi moddadir. Uning fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo‘lishi, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo‘yicha kechadigan tadrijiy jarayondir. Forobiy «Masalalar mohiyati», «O‘zgaruvchan narsalar haqida» risolalarida modda fazoda ham, vaqtda ham cheklanmagan, intihosiz degan fikrni ilgari suradi. Shu tarzda panteizmning Sharqsagi ko‘rinishi vujudiyun ta’limotini yangi g‘oyalar bilan boyitdi.

Borliqning kelib chiqishi haqida Forobiy ta’limotida — mavjudot 4 unsur — tuproq, suv, havo, olovdan tashkil topadi; osmon jismlari ham shu unsurlarning birikuvidan vujudga keladi. Moddiy jismlarning o‘zaro farq qilishiga sabab, ularning ibtidosidagi unsurlarning turlicha bo‘lishidir: olov — issiqlik sababi; suv — sovuqlik, namlik; tuproq — qattiqlik sababi. Forobiy bu-tun mavjudotni sabab va

oqibat munosabatlari bilan bog‘langan 6 daraja (sabab)ga bo‘ladi: Alloh (as-sabab al-avval), osmon jinslari (as-sabab as-soniy), aql (al-aql al-faol), jon (an-nafs), shakl (as-surat), materiya (al-modda). Bulardan Alloh — vujudi vojib, ya’ni zaruriy mavjudlikdir, qolganlari esa — vujudi mumkin, ya’ni imkoniy mavjud narsalardir. Bular bir-birlari bilan sababiy bog‘langan.

Forobiy uchun dunyo g‘uncha bo‘lib, asta-sekin o‘zining rang-barang tomonlarini va bitmas-tuganmas boyliklarini tobora ko‘proq namoyon qilib ochila boradi. Borliqning bunday talqini tabiiy-ilmiy g‘oyalarning yanada rivojlanishi uchun keng yo‘l ochdi. Abu Ali ibn Sino va undan keyingi mutafakkirlar o‘zlarining falsafiy qarashlarida shu borliq tizimi asosida ish olib bordilar.

Ilm, bilish va aql haqidagi ta’limot Forobiy asarlarida izchil va mukammal ishlangan. Ilm olish masalasiga u inson mohiyatini tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qaradi.

Forobiy fikricha, insonning bilishini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolarni hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markazdir, barcha ruhiy «quvvatlar», jumladan bilish qobiliyati muayyan a’zoga bog‘liq.

Forobiy «Ilm va san’atning fazilatlari» risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, sifatlardan aksidensiya (al-oraz)dan substansiya — mohiyat (javhar)ga qarab borishini ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini ta’kidlaydi.

Insonning ibtidosida, avvalo «oziqlantiruvchi quvvat» paydo bo‘lib, uning yordamida inson ovqatlanadi. Shundan so‘ng «tashqi quvvat», ya’ni bevosita tashqi ta’sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi «quvvat»lar — 5 turlidir: teri-badan sezgisi; ta’m bilish sezgisi; hid bilish sezgisi; eshitish sezgisi; ko‘rish sezgisi. Bularning hammasini Forobiy «hissiyot quvvati» («quvvai hissiyya») deb atab, hissiy bilish qismlari sifatida qaraydi. «Ichki quvvat»ga esda olib qolish, xayol (xotira, tasav-vur), his-tuyg‘u, nutq (fikrlash) «quvvat»lari kiradi. «Ichki quvvat»da Forobiy aqliy bilish bosqichini nazarda tutadi. Ilmni egallash shu quvvatlar orqali amalga oshiriladi.

Forobiy bilish jarayoni har 2 bosqichga bog‘liqligini, aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy «Aql ma’nolari haqida» risolasida aql masalasini chuqur talqin qiladi. U aql bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta’sir — ta’lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqdiradi. Forobiy fikricha, aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat — ruhiy kuch bilan bog‘liq.

Forobiyning aql, umuman bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi

muhim o‘rin tutadi. «Mantiq san’ati kishiga shunday qonunlar haqida ma’lumot beradiki, — deb yozgan edi u, — bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog‘lom fikr yuritishga o‘rganadi». Forobiy mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtaraklikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi.

Forobiy logikasi musulmon Sharqidagi so‘nggi mantiqqa oid fikrlarning rivojiga katta turtki berdi.

Forobiyning bilish, mantiq, aql haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta’limoti uchun xizmat qiladi, unga bo‘ysundirilgandir. Aqlga ega bo‘lish, bilimli, mantiqli bo‘lish bilan chegaralanmay, u ma’lum axloqiy prinsiplarga, axloqiy madaniyatga egalik bilan yakunlanishi kerak.

Forobiy aqlli inson haqida gapirib bunday yozadi: «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo‘lganlarni aqlli deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim».

Forobiy o‘rta asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta’limot yaratdi. Bu ta’limotda ijtimoiy hayotning ko‘p masalalari — davlatni boshqarish, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifat, diniy e’tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Forobiy «Fozil shahar aholisining maslagi» risolasida jamiyat («inson jamoasi»)ning kelib chiqishi haqida bunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi… Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi».

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishining zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Bu-tun insonlarni o‘zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. mutafakkir inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinchilikka

asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘ladi. Kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o‘rganish, hayotiy tajriba to‘plash jarayonida orttirgan bilim va ko‘nikmalariga katta ahamiyat beradi. Itoatkorlikka da’vat etuvchi ta’limotlarni kes-kin qoralaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarlarida o‘zining orzu qilgan fozil jamiyatini yana ham yorqin tasvirlaydi. «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, — deb yozadi u, — bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi». Forobiy davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk xislatlarga ega bo‘lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida boshqarish shakllarini qayd etadi.

Forobiy jamiyat o‘z rivojida yetuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil jamiyat, fozil shahar darajasiga ko‘tarilishi haqida fikr yuritadi.

U shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar… Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi». Forobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podshoh, rahbarlarga ham ma’lum talablar qo‘yadi. U xalq haqida doimo g‘amxo‘rlik qilishi, boshqalar manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘ya bilishi zarur. Bunday jamoani idora etuvchi yoki idora etuvchilar guruhi o‘zlarida muhim olti xislatni ifodalashlari kerak, ya’ni adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi kerak.

Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta’limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Masalan, axloq-odobli yetuk inson o‘n ikki fazilatga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o‘zaro munosabatlari mustahkamlanib, yaxshilik tomon yo‘nalishida vujudga kela boradi. Forobiyning fozil jamoa va komil inson haqidagi ta’limotlari so‘nggi olim-mutafakkirlarga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda Forobiyning fozil jamiyati, komil insoni baxt-saodat, o‘zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi fikrlari o‘z davri uchun xayoliydir. Lekin insonni ma’naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, gumanistik yo‘nalishni asoslashga qaratilgan bu ta’limot ilg‘or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo‘lib qo‘shildi. Umumbashariy intilishlarni ifodaladi. Uning ijtimoiy

g‘oyalari keyinchalik so‘nggi mutafakkirlar: Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino, ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy, Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Iqbol, Ahmad Donish va boshqalar ijodida rivojlantirildi.

Xulosa qilib aytganda, o‘rta asrlarning buyuk mutafakkiri, ulug‘ vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy o‘zining sermuhsul ijodida barcha sohalarda qilgan ijodida alohida e’tibor bilan jamiyatni o‘rgandi. U inson va insoniyat baxtli yashashi uchun yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashashi lozimligini asoslab berdi, inson, uning hayoti eng oliy qadriyat ekanligini, uning manfaatlarini yoqlash har qanday jamiyatning eng birinchi vazifasi ekanligini ko‘rsatdi. I.Karimov haqli ta’kidlaganidek, «Milliy taraqqiyotimizning taqdiri oliy qadriyat sanalgan inson, uning erkinliklari, huquqlari hamda manfaatlari ta’minlanganligiga, mustaqil fikrlashi, aqliy zakovat bilan ruhiy-ma’naviy salohiyatni o‘zida uyg‘unlashtira olishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir».

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR .

1. Mirziyoev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev.Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent, O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Mirziyoev.Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi, -Toshkent: 2018, 7 dekabr
5.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: ―Yangi asr avlodi‖ nashriyoti, 2016.
6. Buyuk siymolar, allomalar. To‘plam. 1-kitob. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti. –Toshkent: 1995.
7. Buyuk siymolar, allomalar. To‘plam. 2-kitob. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti. –Toshkent: 1996.
8. Buyuk siymolar, allomalar. To‘plam. 3-kitob. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 1997.

SHARQ – JAHON MADANIYATINING ILK BESHIGI

Umarova Sitora Muxlisovna
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti
Buxoro viloyat mahurat Markazi Pedagogika va
Psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi

Sharq jahonda madaniyat rivojlangan ilk beshiklardan biridir, u ko'plab tarixiy voqealarga guvoh: jang-u jadallar natijasida saltanatlar almashgan, buyuk sarkardalar yashab o'tishgan. Ular meros bo'lgan amallari orasida ulug'larning nomlari va faqatgina yaxshi ishlaridan bizni ogoh qiladigan asarlar qolgan. Mag'ribni asli qadimdan o'ziga qiziqtira olgan sharqona pandnomalar Sharq diyori hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlarini o'zida jamlagan qisqa, ammo mazmunli hikoyalardir. Ular ko'pincha saboq berish, insonni o'ylantirish va to'g'ri yo'lga boshlash uchun yaratilgan. Soddalik ichida chuqur ma'no, shaklan qisqa xulosasi donolik, oddiy voqea ichida haqiqat yashirinligi Sharq hikoyatlarining jozibasini tashkil etadi.

Sharq ijtimoiy tafakkuri, madaniyati mahsuli bo'lganligi uning amaliy va badiiy ahamiyatini oshiradi. Ana shunday asarlar yozilishi uchun shunga yarasha shart-sharoit, ijtimoiy ong va tafakkur, madaniyat va ma'naviyat darajasi, umumlashtirib xulosa chiqarishga arzigulik muayyan amaliy ijtimoiy-siyosiy tajriba kerak bo'lgan. Bugungi kunda yuksak taraqqiyot haqli ravishda e'tirof etib kelinayotgan qit'a va mintaqalarning aksariyati hali "uyqu"da bo'lgan zamonlarda Sharq zaminida, jumladan, bizning qadimiy va navqiron yurtimizda davlatchilik bobida kattagina tajriba to'plangan edi. Ayniqsa, musulmon Sharqida uyg'onish davri o'z cho'qqisiga chiqib, keyingi taraqqiyot bosqichi G'arbda davom etgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlari rivojlanishining umumiy xususiyatlar

Iqtisodiyot, an'anaviy qadriyatlar, diniy xilma-xillik, tarixiy obidalar va me'morchilik		
1.	Yirik sug'orish inshootlari – kanallar, dambalar qurishni talab qiluvchi sun'iy dehqonchilik	**Uzoq Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo**
2.	Dengiz savdosi va alifbo ixtirochilari, ilk tanga pullar	**Kichik Osiyo va Yaqin Sharq**
3.	Ipakchilik, qog'oz, kompas va Buyuk Xitoy devori	**Qadimgi Xitoy**
4.	Ehromlar (piramidalar) va iyeroglif yozuvi	**Qadimgi Misr**
5.	Ilk yozuvlardan biri – mixxat, qonun-qoidalar to'plami – Xammurapi qonunlari va	**Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i)**

	monumental inshootlar	

Insoniyatning shundan keyingi ravnaqi ko‘p jihatdan o‘sha davrdagi ma’naviy-siyosiy jo‘shqinlikda davom etishni belgilab bergan[10]. Davlatchiligimiz taraqqiyoti, ijtimoiylashuvimiz masalalari, ma’naviyat va ma’rifat borasidagi rivojimiz ildizlari o‘sha davrlardan xabar beruvchi ko‘plab didaktik va tarixiy noyob asarlarga borib taqaladi. Bugun esa haqli ravishda ulardan ozuqa olishga huquqi bo‘lgan har bir avlodning bunday asarlarga nisbatan qiziqishi katta. Bu o‘zlikni anglashga nisbatan rag‘batning shakllanganligidir.

Milliy ma’naviy meros hisoblanadigan ushbu didaktik asarlar janridan qat’iy nazar sharqona hikoyat va rivoyatlarni qamrab oladi. Fikr va g‘oyaning asosiy mazmunini ixcham hamda o‘qimishli bayon etilishida ularning ahamiyati yuqori. Tarixdan bugungi kungacha yetib kelgan asarlarning deyarli barchasida ushbu an’ana saqlanib qolingan.

Mashhur qadimgi Sharq hikoyatlari va rivoyatlari manbalari sirasiga “Avesto”, xalq dostonlari (Shiroq, To‘maris, Go‘ro‘g‘li, Alpomish va boshqalar), “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha”, “Hayy ibn Yaqzon”, “Shohnoma”, “Qutadg‘u bilig”, “Qobusnoma”, “Siyosatnoma”, “Hibbat ul-haqoyiq”, “Mantiq ut-tayr”, “Bo‘ston”, “Guliston”, “Masnaviyi ma’naviy” (6 kitobdan iborat, har biri ruhni oziqlantiruvchi manba sifatida ramziy timsollar va hikoyatlarni qamrab olgan), “Ichindagi ichindadur”, “Axloqi Nosiriy” (axloq, oilaviy va ijtimoiy tarbiya masalalari), “Qissasi Rabg‘uziy”, “Javome’ ul-hikoyot va lavome’ ur-rivoyot”, “Lavomi ul asroq fi makorim il-axloq” (Axloqi Jaloliy), “Lison ut-tayr”, “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”, “Latoif ut-tavoif” asarlari shular jumlasidandir. Shuningdek, jadid ma’rifatparvarlaridan Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Behbudiyning “Kitobat ul-atfol”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi Soniy”, Fitratning “Oila” traktati hamda “Rahbari najot” risolasi, Hamzaning “Qiroat kitobi” qisqa hikoyatlardan iborat. Cho‘lpon va Qodiriyning asarlarida ko‘plab hikoyalar berilgan bo‘lib, ular zamonaviy hikoyachilik janriga mansub.

Ularning ahamiyati va qiymatini birgina jahon durdonasi hisoblangan Turonzamin va Eron tarixiga oid 4 ming yillik tarixni o‘zida mujassam etgan Firdavsiyning “Shohnoma” asarida “odam”ga berilgan tavsifda yaqqol aks etgan.

“Shohnoma”da odamning yaralishi haqida

Odam

[10] Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk) / Nizomulmulk. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 304 bet (foydalanildi: 4-betdan).

Chiroy berildi	Ilk ustunlik – zohiri ko‘rkam yaratildi
Aql berildi	Aql va chiroyda barcha jonzodlarga hukmdor qilindi, fikrlab so‘zlash, ezgulikni ko‘zlash, maqtanmaslik (aql egasiligidan), taltaymaslik (dunyo hojasiligidan)
Zabon	So‘zlashga sazovor qilindi
Mehnat	Mashg‘ullik (badanni gunohdan qutqarmoq uchun), irganmaslik (mehnatdan), jirkanmaslik (ojizdan)
Fikr va mehnat uyg‘unligi	Maqsad: 1)yomonlik domiga tushmaslik; 2)halolni farqlash; 3)qilgan ishlaridan uyatga qolmaslik; 4)mehnatsiz rizq topmaslik; 5)g‘amxo‘rlik qilish; 6)zaiflarga madadkor bo‘lish; 7)ilm-u ma’rifatga oshno bo‘lish
Inson	

Demak, “odam” nomi bilan tug‘ilgan eng yuksak daraja “inson” maqomiga erishar ekan, bu jarayonda zohiriy va botiniy chiroy, aql, nutq, mehnat, fikr va amal birligi kabi pillapoyalardan oshib shakllanadi.

Mamlakatimizning ko‘pgina tarixiy shaharlarida, hududlarimiz hayoti bilan yaqindan tanishilganda, shunday bir fikrga ishonch hosil qilindiki, yurtimizning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, ulug‘ olimu ulamolarining bebaho ma’naviy merosi to‘liq o‘rganilmaganligi borasida Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks - sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan», degan fikrlari O‘zbekistonda yashayotgan ta’lim-tarbiya jarayonining har bir ishtirokchisini o‘ylantirishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ 2995-сон «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги»ги Қонуни

4. Нишонова С. Шарқ уйғониш даври педагогик фикр тараққиётида баркамол инсон тарбияси: дис. ... педагогика фан. д-ри. – Тошкент, 1998. – 288 б.

BUYUK AJDODLARIMIZNING BETAKROR VA NOYOB ILMIY-MA'NAVIY MEROSI - O'ZBEKISTONDA YANGI UYG'ONISH DAVRI-UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINING ASOSI.

Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi, o'qituvchi
Buxoro viloyti pedagogik mahorat markazi
abdullaeva mukhayo@gmail.com
tel: 914114149

Annotatsiya: Maqolada Tarixiy xotira O'zbekistonda Yangi Uyg'onish davri-Uchinchi Renessans poydevorining asosi ekanligi tahlil qilinadi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi yoritiladi.
Kalit so'zlar: tarixiy xotira, Yangi Uyg'onish davri, buyuk ajdodlarimiz, ilmiy-ma'naviy meros, demokratik o'zgarishlar
Аннотация: В статье анализируется историческая память как основа фундамента Новой эпохи Возрождения — Третьего Ренессанса в Узбекистане. Освещается уникальное и бесценное научно-духовное наследие наших великих предков.
Ключевые слова: историческая память, Новая эпоха Возрождения, великие предки, научно-духовное наследие, демократические преобразования.
Abstract: The article analyzes historical memory as the foundation of the New Renaissance era—the Third Renaissance—in Uzbekistan. It highlights the unique and invaluable scientific and spiritual heritage of our great ancestors.
Keywords: historical memory, New Renaissance era, great ancestors, scientific and spiritual heritage, democratic reforms.

"Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak"[11].

Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini

[11] Sh.Mirziyoev "Yangi O'zbekiston", 2020 yil 30-sentabr
[2] Mavrulov A. Uchinchi Renessans- munosib kelajak poydevori, "Yangi O'zbekiston", 2020 yil 6 oktabr, 190 son, 3-bet.

ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Hammamizga yaxshi ma’lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash’alasi to‘qqizinchi – o‘n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi.

«“Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi»[12].

O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Bir o‘ylab ko‘raylik, ajdodlarimiz bunday yuksak cho‘qqilarga qanday erishganlar? Ular, eng avvalo, jaholatga qarshi ma’rifat bayrog‘ini baland ko‘tarib, o‘z aql-zakovati va salohiyatini bashariyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o‘rganish va boyitishga bag‘ishlaganlar.

Tan olish kerakki, biz ana shunday bebaho merosga ko‘pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo‘lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ymoqdamiz. Vaholanki, bunday noyob meros kamdan-kam xalqlarga nasib etgan. Birgina Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq nodir qo‘lyozmalarga dunyo ahli havas qiladi. Biz bu haqiqatni har tomonlama

teran anglashimiz zarur.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.

Agar biz har bir insonda o'zi mansub xalqning jajji qiyofasi mavjudligini fahmlay bilsak, xalqimiz o'tmishda qalbiyu tafakkuri toza, iymoniyu diyonati butun, bag'ri mehr-oqibatga to'liq, juvonmardlikda dovrug' taratgan xalq bo'lganligini, ming yillar osha o'z tartib qoidalari, ezgulik va ulug'vorlik salohiyati bilan Mag'ribu Mashriqning etiborini qozonganligini unutishga haqqimiz yo'q. Uzoq o'tmishdayoq xalqimiz hayratli ezgu fazilatlari bilan boshqa xalqlarning havasini keltirgan, ibrat olishga arzigulik sifatlari ko'p bo'lgan. Shu bois arab sayyohi ibn Batuta (13-asr) "Safarnoma" kitobida: "Men dunyoni kezib, bunday odamlardan ko'ra ezgu niyatli va ezgu xulqli kishilarni ko'rmadim. Ularga tobe joylarda adolat rasmi shunday rivojlanganki, ularning lashkargohlari, xonalarida oltin va kumush tangalar yerda sochilib yotadi va egasi topilmaguncha hech kim bu pullarga tegmaydi", deb xotira bitdi. Qaranki, bu gaplarga ham 8 asr bo'libdi.

XI asrda yashab o'tgan zahmatkash olim Mahmud Qoshg'ariy "Tangri ularga o'zi ot qo'ygan, ism bergan, ularni eng baland yerlarga, xushhavo joylarga o'rnatgan va o'zining botirlaridan sanagan. Turklarda ko'rkamlik kabi maqtashga sazovor xulqlar soni sanoqsizdir"[13], deb ta'riflagan edi. Bunday ulug'vor fazilatlar o'sha uzoq moziydayoq Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Rabg'uziy, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, A.Navoiy singari daho salohiyatli farzandlarda komillikka ko'tarilgan. Bu nasli toza xalq alla aytgan beshikdan har bir davrda ne bir salohiyatli juvonmardlar, allomayu ulamolar, ijodkoru san'atkorlar yetishib chiqmadi, deysiz.

Xalqimiz ma'naviyat daraxtining o'zi ham, ildizi ham benihoya ulkanligi rost. Uning baquvvat ildizlaridan oziq olgan noyob fazilatlarning ta'rif-tavsifi o'nlab kitoblarda ham mukammalligicha o'z aksini topa olmaganligini tushunamiz. Istiqlol ana shu ta'rif-tavsifi olamjahon ma'naviyat daraxtini parvarish qilishga, xalqimizning qadr-qimmati, izzat-nufuzi, ezgulik va insoniyligining bo'ydor

[13] Ibn Batuta "Safarnoma"

bo‘lishiga eng qulay muhit yaratdi.

Ma’naviyatni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, islom odobi, necha ming yilliklarda to‘plangan tajribalar hamda istiqlol mohiyati, maqsadlariga tayanib, millat va davlatning qaddini tiklash yo‘lidagi dasturiy rejalarga to‘laligicha monand yuksaltirishning hayotiy ehtiyojga aylanishi buyuk bir baxtdir. Shukronalar bilan aytish joizki, benihoya ulug‘vor bu mas’ullikning yo‘lboshchisi va homiysi Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev bo‘layotganligi ma’naviy-ma’rifiy hayotimizning tezkor rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muhtaram yurtboshimiz asarlari va nutqlarida ma’naviyatning mohiyati, uni o‘rganishning metodologik asoslari konkret ishlab berildi. Davlatki, fozillik salohiyati timsoli bilan jahon hamjamiyatida o‘zining ibratli nufuziga ega bo‘lar ekan, buning zaminida ma’naviy-ma’rifiy komillik, unga qat’iyatli va oqilona munosabat yotgan bo‘ladi. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishiga qo‘yilishida ham ana shu tamoyilning o‘rni borligini har tomonlama chuqur anglash zaruriyati bor.

Qadim-qadimdan hayotda ulug‘larga hurmat - e’tibor, ular hukmiga rizolik, bo‘ysunish, ajdodlar ruhiga sadoqat hissi elu yurt shuurini anglash tuyg‘usining ilk kurtaklari bo‘lgan bo‘lsa ajabmas. Shundandir balkim, ajdodlar yodi, xotira- tarix bilan umrguzaronlik pallasidagi mohiyatan o‘xshash “qaytariq” lar o‘sha o‘tmish odamlar lafzida afsona, ertak - hikoya va hatto dostonday ijod mevalarining yaratilishiga zamin bo‘lganligini fahmlash mumkin. Bu jarayon aslida odamzod tafakkuri, tuyg‘usini shakllantirishda ancha zalvori omil rolini o‘ynagan deyilar, ehtimol. Garchi o‘sha davrda odamlar to‘pori jamoa tarzida hayot kechirsalar-da, baribir, ajdodlar e’zozi, o‘z qavmi, sha’ni xislatlari bilan insoniy va xalqona tuyg‘ularning qad rostlashida o‘z imkoni darajasidagi tarixiy vazifani o‘tadi. Demoqchimizki, Vatan tuyg‘usi, ajdodlar hurmati o‘sha uzoq moziydayoq chingbarg chiqara boshlagan edi. Aks holda oddiygina yilqiboqar Shiroq o‘z qavmlari erki va sha’ni uchun o‘limga tik bormagan, malika To‘maris qilich yalang‘ochlab jangga otlanmagan bo‘larmidi. Zotan erk va Vatan tuyg‘usi botiniy tuyg‘ularning o‘q tomiriga aylangan edi. Ajdodlar ketidan avlodlar asrlar osha ayni shu zamonaga yetib kelibdiki, erk va Vatan sevgisi, xalq va millat qadri, g‘urur va iymon tobora ulg‘ayib kelmoqda. Uning jon tomiri necha ming yillarki, asrlar osha qanchadan - qancha to‘fonu dovullarga duch keldi. Baribir xalqning vujudida o‘zligidan darak beruvchi fazilat va tuyg‘ular tarixning ko‘pdan-ko‘p sinovlaridan eson-omon o‘tdi.

Tarix hech qachon o‘zi mansub xalqdan ayricha yashay olmaydi va uzoqlashmaydi ham. Uning birdan-bir maqsadi, harakat yo‘li - o‘zi mansub elu

yurtning taqdiri inshosini qadam-baqadam bag‘riga jamlamoqdir. Tarix shu asno asrlar, davrlar osha kelajak ajdodga kechinmalarni loaqal axborot yo‘sinida bo‘lsa-da, o‘tkazmoq umidi bilan yashaydi. Ammo vaqt tarixda shunday g‘addor davrlar bo‘ladiki, uning zo‘ravon tizim-yo‘riqlari zarbidanmi oddiy xalq ichdan qiynala- qiynala o‘z ona tarixidan uzoqlashib qoladi. O‘z tarixidan uzoqlashish, undan benasiblik xalqning o‘zligini nimjon, g‘ururini mo‘rt qilib qo‘yadi, fikr tuyg‘usini qovjiratib yuboradi. Buning qanchalik og‘ir xastalik ekanligi har bir istibdod davrida boshdan kechirilgan.

Biz bugun ona tariximiz bilan ro‘baro‘ turibmiz. Ha, uzoq vaqtlar bo‘ldi, ona tarix qaddi istiqlol kunlaridagidek bo‘y rostlamagan edi. U elu yurtning o‘tmish-kechmishlarini hech bir minnat qilmay, balki bir ezgu mas’ullik bilan qay bir qo‘lyozmalar bag‘rida avaylab-asrab keldi, deyishga tamoman xaqlimiz. Tarix o‘zi mansub xalqning, millatning ma’naviy saviyasiga, e’tiqod tuyg‘usini qarab shaklu shamoyil topadi.

Tarix - bu xalqning, yurtning, ajdodlarning xotira kitobi Xotirasini yo‘qotgan shaxs ma’naviy - ruhiy xasta shaxs bo‘lgani kabi, xotirasi yo‘q xalqning kelajagi bo‘lmaydi. Shu sabab biz yosh avlodda uzoq tariximizga bo‘lgan muhabbat va sadoqatni kamol toptirishimiz kerak. Tarix odamlarga o‘z ajdodlarini, ularning taqdir yo‘llarini tanishtirish bilangina cheklanmaydi, balki ajdodlar ruhiga sadoqat, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini o‘stiradi. Tarix bizga bugungina uchun emas, balki buyuk kelajagimiz uchun ham kerak.

Har birimiz doimo turfa mushkulotlar, ziddiyatlar, aloqalar, muammolarda umr o‘tkazamiz. Hayot shunday. U turli xil mushkulotlarni tug‘diradi, ularni hal etishga undaydi. Hayotdagi qarama-qarshiliklarga ro‘baro‘ kelish bizni yana harakatga yetaklaydi, muammolar har hil yechimlarga olib keladi. Ma’naviy - ruhiy barkamol inson va ana shu mushkulotu muammolar ta’siriga tushib qolmaydi, balki uni yengib o‘tishning oqilona yo‘llarini hozirlaydi.

Ma’naviyatning betimsol imkoniyatlari tufayli inson aql-zakovati, vujudi, ruhi, salohiyati, oljanob fazilatlarda barqarorlashadi. Inson tabiatida ezgulik, ruhiyatida ulug‘vorlik, munosib olamida nazokat va samimiylikka e’tiqod, yomonlikdan forig‘likni ravnaq toptiradi. Garchi ezguligu yovuzlikning, yaxshiligu yomonlikning, go‘zalligu xunuklikning millati bo‘lmasa-da har bir xalq, millatning milliy ma’naviyati bo‘ladi. Buning tag-zamini har kimning qalbi, ruhi, tuyg‘usini o‘z xalqining, o‘z vatanining ma’lum sifatlari mavjud bo‘lganligidadir. O‘zbekona fazilat, o‘zbekona juvonmardlik, o‘zbekona mehmonnavozlik, o‘zbekona bag‘ri kenglik singari tushunchalar bejiz aytilmagan. Ana shunday o‘nlab fazilatlar har bir shaxsda millatga, xalqqa tegishli butunlikning zarrasi, belgisi mavjud bo‘ladi. O‘z

xalqi, o‘z Vatani qadrini anglagan, unga mansubligini tan olgan insonda milliy shuur, milliy tuyg‘u, milliy odob va milliy qiyofa bo‘lishini fahmlaymiz. Ayni paytda vujudida xalqi, millati va vatan qadrini yetarli anglab olmagan kimsalar mavjudligini ham inkor etish qiyin. O‘z xalqi, millati, yurtini qadrlay bilmagan, undan yuz o‘girganlar o‘z vijdoniyu iymonidan ham yuz o‘giradilar. Bundaylarni aslo oqlab bo‘lmaydi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston”, 2020 yil 30-sentabr
2. Mavrulov A. Uchinchi Renessans- munosib kelajak poydevori, “Yangi O‘zbekiston”, 2020 yil 6 oktabr, 190 son, 3-bet.
3. Ibn Batuta “Safarnoma

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA AJDODLARIMIZ YONDASHUVI – DAVLATCHILIK TARIXIMIZNING UCH MING YILLIK TERAN ILDIZI

Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi, o‘qituvchi
Buxoro viloyti pedagogik mahorat markazi
abdullaeva mukhayo@gmail.com
tel: 914114149

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish beqiyos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi, ajdodlarimiz merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerakligi haqida fikr yuritilgan.
Kalit so’zlar: Ajdodlar, ilmiy-ma’naviy meros, Uchinchi Renessans davri, ilm-fan, madaniyat, ibrat maktabi, “Tarbiya” fani, “Birga uch” usuli, “Bobojonim va buvijonim o’gitlari” metodi.

Buyuk ajdodlar merosi - avlodlar yo’lini yorituvchi mangu chiroqdir. Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbida ajdodlarga munosib bo’lish tuyg’usini kuchaytirish, navqiron avlod ongu shuurini milliy madaniyatimizga zid bo’lgan yot g’oyalardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek,“Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko’ra olish fazilatlarini, yoshlarimizdagi g’ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko’zlagan marralarga, albatta, etamiz. Biz o’z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni qo’ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”.

O‘zbekiston zaminidan azal-azaldan o‘zlarining ilmiy-ma’naviy, ma’rifiy-falsafiy meroslari bilan jumlayi jahonga tanilgan ko‘plab buyuk allomalar va mutafakkirlar yetishib chiqib, samarali faoliyat ko‘rsatganlar. Ularning aql-zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo‘lgan bebaho asarlari va buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahon ahlining qudratli ma’naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek:“Tarixga nazar solsak, Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-

madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.” [1]

O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi va o‘zligini chuqur anglagan millatdagina tarixiy xotira ustuvor bo’ladi. Hamma ham o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Shunday ekan, buyuk ajdodlarimizning hayoti va merosini o‘rganish beqiyos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak.

Antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash’alasi IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni etishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg’oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o’nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi.“Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxr-u iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi.

O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Bir o‘ylab ko‘raylik, ajdodlarimiz bunday yuksak cho‘qqilarga qanday erishganlar? Ular, eng avvalo, jaholatga qarshi ma’rifat bayrog‘ini baland ko‘tarib, o‘z aql-zakovati va salohiyatini bashariyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o‘rganish va boyitishga bag‘ishlaganlar.

Ajdodlarimiz merosi o‘tmishda ilm-fan, madaniyatning barcha sohalari, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko‘p qirrali bo‘lganligi, faoliyatida ilm-fan

bilan bir qatorda din, axloq, insonning ma'naviy dunyosi, jamoaning hamjihatligi, uni odilona boshqarish, saodati masalalari muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi. Ularning merosi va madaniyat tarixi yana ilm-fan va diniy qoidalarning bir butunligini tashkil etib, umumiy ma'naviyat rivoji uchun xizmat qila olishini, foydali bo'lishini isbotlaydi.

Ajdodlarimiz merosini, qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi milliy manaviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, milliy g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni, xalq mehnatiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, yangi jamiyatimizning to'g'ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmat qiladi. Yurtboshimiz aytganlaridek, "Oqqan daryo - oqaveradi", deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq."

Xalqimizning noyob adabiy-badiiy merosi bugungi kunda yosh avlodga ulkan ma'naviy kuch beradi. Hozirgi kundagi keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, shubhasiz, bu yo'ldagi dastlabki muhim qadamdir. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak.

Shunday ekan, biz o'qituvchilar oldiga kelajak avlodni bilimdon, Vatanga cheksiz muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifalar turibdi. Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda erishilgan yutuqlarni sarhisob qilib, yechimini kutayotgan dolzarb muammolarni tahlil qilar ekanmiz, erishilgan yutuqlarimizda buyuk ajdodlarimizning o'gitlari, ilmiy merosi ham munosib o'rin tutishiga ishonch hosil qilamiz.

Jumladan, "Tarbiya" fanini o'qitishda yosh avlodda mustahkam e'tiqod, yuksak dunyoqarash, teran tafakkur, oilyjanob fazilatlarni, faol fuqarolik nuqtayi nazarini, milliy g'urur, bag'rikenglik va sog'lom e'tiqodni shakllantirish, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatish, ularda go'zal insoniy fazilatlarni kamol toptirish jarayonida ajdodlar merosidan foydalanish muhim

ahamiyat kasb etadi. Zero, "Najot - ta'limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Darslar jarayonida biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi, mangu chaqiriq bo'lgan rivoyat, hadis, hikmat, hikoya, pandnomalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ma'naviy merosimizning durugavhari hisoblangan maqol, hadis, matal va hikmatli so'zlardan darslarda foydalanish, ular asosida olib boriladigan savol-javob, debatlar, munozaralar darsni yanada qiziqarli o'tishiga xizmat qiladi.

Masalan, "Tarbiya" fanini o'qitishda "Birga uch" usulidan foydalanishni tavsiya etamiz: Maqolning boshi aytiladi, o'quvchi uning 3 ta variantini misol keltiradi va izohlaydi. Bu usul o'quvchilarni nutqimiz ko'rki bo'lgan maqollarni ko'proq y

umladan: Bilim -…

- Bilim - aql chirog'i.
- Bilim - davlatdan qimmat.
- Bilim baxt keltirar.

Do'st - …

- Do'st-do'stning oynasi.
- Do'st do'stlikda toblanar.
- Do'sting - boyliging.

Zero, hikmatlardan ota-bobolarimiz asrlar osha bosib o'tgan yo'lni, boshdan kechirganlarni, turmush shodliklari va chekkan azob-uqubatlari, teran mazmunli pand-nasihatlarni, qadimgi davlatlarda, o'rta asr va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, rasm–rusmlarini, rang barang an'analarini ko'ramiz ga his etamiz. Shu bilan birga darslarda hadislardan keltirilgan axloq-odob, kasb-hunar, ilm fazilatlari, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik haqida shunday qimmatli fikrlar faqat o'tmishda emas, hozirgi kunda ham yosh avlodda ma'naviy, axloqiy fazilatlarni shakllanrtirish, ijodiy fikrlash va atrof-olamga ongli bo'lishni tarbiyalashda boy manbadir.

"Bobojonim va buvijonim o'gitlari" metodi aynan "Tarbiya" faniga qo'llaniladigan va yaxshi samara beradigan usul hisoblanadi. O'quvchilar bobojon va buvijonlaridan o'rgangan pand nasihatlarini, hodisa-voqealarni so'zlab berishlari mumkin. Bunda hadis va maqollardan namunalar keltirilsa ham bo'ladi. Bu usul orqali o'quvchilarning oilaviy tarbiyasi qay darajada ekanligini ham bilish ham mumkin. Jumladan, 7-sinf «Tarbiya» fanidan «Umr-umid-sinov-imkoniyat» mavzusi boyicha quyidagi «Umr – oqar daryo» hikoyasi tavsiya etiladi:

«To'lqinlari shosha-pisha oqayotgan daryo bo'yida varrak uchira yotgan bolakay

yonidagi bobosiga savol berdi:

– Bobojon, nega umrni oqar daryo deyishadi?

– Daryoning shoshqaloq suvi – vaqtga, katta xarsanglar – umrimizdagi katta maqsadlarga, mayda toshlar esa – ko‘z ilg‘amas kichik maqsadlarga o‘xshaydi. Hayotda ham katta maqsadlarga kichik maqsadlar orqali yetamiz, – deya javob berdi bobo.

– Bobojon, nega vaqt darsda yoki biror ish qilayotganimda sekin, do‘stlarim bilan o‘ynaganimda esa juda tez o‘tadi? – dedi bolakay.

– Ko‘ryapsanmi, – dedi bobo o‘ychan lik bilan, – shamol bo‘lmasa, sening varraging samoga, ya’ni yuqoriga ko‘tarila olmagani kabi, insonni ham maqsadlariga mashaqqat bilan bosgan yo‘li yetkazadi.

Dars oxirida o’quvchilarga «Insonni maqsadga mashaqqat yetkazadi, deganda nimani tushundingiz?» savoli mushohada uchun berilishi tavsiya etiladi.

Shunday qilib, “Tarbiya” fanini o‘qitishda buyuk ajdodlarimizning insonni ulug‘lash, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolat, olijanoblik, do‘stlik, rostgo‘ylik, kamtarlik, saxiylik, mardlik, muruvvatlilik, odob, axloq, ilm-ma’rifat haqida ilgari surgan g‘oyalarini singdirish katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

“O‘zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma’rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo‘lmaymiz. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.” [2-146-bet]

Ona Vatanimiz O‘zbekistonning fayz-baraka yurti sifatida gullab yashnashiga munosib hissa qo‘shayotgan yoshlar buyuk ajdodlarimiz yaratgan boy merosni yanada puxtaroq o‘rgansalar maqsadga muvofiq bo‘ladi, katta hayot yo‘lida buyuk ajdodimizdan qolgan ma’naviy meros yoshlarga yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman.” [3]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. “O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2020-yil 30-sentabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I-jild – T.: “O‘zbekiston”, 2017, 146-bet

3.Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 8-dekabr.

OILADA AVLODLAR VORISLIGI VA O’SMIR SHAXSINING RIVOJLANISHI

Gadayeva Munira Muxamedovna
katta o’qituvchisi ,mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oilada avlodlar vorisligining o’smir shaxsining shakllanishi va rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Oila muhitida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ma’naviy meros va hayotiy tajribalarni avloddan avlodga uzatish jarayoni o’smirlarning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy kamolotiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida avlodlar vorisligini ta’minlashning dolzarb masalalari va ularni hal etish yo’llari ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: avlodlar vorisligi, oila, o’smir, shaxs rivojlanishi, qadriyatlar, tarbiya, ma’naviyat, ijtimoiylashuv.

Аннотация

В данной статье освещается значение преемственности поколений в семье в процессе формирования и развития личности подростка. Проанализировано влияние передачи от поколения к поколению национальных ценностей, традиций, духовного наследия и жизненного опыта в семейной среде на нравственное, духовное и социальное развитие подростков. Также рассмотрены актуальные проблемы обеспечения преемственности поколений в условиях современной глобализации и предложены пути их решения.

Ключевые слова: преемственность поколений, семья, подросток, развитие личности, ценности, воспитание, духовность, социализация.

Annotation

This article highlights the importance of intergenerational continuity within the family in the formation and development of an adolescent’s personality. It analyzes the impact of transmitting national values, traditions, spiritual heritage, and life experiences from one generation to another within the family environment on the moral, spiritual, and social development of adolescents. The article also examines current challenges of ensuring intergenerational continuity in the context of globalization and suggests possible ways to address them.

Keywords: intergenerational continuity, family, adolescent, personality development, values, upbringing, spirituality, socialization.

KIRISH

Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasida yosh avlodni har tomonlama barkamol, vatanparvar va ma’naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda oilaning o’rni beqiyosdir. Oila nafaqat biologik, balki ma’naviy va ijtimoiy merosning ham asosiy uzatuvchisi hisoblanadi. Ayniqsa, o’smirlik davrida avlodlar o’rtasidagi vorislik munosabatlari shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avlodlar vorisligi – bu ajdodlar tomonidan yaratilgan ma’naviy, madaniy va axloqiy merosning keyingi avlodlarga uzatilishi jarayonidir. Oilada ushbu jarayon ota-onalar, buvi-bobolar hamda boshqa katta avlod vakillari orqali amalga oshiriladi. Vorislik quyidagi yo’nalishlarda namoyon bo’ladi:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o’rgatish;
- oilaviy an’analarni davom ettirish;
- mehnatsevarlik va mas’uliyat hissini shakllantirish;
- ajdodlar hayoti va tajribasini yosh avlodga yetkazish;
- vatanparvarlik va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish.

METODOLOGIYA

Mavzuning metodologik metodologik asosini Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy qarashlari, shaxs rivojlanishining ijtimoiy-madaniy va psixosotsial nazariyalari hamda oilaviy tizimlar yondashuvi tashkil etadi. Sharq mutafakkirlari merosida shaxs kamoloti, avvalo, axloqiy poklik, ma’naviy yetuklik va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog’liq holda talqin etiladi. Abu Nasr Forobiy insonni jamiyat bilan uzviy bog’liq mavjudot sifatida ko’rib, uning kamolotini aql, axloq va ijtimoiy muhit uyg’unligida shakllanishini asoslaydi. Abu Ali ibn Sino esa shaxs rivojlanishida oilaviy muhit, tarbiya va ma’naviy barqarorlik hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy insonparvarlik, komillik va ezgulik g’oyalarini markazga qo’yib, shaxs tarbiyasida ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligini asoslaydi. Abdulla Avloniy esa tarbiyani millat taraqqiyotining asosiy poydevori sifatida ko’rib, ilm va axloq uyg’unligini barkamol shaxs shakllanishining muhim sharti deb biladi.

Ushbu qarashlar zamonaviy psixologik nazariyalar bilan uyg’un holda tadqiqotning ilmiy asosini yanada mustahkamlaydi. L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga ko’ra, shaxs psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit, muloqot va madaniy tajribalarni o’zlashtirish jarayonida shakllanadi. Bu yondashuv oilada avlodlar tomonidan shakllangan ma’naviy meros va qadriyatlarning o’smir shaxsiga ta’sirini ilmiy asoslashga imkon beradi.

E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi esa o’smirlik davrini identitet (o’zlikni anglash) inqirozi bilan bog’lab, shaxsning ijtimoiy rollarni egallashi va o’zini anglash jarayonida oilaviy munosabatlar va ijtimoiy muhit hal qiluvchi rol o’ynashini ko’rsatadi. Shu asosda o’smir shaxsining shakllanishida avlodlararo munosabatlar va tarbiyaviy ta’sirlarning ahamiyati yoritiladi.

Oilaviy tizimlar nazariyasiga muvofiq, oila yaxlit tizim sifatida qaralib, uning har bir a’zosi o’zaro bog’liq va bir-biriga ta’sir etuvchi element sifatida namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan, oiladagi kommunikatsiya, avlodlararo bog’liqlik va qadriyatlar uzluksizligi o’smirning psixologik barqarorligi va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

O’smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va mas’uliyatli bosqichi hisoblanadi. Bu davrda o’smir o’zligini anglash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mavqeini belgilashga intiladi. Shu sababli oiladagi munosabatlar va avlodlararo muloqot uning psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, oilada sog’lom ma’naviy muhit mavjud bo’lsa:

- o’smirlarda ijobiy “Men” konsepsiyasi shakllanadi;
- ijtimoiy moslashuv darajasi oshadi;
- agressiv va deviant xulq-atvorning oldi olinadi;
- kelajakka nisbatan ishonch va mas’uliyat hissi kuchayadi.

Aksincha, avlodlararo munosabatlarning sustligi yoki oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi o’smirlarda ma’naviy bo’shliq, individualizm va egoistik xulq-atvorning kuchayishiga sabab bo’lishi mumkin.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yoshlarning axborot makoni kengayib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ayrim hollarda oilaviy qadriyatlar ta’sirining kamayishiga olib kelmoqda. Natijada avlodlar o’rtasida dunyoqarash va qadriyatlar tafovuti yuzaga kelishi mumkin.

Shu bois:

- oilada ma’naviy suhbatlarni ko’paytirish;
- buvi-bobolar tajribasidan samarali foydalanish;
- milliy qadriyatlarni targ’ib etuvchi oilaviy tadbirlarni tashkil qilish;
- maktab va oila hamkorligini kuchaytirish;
- maktab maslahatchilari va psixologlarning profilaktik faoliyatini rivojlantirish zarur.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar tarbiyasi va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. "Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat" g’oyasi asosida yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan keng ko’lamli

dasturlar amalga oshirilmoqda.

Prezident maktablari, ijod maktablari, "Barkamol avlod" markazlari hamda "Bir million dasturchi" kabi loyihalar yoshlarning zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda milliy qadriyatlarga sodiq bo’lib ulg’ayishiga xizmat qilmoqda. Bu esa avlodlar vorisligining yangi bosqichda davom etishiga zamin yaratmoqda.

Xulosa

Oilada avlodlar vorisligi o’smir shaxsining ma’naviy, axloqiy va psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Oila tomonidan uzatiladigan qadriyatlar, an’analar va hayotiy tajribalar yosh avlodning barkamol inson bo’lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda avlodlar vorisligini saqlash va rivojlantirish oila, ta’lim muassasalari hamda jamiyatning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O’zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O’zbekiston, 2021.
2. Karimova V.M. *Oila psixologiyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. G’oziev E.G’. *Yosh davrlari psixologiyasi*. – Toshkent: O’qituvchi, 2019.
4. Musurmonova O. *Oila ma’naviyati va tarbiya asoslari*. – Toshkent, 2020.
5. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
6. O’zbekiston Respublikasi "Ta’lim to’g’risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. Vygotskiy L.S. *Psixologiya razvitiya cheloveka*. – Moskva, 2019.
8. Erikson E. *Identity and the Life Cycle*. – New York, 1994.

BUXORO AMIRLIGI MADRASALARIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY TA’LIM UCHUN SABOQLAR

Elmurodova Nigora Jobir qizi
Buxoro shahar 38-umumiy
o‘rta ta’lim maktabining
Maktab maslahatchisi
+998906358101
Nigorascientific1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Buxoro amirligi davri madrasalarida shakllangan ustoz-shogird an’analari, mudarrislarning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni hamda ilmiy vorislik tizimi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ustoz-shogird munosabatlarining talabalarning ilmiy va ma’naviy kamolotidagi ahamiyati yoritilib, mazkur tajribaning zamonaviy ta’lim tizimida mentorlik va individual yondashuv tamoyillarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, madrasa, ustoz-shogird an’anasi, mudarris, ijozat, ilmiy vorislik, ta’lim-tarbiya, mentorlik.

Kirish. Buxoro amirligi davrida madrasalar ilm-fan va ma’naviyat markazlari sifatida faoliyat yuritib, jamiyat uchun diniy-huquqiy hamda ma’rifiy kadrlar tayyorlagan. Ushbu tizimning muhim jihatlaridan biri ustoz-shogird an’anasi bo‘lib, u ilmiy bilimlar, axloqiy qadriyatlar va kasbiy tajribaning avloddan-avlodga uzatilishini ta’minlagan. Madrasalarda ta’lim jarayoni ko‘proq mudarris shaxsi atrofida shakllanib, talabalar mashhur ulamolar huzurida tahsil olishga intilganlar. Mazkur maqolada Buxoro amirligi madrasalarida ustoz-shogird an’analarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning zamonaviy ta’lim tizimi uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil va manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini S. Ayniy, A. Fitrat, A. Donish, M. A. Baljuvoniy[14] asarlari hamda Buxoro madrasalariga oid arxiv hujjatlari tashkil etdi. Ushbu manbalar asosida Buxoro amirligi davridagi ustoz-shogird munosabatlari, ta’lim jarayonining tashkil etilishi va ilmiy vorislik mexanizmlari tahlil qilindi.

[14] Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. (Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, З. Чориев). – Тошкент: Академия, 2001. – Б.78.; Фитрат А. Ҳинд сайёҳи қиссаси // “Шарқ юлдузи”. 1991. – №8. – Б.13.; Айний С. Эсдаликлар (I-II қисмлар) Асарлар. V том. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – Б. 163.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro amirligi madrasalarida ta’lim jarayoni ko‘proq mudarris shaxsi atrofida shakllangan[15]. Talabalar madrasa nomidan ko‘ra mashhur mudarrislar huzurida tahsil olishni afzal ko‘rganlar. Mudarris nafaqat dars beruvchi, balki shogirdning ilmiy va ma’naviy kamolotiga mas’ul murabbiy vazifasini ham bajargan[16]. Aynan shu sababli talabaning kelajakdagi ilmiy mavqei ko‘p jihatdan uning qaysi ustozdan ta’lim olganiga bog‘liq bo‘lgan.

Madrasalarda ustoz-shogird an’analari dars jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘lgan. Darslar sharhlash, matn ustida ishlash va munozara usullari orqali olib borilgan[17]. Talabalar orasidan eng bilimdonlari “Qori jamoa” sifatida tanlanib, mudarris huzurida matnlarni o‘qigan va izohlagan. Bunday usul nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki nutq madaniyati va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga ham xizmat qilgan. S. Ayniy xotiralarida talabalar o‘rtasida diniy-huquqiy masalalar bilan bir qatorda falsafiy mavzularda ham bahs-munozaralar olib borilgani qayd etiladi[18]. Bu esa madrasalarda tanqidiy fikrlash unsurlari ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Buxoro madrasalarida ilmiy vorislik tizimining muhim elementi ijozatnoma berish an’anasi hisoblangan[19]. Talaba muayyan fanlarni chuqur o‘zlashtirgandan so‘ng ustozidan ijozat olib, mustaqil ravishda dars berish huquqiga ega bo‘lgan. Ijozatnoma nafaqat bilim darajasini tasdiqlovchi hujjat, balki shogirdning ma’lum ilmiy maktab davomchisi sifatida tan olinganini ham bildirgan. Natijada madrasalarda avloddan-avlodga o‘tuvchi ilmiy maktablar shakllangan va diniy-ilmiy merosning uzluksizligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalari Buxoro madrasalaridagi ustoz-shogird tizimi zamonaviy ta’lim uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda dunyoning yetakchi universitetlarida keng qo‘llanayotgan mentorlik tizimi mazmun jihatidan tarixiy ustoz-shogird an’analariga yaqin hisoblanadi. Masalan, AQSH va Yevropa universitetlarida ilmiy rahbarlarning talabalar bilan individual ishlashi, doktorantlarning ilmiy maktablar doirasida tayyorlanishi hamda tajribali professorlar tomonidan yosh tadqiqotchilarning qo‘llab-quvvatlanishi ilmiy vorislikni ta’minlashga xizmat qilmoqda[20].

---

[15] Асророва Л. Бухоро мадрасалари тарихидан: Ахмадхон ибн Исмоилхон мероси. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2017. – Б.30.
[16] Фитрат А. Ҳинд сайёҳи қиссаси // “Шарқ юлдузи”. 1991. – №8. – Б.13.
[17] Olufsen O. The Emir of Bokhara and his country. Copengagen-London, 1911.- P.386.
[18] Айний С. Эсдаликлар (I-II қисмлар) Асарлар. V том. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – Б. 163.
[19] Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. – Ташкент: Издательство академии наук узбекской ССР, 1960. – С.60.
[20] Bettencourt G.M., Kimball E.W. Re-envisioning Doctoral Mentorship in the United States // International Journal of Doctoral Studies. – 2021. – Vol. 16. – P. 237–252.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda “ustoz-shogird” tamoyili oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida keng joriy etilmoqda. Xususan, doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy rahbarlar bilan muntazam faoliyati, yosh olimlar maktablarining tashkil etilishi hamda ilmiy seminarlar tizimi tarixiy an’analarning zamonaviy shakldagi davomidir[21]. Biroq zamonaviy ta’limda ayrim hollarda ustoz va talaba o‘rtasidagi individual muloqotning kamayib borayotgani kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan, Buxoro madrasalarida mavjud bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tajribasi bugungi ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Demak, Buxoro amirligi madrasalarida shakllangan ustoz-shogird an’analari ilmiy bilimlarning uzluksizligini ta’minlash, shaxs tarbiyasi va kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim omil bo‘lgan. Ushbu tarixiy tajriba zamonaviy ta’lim tizimida mentorlik, ilmiy maktablar va individual yondashuv tamoyillarini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, Buxoro amirligi madrasalaridagi ustoz-shogird tizimini zamonaviy mezonlar asosida to‘liq samarasiz yoki eskirgan tizim sifatida baholab bo‘lmaydi. Ayrim fanlar va o‘quv dasturlarining davr talablariga mos kelmay qolganiga qaramay, ta'limning individual xarakterga egaligi, ustozning shaxsiy mas'uliyati, ilmiy vorislik, munozara va ijozat tizimi kabi jihatlar bugungi kunda ham dunyoning nufuzli universitetlarida qo‘llanilayotgan mentorlik va ilmiy rahbarlik tamoyillari bilan mushtarakdir. Shu bois madrasa ta’limining ayrim pedagogik tajribalari zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa. Buxoro amirligi madrasalarida shakllangan ustoz-shogird an’analari ta’lim-tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ilmiy bilimlar, ma’naviy qadriyatlar va kasbiy tajribaning avloddan-avlodga uzatilishida muhim o‘rin tutgan. Madrasalarda ta’lim jarayonining muayyan mudarris atrofida tashkil etilishi, ijozat tizimi, ilmiy munozaralar va shaxsiy tarbiyaga asoslangan yondashuv ilmiy vorislikning uzluksizligini ta’minlagan. Ayrim kamchiliklarga qaramay, mazkur tizimni to‘liq samarasiz yoki eskirgan deb baholash ilmiy jihatdan asosli emas. Chunki undagi mentorlik, individual yondashuv va ilmiy maktablar shakllantirish kabi tamoyillar bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois Buxoro madrasalarining ustoz-shogird an’analari tarixiy-pedagogik meros sifatida zamonaviy ta’lim amaliyotini boyitishda muhim manba

[21] **Ilmiy tadqiqotlar olib borishda ‘ustoz–shogird’ an’anasi” mavzusidagi ilmiy seminar materiallari //** O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi rasmiy sayti. – 2025. Bosh prokuratura Akademiyasi xabari

bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Айний С. Эсдаликлар (I–II қисмлар) // Асарлар. V том. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 490 б.
2. Асророва Л. Бухоро мадрасалари тарихидан: Ахмадхон ибн Исмоилхон мероси. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2017. – 224 б.
3. Балжувоний М.А. Тарихи нофеий / Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, З. Чориев. – Тошкент: Академия, 2001. – 152 б.
4. Фитрат А. Ҳинд сайёҳи қиссаси // Шарқ юлдузи. – 1991. – №8. – Б. 3–31.
5. Olufsen O. The Emir of Bokhara and His Country. – Copenhagen; London: William Heinemann, 1911. – 599 p.
6. Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1960. – 335 с.
7. Bettencourt G.M., Kimball E.W. Re-envisioning Doctoral Mentorship in the United States // International Journal of Doctoral Studies. – 2021. – Vol. 16. – P. 237–252.
8. “Илмий тадқиқотлар олиб боришда «устоз–шогирд» анъанаси” мавзусидаги илмий семинар материаллари // Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси Академияси расмий сайти. – 2025.

BUXORO AMIRLIGI MADRASALARIDA TA’LIM-TARBIYA VA QADRIYATLAR VORISLIGI

Elmurodova Nigora Jobir qizi,
Buxoro davlat texnika universiteti stajor o‘qituvchisi:
(90) 635-81-01

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligi madrasalarining milliy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, saqlash hamda avloddan-avlodga yetkazishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Madrasalarning ta’lim-tarbiya, ilm-ma’rifat, ustoz-shogird an’analari va madaniy meros vorisligini ta’minlashdagi ahamiyati tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, mazkur qadriyatlarning zamonaviy jamiyat hayotidagi davomiyligi hamda yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni baholanadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, madrasa, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, ta’lim-tarbiya, ustoz-shogird an’anasi, vorislik, ilm-ma’rifat.

Kirish. Har bir xalqning ma’naviy taraqqiyoti va milliy o‘zligini saqlab qolishida ta’lim-tarbiya tizimi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ajdodlar tomonidan yaratilgan ilmiy-ma’rifiy merosning avloddan-avlodga uzatilishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Buxoro amirligi davrida madrasalar nafaqat diniy ta’lim beruvchi muassasalar, balki milliy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, saqlash hamda yosh avlodga yetkazishga xizmat qilgan muhim ijtimoiy-madaniy markazlar sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu maskanlarda ilm-ma’rifatga intilish, ustozga hurmat, axloqiy komillik, hamjihatlik va ma’naviy yetuklik kabi qadriyatlar targ‘ib etilib, ustoz-shogird an’analari orqali jamiyat hayotida uzviy davom ettirilgan. Shu bois Buxoro amirligi madrasalari faoliyatini qadriyatlar vorisligi nuqtai nazaridan o‘rganish bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Ma'lumki, ta'lim sohasi ijtimoiy-madaniy hayotning muhim poydevoridir. Shunday ekan, o‘tmishda ajdodlarimizning savodxonligi, madaniy-ma’naviy hayot darajasiga baho berish uchun madrasalar faoliyati, ularning aholi kundalik turmush tarzida tutgan o‘rnini tadqiqotlar orqali ochib berishimiz muhimdir. Chunki O‘zbekiston dunyoga nafaqat olim-ulamolar yurti sifatida, balki o‘quv dargohlari bo‘lmish madrasalari bilan ham dong taratgan. Ayniqsa bu borada Buxoro oldingi qatorlarda turadi. Dastlab masjidlar darsxonalar vazifasi o‘tab turgan bo‘lsa, keyinroq aynan madrasalar ta'lim maskani sifatida musulmon o‘lkalarida birin-ketin paydo bo‘la boshladi. Madrasa haqida aksariyat islom ensiklopediyalarida deyarli bir xil ta’rif berilgan. [6;147] Unga ko‘ra, islomning tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan oliy o‘quv yurtining madrasa ta’limi uslubi butun musulmon olamiga keng yoyilgan keyinchalik uning ta’sirida Yevropada ham XII – XIII asrlarga kelib universitetlar

paydo bo‘lgan.

Buxoro amirligi madrasalari mintaqaning, xususan, Markaziy Osiyoning milliy qadriyatlari va madaniy merosida muhim o‘rin tutadi. Ularning ta’siri ta’limdan tashqari, ijtimoiy, madaniy va diniy hayotning turli jabhalariga ta’sir qiladi.

Ilk madrasalarning Buxoroda ochilishi ham ushbu zaminda ilm-fanga nisbatan e’tibor yuksak ekanligini ko’rsatadi. Buxorodagi ilk madrasalar haqidagi ma’lumotlar Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida uchraydi. Unga ko’ra, Buxorodagi ilk madrasalardan biri– Farjak madrasasi 937-yili shaharda yuz bergan yong‘inda zarar ko‘rgan edi.[1;84.] Shuningdek, tadqiqotchi A.Jumanazar tadqiqotlariga ko‘ra dastlabki Buxoro madrasalari 7ta bo‘lgan. Bular Kalabod va G‘aribiya, Abu Hafs al-Kabir madrasasi, Abu Bakr ibn al-Fazl madrasasi, Farjak madrasasi, Timchayxon madrasasi va Imom ul-muslimin madrasasi edi.[4;48] Mana shu ma’lumotning o‘zi ham Buxoro madrasalari qadimdan ilm-fan rivoji uchun katta hissa qo‘shgani, milliy qadriyatlar asosida ko‘plab ilm kishilarini yetishtirib berganiga misol bo‘la oladi.

Tarixiy manbalar tahlili Buxoro amirligi madrasalarining milliy va ma’naviy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon quyidagi jihatlarda namoyon bo‘lgan:

Birinchidan, Buxoro amirligi madrasalari milliy va ma’naviy qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishida muhim ta’lim-tarbiya maskani vazifasini bajargan. Madrasalarda diniy va dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda ilmga hurmat, ustozga ehtirom, axloqiy poklik, adolat va mas’uliyat kabi qadriyatlar ham singdirilgan [5;113]. Ta’lim jarayonida shakllangan ushbu fazilatlar keyinchalik jamiyat hayotida faoliyat yuritgan mudarrislar, olimlar, amaldorlar, imomlar va ma’rifatparvarlar orqali keng yoyilgan. Natijada madrasalar nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki jamiyatning ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi hamda qadriyatlar vorisligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritgan.

Ikkinchidan, Buxoro amirligidagi madrasalar ilmiy va ma’naviy merosning avloddan-avlodga uzatilishini ta’minlovchi muhim markazlar hisoblangan. Ushbu ta’lim maskanlarida diniy ilmlar, adabiyot, til va madaniyatga oid bilimlar muntazam o‘qitilib, ular ustoz-shogird an’analari orqali keyingi avlodlarga yetkazilgan. Natijada madrasalar mintaqada shakllangan ilmiy maktablar, ma’naviy qadriyatlar va madaniy an’analarning davomiyligini ta’minlab, jamiyatning intellektual taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan.

Uchinchidan, Buxoro amirligi madrasalari milliy-madaniy merosning saqlanishi va avloddan-avlodga yetkazilishida muhim o‘rin tutgan. Madrasalarda

arab, fors va turkiy tillar, adabiyot, tarix hamda islom madaniyatiga oid bilimlar o‘qitilib, yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashi shakllantirilgan. Ushbu ta’lim maskanlari turli hududlardan kelgan talabalarni birlashtirib, ilmiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Xususan, XIX asrning 20-yillariga kelib Buxoroda istiqomat qilgan tatarlarning ko‘plab vakillari madrasalarda tahsil olib, o‘z navbatida ilmiy va madaniy an’analarni keng hududlarga tarqatishda vositachi bo‘lganlar. Bu holat madrasalarning nafaqat ta’lim muassasasi, balki milliy va madaniy qadriyatlar vorisligini ta’minlovchi muhim markaz sifatida faoliyat yuritganini ko‘rsatadi.[2;14]

To‘rtinchidan, Buxoro amirligi madrasalari ta’lim maskani bo‘lish bilan birga, milliy madaniyat va badiiy merosni avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim markazlar vazifasini ham bajargan. Mir Arab, Govkushon, Nodir Devonbegi va Ko‘kaldosh kabi madrasalar me’morchiligida xalqning estetik qarashlari, hunarmandchilik an’analari va milliy qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. Ushbu me’moriy obidalar yosh avlodda tarixiy xotira, milliy g‘urur va madaniy merosga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu tariqa madrasalar nafaqat ilm-ma’rifat maskani, balki milliy-madaniy qadriyatlar vorisligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham faoliyat yuritgan.

Beshinchidan, Buxoro amirligi madrasalari ijtimoiy hamjihatlik, o‘zaro yordam va jamoat mas’uliyati kabi qadriyatlarning shakllanishi hamda avloddan-avlodga yetkazilishida muhim o‘rin tutgan. Madrasalar nafaqat ta’lim maskani, balki jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi ijtimoiy-madaniy markaz sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu yerda diniy marosimlar, ilmiy suhbatlar va turli jamoaviy tadbirlar o‘tkazilib, kishilarda birdamlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat tuyg‘ulari mustahkamlangan. Shuningdek, madrasalar qoshida yo‘lga qo‘yilgan xayriya ishlari orqali muhtojlarga yordam ko‘rsatilib, rahm-shafqat va saxovat kabi qadriyatlar yosh avlod ongiga singdirilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amiri tomonidan madrasalar, mudarrislar va ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun katta mablag‘lar ajratilgani ham ushbu muassasalarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyatidan dalolat beradi.[7;5.]

Oltinchidan, Buxoro amirligi madrasalari ilmiy va madaniy aloqalar rivojlangan markazlar sifatida turli hududlardan kelgan talabalar va olimlarni o‘z atrofiga jamlagan. Bu holat ilmiy bilimlar, ma’naviy qadriyatlar va madaniy an’analarning keng hududlarga tarqalishiga xizmat qilgan. Madrasalarda shakllangan ilm-fanga hurmat, bag‘rikenglik va bilim almashish an’analari turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni rivojlantirib, qadriyatlar vorisligining mustahkamlanishiga zamin yaratgan.

Yettinchidan, Buxoro madrasalari jamiyat uchun nafaqat bilimli mutaxassislar, balki yuksak ma’naviyat va fuqarolik mas’uliyatiga ega shaxslarni ham tarbiyalagan. Madrasa bitiruvchilari davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, ta’lim va madaniyat sohalarida faoliyat yuritib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar. Ular orqali ilmga intilish, adolat, mas’uliyat va ma’rifatparvarlik kabi qadriyatlar jamiyat hayotida davom ettirilgan. Xususan, Buxoro madrasalarida tahsil olgan Sadriddin Ayniy o‘zining ilmiy va ma’rifiy faoliyati orqali xalqning ma’naviy yuksalishiga xizmat qilib, ta’lim va ma’rifatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini namoyon etgan.

Sakkizinchidan, Buxoro amirligi madrasalari axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va ularni avloddan-avlodga yetkazishda muhim ta’lim-tarbiyaviy vazifani bajargan. Madrasalarda tahsil olgan ulamolar va mudarrislar nafaqat ilm berish, balki yoshlarni halollik, mas’uliyat, mehnatsevarlik va odob-axloq ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratganlar. Natijada axloqiy me’yorlar va ma’naviy qadriyatlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ahmad Donish mudarrislik faoliyatining mashaqqatlari haqida fikr yuritar ekan, muallimning butun umrini ilm olish va ilm tarqatishga bag‘ishlashini ta’kidlaydi. Bu esa madrasalarda ustoz shaxsining nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy tarbiyachi sifatida ham yuksak qadrlanganini ko‘rsatadi.[3;224–225]

To‘qqizinchidan, Buxoro amirligi madrasalari tarixiy, ilmiy va ma’naviy merosning uzluksiz davomiyligini ta’minlagan muhim maskanlar hisoblangan. Asrlar davomida shakllangan ta’lim an’analari, ustoz-shogird munosabatlari va ilmiy maktablar orqali madrasalar milliy qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazib kelgan. Mazkur meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolib, zamonaviy ta’lim tizimida ilmga hurmat, ustozga ehtirom va ma’naviy barkamollik kabi qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan Buxoro madrasalari tajribasi ta’limda ajdodlar va avlodlar vorisligini ta’minlashning tarixiy namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda ta’limga bo‘lgan e’tibor kuchayishi natijasida Buxoroda bir qancha diniy madrasalar faoliyati qayta yo‘lga qoyildi. So‘nggi yillarda islom ta’limi va madaniy merosiga e’tibor yana kuchaydi, madrasalar milliy o‘zlik va qadriyatlarni tiklashdagi o‘rni alohida e’tirof etilmoqda.

Xulosa. Buxoro amirligi madrasalari milliy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, saqlash hamda avloddan-avlodga yetkazishda muhim o‘rin tutgan ta’lim-tarbiya maskanlari hisoblangan. Ushbu muassasalarda ilm-ma’rifat, axloqiy tarbiya, ustoz-shogird an’analari, o‘zaro hurmat, hamjihatlik va ma’naviy kamolot kabi qadriyatlar yosh avlod ongiga singdirilgan. Madrasalar nafaqat diniy bilim

beruvchi markaz, balki milliy o‘zlik, madaniy meros va ilmiy an’analar davomiyligini ta’minlovchi ijtimoiy institut vazifasini ham bajargan. Shu bois Buxoro amirligi madrasalarining tarixiy tajribasi bugungi kunda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonida vorislik tamoyillarini mustahkamlash hamda ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 84.
2. Асророва Л. Бухоро мадрасалари тарихидан: Ахмадхон ибн Исмоилхон мероси Т.: «Hilol-Nashr» 2017. – Б.14.]
3. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. – Сталинабад. 1960. – С. 224-225.
4. Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. /– Тошкент: Akademnashr, 2017. – 48 Б.
5. Зорина Ю.П. Медресе в регионах дореволюционной России как профессиональные учебные заведения. // Историческая и социально-образовательная мысль. 2014. № 3 (25). - С. 113.
6. Мадраса (медресе) // Ислам. Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – С.149; Мадраса // Ислом. Энциклопедия. А-Ҳ / З.Ҳусниддинов таҳрири остида. – Тошкент: ЎзМЭ, 2004. – Б.147.
7. Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени // Материалы по истории таджиков и узбеков Средний Азии. II. ч. – С.5.

AJDODLAR MEROSI VA ZAMONAVIY LIDERLIK KOMPETENSIYALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Rajabov Nozimjon Nazirjonovich
Buxoro tuman 18-umumta'lim maktab maslahatchisi
tel:+998914005014 email:nozimjonrajabiv11@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada ajdodlar merosining zamonaviy liderlik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va buyuk ajdodlarimizning boshqaruv tamoyillari bugungi kunda strategik fikrlash, mas'uliyat, kommunikativ ko'nikmalar, innovatsion yondashuv va jamoani boshqarish kabi liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekani yoritilgan. Shuningdek, ta'lim tizimida ajdodlar merosidan foydalanish orqali yoshlarning liderlik salohiyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ajdodlar merosi, liderlik, kompetensiya, strategik fikrlash, boshqaruv, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, innovatsiya, ta'lim, yoshlar.

Аннотация

В данной статье научно проанализирована роль наследия предков в формировании современных лидерских компетенций. Раскрыто значение ациональных ценностей, исторического опыта и принципов управления великих предков в развитии стратегического мышления, ответственности, коммуникативных навыков, инновационного подхода и умения управлять коллективом. Также представлены рекомендации по использованию наследия предков в образовательном процессе для развития лидерского потенциала молодежи.

Ключевые слова: наследие предков, лидерство, компетенция, стратегическое мышление, управление, духовность, национальные ценности, инновации, образование, молодежь.

Abstract

This article analyzes the role of ancestral heritage in the development of modern leadership competencies from a scientific perspective. It highlights the importance of national values, historical experience, and the management principles of great ancestors in fostering strategic thinking, responsibility, communication skills, innovation, and teamwork. The paper also provides recommendations for integrating ancestral heritage into the educational process to enhance the leadership potential of young people

Keywords: ancestral heritage, leadership, competency, strategic thinking, management, spirituality, national values, innovation, education, youth.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, ilmiy umumlashtirish hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosiga oid manbalar hamda zamonaviy liderlik nazariyalari o’zaro qiyoslandi. Shuningdek, pedagogik va psixologik adabiyotlar asosida liderlik kompetensiyalarining mazmuni tahlil qilinib, ularning milliy qadriyatlar bilan bog’liqligi ilmiy asoslandi. Olingan natijalar induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali umumlashtirildi hamda ta’lim amaliyotiga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

G’arb boshqaruv maktablarida uzoq yillar davomida ustunlik qilgan ratsionalizm va iqtisodiy samaradorlikka yo’naltirilganlik paradigmasi bugungi kunda inson kapitalini asrash va rivojlantirish borasida yetarli chidamlilik ko’rsata olmayapti. Aynan shu nuqtada Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy falsafiy va madaniy-tarixiy merosi zamonaviy rahbarlik kompetensiyalarining konseptual asosi sifatida namoyon bo’ladi. Etnomenejment va madaniy intellekt (CQ) tushunchalari doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ajdodlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan davlat va jamiyatni boshqarish tamoyillari bugungi xalqaro korporativ standartlar va transformatsion liderlik nazariyalari bilan bevosita sinergetik aloqadorlikka ega.

Bu borada Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari zamonaviy hissiy intellekt (EQ) konsepsiyasi bilan tubdan bog’lanadi. Daniel Goleman tadqiqotlarida muvaffaqiyatli rahbarlikning kaliti sifatida e’tirof etilgan o’z-o’zini anglash, empatiya, ijtimoiy ko’nikmalar va emotsiyalarni boshqarish qobiliyatlari Forobiyning fozil rahbar haqidagi ta’limotida markaziy o’rinni egallaydi. Mutafakkir tomonidan ilgari surilgan rahbarning ruhiy va intellektual yetukligi, nafsni tiyishi hamda jamoa a’zolarining ichki holatini tushunish fazilatlari bugungi kunda korporativ etika, rahbarning halolligi (integrity) va xodimlarni ilhomlantirish orqali boshqarish tizimining tarixiy o’tmishdoshi hisoblanadi. Forobiy modelida boshqaruvchi faqat buyruq beruvchi mexanizm emas, balki jamiyat a’zolarining umumiy farovonligini ta’minlovchi ma’naviy markaz sifatida talqin etiladi, bu esa zamonaviy xizmat ko’rsatuvchi yetakchilik (servant leadership) konsepsiyasiga to’liq hamohangdir.

Shu bilan bir qatorda, Yusuf Xos Hojibning boshqaruv falsafasi zamonaviy strategik qarorlar qabul qilish va meritokratiya tizimi bilan uzviy zanjir hosil qiladi.

Uning davlat arboblari, elchilar va vazirlarning malaka talablariga oid qarashlari bugungi inson resurslarini boshqarish (HRM) va iqtidorlarni jalb qilish (talent management) metodologiyasining poydevoridir. Tizimda adolat, bilim va amaliy tajribaning o’zaro muvozanati boshqaruv barqarorligini ta’minlovchi asosiy mezon sifatida ko’rsatiladi. Bu esa hozirgi kunda kompaniyalarda kadrlar samaradorligini baholash (KPI) va eng munosib xodimlarni yuqori lavozimlarga ko’tarish kabi meritokratik tamoyillarning tarixan shakllangan shaklidir. Rahbarning strategik moslashuvchanligi va ziddiyatli vaziyatlarda diplomatik muvozanatni saqlash qobiliyati ushbu meros orqali zamonaviy muzokaralar olib borish (negotiation skills) va konfliktlar menejmenti kompetensiyalariga transformatsiya bo’ladi.

Amaliy boshqaruv va taktik muvaffaqiyatlar kontekstida Amir Temurning davlatchilik va harbiy san’at maktabi bugungi risk-menejment hamda Agile (moslashuvchan) boshqaruv tizimlari bilan to’g’ridan-to’g’ri aloqa bog’laydi. Temuriy boshqaruv tizimining o’zagini tashkil etuvchi kengash va mashvarat yuritish tamoyili hozirgi zamon menejmentidagi jamoaviy qaror qabul qilish (participative management) va aqliy hujum (brainstorming) metodlarining klassik namunasidir. Muhim strategik vazifalarni hal etishda turli soha vakillarining fikrini eshitish va tahlil qilish orqali xavf-xatarlarni oldindan baholash mexanizmi mukammal yo’lga qo’yilgan. Ushbu yondashuv zamonaviy korporatsiyalarda inqirozga qarshi boshqaruv (crisis management) va strategik rejalashtirishning muhim vositasi bo’lib xizmat qiladi. Davlat tuzilmasidagi qonun va qoidalarning ustuvorligi esa bugungi kunda global biznesda keng qo’llaniladigan korporativ boshqaruv (corporate governance) standartlariga mos keladi.

Nihoyat, Alisher Navoiyning ijtimoiy-gumanistik qarashlari zamonaviy ijtimoiy mas’uliyat va inson kapitaliga investitsiya kiritish g’oyalari bilan kesishadi. Navoiy tomonidan ulug’langan saxovat, empatiya va jamiyat farovonligi yo’lida xizmat qilish tamoyillari bugungi kunda yirik xalqaro kompaniyalar brendining ajralmas qismiga aylangan Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) tushunchasini toifalash va asoslashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyoda xodimlarning ruhiy salomatligi, ish va hayot muvozanati (work-life balance) hamda inklyuziv muhit yaratish masalalari birinchi o’ringa chiqayotgan davrda, Navoiyning har bir shaxsning qadr-qimmatini ulug’lashga qaratilgan antropotsentrik falsafasi rahbar va xodim o’rtasidagi aloqalarni insonparvarlashtirish uchun metodologik manba bo’ladi. Shunday qilib, ajdodlar merosini o’rganish va uni zamonaviy boshqaruv kompetensiyalari bilan sintez qilish, faqatgina o’tmishni g’ururlanish ob’ekti sifatida ko’rish emas, balki milliy mentalitetga va global standartlarga javob beradigan mutlaqo yangi, barqaror va samarali yetakchilik modelini yaratish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning boy ma’naviy va falsafiy merosi shunchaki tarixiy yodgorlik yoki o’tmish xotirasi emas, balki zamonaviy menejment va yetakchilik nazariyasini boyitishga xizmat qiladigan mukammal konseptual poydevordir. Bugungi kunda global miqyosda tan olingan transformatsion liderlik, hissiy intellekt, meritokratiya, risk-menejment va korporativ ijtimoiy mas’uliyat kabi yetakchi kompetensiyalarning tub ildizlari va falsafiy asoslari Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur hamda Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning qarashlarida chuqur tahlil etilganini ko’rish mumkin. G’arbning ratsional, texnologik va natijaga yo’naltirilgan boshqaruv modellari bilan Sharqning an’anaviy, insonparvar va axloqiy qadriyatlarga tayanuvchi prinsiplarini o’zaro sintez qilish bugungi o’zgaruvchan dunyo talablariga to’liq javob beradi. Ushbu integratsiya nafaqat mahalliy boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradi, balki jahon miqyosida raqobatbardosh, milliy o’zlikni anglagan va yuqori madaniy intellektga (CQ) ega bo’lgan yangi avlod rahbarlar korpusini shakllantirishda muhim metodologik vosita bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2022.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981.
5. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 2019.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. – 9th ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2022.
9. Yukl G. Leadership in Organizations. – 9th ed. – New York: Pearson, 2020.
10. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
11. Boyatzis R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. – New York: John Wiley & Sons.
12. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid me’yoriy-uslubiy hujjatlari.

ZAMONAVIY MAKTAB TA'LIMIDA O'QUVCHILAR MOTIVATSIYASI: MUAMMOLAR, XORIJIY TAJRIBA VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Elmurodova Nigora Jobir qizi
Buxoro shahar 38-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
Maktab maslahatchisi
+998906358101
Nigorascientific1@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada zamonaviy maktab ta'limida o'quvchilar motivatsiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. O'zbekiston maktablarida kuzatilayotgan motivatsiya bilan bog'liq muammolar Finlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlari tajribasi bilan qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqotda o'qituvchi nufuzi, ota-onalar ishtiroki, maktab muhiti va tarbiyaviy omillarning o'quvchilar motivatsiyasiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR: motivatsiya, o'quvchi, maktab ta'limi, ota-ona, o'qituvchi, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, pedagogika

KIRISH. Ta'lim har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasi ko'p jihatdan uning ta'lim tizimi samaradorligiga bog'liq. XXI asrda globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va mehnat bozoridagi o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shu sababli dunyoning rivojlangan davlatlari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi davlat ta'lim standartlari joriy etildi[22], kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsliklar yaratildi[23], Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyati kengaytirildi[24] hamda

[22] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5712-son Farmoni. 2019-yil 29-aprel.

[23] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 422-son qarori. 2020-yil 6-iyul.

[24] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va uzluksiz qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4306-son qarori. 2019-yil 3-may.

xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashuv jarayoni jadallashdi[25]. Shu bilan birga, mazkur islohotlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ta'lim tizimining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida ayrim maktablarda o'quvchilar motivatsiyasini oshirish, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, o'qituvchilarning kasbiy faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarga qo'shimcha e'tibor qaratish zarur.

Mazkur tadqiqotning maqsadi zamonaviy maktab ta'limida o'quvchilar motivatsiyasini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik omillarni tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni samarali qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot jarayonida Buxoro shahridagi umumta'lim maktabi o'quvchilarining ota-onalari bilan yarim tuzilmaviy suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlarda maktab ta'limi sifati, qo'shimcha o'quv kurslariga munosabat, o'quvchilar motivatsiyasi, o'qituvchilar faoliyati hamda maktab va oila hamkorligi masalalari o'rganildi. Shuningdek, Finlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlariga oid ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy va qiyosiy tahlil usullari asosida umumlashtirildi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar hamda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili o'quvchilar motivatsiyasining shakllanishi ko'plab omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, oila muhiti, maktabdagi ta'lim sifati, o'qituvchining kasbiy mahorati, tengdoshlar muhiti va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablari va qo'shimcha o'quv kurslari faoliyatining o'zaro nisbati, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari pedagogik muhokamalarda keng tilga olinmoqda.

[25] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134-son Farmoni. 2022-yil 11-may.

Shuningdek, ta'lim jarayonida o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirish hamda sport, san'at va boshqa amaliy faoliyat turlarini rivojlantirish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro tajriba ham ta'lim samaradorligi nafaqat akademik natijalar, balki o'quvchilarning qiziqishlari, ijodiy salohiyati va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyoslanganda muhim tafovutlarni ko'rsatadi. Finlandiya ta'lim tizimida o'quvchiga bo'lgan ishonch, o'qituvchining yuqori ijtimoiy maqomi va ota-onalarning faol ishtiroki ta'lim samaradorligining muhim omillari hisoblanadi[26]. O'zbekistonda ham kompetensiyaviy yondashuv, yangi avlod darsliklari va raqamli ta'lim platformalarini joriy etish orqali ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda[27]. Shu bilan birga, maktab va ota-onalar hamkorligini yanada rivojlantirish hamda ilg'or xalqaro tajribalarni amaliyotga kengroq tatbiq etish ta'lim islohotlari samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ining kengaytirilishi, yangi davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi, PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashuv hamda o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi[28]. Mazkur o'zgarishlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, sinflardagi o'quvchilar sonini maqbullashtirish, moddiy-texnik bazani yanada mustahkamlash va o'qituvchilar uchun qulay pedagogik muhit yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yaponiya tajribasida axloqiy tarbiya va jamoaviy mas'uliyat ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi[29]. O'quvchilarda ustozga hurmat, jamoaga daxldorlik va o'zini boshqarish ko'nikmalari maktabning dastlabki bosqichlaridanoq shakllantiriladi[30]. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ham mazkur yo'nalishda

[26] Sahlberg P. Finnish Lessons 3.0. – New York: Teachers College Press, 2021. – P. 45–68.
[27] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi **PF–5712-son Farmoni** "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
[28] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi **997-son qarori** "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"
[29] The Japanese Educational System. Cave P. *The Japanese Educational System: An Introduction*. – London: Routledge, 2016. – P. 87–95.
[30] Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. *Moral Education in Japan*. – Tokyo: MEXT, 2018. – P. 5–12.

muhim ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ayrim maktablarda o‘quvchilarning kundalik madaniyati, o‘zaro muomala va mas’uliyat hissini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi kuzatildi. Bu esa tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy yondashuvlar asosida boyitish va uning samaradorligini oshirish muhimligini ko‘rsatadi.

Janubiy Koreya tajribasida ota-ona, maktab va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlik ta’lim samaradorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi[31]. O‘zbekistonda ham maktab va oila hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda[32]. O‘zbekistonda ham yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu jihatdan maktab va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ta’lim jarayonida ularning o‘zaro mas’uliyatini kuchaytirish mavjud imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, Finlandiya va Yaponiya ta’lim tizimlarida o‘qituvchilarning asosiy e’tibori ta’lim jarayonini tashkil etish va o‘quvchilar bilan ishlashga qaratilgan[33]. O‘zbekistonda ham o‘qituvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda[34]. Pedagogik adabiyotlar va xalqaro tajriba tahlili attestatsiya, sertifikatlash hamda hisobot ishlari bilan bog‘liq jarayonlarni takomillashtirish o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

XULOSA. O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yangi davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ining kengayishi hamda xalqaro baholash dasturlariga integratsiyalashuv ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon mamlakat ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bilan birga, o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda.

Finlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi tahlili ta’lim samaradorligi nafaqat o‘quv dasturlari va texnologiyalar, balki o‘qituvchi nufuzi, ota-onalarning

[31] OECD. *Lessons from PISA for Korea: Strong Performers and Successful Reformers in Education*. – Paris: OECD Publishing, 2014. – P. 89–95.

[32] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

[33] **OECD.** *Education at a Glance 2023*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P. 432–445.

[34] **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni** “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

faol ishtiroki, tarbiyaviy muhit va o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan maktab va oila hamkorligini mustahkamlash, ta’limning amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirish hamda o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, o‘qituvchilar uchun yanada qulay pedagogik muhit yaratish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos yondashuvlarni keng joriy etish ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu esa raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy kompetensiyalarga ega yosh avlodni tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 29-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va uzluksiz qo‘llab-quvvatlash tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4306-son qarori. – Toshkent, 2019-yil 3-may.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6108-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 422-son qarori. – Toshkent, 2020-yil 6-iyul.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–134-son Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 11-may.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori. – Toshkent, 2018-yil 8-dekabr.
7. Sahlberg P. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2021. – 240 p.
8. Cave P. The Japanese Educational System: An Introduction. – London: Routledge, 2016. – 312 p.

9. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). Moral Education in Japan. – Tokyo: MEXT, 2018. – 24 p.
10. OECD. Lessons from PISA for Korea: Strong Performers and Successful Reformers in Education. – Paris: OECD Publishing, 2014. – 124 p.

MAKTAB MASLAHATCHILARI FAOLIYATIDA O‘QUVCHILARNING QIZIQISHLARI, QOBILIYATLARI, QADRIYAT YO‘NALISHLARI VA HAYOTIY MAZMUNINI SUHBAT ORQALI ANIQLASH

N.Saidova
Buxoro shahar 14-maktab
maktab maslahatchisi
(91-312-16-16)
nsaidova77as@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan maktab maslahatchilari (psixologlari) tomonidan o‘quvchilar shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda suhbat metodining o‘rni va samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning qiziqishlari, ichki qobiliyatlari, tizimli qadriyatlari hamda hayot mazmunini anglash darajasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan tizimli suhbat ssenariylari va yo‘naltiruvchi savollar majmuasi ishlab chiqilgan va amaliyotda sinab ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar: maktab maslahatchisi, pedagogik-psixologik suhbat, qiziqishlar, qobiliyat, qadriyat yo‘nalishlari, hayot mazmuni, proforiyentatsiya, motivatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и эффективность метода беседы, применяемого школьными консультантами (психологами) в общеобразовательных школах для выявления личностных особенностей учащихся. В рамках исследования разработаны и апробированы на практике комплексы структурированных бесед и направляющих вопросов, ориентированных на глубокий анализ интересов, скрытых способностей, ценностных ориентаций и понимания смысла жизни учащимися.

Ключевые слова: школьный консультант, педагогико-психологическая беседа, интересы, способности, ценностные ориентации, смысл жизни, профориентация, мотивация.

Abstract. This article analyzes the role and effectiveness of the interview method used by school counselors (psychologists) in general secondary schools to identify students' personal characteristics. Within the framework of the research, structured interview scenarios and guided questions aimed at deep analysis of students' interests, internal abilities, value orientations, and meaning of life were developed and tested in practice.

Keywords: school counselor, pedagogical-psychological interview, interests, abilities, value orientations, meaning of life, career guidance, motivation.

KIRISH.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — har bir o‘quvchining ichki salohiyatini to‘laqonli yuzaga chiqarish, uning individual traektoriyasini shakllantirish va mustaqil hayotga maqsadli yo‘naltirishdir. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida joriy etilgan maktab maslahatchilari tizimi o‘quvchilar bilan bevosita individual hamda guruhli tartibda ish olib borish imkoniyatini taqdim etmoqda. O‘quvchilar shaxsining barqaror o‘sishi va to‘g‘ri kasb tanlashi uchun uning to‘rtta fundamental mezoni: qiziqishlari, o‘ziga xos qobiliyatlari, shakllanayotgan qadriyatlari hamda hayotiy maqsadlari chuqur o‘rganilishi lozim.

Ko‘pincha an'anaviy testlashtirish yoki miqdoriy so‘rovnomalar o‘quvchining sub'ektiv kechinmalari, yashirin qirralari va fikrlash dinamikasini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli, maktab maslahatchisi faoliyatida interaktiv, moslashuvchan va sifat ko‘rsatkichlariga boy bo‘lgan pedagogik-psixologik suhbat metodini tizimli qo‘llash uslubiyatini takomillashtirish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Maqolani yozish jarayonida sifat tahlili (qualitative research design) va yarim-strukturalashgan suhbat (semi-structured interview) metodologiyasidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari Buxoro shahridagi 14-sonli umumiy o‘rta ta'lim maktabining 9-11 sinf o‘quvchilari (jami 65 nafar o‘quvchi) hamda maktab maslahatchilari faoliyatini kuzatish doirasida tashkil etildi.

Suhbat metodi to‘rtta maqsadli blok asosida modellashtirildi:

Qiziqishlar bloki: Tashqi stimullarsiz individual intilishlarni aniqlash (erkin faoliyat tahlili).

Qobiliyatlar bloki: Muammoli vaziyatlarni yechish va kreativ yondashuv darajasini tahlil qilish (vaziyatli Keys metodi).

Qadriyatlar bloki: Axloqiy dilemmalar va prinsiplarni baholash.

Hayot mazmuni bloki: Kelajak strategiyasi va ijtimoiy iz qoldirish motivatsiyasi.

Muhokama

Faoliyat natijalari shuni ko‘rsatadiki, yarim-strukturalashgan suhbat jarayonida o‘quvchilar an'anaviy psixologik testlarga qaraganda ko‘proq samimiylik namoyon etadilar. Masalan, test variantlarida ko‘pincha ijtimoiy ma'qullanadigan javoblarni tanlashga urinish kuzatilsa, jonli muloqotda va yo‘naltiruvchi ochiq savollar berilganda emotsional reaksiya hamda tana tili (imo-ishoralar, ko‘z qarashlari) haqiqiy munosabatni aks ettiradi.

Maktab maslahatchisi suhbat jarayonida faol tinglash (active listening) texnikasidan unumli foydalanishi, ya'ni 80% vaqt davomida o‘quvchini tinglashi va faqat 20% vaqtda suhbatni yo‘naltirishi lozimligi aniqlandi. Ayniqsa, o‘quvchining hayot mazmuni va kelajakdagi maqsadlari haqidagi tasavvurlari oilaviy muhit va uning atrofidagi ijtimoiy mikromuhit bilan bevosita uzviylikda shakllanishi muhokama jarayonida o‘z tasdig‘ini topdi.

Natija

Ishlab chiqilgan tizimli suhbat algoritmi amaliyotga tatbiq etilgandan so‘ng quyidagi miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga erishildi:

O‘quvchilarning 78 foizida o‘zlarining real qiziqishlari va kelajakda tanlamoqchi bo‘lgan kasbiy sohalari o‘rtasidagi mutanosiblik darajasi ortdi[35].

Suhbat orqali ilgari testlarda aniqlanmagan 12 nafar o‘quvchida yashirin kreativ va tashkilotchilik qobiliyatlari yuzaga chiqarildi va maktab to‘garaklariga yo‘naltirildi.

O‘quvchilarning 85 foizida hayotiy qadriyatlar va prinsiplar tahlil qilinib, ularning tarbiyaviy hamda psixologik portretlari shakllantirildi, bu esa individual pedagogik yondashuv sifatini oshirdi.

Xulosa

Suhbat metodi — maktab maslahatchisi arsenalidagi eng nozik, moslashuvchan va chuqur natija beruvchi professional vositadir. Mazkur metodologiya o‘quvchining ichki dunyosini, qadriyatlarini va hayot mazmunini faqat quruq ma'lumot sifatida emas, balki jonli shaxs sifatida o‘rganish imkonini beradi. Tizimli tashkil etilgan suhbatlar o‘quvchilarning proforiyentatsiyasini (kasbga yo‘naltirilishini) to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda, shuningdek, maktab muhitida sog‘lom psixologik iqlimni barpo etishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Karshiyeva D.Sh. Maktab psixologlarining faoliyatini tashkil etish metodikasi. – Toshkent, 2019.
3. Rogers, C. R. Client-centered Therapy: Its Current Practice, Implications, and Theory. – Boston: Houghton Mifflin, 1951.
4. Frankl, V. E. Man's Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006.

[35] G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – B.134.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING HOZIRGI YOSH AVLODNING HISSIY -IRODAVIY SOHASIGA TA'SIRI

Z.H.Davlatova
NavDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining, xususan gadjetlarning, o'quvchilar hissiy-irodaviy sohasiga ta'siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarda gadjetlardan foydalanish darajasi va hissiy holat, irodaviy barqarorlik hamda diqqat kontsentratsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan.

Kalit so'zlar: gadjet, hissiy-irodaviy soha, psixologik ta'sir, diqqat, motivatsiya, emotsional barqarorlik.

KIRISH. XXI asrda insoniyat taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biri bu — raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishidir. Zamonaviy gadjetlar — smartfon, planshet, noutbuk, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar — bugungi kunda nafaqat kundalik turmush, balki ta'lim-tarbiya jarayonining ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu holat yosh avlod, ayniqsa o'quvchilar shaxsining psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Gadjetlar yordamida o'quvchilar tezkor axborot olish, onlayn ta'lim platformalarida o'qish, muloqot qilish va ijodiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, ularning psixologik holati, hissiy barqarorligi va irodaviy xatti-harakatlariga texnologik vositalar qanchalik ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatayotgani dolzarb ilmiy masalaga aylandi.

So'nggi yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gadjetlardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarda diqqatning tarqoqligi, hissiy beqarorlik, tashvish, charchoq, ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy holatlarni kuchaytirdi [2]. Boshqa tomondan esa, ularni ta'limiy maqsadlarda, ijodiy rivojlanish va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish yo'lida to'g'ri ishlatish o'quvchilarning emotsional ijobiy tajribasini oshiradi [5].

O'quvchilar shaxsida hissiy-irodaviy jarayonlar (his-tuyg'ularni boshqarish, motivatsiya, o'zini tuta bilish, diqqatni jamlash, sabr-toqat va iroda) maktab davrida faol shakllanadi. Shu sababli bu jarayonlarga tashqi axborot muhiti, xususan, raqamli muhitning psixologik ta'sirini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining raqamli texnologiyalar bilan o'zaro munosabati nafaqat o'qish samaradorligini, balki uning hissiy muvozanati va irodaviy barqarorligini ham belgilab beradi[1].

Shuningdek, raqamli vositalarning haddan tashqari ko‘payishi natijasida “raqamli qaramlik” tushunchasi paydo bo‘lib, bu o‘quvchilarning psixik holatida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat o‘zini nazorat qilish qobiliyatining pasayishi, diqqatning tez chalg‘ishi va hissiy zo‘riqish bilan kechadi. Shu sababli, o‘quvchilarda raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish, ularni texnologiyalardan ongli va me’yorli foydalanishga o‘rgatish psixologik tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inson psixikasining murakkab tizimida hissiy va irodaviy jarayonlar markaziy o‘rin tutadi. **Hissiy-irodaviy soha** — bu shaxsning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, motivatsiyasi, qaror qabul qilishdagi qat’iyligi va o‘zini boshqarish qobiliyatini birlashtiruvchi psixik tizimdir. Bu soha insonning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasini boshqaradi, uning o‘qish, mehnat, muloqot va ijodiy faoliyatida barqarorlikni ta’minlaydi.

Hissiy soha (emotsional soha) — bu shaxsning turli tashqi va ichki ta’sirlarga javoban paydo bo‘ladigan kechinmalar tizimidir. U quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

- **Hissiyotlar (emotsiyalar)** — voqealarga, insonlar yoki narsalarga nisbatan tezkor psixik javob. Masalan, quvonch, qo‘rquv, hafsalasi pir bo‘lish, hayrat.
- **Kayfiyat** — nisbatan barqaror hissiy fon, u shaxsning butun faoliyatiga ta’sir etadi.
- **Affekt** — qisqa, lekin kuchli hissiy portlash (masalan, g‘azab, vahima).
- **Hissiy barqarorlik** — shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish, stressga bardosh bera olish qobiliyati.

Psixologiyada hissiy barqarorlik o‘quvchilarda ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatning muhim omili sifatida qaraladi [4]. Emotsional jihatdan muvozanatli o‘quvchi o‘qishga ko‘proq e’tibor beradi, o‘z motivatsiyasini saqlay oladi va stress holatlarida o‘zini boshqarishga qodir bo‘ladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalardan ortiqcha foydalanish o‘quvchilarda emotsional charchoqni kuchaytiradi, bu esa diqqatni jamlash va o‘rganish samaradorligini pasaytiradi [2]. Shu bilan birga, interfaol o‘yinlar yoki ta’limiy ilovalar orqali ijobiy hissiyotlarni uyg‘otish hissiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlaydi[5].

Iroda — bu shaxsning ongli ravishda maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarini boshqarish va to‘siqlarga qaramasdan natijaga erishish qobiliyatidir. Irodaviy soha quyidagi komponentlardan iborat:

- **Maqsadni belgilash** – shaxsning ongli harakat yo‘nalishini aniqlashi.

- **Motivatsiya** – faoliyatni davom ettirishga undovchi ichki kuch.
- **Qaror qabul qilish** – muayyan vaziyatda yo‘l tanlash.
- **O‘zini boshqarish va o‘zini tuta bilish** – hissiy impulslarni nazorat qilish, mas’uliyatli xulq ko‘rsatish.

O‘quvchilar uchun irodaviy barqarorlik o‘qishdagi qiyinchiliklarga bardosh berish, diqqatni uzoq vaqt davomida saqlash, mustaqil fikrlash va mas’uliyatni his qilishni ta’minlaydi. Psixologik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, gadjetlardan doimiy foydalanish bu qobiliyatlarni susaytirishi mumkin, chunki diqqatni chalg‘ituvchi omillar (masalan, bildirishnomalar, o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar) o‘zini tuta bilish jarayonlarini zaiflashtiradi [1].

Biroq, raqamli texnologiyalarni nazoratli va maqsadga muvofiq ishlatish o‘quvchilarning irodaviy sohasini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, vaqtni boshqarish ilovalari, ta’limiy o‘yinlar yoki motivatsion dasturlar shaxsda maqsad sari qat’iylik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini kuchaytiradi[3].

Hissiy va irodaviy jarayonlar bir-biridan ajralmas tizimni tashkil etadi. Kuchli irodaviy nazorat shaxsga hissiyotlarini boshqarish imkonini beradi, hissiy muvozanat esa irodaviy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, o‘quvchi salbiy hissiyotlar (zerikish, qo‘rquv, tashvish)ni boshqara olmasa, uning motivatsiyasi pasayadi; aksincha, ijobiy hissiyotlar (qiziqish, ishonch, qoniqish) irodaviy faoliyatni rag‘batlantiradi [6].

Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan smartfon, planshet, kompyuter kabi gadjetlar o‘quvchilarning kundalik hayotiga chuqur kirib borgan. Bugungi kunda ularning aksariyati o‘qish, muloqot qilish, o‘yin o‘ynash va ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish jarayonlarini aynan raqamli muhit orqali amalga oshiradi. Bu holat o‘quvchilarning emotsional holatiga, ya’ni his-tuyg‘ular, kayfiyat, stress darajasi va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gadjetlardan oqilona foydalanish o‘quvchilarda ijobiy hissiy holatni shakllantirishi mumkin. Masalan:

- **Motivatsiyani oshirish:** ta’limiy o‘yinlar, interfaol dasturlar va vizual darsliklar o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish va ichki motivatsiyani kuchaytiradi.
- **Ijtimoiy aloqadorlik hissi:** onlayn muloqot vositalari (chat, videoaloqa, guruhli suhbatlar) orqali o‘quvchilar o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his etadi. Bu esa ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun muhimdir.
- **Ijodiy ifoda imkoniyati:** multimedia ilovalari orqali bolalar o‘z g‘oyalarini ifodalash, videolar, rasmlar, loyihalar yaratish orqali o‘zini namoyon etish hissidan zavq oladilar.

Aksincha, gadjetlardan **ortiqcha yoki nazoratsiz foydalanish** o‘quvchilarning emotsional sohasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

- **Stress va tashvishning ortishi.** Smartfon yoki internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini solishtirish, “yoqtirishlar” soniga bog‘liqlik bolalarda o‘zini past baholash, tashvish va depressiv kayfiyatni kuchaytiradi.
- **Emotsional charchoq.** Doimiy vizual va axborot oqimi miyaning dam olish imkonini cheklaydi, bu esa charchoq, befarqlik, diqqatning tarqoqligi kabi belgilarni keltirib chiqaradi.
- **Ijtimoiy izolyatsiya.** Paradoxal tarzda, onlayn muloqotning ortishi real hayotdagi muloqotni kamaytiradi, bu esa yolg‘izlik hissi, empatiyaning pasayishi va hissiy sovuqlikka olib keladi.

Bundan tashqari, ekran orqali doimiy stimulyatsiya miyadagi dopamin tizimini haddan tashqari faollashtirib, “tez zavqlanish” odatini shakllantiradi. Bu esa real hayotdagi oddiy o‘quv yoki ijtimoiy faoliyatlardan zavqlanish qobiliyatini kamaytiradi. Tadqiqotchilar buni “raqamli hissiy toliqish” (digital emotional fatigue) deb atashadi[6].

O‘quvchilarning emotsional barqarorligini saqlashda quyidagi psixologik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

5. **Vaqt cheklovi va raqamli intizom.** Gadjetlardan foydalanish uchun aniq vaqt chegaralari belgilash hissiy barqarorlikni saqlaydi.
6. **Raqamli detoks.** Haftasiga kamida bir kun ekranlardan voz kechish miya va his-tuyg‘ularni tiklaydi.
7. **Jismoniy va ijtimoiy faoliyat.** Sport, tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazish va jonli muloqot raqamli muhitning salbiy ta’sirini kamaytiradi.
8. **Emotsional tarbiya.** Stressni boshqarish, empatiya, o‘zini tinchlantirish texnikalarini o‘rgatish o‘quvchilarda raqamli muhitga nisbatan psixologik immunitetni kuchaytiradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, raqamli farovonlik (digital wellbeing) dasturlari o‘quvchilarning stressini kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va ijtimoiy hissiyotlarni barqarorlashtiradi.

Iroda inson psixikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning maqsad sari yo‘naltirilgan harakatlarini boshqarish, to‘siqlarga qaramay natijaga erishish va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini anglatadi. Irodaviy jarayonlar — bu **motivatsiya, qaror qabul qilish, sabr-toqat, o‘zini boshqarish va diqqatni jamlash** kabi psixik funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Irodaviy jarayonlar shaxsning ongli harakatlarini tartibga soluvchi psixik tizimdir. U quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

6. Maqsadni aniqlash – inson faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi.
7. Motivni shakllantirish – harakatga ichki turtki beradi.
8. Qaror qabul qilish – harakat usulini tanlashni bildiradi.
9. Harakatni amalga oshirish – irodaviy harakatning amaliy bosqichi.
10. O‘zini nazorat qilish – shaxsning harakatlarini baholash va tuzatish jarayoni.

O‘quvchilar hayotida bu bosqichlar o‘qishdagi qat’iyat, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, diqqatni jamlab ishlash va o‘zini rag‘batlantirish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jarayonlarga gadjetlardan foydalanish bevosita ta’sir etadi.

So‘nggi yillardagi psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, gadjetlardan haddan tashqari foydalanish yoki ularning noto‘g‘ri qo‘llanilishi irodaviy jarayonlarni susaytiradi. Quyidagi asosiy salbiy jihatlar aniqlangan:

- **Diqqatning tarqoqligi.** Doimiy bildirishnomalar, o‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlar diqqatni tez-tez chalg‘itadi. Bu esa o‘quvchilarda sistematik fikrlash va uzoq muddatli diqqatni saqlash qobiliyatini pasaytiradi.
- **O‘zini boshqarishning zaiflashuvi.** Gadjetlardan tez-tez foydalanish miya mukofot tizimini (dopamin tizimi) faollashtiradi. Bu “tez zavq olish” odatini shakllantirib, sabr-toqat va uzoq muddatli motivatsiyani kamaytiradi.
- **Prokrastinatsiya (ishlarni kechiktirish).** Ijtimoiy tarmoqlar yoki o‘yinlar o‘quvchining diqqatini asosiy vazifalardan chalg‘itib, vaqtni samarasiz o‘tkazish odatini kuchaytiradi. Shu bilan irodaviy faollik sustlashadi.
- **Raqamli qaramlik sindromi.** Smartfon yoki o‘yinlardan uzoqlashganda bezovtalik, charchoq yoki emotsional tushkunlik yuzaga keladi. Bu holat psixologik mustaqillikni pasaytiradi va shaxsning irodaviy nazoratini zaiflashtiradi.

Biroq gadjetlar irodaviy jarayonlarga faqat salbiy emas, balki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki undan qanday va qanchalik maqsadli foydalanilishidadir. Quyidagi holatlar irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi:

- **Vaqtni boshqarish ilovalari (Time-management apps).** O‘quvchilar kunlik rejalashtirish, topshiriqlarni belgilash va bajarilgan ishni nazorat qilish orqali o‘zini boshqarish va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.
- **Ma’lumot izlash va tahlil qilish vositalari.** Mustaqil izlanish, o‘z fikrini asoslash va maqsad sari harakat qilish irodaviy faollikni oshiradi.
- **Ta’limiy o‘yinlar va raqamli baholash tizimlari.** Bu vositalar o‘quvchilarda raqobat ruhini, o‘zini sinab ko‘rish istagini va irodaviy qat’iyatni kuchaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar ta'sirida o'quvchilarning hissiy va irodaviy sohasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar ularning psixologik salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bu sohada **psixologik profilaktika** chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ya'ni salbiy ta'sirlarni kamaytirish va sog'lom psixologik muhitni shakllantirish dolzarb masaladir. Profilaktika nafaqat salbiy oqibatlarni bartaraf etish, balki o'quvchilarda raqamli madaniyat, o'zini boshqarish va emotsional intellektni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

4.1. Psixologik profilaktikaning asosiy yo'nalishlari1. Raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish

2. Emotsional intellektni rivojlantirish

3. Irodaviy ko'nikmalarni mustahkamlash

4. O'qituvchi va ota-onalar bilan hamkorlik

Quyida o'quvchilar va pedagoglar uchun ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan:

Yo'nalish	Muammo	Psixologik tavsiya
Hissiy holat	Stress, tashvish, charchoq	"Mindfulness", chuqur nafas mashqlari, dam olish texnikalari
Iroda	Diqqatni jamlay olmaslik, sustlik	Pomodoro metodi, maqsadlar ro'yxati, o'zini baholash kundaligi
Raqamli foydalanish	Gadjetlarga qaramlik	Kunlik vaqt chegarasi (maksimal 3 soat), ekran detoks kuni
Ijtimoiy aloqalar	Yolg'izlik, empatiya yetishmasligi	Guruhli muloqot o'yinlari, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish
Motivatsiya	O'qishga befarqlik	Gamifikatsiya (rag'bat tizimi), o'z yutuqlarini qayd etish

Bu tavsiyalar psixologik muvozanatni saqlash, hissiy-irodaviy sohani barqarorlashtirish va o'quvchilarning raqamli muhitda sog'lom rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, psixologik profilaktika samarali bo'lishi uchun quyidagi **uch bosqichli model**ni qo'llash tavsiya etiladi:

4. **Diagnostika bosqichi** – o'quvchilarning hissiy-irodaviy holatini aniqlash (so'rovnoma, kuzatish, suhbat).

5. **Korreksiya bosqichi** – emotsional tarbiya, motivatsion trening, raqamli madaniyat bo'yicha mashg'ulotlar.

6. **Monitoring bosqichi** – psixologik o'zgarishlarni qayd etish, individual maslahatlar berish.

Bu tizim maktab psixologlari, o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligida amalga oshirilganda eng samarali natijani beradi.

Xullas, zamonaviy gadjetlar o‘quvchilarning hissiy-irodaviy sohasiga ikkiyoqlama ta’sir ko‘rsatadi: ular o‘quv motivatsiyasini oshirishi mumkin, biroq nazoratsiz foydalanish stress, diqqat tarqoqligi va irodaviy zaiflikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun psixologik tadqiqotlarda asosiy e’tibor o‘quvchilarda raqamli madaniyat va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

7. Chen, L., Wang, X., & Hu, J. (2022). *Smartphone use and self-control among students: A psychological perspective.* Journal of Educational Psychology and Technology.

8. Kim, S., & Lee, H. (2020). *Smartphone addiction and its relationship with anxiety and depression among students.* International Journal of Mental Health Studies.

9. Liu, Y., & Zhao, Q. (2020). *Self-regulation and digital media use in children: The role of parental guidance and emotional balance.* Journal of Child Psychology and Education.

10. Markova, O. (2021). *The relationship between emotional intelligence and Internet addiction among adolescents.* Journal of Psychology and Behavioral Sciences.

11. Park, J., Kim, M., & Choi, S. (2019). *Positive and negative effects of smartphone use among children and adolescents.* Child Development and Digital Media Journal.

12. Zhou, T., Li, P., & Sun, R. (2023). *Effectiveness of digital wellbeing interventions for adolescents: A meta-analytic review.* Journal of Adolescent Digital Behavior Studies.

ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJI BO'LGAN BOLALARNING YOZGI TA'TIL DAVRINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA OTA-ONA VA MUTAXASSISLAR HAMKORLIGI

Yakubova Havvajon Kuchkorovna
O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish
va psixologik-pedagogik Respublika tashxis
markazi inklyuziv ta'lim bo'lim metodisti

Annotatsiya

Ushbu maqolada alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning yozgi ta'tilini mazmunli tashkil etish masalalari yoritilgan.Ёozgi ta'til davrida bolalarning intellektual, ijtimoiy, emotsional va jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning muhim jihatlarini tahlil qiladi. Maqolada maktab, oila va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati, ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar, uy sharoitida tashkil etiladigan rivojlantiruvchi mashg'ulotlar hamda bolalarning mustaqilligi va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi faoliyat turlari bayon etilgan. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda yozgi ta'tilning o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: alohida ta'lim ehtiyoji, yozgi ta'til, inklyuziv ta'lim, oila va maktab hamkorligi, ijtimoiylashuv, mustaqillik ko'nikmalari, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar.

В данной статье рассматриваются вопросы содержательной организации летних каникул для детей с особыми образовательными потребностями. Освещаются основные направления поддержки интеллектуального, социального, эмоционального и физического развития ребёнка в период летнего отдыха. Особое внимание уделяется сотрудничеству семьи, школы и общественных организаций, роли родителей в организации развивающей деятельности в домашних условиях, а также формированию навыков самостоятельности и социальной активности детей. В статье раскрывается значение летних каникул как важного фактора успешной социализации и интеграции детей с особыми образовательными потребностями в общество.

Ключевые слова: особые образовательные потребности, летние каникулы, инклюзивное образование, сотрудничество семьи и школы, социализация, навыки самостоятельности, развивающие занятия.

This article discusses the effective organization of summer holidays for children with special educational needs. It highlights key approaches to supporting children's intellectual, social, emotional, and physical development during the vacation period. Particular attention is paid to the cooperation between schools,

families, and community organizations, the role of parents in organizing developmental activities at home, and the promotion of independence and social participation. The article emphasizes the importance of summer holidays as a valuable opportunity for strengthening life skills, social adaptation, and successful inclusion of children with special educational needs in society.

Keywords: special educational needs, summer holidays, inclusive education, family-school cooperation, socialization, independent living skills, developmental activities.

Bugungi kunda alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bunday bolalarning ta’lim olishi, ijtimoiy hayotga moslashishi va mustaqil hayot ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’lim muassasalari bilan bir qatorda oilaning ham o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, yozgi ta’til davri bolalar uchun nafaqat dam olish, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va yangi hayotiy tajribalar orttirishi uchun muhim imkoniyat hisoblanadi. Yoz-imkoniyatlar fasli. Yozgi ta’til har bir bola intiqib kutadigan eng quvonchli davr hisoblanadi. Maktab mashg‘ulotlari yakunlangach, bolalar dam olish, o‘ynash, sayohat qilish va yangi tajribalar orttirish imkoniga ega bo‘ladilar. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ham yozgi ta’til nafaqat hordiq chiqarish, balki ularning hayotga moslashuvi, mustaqilligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar davridir. Bola qanchalik ko‘p qiziqarli faoliyatlarga jalb qilinsa, uning aqliy faolligi, ijtimoiy ko‘nikmalari va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi shunchalik yuqori bo‘ladi. Shuning uchun yozgi ta’tilni faqat vaqt o‘tkazish emas, balki har bir kunni yangi kashfiyot va ijobiy taassurotlarga boy qilish maqsadga muvofiqdir. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning yozgi ta’tili birinchi navbatda ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bu jarayonda bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, sog‘lig‘i va rivojlanish imkoniyatlari hisobga olinadi. Yozgi ta’til davrida bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqilligini rivojlantirish, muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash va hayotiy tajribasini boyitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning ruhiy holati, o‘zini xavfsiz his qilishi va atrofdagilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga ham katta ahamiyat beriladi. Bola uchun har bir kun qiziqarli mashg‘ulotlar, yangi taassurotlar va ijobiy his-tuyg‘ular bilan boyitilganda ta’til haqiqiy rivojlanish maydoniga aylanadi. Bu esa keyingi safar yana mustaqil harakat qilishga undaydi. Ta’til paytida uyda ota-onalar bilan mashg‘ulotlar olib borish va kundalik ishlarda ota-onalarga

yordamlashish ham mashg‘ulot turiga o‘tadi va bu bolaning kundalik hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Mashg‘ulotlar sun’iy dars shaklida emas, balki o‘yin va hayotiy vaziyatlar orqali tashkil etilganda yuqori samara beradi. Masalan, “Do‘kon” o‘yini orqali bola nafaqat o‘ynaydi, balki salomlashish, mahsulot tanlash, pul berish va minnatdorchilik bildirish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Bu o‘yin jarayonida bola o‘zini kattalar hayotining ishtirokchisi sifatida his qiladi. Shuningdek, “Mehmon kutish” o‘yini ham bolaning muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda bola mehmonni kutib olish, suhbat qurish va odob qoidalariga amal qilishni o‘rganadi. Yozgi ta’til davrida maktab bilan oila o‘rtasidagi hamkorlik uzluksiz ta’lim va tarbiya jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Chunki ta’til faqat dam olish emas, balki oldingi bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, yangi tajribalar orttirish va bolaning rivojlanishini davom ettirish davri sifatida qaraladi. Yozgi ta’til davrida maktab bilan hamkorlikda ham ijobiy ishlarn amalga oshirish maqsadda muvofiq bo‘ladi. Maktabda o‘qish jarayoni yakunlanishi bilan birga mutaxassislar tomonidan bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida individual rivojlanish rejasini tuzishi va ushbu rejada ko‘rsatilgan bandlar asosida ishlar olib borilsa samarali bo‘ladi. Maktab har bir bola uchun tuzilgan individual ta’lim-tarbiya rejasi asosida ota-onalarga ham tavsiyalar beradi. Ta’til davrida ham shu reja elementlari uyda davom ettiriladi. Masalan: nutqni rivojlantirish mashqlari; mayda motorika o‘yinlari; mustaqillikka o‘rgatuvchi vazifalar; diqqatni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar. Uyda bajariladigan pedagogik topshiriqlar maktab pedagoglari ota-onalarga yengil va qiziqarli topshiriqlar berib boradilar. Bu topshiriqlar dars shaklida emas, balki o‘yin tarzida bo‘ladi. Masalan: 5 ta yangi so‘z o‘rganish va gapda ishlatish; rasm chizish va uning haqida gapirish; kundalik bir oddiy vazifani mustaqil bajarish; tabiat kuzatuvlari olib borish. Bundan tashqari ta’til davrida ham pedagoglar va psixologlar ota-onalar bilan aloqada bo‘lib turadi. Bu orqali bolaning holati muhokama qilinadi; qiyinchiliklar bo‘yicha maslahat beriladi; yangi mashg‘ulotlar tavsiya etiladi; motivatsiya saqlab turiladi. Ta’lim muassasalarda yozgi ta’til davrida faoliyat olib borayotgan turli xil to‘garaklarga bolalarni jalb qilish va ularni ijodiy va ma’naviy tadbirlarda ishtirokini ta’minlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirlarda asosan: rasm tanlovlari, qo‘l ishlari va turli xil sport musobaqalarini tashkil qilishlari mumkin. Bu bolalarni faollikka undaydi va ularni maktab muhiti bilan bog‘lab turadi. Maktab tomonidan tavsiya etilgan kitoblar bo‘yicha ota-onalar bolalar bilan birga o‘qish ishlarini tashkil qiladilar. Masalan: qisqa ertaklar o‘qish; rasmlar asosida hikoya tuzish; qahramonlar haqida suhbat. .bu esa o‘z navbatida nutq, fikrlash va tasavvurni rivojlantiradi. Ta’lim muassasasining maxsus pedagogi

tavsiyasi asosida ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlash bo‘yicha ham samarali ishlar amalga oshiriladi. Bunda ota-onalar bolalarni hayotiy vaziyatga bog‘laydilar. Do‘konga birga borish; mehmon kutish; jamoat joylarida odob qoidalarini o‘rganish va muloqot qilishni mashq qilishdan iborat. Maktabdagi tashkil etilgan to‘garakalarga jalb etilgan alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun albatta maktab psixologi ota-onalar bilan bolaning emotsional xolati bo‘yicha tavsiyalar berib turishi lozim. Chunki boladagi his-tuyg‘ularni ifoda etish mashqlari; stressni kamaytirish usullari; bolaning o‘z-o‘ziga ishonchini oshirish yo‘llarini to‘g‘ri tashkil qilgandagina boladagi emotsional xolatlar ijobiy natijaga erishiladi. Har doim ota-onalar yozgi dam olish davrida ham maktab jamoasi ya’ni bolaning sinf o‘qituvchisi, maxsus biriktilgan pedagogi va maktab psixologi bilan telefon orqali muloqot qilib turishi , boladagi xolatlarni kuzatib qayd etish ishlarini sifatli amalga oshirish juda muhimdir. O‘qituvchi ota-onalar maktab bilan hamkorlikda bolaning rivojlanishini kuzatib boradilar.Bunda bolada:qaysi mashg‘ulotlar yaxshi chiqdi; qanday qiyinchiliklar bor; qanday o‘zgarishlar kuzatildi va shu asosda maktab jamoasi bilan hamkorlik kuchaytiriladi va keyingi o‘quv yili uchun muhim asos bo‘lish bilan birga , keyinchalik bolaning qaysi tomoni bilan ishlash kerakligiga zamin yaratib beradi. Bolalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etishda madaniyat markazlari, kutubxonalar, sport muassasalari, bolalar oromgohlari va inklyuziv markazlar ham ishtirok etadi. Bunday muassasalarda bolalar uchun teatrlashtirilgan tomoshalar, ijodiy tanlovlar, musobaqalar, mahorat darslari va ekskursiyalar tashkil qilinadi.Mahalla va jamoat tashkilotlarining ham bu boradagi o‘rni katta. Ular bolalar uchun turli bayramlar, sport tadbirlari, milliy o‘yinlar va madaniy dasturlarni tashkil etish orqali ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga sharoit yaratadilar. Uyda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi bolani majburlash emas, balki uning qiziqishlari va imkoniyatlariga mos holda rivojlantiruvchi muhit yaratishdan iborat. Mashg‘ulotlar qisqa, qiziqarli va muntazam bo‘lishi lozim. Odatda bir mashg‘ulotning davomiyligi bolaning yoshi va imkoniyatlariga qarab 15–30 daqiqani tashkil etadi. Ota-ona bola uchun eng yaqin va ishonchli inson hisoblanadi. Bolalar ko‘pincha tanish muhitda va yaqin insonlari bilan ishlaganda o‘zlarini erkin his qiladilar. Shuning uchun uyda ota-ona ishtirokida tashkil qilingan mashg‘ulotlar samaradorligi yuqori bo‘ladi.Ota-onalar quyidagi vazifalarni bajarishlari maqsadga muvofiq:.Bolani rag‘batlantirish; kichik yutuqlarini e’tirof etish; kundalik uy ishlarida va mashg‘ulot o‘tganlaridafaol ishtirok etish; sabr-toqat bilan yondashish; bolaning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash.Bolani boshqalar bilan solishtirish emas, balki uning kechagi natijasi bilan bugungi natijasini taqqoslash muhim hisoblanadi.Ota-onalar farzandlari bilan ishlaganda asosan rasmlarga qarab

hikoyalar tuzishni o‘rgatadi. Ota-ona bolaga biror rasm ko‘rsatadi.Masalan:bog‘da o‘ynayotgan bolalar tasvirlangan rasm.Keyin ota-ona tomonidan savollar beriladi. Bu yerda kimlar bor? , Ular nima qilyapti? , Havo qanday? , Sen shu yerda bo‘lganingda nima qilarding? .Bu mashg‘ulot lug‘at boyligini oshiradi va fikrni bayon qilishga o‘rgatadi.Bu o‘yinlar ayniqsa nutqiy rivojlanishda qiyinchiliklari bo‘lgan bolalar uchun katta ahamiyatga ega.Shuningdek “Tabiat qo‘yniga sayohat” bu mashg‘ulotlar , tabiat bola uchun eng yaxshi ta’lim muhitlaridan biri hisoblanadi. Tabiat bilan muloqot qilish bolada kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va ekologik madaniyatni shakllantiradi.Masalan, bolaga har kuni bir daraxt yoki gulni kuzatish topshirilsa, u vaqt o‘tishi bilan tabiatdagi o‘zgarishlarni payqay boshlaydi. Barglarning shakli, rangi yoki gulning o‘sishi haqida kuzatuvlar olib borish bolaning diqqatini va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.Tabiat qo‘ynida tashkil etilgan sayrlar davomida bolalar qushlarni kuzatishlari, turli o‘simliklarni tanishlari va atrof-muhitni asrash haqida bilimlarga ega bo‘lishlari mumkin. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning yozgi ta’tili samarali tashkil etilganda ularning ta’lim jarayonida erishgan natijalari saqlanib qoladi, ijtimoiylashuvi kuchayadi va mustaqillik ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu jarayonda maktab jamoasi, mutaxassislar va ota-onalarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.Yozgi ta’til davrini maroqli va mazmunli o‘tkazishda ta’lim muassasalarida quyidagi ishlarni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar keltiramiz.

1. **Ta’lim muassasalarida yozgi ta’tilni to‘g‘ri tashkil qilishda tavsiyalar.**

Maktab rahbariyati, sinf rahbarlari, defektologlar, psixologlar va boshqa pedagoglar yozgi ta’til boshlanishidan oldin har bir bolaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tavsiyalar ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq.Avvalo, har bir o‘quvchi uchun **individual yozgi faoliyat rejasi** tayyorlanishi kerak. Unda bolaning qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar aks ettirilishi lozim.Maktab jamoasi ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularga quyidagi yo‘nalishlarda amaliy yordam ko‘rsatishi muhim:bolaning bo‘sh vaqtini tashkil etish usullari;

uy sharoitida bajariladigan rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar; nutq va muloqotni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar; mustaqil hayot ko‘nikmalarini shakllantirish usullari;

psixologik qo‘llab-quvvatlash yo‘llari. Maktab tomonidan yozgi ta’til davomida onlayn yoki oflayn tarzda turli ijodiy tanlovlar, kitobxonlik aksiyalari, sport musobaqalari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilishi ham maqsadga muvofiq.Pedagoglar bolalarning har bir kichik yutug‘ini qadrlash va rag‘batlantirish tamoyiliga amal qilishlari lozim. Chunki alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar

uchun e'tirof va maqtov kuchli motivatsiya manbai hisoblanadi.Shuningdek, maktab psixologlari tomonidan ota-onalar uchun maslahat kunlari tashkil etilishi, bolalarning emotsional holati va ta'til davridagi rivojlanishini monitoring qilish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ota-onalarga tavsiyalar.

Ota-onalar bolaning yozgi ta'tilida asosiy hamkor va tarbiyachi hisoblanadilar. Shu sababli ular bolaning har bir kunini maqsadli va qiziqarli tashkil etishga harakat qilishlari lozim.Birinchidan, bolaning kun tartibi tartibda saqlanishi muhim. Ta'til bo'lgani bilan uyqu, ovqatlanish, dam olish va faoliyat vaqti ma'lum tartibda bo'lishi bolada barqarorlik hissini ta'minlaydi.Ikkinchidan, bolani kun bo'yi telefon yoki televizor qarshisida qoldirmaslik kerak. Uning o'rniga:sayrlar;

harakatli o'yinlar;

rasm chizish; kitob o'qish; konstruktor yig'ish; tabiat kuzatuvlari; oilaviy suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, bolaga mustaqil harakat qilish imkoniyatini berish lozim. Kichik vazifalar:o'yinchoqlarni yig'ish; kitoblarni joylashtirish; stol tayyorlash;

gullarga suv quyish; kabi ishlar orqali bolaning mustaqilligi va mas'uliyati shakllanadi.

To'rtinchidan, bolani boshqa bolalar bilan solishtirishdan voz kechish kerak. Har bir bola o'z imkoniyatlari va rivojlanish sur'atiga ega. Asosiy e'tibor uning kechagi natijasi bilan bugungi yutug'i o'rtasidagi ijobiy o'zgarishlarga qaratilishi lozim.Beshinchidan, bolaning his-tuyg'ulariga e'tibor berish muhim. Uning fikrlarini tinglash, quvonch va tashvishlarini tushunish, muvaffaqiyatlarini birgalikda nishonlash bolada o'zini qadrli inson sifatida his qilishga yordam beradi.

Maktab va oila hamkorligi bo'yicha umumiy tavsiyalar Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik qanchalik mustahkam bo'lsa, bolaning rivojlanish natijalari shunchalik yuqori bo'ladi.Buning uchun: muntazam muloqot o'rnatish; ota-onalar uchun maslahatlar berish; bolaning rivojlanishini birgalikda muhokama qilish; umumiy maqsad va vazifalarni belgilash; ijobiy tajribalar bilan o'rtoqlashish; muhim ahamiyatga ega.Maktab va oila bir maqsad yo'lida harakat qilganda, bola o'zini xavfsiz, qo'llab-quvvatlangan va qadrlangan shaxs sifatida his qiladi. Bu esa uning ta'limdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi mustaqil hayoti uchun mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning yozgi ta'tilini mazmunli tashkil etish ularning kelgusi hayoti va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'til davri bolalar uchun shunchaki dam olish yoki vaqt

o‘tkazish emas, balki ularning intellektual, ijtimoiy, emotsional va jismoniy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi muhim bosqich hisoblanadi. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning har biri xilma-xil imkoniyatli bo‘lib, ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari ham o‘ziga xosdir. Shu sababli yozgi ta’til davrida tashkil etiladigan har qanday faoliyat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirilishi lozim. Bolani ijodiy mashg‘ulotlarga jalb qilish, tabiat qo‘ynidagi kuzatuvlar, harakatli o‘yinlar, mustaqil hayot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy ishlar va ijtimoiy muloqot muhitini yaratish uning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bu jarayonda ota-onalarning mehri, e’tibori va qo‘llab-quvvatlashi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki bola eng avvalo oila muhitida o‘zini erkin va xavfsiz his qiladi. Shu bilan bir qatorda, maktab jamoasi, maxsus pedagoglar, psixologlar, mahalla faollari va jamoat tashkilotlarining hamkorligi bolaning ta’til davridagi rivojlanish samaradorligini yanada oshiradi.Ayniqsa, maktab va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlik ta’lim va tarbiya jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Maktab tomonidan berilgan tavsiyalar, individual rivojlanish rejalari, psixologik-pedagogik maslahatlar hamda ota-onalarning mas’uliyatli ishtiroki bolada mavjud bilim va ko‘nikmalarni saqlab qolish, ularni yanada mustahkamlash imkonini beradi.Shuningdek, bolalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etishda madaniyat markazlari, kutubxonalar, sport muassasalari, inklyuziv markazlar va mahalla tizimining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali bolalarning jamiyat hayotidagi ishtiroki kengayadi, ularning ijtimoiy faolligi va o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi.Eng muhimi, har bir bolaning kichik yutug‘ini ham qadrlash, uning imkoniyatlariga ishonish va doimiy rag‘batlantirib borish lozim. Chunki bugungi kunda bolaga berilgan e’tibor, mehr va qo‘llab-quvvatlash ertangi kunda uning mustaqil, faol va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.Demak, alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning yozgi ta’tilini mazmunli tashkil etish- bu nafaqat ularning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish, balki har bir bolaning imkoniyatlarini kashf etish, qobiliyatlarini rivojlantirish, hayotga tayyorlash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlashiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik vazifadir. Ana shunda yozgi ta’til bola hayotidagi eng quvonchli, sermazmun va rivojlantiruvchi davrga aylanib, uning kelajakda mustaqil hayot kechirishi, o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishi hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari va farmonlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlari. – Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2023.
5. UNESCO. Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. – Paris, 2017.
6. UNICEF. Inclusive Education for Children with Disabilities. – New York, 2021.
7. Выготский Лев Семёнович. Pedagogik psixologiya va bola rivojlanishi haqidagi asarlar. – Moskva.

8.Oila va ta'lim muassasasi hamkorligi asoslari: metodik qo'llanma. – Toshkent, 2022.

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILAR KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKILLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toyirova Madina Muhammadjon qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan hamda ularning ijtimoiylashuvi, muloqotga kirishishi va tengdoshlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishning muhim jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda verbal va noverbal muloqot vositalari, interfaol metodlar, o'yin faoliyati va pedagogik hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. *inklyuziv ta'lim, interfaol metodlar, kommunikativ ko'nikmalar, muloqot, ijtimoiy integratsiya, imkoniyati cheklangan o'quvchilar, ta'lim texnologiyalari.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются специфические особенности формирования коммуникативной компетентности учащихся в условиях инклюзивного образования. Освещены психолого-педагогические основы развития коммуникативных навыков у обучающихся с особыми образовательными потребностями, а также важные аспекты их социализации, установления общения и эффективного взаимодействия со сверстниками. Особое внимание уделено значению вербальных и невербальных средств общения, интерактивных методов, игровой деятельности и педагогического сотрудничества в развитии коммуникативной компетентности.

Ключевые слова. *инклюзивное образование, интерактивные методы, коммуникативные навыки, общение, социальная интеграция, обучающиеся с ограниченными возможностями, образовательные технологии.*

Annotation. This article analyzes the specific features of developing students' communicative competence in inclusive education settings. It highlights the psychological and pedagogical foundations for improving communication skills in learners with special educational needs and examines key aspects of their socialization, communication, and effective interaction with peers. The study also emphasizes the importance of verbal and nonverbal communication tools,

interactive teaching methods, play-based activities, and pedagogical cooperation in fostering communicative competence.

Keywords. inclusive education, interactive methods, communicative skills, communication, social integration, students with disabilities, educational technologies.

Inson va atrof muhit doimiy ravishda aloqada bo‘lib, u ko‘rish, eshitish, teri, ta’m, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi.

Nutq orqali esa insonning so‘z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo‘ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular so‘z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo‘ladi. Inson o‘zi ko‘rgan va ta’sirlangan buyum va hodisalarni so‘z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko‘rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har qanday buyum, hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o‘rnashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u tafakkur quroli, muloqot jarayonida fikrni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta’sir ko‘rsatish quroli bo‘lib ham xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutqiy rivojlanish zamirida paydo bo‘lishi sababli u inson tafakkurining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda ma‘lum bir analizatorning rivojlanmasligi yoki orqada qolishi oqibatida ularning nutqni egallay olishida qiyinchiliklar vujudga keladi, bu esa ularning jamiyat a’zolaridan yakkalanib qolishi uning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Bular o‘zaro bir-biriga tobe bo‘lgan turli sabablarga bog‘liq bo‘lib, bu xususda L.S.Vigotskiy: “Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan yakkalanib qolishga, jamoa (kollektiv)dan ajralib qolish esa, o‘z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi”,- deydi .

Pedagogika tarixiga nazar tashlasak o‘quvchilarni ta‘lim olishida ularning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelingan.

Kommunikativ ko‘nikma – bu pedagogik muloqot subyektlarining (kommunikativ faoliyat va mahorat unsurlarini yaxshi bilish asosida) ongli kommunikativ harakatlari hamda o‘z xulq-atvorini kommunikativ vazifalarga muvofiq to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish qobiliyatidir.

Ta‘kidlash joizki, ushbu tushunchaning ikki jihati mavjud:

- bilim va ko‘nikmalar tizimiga asoslangan harakat sifatidagi kommunikativ mahorat;

- subyektlarning o‘zaro ta‘siri sifatidagi kommunikatsiya.

Kommunikativ mahoratni bir nechta ko‘nikmalar guruhiga ajratish mumkin:

Axborot mahorati – muloqotga kirisha olish (salomlashish, taklif qilish, murojaat qilish va h.k.), suhbatdoshga yo‘nalganlik (inson bilan muloqot qilish, muloqotning axloqiy me‘yorlariga rioya etish, suhbatdoshning rag‘bati va maqsadini aniqlash), muloqotning og‘zaki va noog‘zaki vositalaridan to‘g‘ri foydalana olishni (fikrlarni hissiy va to‘liq ifodalash, bunda imo-ishora va mimikadan foydalanish va h.k.) o‘zida aks ettiradi;

Nazorat-kommunikativ mahorat – o‘z harakatlarini suhbatdosh ehtiyojlariga moslashtirishni (o‘quv va mehnat faoliyatini o‘z-o‘zini va o‘zaro nazorat asosida tashkil etish, birgalikda bajariladigan vazifalarni asoslab berish va h.k.) anglatadi;

Affektiv-kommunikativ mahorat – muloqotdagi sherigi bilan o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlari, kayfiyatini o‘rtoqlasha olish malakasiga asoslanadi.

Bolalarda normal rivojlanish kuzatilganda kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanishi butun bir shaxsning kamoloti bilan birga kechadi. Bu jarayon maktabgacha yoshdan boshlanib, bolaning maktabdagi ta‘limi davomida rivojlanishda davom etadi. Bolalar umumiy g‘oya ustida fikr yurita oladilar, umumiy yechimlarni topadilar, juftlikda yoki guruh bo‘lib o‘ynaydilar.

Biroq alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatiga egaligi sababli ularda muloqot ya‘ni kommunikativ jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ya‘ni ularning aksariyatida o‘z fikrini bayon eta olish, yangi muhitga moslashish tengdoshlari bilan birga juftlikda va guruhli ishlash hamda nutq malakalri yahshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bundan tashqari ular o‘ziga xos hulq-atvorga ega ekanliklari bilan ham ajralib turadi. Ulardagi bu xususiyat orqali tengdoshlari bilan muloqot jarayonida ko‘pincha ziddiyatlar yuzaga keladi. Masalan, muloqotdagi sheriklardan birining ustunligi yoki manfaatlar to‘qnashuvi. Bu kabi muammolar esa pedagoglarda ham ta‘lim jarayonini yo‘lga qo‘yishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Inklyuziv sinf o‘quvchilarida kommunikativ qobiliyatlarning shakllanishi kechikishi oqibatida birinchi sinfga endigina qadam qo‘ygan bolalar boshqalar bilan o‘zaro munosabat o‘rnata olmaydi, o‘quv hamkorligi ular uchun begona tuyuladi. Bu holat bolalarni aynan o‘quv hamkorligi nuqtayi nazaridan maktab ta‘limiga tayyorlash, shuningdek, bu jarayonni maktabda davom ettirish vazifasini nihoyatda dolzarb qilib qo‘yadi. Shubhasiz, bolaning muloqot ko‘nikmasi uning shaxsiy rivojlanishiga bog‘liqligiga e‘tibor qaratish lozim, zero muloqot bolaning ijtimoiylashuvi uchun asos hisoblanadi. Inklyuziv ta‘limnig asosiy g‘oyasi esa alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta‘minlashdan iboratdir.

O‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- o‘z fikrini to‘g‘ri, savodli va tushunarli bayon eta olish;
- muloqotdagi sherigidan axborotni adekvat qabul qilish;
- xulq-atvorni to‘g‘ri tashkil etishga yo‘naltirilgan ko‘nikmalar;
- inson psixologiyasini tushunish;
- kerakli imo-ishora va ohangni tanlay bilish, sherigiga hamdard bo‘lish, suhbatdoshning reaksiyasini oldindan ko‘ra bilish.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, kommunikativ mahoratni shakllantirish jarayonining samaradorligi pedagogning inklyuziv sinf o‘quvchilari bilan ishlash uchun mos shaklni tanlay olishiga bog‘liq.

Kommunikativ ko‘nikmani shakllantiruvchi shart-sharoitlar:

- pedagog kommunikatsiyani og‘zaki va noog‘zaki muloqot vositalari hamda muloqot madaniyatini bilishga asoslangan shaxslararo o‘zaro ta‘sir jarayoni sifatida tushunishi;
- kommunikatsiyaning dialogik xususiyatga ega jamoaviy o‘yin faoliyati sifatida namoyon bo‘lishi (jamoada shaxslararo muloqot va uni o‘rnata bilish);
- jarayondagi muvaffaqiyatdan bolalarni ijtimoiy moslashuv jarayonida yuzaga keladigan ko‘nikmalar bilan muloqot qilishga undovchi rag‘batlantiruvchi vosita sifatida foydalanish.

O‘quvchilar muvaffaqiyatli muloqot ko‘nikmalarini egallashi uchun ular muloqotga asoslangan jarayonga jalb etilishi kerak.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda monolog, dialog, oldindan tayyorlangan nutq bilan chiqish, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘quv suhbati, hikoya, darslardagi o‘quv suhbatlari, qayta hikoyalash, guruhlardagi o‘quv suhbatlari, so‘rov va savollar, munozaralar, isbotlash va inkor etish, savollarga javob berish, loyiha himoyasi, tanqid kabi turli shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kommunikativ mahoratni shakllantirishni darsdan tashqarida maxsus pedagog faoliyatida ham qo‘llash orqali amalga oshirish zarur. O‘qituvchi va maxsus pedagoglar birgalikda o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

- muloqotda ishtirok etishga tayyorlik;
- savollarga javob berish;
- mavzu yuzasidan savollar bera olish;
- xabar berish;
- nutqning sodda va ravonligi;
- o‘z nutqini barcha uchun tushunarli qila olish ko‘nikmasini shakllantirish;

- fikrni tasdiqlovchi misollar topa olish;
- boshqalar bilan muloqot qilish;
- darslarda va guruhlarda o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish;
- konstruktiv dialog va munozaralar olib borish;
- bahs-munozaralarda qatnashish;
- o‘yinlarda ishtirok etish.

Kommunikativ mahoratni rivojlantirish – bu o‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatga intilishini talab qiladigan muntazam pedagogik jarayondir. Kommunikativ vazifalar – bola butun hayoti davomida doimiy ravishda duch keladigan holatlardir. Shakllangan kommunikativ mahorat – bu shaxs tomonidan o‘zlashtirilib, uning yutug‘iga aylanadigan yangi xislatlardir. Muloqotga kirishuvchan bola eshita va tinglay oladi, u nafaqat tushunadi, balki hamdardlik ham qila oladi.

Bolada zarur muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish lozim. Shunda bolada atrofdagilar bilan muloqot qilish istagi paydo bo‘ladi, muloqot uchun zarur va uni tashkil etishda muhim bo‘lgan me‘yor hamda qoidalarni bilishga qiziqish uyg‘onadi.

Bolalarda turli kommunikativ vaziyatlarda muloqot subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarda o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini beruvchi verbal va noverbal aloqa vositalaridan foydalanish malakasini shakllantirish zarur.

Bolaning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va mavjud kamchiliklarini bartaraf etishda unga maksimal darajada yordam berishga faqat jadal, tizimli va izchil ish olib borish orqaligina erishish mumkin. Zamonaviy inklyuziv maktab bolani o‘ylaydigan va his eta oladigan, bilimga ega bo‘lish bilan birga, bu bilimlarni qo‘llay oladigan, muloqot qila oladigan va ichki madaniyatli insonni tayyorlashi kerak. Maqsad o‘quvchiga ko‘proq bilim berish emas, balki unga muammolarni hal qilish va har qanday vaziyatda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmasini singdirishdan iborat.

Albatta, bu vazifani hal qilishning asosi darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar bo‘lib, ularning davomida bolalar gapirishni, o‘ylab topishni, fikrlashni, isbotlashni va o‘zaro hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

Shunday qilib, boshlang‘ich inklyuziv sinf o‘quvchilarida kommunikativ mahoratni shakllantirishning asosiy shartlari quyidagilardir: muloqotni insonlarning o‘zaro ta‘sir jarayoni sifatida tushunish, muloqotning verbal va noverbal vositalarini hamda muloqot madaniyatini bilish, shaxslararo muloqot va jamoada munosabat o‘rnatish ko‘nikmalariga yo‘naltirilgan o‘yin faoliyatiga kirishish, bolalarning muloqotga bo‘lgan intilishini oshirish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беленкова Л.Ю. Применение интерактивных методов обучения в начальной школе // Современное образование. – 2018. – №6. – С. 41–45.

2. Julie Dockrell, Morag Stuart “Children with Specific Speech and Language Difficulties”/ 2001

3. Nazarova D.A. “Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish” Ped. fan. nomz. dis. Toshkent: TDPU — 2009.

4. Raxmonova D.U. “Inklyuziv ta’limda fanlarni o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari” mavz. Monografiya Toshkent CHDPU: 2023

5. Toxtiyarova Sh.E. “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv ta’limga tayyorlashning pedagogik-korreksion strategiyalarini takomillashtirish” Ped. fan. dokt. dis. aftoref. Toshkent: TDPU — 2024

TA`LIM JARAYONIDA MA`NAVIY MEROSNI UZATISHNING INNOVATSION USULLARI

Jalilova Munisa Axmatovna
Kogon tuman 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabinin vaktab maslahatchisi
+998973048000 munisajalilova19993@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada ta’lim jarayonida ma’naviy merosni avloddan-avlodga uzatishning innovatsion mexanizmlari pedagogik va ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, loyiha asosidagi ta’lim, gamifikatsiya va storytelling texnologiyalarining ma’naviy tarbiyadagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar va madaniy merosni ta’lim mazmuniga integratsiya qilishning samarali yo‘llari asoslangan hamda innovatsion metodlarning yoshlar ma’naviy kamolotiga ta’siri tahlil qilingan.
KALIT SO‘ZLAR: ma’naviy meros, innovatsion ta’lim, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, gamifikatsiya, storytelling, madaniy meros, milliy qadriyatlar, pedagogik texnologiyalar.

KIRISH. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash hamda tarixiy xotirasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimlarining keskin ortishi sharoitida ma’naviy merosni yosh avlodga yetkazishning an’anaviy shakllari bilan bir qatorda innovatsion usullarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Ma’naviy meros jamiyatning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, axloqiy me’yorlari, ilmiy-ma’rifiy yutuqlari hamda madaniy boyliklarini o‘zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir. U shaxsning ma’naviy dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi va milliy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Jahon pedagogika fanida ma’naviy va madaniy merosni ta’lim orqali uzatish masalalari Dewey, Freire, Vygotskiy, Bruner, Savickas hamda UNESCO ekspertlari tomonidan keng tadqiq qilingan. Ularning ilmiy qarashlarida ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki madaniy tajribani avlodlarga yetkazuvchi mexanizm sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim jarayonida ma’naviy merosni uzatishning innovatsion usullarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot jarayonida Kogon tumanidagi umumta’lim maktablarida ma’naviy merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish

holatini o‘rganish maqsadida pedagogik kuzatish metodi qo‘llanildi. Kuzatishlar davomida o‘qituvchilarning ma’naviy-ma’rifiy mazmundagi darslarni tashkil etish usullari, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabati tahlil qilindi.

Qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida mahalliy va xorijiy ta’lim tajribalari o‘rganilib, ma’naviy merosni uzatishning samarali mexanizmlari solishtirildi. Xususan, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan madaniy merosga oid innovatsion yondashuvlar bilan mamlakatimiz amaliyoti o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi.

Ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish metodi yordamida pedagogika, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik yo‘nalishlaridagi ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida guruhlashtirilib, ma’naviy merosni ta’lim jarayonida uzatishning nazariy va amaliy asoslari shakllantirildi.

Interpretatsiya metodi orqali tadqiqot natijalari pedagogik nuqtai nazardan sharhlanib, innovatsion metodlarning o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta’siri baholandi. Shuningdek, UNESCOning “Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun ta’lim” (Education for Sustainable Development Goals)[1] hamda OECDning “Ta’lim va ko‘nikmalar – 2030” [2] konsepsiyalari asosida ma’naviy merosni uzatishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilinib, ularning milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari ma’naviy merosni uzatishda raqamli pedagogika, loyiha asosidagi ta’lim, gamifikatsiya va fanlararo integratsiyaning samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar hamda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili o‘quvchilar motivatsiyasining shakllanishi ko‘plab omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xususan, oila muhiti, maktabdagi ta’lim sifati, o‘qituvchining kasbiy mahorati, tengdoshlar muhiti va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan munosabatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar.

Ta’lim jarayonida ma’naviy merosni uzatish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1 UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.

2 OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019.

Ta’lim dasturlariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi maxsus modullarni kiritish;
Raqamli ta’lim resurslari, virtual muzeylar va elektron platformalar bazasini kengaytirish;
Pedagoglarning innovatsion va raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish;
Ma’naviy merosni o‘rganishga qaratilgan loyiha va tadqiqot faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash;

Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish orqali ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish;
Madaniy meros obyektlariga ekskursiyalar, tarixiy qadamjolar bilan tanishtirish va amaliy mashg‘ulotlar sonini oshirish;
Yoshlarning ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiruvchi gamifikatsion va interaktiv dasturlarni yaratish.

XULOSA. Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviy merosni saqlash va avlodlarga yetkazish masalasi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar hamda interaktiv metodlarning qo‘llanilishi ma’naviy qadriyatlarning mazmunini yoshlar ongiga chuqur singdirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ma’naviy merosning zamonaviy talqini yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga, vatanparvarlik tuyg‘ularining shakllanishiga hamda ijtimoiy faolligining ortishiga xizmat qiladi.
Natijada ta’lim jarayonida ma’naviy merosni uzatishning innovatsion usullaridan samarali foydalanish barkamol, mustaqil fikrlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalashning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo‘ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 1916.
3. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York, 1970.
4. Bruner J. The Culture of Education. – Harvard University Press, 1996..
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. – Paris, 2017.
6. UNESCO. Culture and Education. – Paris, 2022.
7. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2021.
8. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.
9. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent, 2019.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O‘RNI VA ISTIQBOLLARI

Muxidov Asqar Rahmaovich
Buxoro PMM “Aniq va tabiiy fanlarni
o’qitish metodikasi ” kafedrasi o’qituchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta'lim jarayoniga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida olib borilgan. Maqolada ta'lim sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlari, onlayn ta'lim platformalari, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari va o'quv jarayonini boshqarish tizimlarining pedagogik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, mavjud ilmiy bilimlarni tizimlash va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayoni, raqamli transformatsiya, onlayn ta'lim, sun'iy intellekt, LMS, adaptiv ta'lim, konnektivizm, ta'lim sifati, O'zbekiston.

KIRISH

XXI asrning birinchi choragida raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalarini, jumladan ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy pedagogik yondashuvlar o'z ahamiyatini saqlab qolgan holda, raqamli vositalar ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar va o'lchamlar olib kirmoqda. Ayniqsa, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi butun dunyo ta'lim tizimini masofaviy formatga o'tishga majbur etgani raqamli texnologiyalarning ta'limdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyish etdi.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sohasini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni hamda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi bu yo'nalishdagi asosiy dasturiy hujjatlar hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli ta'lim infratuzilmasini yaratish va pedagogik kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish nazariy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri, hamda mahalliy sharoitga moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish hozirgi kunga qadar dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni va istiqbollarini mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba va O'zbekiston kontekstida nazariy jihatdan tahlil qilishdir.

METODIKA

Tadqiqotda nazariy-tahliliy yondashuv (theoretical-analytical approach) qo'llanilgan. Ilmiy adabiyotlarni tizimli sharh qilish (systematic literature review) usuli asosida mavjud bilimlar bazasi tahlil qilingan.

Manba tanlash mezonlari quyidagicha belgilangan: xalqaro referativ bazalarda (Scopus, Web of Science, Google Scholar) indekslangan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, Jahon banki, OECD) rasmiy hisobotlari, O'zbekiston

Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda mahalliy ilmiy nashriyotlarda chop etilgan tadqiqotlar. Tahlilga asosan 2015–2025 yillar oralig'ida nashr etilgan manbalar jalb qilingan, bunda fundamental nazariy ishlar (Bloom, Siemens, Prensky) bundan mustasno sifatida qo'shilgan.

Tahlil jarayonida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha manbalar tizimlashtirilgan: (a) ta'limda raqamli texnologiyalarning nazariy asoslari; (b) onlayn va aralash ta'lim modellarining samaradorligi; (c) sun'iy intellektning ta'limdagi qo'llanilishi; (d) O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirish tajribasi. Tematik tahlil (thematic analysis) usuli orqali asosiy tendensiyalar, umumiy xulosalar va ilmiy bo'shliqlar aniqlangan.

NATIJALAR

1. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi nazariy asoslari

Mazkur maqolada ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari va ularning yosh avlod kamolotidagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, shuningdek “Avesto” kitobidan dan misollar va boshqa mutafakkirlarning ilm-ma’rifat, axloqiy tarbiya hamda komil insonni shakllantirishga oid g‘oyalari tahlil qilingan. Shuningdek, ajdodlarimizning pedagogik merosi va uning zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ajdodlar merosi, ta’lim-tarbiya, komil inson, ma’naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik qarashlar, mutafakkirlar, yosh avlod.

В данной статье рассматриваются взгляды выдающихся предков и мыслителей на вопросы образования и воспитания, а также их значение в формировании гармонично развитой личности молодого поколения. Анализируются идеи Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины, Абу Райхана Беруни, Алишера Навои, приведены примеры из книги «Авесто» и других ученых о роли знаний, нравственного воспитания и совершенствования человека. Особое внимание уделяется значению педагогического наследия предков в современной образовательной практике.

Ключевые слова: наследие предков, образование и воспитание, совершенный человек, духовно-нравственное воспитание, педагогические взгляды, мыслители, молодое поколение

This article explores the educational and pedagogical views of our great ancestors and thinkers and their significance in the development of the younger generation. The ideas of Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina (Avicenna), Abu Rayhan al-Biruni, Alisher Navoi, and other scholars regarding knowledge, moral education, and the formation of a perfect individual are analyzed. The article also highlights the importance of their pedagogical heritage and its relevance to the modern educational process.

Keywords: ancestral heritage, education and upbringing, perfect individual, spiritual and moral education, pedagogical views, thinkers, younger generations

Ajdodlarimiz ta’lim-tarbiya masalasiga juda katta e’tibor berganlar. Ular ilm olishni inson kamolotining asosiy omili deb bilganlar. Ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki odob-axloq, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish ham muhim deb hisoblangan.

Abu Nasr Forobiy ta’limning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalash ekanligini ta’kidlagan. U inson aqliy va axloqiy jihatdan uyg‘un rivojlanishi kerak deb hisoblagan.

Abu Ali ibn Sino bolalarni yoshligidan tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va ta’limda individual yondashuvni qo‘llash zarurligini uqtirgan.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy kuzatish, tajriba va amaliy faoliyat orqali bilim olishni targ‘ib qilgan. U o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga alohida ahamiyat bergan.

Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq, insonparvarlik va ilm-ma’rifatning

ahamiyatini keng yoritgan. U ilmli inson jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ekanligini ta’kidlagan.

Ajdodlarimiz ta’lim-tarbiyasining asosiy tamoyillari:

- Ilm olishga intilish.
- Ustozga hurmat va ehtirom.
- Axloqiy tarbiyaning ustuvorligi.
- Mustaqil fikrlashni rivojlantirish.
- Mehnatsevarlik va mas’uliyatni shakllantirish.
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

Bu buyuk allomalarning hayoti, ijodi va ular qoldirgan madaniy –ma’rifiy meros yosh avlod uchun ibrat va namunalar, ularning ta’lim –tarbiyaga oid ma’rifiy ta’limotlari yoshlarni ona – Vatanga, millatga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni iymon va e’tiqodli, insof va diyonatli, odob – axloqli, oqil va odil inson qilib tarbiyalashda, o‘zligini anglatishda benazir qadriyatdir.

XX asrga qadar davrlardagi ijtimoiy va madaniy hayot tarixidan shu narsa ma’lumki, ta’lim-tarbiyada ma’naviyatli, ma’rifatli barkamol yoshlarni yetishtirishda xalq pedagogikasining o‘rni va mohiyati katta bo‘lgan. Ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan xalqpedagogikasi milliy pedagogika tarixining zamini bo‘lgan.

Umuminsoniyat tarixida IX-XV asrlarda –Sharqda uyg‘onish davrida –ijtimoiy –madaniy hayotda katta o‘zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa Amir Temur asos solgan saltanat davrida ijtimoiy hayotda yuksalish, ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlangan. Bu davrda yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At-Termiziy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Yassaviy, Naqshband, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk daholar jamiyat tarixi va jahon madaniyati rivojiga benazir hisssalarini qo‘shganlar. Bu buyuk mutafakkirlar turli fanlarga oid yaratgan asarlarida ma’naviy-madaniy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqdilar.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining taniqli rahbarlari Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda kabi ma’rifatparvarlar madaniyatni rivojlantirish uchun ma’rifatparvarlikka asoslanish, ta’limni isloh qilish zarurligi g‘oyasini olg‘a surib, Turkistonda ijtimoiy ong taraqqiyotini boshlab berdilar.

Ma’lumki, milliy pedagogikamiz tarixi ijtimoiy-siyosiy hayot asosida, Markaziy Osiyoda yashagan qardosh xalqlarning Berdaq, Maxtumquli, Abdurahmon Jomiy kabi shoir, adiblarning, Xorijiy Sharq va Ovrupa

mamlakatlarining buyuk mutafakkir, shoir va pedagog olimlari Sa’diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Jan-Jak Russo, K.D. Ushinskiy va boshqalarning pedagogik qarashlariga bog‘liq holda rivojlangan.

Markaziy Osiyodagi arxeologik topilmalar va yozma manbalarning guvohlik berishicha, dastlabki ibtidoiy jamoa va keyinchalik quldorlik tuzumi davrida ham Turon hududida ijtimoiy – madaniy hayot rivojlangan. Bularning eng qadimgi qo’lyozmasi “Avesto” Zardushtiylik asari hisoblanadi.

«Avesto» sof diniy kitob bo‘lmay, ijtimoiy – falsafiy, madaniy, adabiy – tarixiy qimmatga ega bo‘lgan nodir qomusiy yodgorlikdir. Unda adolat va sulh ulug‘lanadi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo hududida qadim – qadimdan turli dinlar, diniy aqidalar paydo bo‘ldi. Ularda aholining ijtimoiy –madaniy hayoti, turmush tarzi va an’analari ma’lum o‘lchovga solindi va belgilandi.

Bunday dinlardan eng qadimiysi va eng mashhuri zardo‘shtlik dini, uning ta’limotidir. Zardo‘shtlik dinining asoschisi Zardo‘sht atalmish buyuk tarixiy shaxsdir. Zardo‘sht sharqning faylasufi, notig‘i, shoiri, donishmandi bo‘lgan. Zardo‘sht – o‘z nasihatlari, o‘gitlarida adolatni targ‘ib etadi, yaxshi xulq – odobni e’zozlaydi. Uning ta’limoti uch nuqtada: Xumata –yaxshilik, Nuxta – to‘g‘ri so‘z, Xvarishita – yaxshi xulqlarda mujassamlashgan. U chorvadorlar, dehqonlar va hunarmandlar hayotini badaviy ko‘chmanchi yo‘lto‘sarlar chopqinidan himoya qiladi. Adolat va odillik g‘oyasini olg‘a suradi.

«Avesto» eng qadimgi ma’rifiy yodgorliklar namunasi sifatida VII-XIII asrlarda O‘rta Osiyoda ijtimoiy va madaniy hayot, maktab va pedagogik fikr.

«Avesto» zardo‘shtiylikning muqaddas kitobi bo‘lishi bilan birga, ilm – fan, hayotiy voqealar haqida mukammal ma’lumot beradigan eng qo‘hna manba hisoblanadi. Unda O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari: urf – odat, e’tiqod, ibodat, qiroat qiladigan oyatlar, diniy marosimlarda ijro etiladigan og‘zaki ijodlari haqida ma’lumot berilgan.

«Avesto»da yaxshilik, unib –o‘sish, yerda hayotni saqlash uchun intiluvchi kuchlar bilan razolat va qabohat, zulmat va halokat kuchlari o‘rtasidagi kurashda mardlik, jasorat va matonat, ma’rifat va insoniylik g‘alaba qozonadi.

«Avesto»da inson tozalikka, sog‘lomlikka da’vat qilinib, ularga badan tarbiya bilan shug‘ullanish, kunda yuz – qo‘lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni olib tozalab turish tavsiya etiladi. Inson me’yori bilan ovqatlanib, doimo to‘q yurishi lozimligi uqtiriladi.

«Avesto»da ta’kidlanishicha, qarindoshlar o‘zaro oila qurmasligi, qavm va urug‘ qoni toza, avlod benuqson saqlanishi kerak, ko‘p bolali oilalarga davlat

hisobidan nafaqa tayinlash lozim, bir yo‘la 2 – 3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovordir.

Xulosa: Ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning ilm-fan, axloq va ma’naviyatni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalari zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Ўзбек педагогикаси тарихи.-Т.: «Ўқитувчи», 1997 й.
2. Зуннунов А. Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар.-Т.: “Фан”, 1996 й.

BUXORIY HADISLARINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

M.I.Baqoyeva
Buxoro PMMning “Pedagogika, psixologiya
va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o’qituvchisi

Mazkur maqolada Imom Buxoriy hadislarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Hadislarda ilgari surilgan axloqiy, ma’naviy va tarbiyaviy g‘oyalarning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, halollik, rostgo‘ylik, ota-onaga hurmat, ilmga intilish, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda Buxoriy merosining ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ushbu hadislarning zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonidagi dolzarbligi ham asoslab berilgan.

***Kalit so‘zlar**:* Imom Buxoriy, hadis, yosh avlod tarbiyasi, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, komil inson, pedagogik meros.

В данной статье рассматривается значение хадисов Имама аль-Бухари в воспитании молодого поколения. Анализируются нравственные, духовные и воспитательные идеи, содержащиеся в хадисах, а также их роль в формировании гармонично развитой личности. Особое внимание уделяется воспитанию честности, правдивости, уважения к родителям, стремления к знаниям, милосердия и патриотизма. В статье также обосновывается актуальность использования наследия Имама аль-Бухари в современном образовательном процессе.

***Ключевые слова**:* Имам аль-Бухари, хадисы, воспитание молодёжи, духовное воспитание, нравственное воспитание, гармонично развитая личность, педагогическое наследие.

This article examines the importance of Imam al-Bukhari’s hadiths in the upbringing of the younger generation. It analyzes the moral, spiritual, and educational ideas reflected in the hadiths and their role in shaping a well-rounded and morally mature personality. Special attention is given to the development of honesty, truthfulness, respect for parents, pursuit of knowledge, compassion, and patriotism. The article also highlights the relevance of Imam al-Bukhari’s heritage in the modern educational process.

***Keywords**:* Imam al-Bukhari, hadiths, youth upbringing, spiritual education, moral education, well-rounded personality, pedagogical heritage.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al – Mug‘ira ibn Bardibza al – Buxoriy hijratning bir yuz to‘qson to‘rtinchi yili shavvol oyidan o‘n uch kun o‘tganda juma namozidan keyin (milodiy hisob bilan 809 yil 13 mayda) Buxoroda tavallud topdi. Otasi Shayx Ismoil ibn Ibrohim ahli hadislardan bo‘lib, savdo ishlari bilan shug‘ullanar edi.

Imom Buxoriyning ta’lim-tarbiya haqidagi mashhur fikri: "Ilm o‘rganinglar va ilmni odamlarga o‘rgatinglar." Imom al-Buxoriy ilm olish va uni boshqalarga yetkazishning naqadar muhim ekanligini ta’kidlagan. Uning qarashlarida ilm bilan birga odob-axloq ham alohida o‘rin tutadi. Yana bir mashhur hikmati: "Odob ilmdan avvaldir."

Bu fikr inson avvalo go‘zal xulq-atvor va tarbiyaga ega bo‘lishi, so‘ng ilm bilan kamol topishi kerakligini anglatadi. Pedagogik nuqtai nazardan, Imom Buxoriy ta’limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki ma’naviy barkamol, axloqli insonni tarbiyalash deb hisoblagan.

Rivoyatlarga ko‘ra, Imom Ismoil al – Buxoriy 16 yoshga qadam qo‘yganda Abdulloh ibn Muborak al – Marvazdiy va Vaqi’ ibn al – Jarrohlarning kitoblarini batamom yod olgan. U yod olgan hadislarning matnini dalillari va roviylarning tarjimai hollari bilan birga qo‘shib yod oladi…

Imom al – Buxoriy Makka, Madina, Damashq, Qaysariya, Xoms, Bag‘dod, Kufa, Vosit, Balx, Nishopur, Askalon, Marv kabi shaharlarda bir necha yil yashab, hadislar to‘plash, yozish va ko‘plab toliblarga ilm o‘rgatish bilan shug‘ullanadi.

Ismoil al – Buxoriy insonlarni to‘g‘ri so‘zli bo‘lishga, va’daga vafo qilishga da’vat etib, munofiq kishining uchta belgisi bo‘lishini ko‘rsatib, ular yolg‘on gapirishdan, va’daga vafo qilmaslikdan va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. Insonning kuch – qudrati jismonan pahlavonligida emas, balki jahl chiqkan vaqtda o‘zini tiya olishini pahlavonlik, deb hisoblaydi.

U o‘zining asarlarida musulmon kishi uch kundan ortiq o‘z birodaridan arazlab, gina saqlab yurishi mumkin emasligini, qo‘shnisiga ozor bermasligi, mehmonni hurmatini o‘rniga qo‘yish muhimligi, qarindosh – urug‘larga oqibatli bo‘lish, ularning ahvolidan xabardor bo‘lib yurishini ta’kidlaydi.

Buyuk vatandoshimiz bashariyatga tengsiz ma’naviy meros qoldirib ketdi. bu merosning gultoji – eng ishonchli hadislar to‘plami – «Al –Jomi as – Saxix» islom dinida Qur’oni Karimdan keyin e’zozlanadigan ikkinchi manbadir. butun dunyo musulmonlarining e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘idir.

Imom al-Buxoriy haqida ko‘plab olimlar va mutafakkirlar yuksak fikrlar bildirganlar. Ulardanayrimlari:ImomMuslim:"Osmon ostida hadis ilmida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan bilimdonroq kishini ko‘rmadim."

Imom Termiziy: "Hadis ilmi, illatlari va roviylar haqidagi bilimda Buxoriydan ustun kishini ko‘rmadim." Ibn Huzayma: "Yer yuzida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan ko‘ra hadisni yaxshi biladigan insonni ko‘rmadim."

Az-Zahabiy: "Buxoriy hadis ilmining imomi, hofizi va bu ilmdagi eng buyuk allomalardan biridir."

Ibn Hajaral-Asqaloniy: "Al-Jome’ as-Sahih" islom olamida Qur’ondan keyingi eng ishonchli kitob sifatida e’tirof etilgan.

Bu fikrlar Imom Buxoriyning nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham hadis ilmining eng buyuk namoyandalaridan biri sifatida tan olinganini ko‘rsatadi. U kishining ilmiy merosi bugungi kunda ham butun musulmon olamida yuksak qadrlanadi.

Imom al-Buxoriy to‘plagan hadislar yosh avlodni ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Hadislarda insoniy fazilatlar, odob-axloq me’yorlari va jamiyatda to‘g‘ri yashash qoidalari keng yoritilgan.

Yoshlar tarbiyasidagi asosiy ahamiyati:

1. Axloqiy tarbiya Hadislar yoshlarni halollik, rostgo‘ylik, kamtarlik, sabr-toqat va mehr-oqibat ruhida tarbiyalaydi. Bu fazilatlar barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.
2. Ilm olishga rag‘batlantirish Imom Buxoriy rivoyat qilgan ko‘plab hadislarda ilmning fazilati ulug‘lanadi. Bu yoshlarda o‘qishga, izlanishga va bilim olishga qiziqishni oshiradi.
3. Ota-onaga hurmat Hadislarda ota-onani e’zozlash, ularga yaxshilik qilish va hurmat ko‘rsatish eng ulug‘ amallardan biri sifatida ta’kidlanadi.
4. Vatan va jamiyat oldidagi mas’uliyat Hadislar yoshlarni jamiyatga foydali bo‘lishga,
   insonlarga yaxshilik qilishga va o‘z burchlarini mas’uliyat bilan bajarishga undaydi.
5. Insonparvarlik va bag‘rikenglik Hadislarda insonlarga mehribon bo‘lish, qo‘shnichilik haq-huquqlariga rioya qilish, tinchlik va totuvlikni saqlash g‘oyalari ilgari suriladi.

Xulosa o’rnida shuhi ta’kidlash mumkinki, Imom Buxoriy hadislarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham yosh avlodni ma’naviy yetuk, axloqan pok, ilmga chanqoq va Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Shu bois Buxoriy merosi ta’lim-tarbiya jarayonida keng foydalaniladigan bebaho ma’naviy boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Ахлоқ-одобга оид ҳадислар. -Т.: «Фан» нашриёти, 2010 й.
иёмуҳамедов Б. Педагогика. -Т.: «Турон- Иқбол» нашриёти, 2006 й.
мом ал-Бухорий. Ҳадислар. 4 жилдлик. – Т., 1994 й.

O‘RTA OSIYO ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTIDA SHAXS KAMOLOTI.

M.I.Baqoyeva
Buxoro PMMning “Pedagogika, psixologiya
va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘rta Osiyo allomalari va mutafakkirlarining shaxs kamoloti haqidagi pedagogik qarashlari tahlil qilingan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya, axloqiy yetuklik hamda komil insonni shakllantirishga oid g‘oyalari yoritilgan. Shuningdek, ushbu ilmiy merosning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati va yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: shaxs kamoloti, ta’lim-tarbiya, komil inson, O‘rta Osiyo allomalari, pedagogik meros, ma’naviy-axloqiy tarbiya.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические взгляды среднеазиатских ученых и мыслителей на проблему формирования гармонично развитой личности. Рассматриваются идеи Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины, Абу Райхана Беруни и Алишера Навои о воспитании, образовании, нравственном совершенствовании и становлении совершенного человека. Также раскрывается значение их научного наследия в современной системе образования и воспитании молодого поколения.
Ключевые слова*:* развитие личности, образование и воспитание, совершенный человек, среднеазиатские мыслители, педагогическое наследие, духовно-нравственное воспитание.
Annotation. This article examines the pedagogical views of Central Asian scholars and thinkers on the development of a well-rounded personality. Particular attention is paid to the ideas of Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali ibn Sina (Avicenna), Abu Rayhan al-Biruni, and Alisher Navoi concerning education, moral upbringing, and the formation of a perfect individual. The article also highlights the significance of their scientific and pedagogical heritage in the modern educational system and in the upbringing of the younger generation.
Keywords*:* personality development, education and upbringing, perfect individual, Central Asian scholars, pedagogical heritage, spiritual and moral education.

Shaxsning rivojlanishi qiyin, murakkab jarayon, u ko‘plab ichki va tashqi ta’sirlar va omillar orqali ro‘yobga chiqadi.

Inson hayot ekan, butun umri davomida o‘sib, rivojlanib, o‘zgarib boradi. Bolalik, o‘smirlik va o‘spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda, biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma’naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiyafani rivojlanishni biologik va sotsial xususiyatlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir butun narsa, deb hisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi, har tomonlama kamol topishining samarali bo‘lishiga erishish maqsadida pedagogika fani rivojlanishining qonuniyatlarini, unga ta’sir etuvchi omillarni shuningdek, shaxs kamolotida ta’lim - tarbiya hamda faoliyatning ta’siri va ahamiyatini aniqlaydi, tahlil qiladi. Ma’lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning shakllanishi avvalo hayot sharoitlariga bog‘liqdir.

Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma’lum ijtimoiy tuzumning mahsuli, deb tushunishimiz lozim.

Pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoho‘yin, mehnat, o‘qish, sport va boshqalar bo‘lsin shaxsning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs ulg‘aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o‘zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o‘zgarib boradi. Shu sababli bola hayotida o‘yin, o‘quvchi hayotida o‘qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta’minlashi uchun boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o‘zgarish sabablarini aniqlash zarur.

Tarbiya - haqiqatan rivojlantiruvchi omil bo‘lmog‘i uchun tarbiyalanuvchi jamiyatning tarbiya oldiga qo‘ygan talablarini, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning yetakchilik rolini e’tirof etish bilan birga ularning o‘zaro bir – biriga ta’sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo‘lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo‘ladi. Tarbiya jarayonida o‘sayotgan avlodning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma’lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o‘quvchi – talabalarning har birini o‘ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

Shaxs, uning xarakteri, xulq – atvori, umuman jismoniy va ma’naviy taraqqiyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon murakkab va ziddiyatlidir. Shu sababli rivojlanish jarayoni bir tekisda bormaydi, balki bunda sakrashlar, notekisliklar ham sodir bo‘ladi. Shunday ekan, o‘qituvchi va tarbiyachilar bolaning yoshi oshgan sari uning ehtiyojlarida, intilish va qiziqishlarida qanday sifat o‘zgarishlari sodir bo‘layotganini muntazam kuzatib borishlari lozim.

Shaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Irsiyat, ya’ni biologik omil hamda muhit, ta’lim va tarbiya, shaxs faolligi (ijtimoiy omil) shaxsni shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi.

Shaxsning, ayniqsa bolaning jismoniy rivojlanishi, sog‘ligi biologik omilga bog‘liqdir. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo‘lgan irsiyatning, ya’ni bolaning nasl – nasabining roliga olimlarimiz alohida e’tibor bermoqda. Har bir bola insonlarga xos tug‘ma xususiyatlar bilan dunyoga keladi. Shunday ekan, odam bolasi tug‘ilgandan so‘ng unda shaxs bo‘lib shakllanishi, yetuk inson bo‘lib voyaga yetishi imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola o‘zining avlod – ajdodlaridan ko‘pgina biologik belgilarni meros sifatida qabul qilib oladi, hatto

ayrim kasalliklar ham nasldan naslga o‘tadi. Biologik omillar shaxsning jismoniy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Muhit – bu shaxsga ta’sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar kompleksidir. Bularga: tabiiy muhit (geografik, ekologik), ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat), oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya’ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Shaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja bilan shaxsga ta’sir etiladi. Buning natijasida muhitdagi voqealarning to‘g‘ri ijobiy ta’sirini amalga oshirish imkoniyati tug‘iladi. Muhit bera olmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto tarbiya tufayli shaxsda tug‘ma kamchiliklarni ham o‘zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Bundan tashqari muhitning salbiy ta’siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarqayta tarbiyalanadi.

O‘rta osiyo mutafakkirlaridan Farobiy, Abu Ali ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta’sir etadigan omillar ahamiyatiga e’tibor berib kelganlar. Farobiy inson kamolotida ta’lim – tarbiyaning muhimligini ta’kidlab: «Munosib inson bo‘lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta’lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr –qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo‘ldir»-deydi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishga harakat qiladi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota – onaning o‘rniga alohida to‘xtalib: «Bola tug‘ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo‘yishi, so‘ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak… Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo‘ladi» degan fikrni ilgari suradi.

Farobiy o‘zining «Ideal shahar aholisining maslagi» nomli risolasida ta’kidlaganidek, fan o‘qitish orqali o‘zlashtirilsa, ezgu fazilatlar tarbiya yordamida egallanadi. O‘qitish faqat aqlning chiniqishi uchun emas, balki umumiy ma’naviy, shu jumladan, axloqiy kamol topish uchun ham asosdir. O‘qitish va tarbiyalash o‘zaro bog‘liq bo‘lib, shaxsni ma’naviy kamol toptirishning turli yo‘llaridir.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimlilik bilangina emas, balki ularning axloqi va odobi bilan ham yuksak ma’no – mazmun kasb etgan. Odoblilik boshqalarnigina emas, o‘zini ham hurmat qilish deganidir. Ayniqsa, bizning milliy an’analarimizga

ko‘ra, insonning komilligi, avvalo, uning axloqiy yetukligida, ajdodlar merosini chuqur o‘rganib, uni boyitish, katta – kichikka ehtirom ko‘rsatish borasidagi harakatlarida ko‘zga ko‘rinadi. Komillik darajasini har kim o‘zicha belgilay olmaydi.

Komillik har bir shaxsning o‘zidan ko‘ra boshqalarga yaxshiroq ma’lum bo‘ladi. Komil inson – qullik, mutelik, boqimandalikdan batamom xalos bo‘lgan inson. Chunki inson birovga quldek ergashsa, demak ijtimoiy jihatdan u xech narsaga erishmagan bo‘ladi. Komil inson o‘z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g‘oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko‘r – ko‘rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo‘ladi.

Insonning azizligi uning o‘z hatti – harakatlarini o‘zi mustaqil idora etishiga imkoniyat beruvchi aql – zakovat ato etilgani bilan bog‘liqdir. Ya’ni, inson o‘z aql – idroki yordamida olamni gullatib –yashnatadi. Ammo bu aql – idrokda nafaqat yashnatuvchi, balki vayron etuvchi kuch ham mavjud. Hayotda ezgulik hukmron bo‘lishi uchun aql yaxshilikka, adolatga xizmat qilishi zarur. Buning uchun esa u sog‘lom ma’naviyat izmida bo‘lishi lozim. Shu tufayli ota – bobolarimiz aql –idrokni yovuzlik qo‘liga tutqazmaslikka harakat qilganlar, uni ma’naviyat bilan , iymon – e’tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e’tibor berganlar. Shu bois Temur saltanatida ilm – ma’rifat yuksak qadrlangan, insonning sha’ni, or – nomusi e’zozlangan, inson va uning mol – mulki davlat muhofazasiga olingan, qaroqchilik, o‘g‘rilikka keskin barham berilgan edi. Sohibqiron bobomizning: “Mening saltanatimning u chetidan bu chetiga, boshida oltin to‘ldirilgan laganni yosh bola ko‘tarib o‘tsa ham, uning mulkiga hech kimsa daxl eta olmaydi”, - degan so‘zlari hayotiy xaqiqat edi.

“Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Ya’ni inson o‘zligini anglagani, nasl – nasabini bilgani sari yuragida qancha chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtiga muhabbat, sadoqat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

4. Мавлонова Р, Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика.- Т.: «Ўқитувчи», 2001 й.
5. Педагогика. А.Қ. Мунавваровнинг умумий таҳрири остида.-Т.: «Ўқитувчи»,1996 й .

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA AJDODLARIMIZ YONDOSHUVLARI

To‘rayeva Sayyora Sattorovna
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
sayyora to‘rayeva 4 @ gmail. com , tel: 915889980

Annotatsiya:Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimizning pedagogik qarashlari va yondoshuvlari tahlil qilinadi.Shuningdek maqolada buyuk ajdodlarimizning ilm-fan, axloqiy tarbiya, komil insonni shakllantirish hamda ustoz shogird munosabatlariga oid fikrlari yoritilgan va ajdodlarimizning boy pedagogik merosi bugungi ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim manba ekanligi misollarda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, ilm-fan, ma’naviy merosi, texnologiya, mehnat, aqliy ,bilim, ichki kamoloti, ruhiy barqarorlik, ma’naviy, kasb-hunar o‘rganish, ma’rifat, tamal toshi,qudratli.

Abstract: This article analyzes the pedagogical views and approaches of our ancestors in the educational and upbringing process. The article highlights the ideas of our great ancestors regarding science, moral education, the formation of a well-rounded individual, and teacher–student relationships. It also demonstrates, through examples, that the rich pedagogical heritage of our ancestors serves as an important source for improving contemporary educational and upbringing practices.
Keywords: education and upbringing, science, spiritual heritage, technology, labor, intellectual development, knowledge, inner perfection, psychological stability, spirituality, vocational education and skills acquisition, enlightenment, cornerstone, powerful.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические взгляды и подходы наших предков в процессе обучения и воспитания. В статье освещаются идеи великих предков, касающиеся науки, нравственного воспитания, формирования гармонично развитой личности, а также взаимоотношений между учителем и учеником. На конкретных примерах показано, что богатое педагогическое наследие наших предков является важным источником совершенствования современного образовательного и воспитательного процесса.
Ключевые слова: образование и воспитание, наука, духовное наследие, технологии, труд, интеллектуальное развитие, знания, внутреннее совершенствование, психологическая устойчивость, духовность, профессиональное обучение и освоение ремесла, просвещение, краеугольный камень, могущественный.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek:" Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi, har birimizga kuch-quvvat va ilxom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday rux bilan sug'orishimiz kerak. Shundagina ajdodlarimizning bu o'lmas merosi yurtimizning bugungi kundagi barqaror rivojlanishi uchun tulaqonli xizmat qiladi.

Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani yoshlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari talab etiladi. Bunda Paygambarimizning kishilarni beshikdan to qabrgacha ilm izlashga

da'vat etuvchi hadislari hamda ajdodlarimizning komil inson haqidagi qarashlari mustahkam tayanch va yo'lchi yulduz vazifasini o'tamogi lozim" [36].

Bugungi globallashuv, mafkuraviy kurashlar, axborot oqimining keskin kuchayishi va qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida insonning ma'naviy-ruhiy dunyosini mustahkamlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanish bilan, balki insonning ichki kamoloti, axloqiy pokligi, ruhiy barqarorligi va ma'naviy darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kunida"gi "O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda kata kuch ,tayanch va suyanchimizdir" mavzusidagi videoselektda

q
u
y
i

O'zbek xalqining boy ma'naviy va pedagogik merosida ta'lim-tarbiya masalalari alohida o'rin egallaydi. Buyuk ajdodlarimiz inson kamoloti, ilm-fan, axloq va tarbiya masalalariga oid qimmatli fikrlarni ilgari surganlar. Ularning pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy manba.

Bu haqda Prezidentimiz quyidagi fikrni bildirib o'tgan:"Biz farzandlarimizning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishi va ilm-fanning eng yuqori chuqqilarini egallashlari uchun doimo qayg'urishimiz, bu yo'lda jon-javdimiz bilan kurashmog'imiz zarur[38].

Buyuk ajdodlarimiz yondoshuvlariga to'xtalib o'tsak, hozirgi davrda ham har qachongidan ahamiyatlidir.Bugun ma'nan barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy masalaga aylangan.Komillikni bir zumda erishiladigan holat emas, balki uzluksiz ma'naviy mehnat, o'zini anglash, nafs bilan kurashish va ma'rifatga intilish jarayoni sifatida ko'rsatganlar. Bu jihat bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham nihoyatda muhimdir.

Forobiyning ta'kidlashicha : "Inson o'z mohiyati bilan ijtimoiy, ya'ni jamiyatda bo'zaro munosabat ,o'zaro yordam jarayonida komil inson bo'lib yetishada.

[36] Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.138 bet.

[37] Sh.Mirziyoyev. "O'qituvchi va murabbiylar kunida"gi "O'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda kata kuch ,tayanch va suyanchimizdir" mavzusidagi videoselekt,2020 yil

[38] Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.137 bet

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz,

Farobiyning insonparvarligi uning ta'lim-tarbiya, inson shaxsiyatini kamol toptirishning yo'l-yo'riqlarihaqida,ilm-ma'rifatga erishuvining usullari, ijtimoiy muammolarni yechish haqida bildirgan fikrlarida yorqin ifodadalangan.

Farobiyning ,insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin.Agar tarbiyalanuvhchi ixtiyoriy ravishda zaruriy ,aqliy va axloqiy xislatlarni ,bilimli bo'lishga to'g'rilikni,haqiqatni sevishga ,jasur do'stlarga sadoqatli bo'lish kabi fazilatlarni egallashga intilmasa ,tarbiyachi yoki muallim undan fazilatlarni shakllantirmogi lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lish uchun baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo'lishi lozim" [39].

Yana bir ajdodimiz Yusuf Xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida aqliy , axloqiy, mehnat va jismoniy ta'lim-tarbiyaga doir fikrlarni quyidagicha ifodalagan:insonning ulug'ligi , aql-idroki, so'zlash qobiliyati bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Bu xislatlar uning muhtaramligini ham ta'minlaydi.

Yusuf Xos Xojib uquv va bilimni farqlaydi: uquv tug'ma ravishda mavjud,bilim esa,o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa,insonning qadri ortadi" [40]

Alisher Navoiy fikricha, inson o'z hayotini o'zi uchun ham,butun jamiyat uchun ham foydali bo'lgan xizmatga bag'ishlashi, kasb-hunar o'rganishni , ma'rifatli , fazilatli va xushxulq bo'lishi kerak.

Alisher Navoiy kishi nafaqat shoir,balki ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor bergan. Uning asarlarida komil insonni tarbiyalash, ilm-ma'rifatga intilish va axloqiy fazilatlarni shakllantirish g'oyalari muhim o'rin tutadi.

1.Ilm-marifatga ustuvor ahamiyat berish

Alisher Navoiy ilmni inson kamolatining asosiy omili deb bilgan.U yoshlarni bilim olishga ,mutolaa qilishga va doimiy o'z ustuda ishlashga undagan.

2.Axloqiy tarbiya masalasi.

Mutafakkir bobomiz halollik, rostgo'ylik, adolat, saxovat, mehr-shavqat kabi fazilatlarni insonning eng muhim sifatlari deb hisoblagan.Tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish zarurligini ta'kidlagan.

3.Insonparvarlik yondoshuvi.

Alisher Navoiy barcha insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish,inson qadr-qimmmatini ulug'lash g'oyalarini ilgari surgan.Bu yondoshuv bugungi ta'limda ham muhim ahamiyatga ega.

4.Ustoz-shogird munosabatlari.

[39] A.Zunnunov,R.Jo'rayev.O'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,8-bet
[40] A.Zunnunov,R.Jo'rayev.O'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,11-bet

Alisher Navoiy ustozni ulug‘lagan va shogirdning muvaffaqiyatida ustozning o’rni beqiyos ekanligini ta’kidlagan.Ustoz o’quvchiga nafaqat bilim beradi,balki odob-axloq ham berish kerak deb hisoblangan.

5.Komil insonni tarbiyalash.

Alisher Navoiy ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi ma’naviy yetuk,bilmli,vatanparvar va jamiyatda Foydali insonni voyaga yetkazishdan iboratdir.

Abdullo Avloniyning ta’lim-tarbiya jarayonidagi yondoshuvlariga nazar tashlasak,ta’lim-tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida keng ifoda etgan. Unda ta’lim va tarbiya masalalari chuqur falsafiy, axloqiy va ijtimoiy nuqtai nazardan yoritilgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarida quyidagicha keng yoritilgan.

1.Ta’lim va tarbiyaning uzviyligi.

Avloniy ta’lim-tarbiyani bir-biridan ajralmas jarayon deb hisoblagan.Uning fikricha ,bilim berish bilan birga yoshlarni axloql,vatanparvar va ma’naviy yetuk shaxs qilib tarbiyalash zarur.

2.Axloqiy tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish.

Mutafakkir hallolik,rostgoylik,mehnatsevarlik,odob va insonparvarlikkabi fazilatlarni shakllantirishni tarbiyaning asosiy vazifasi deb bilgan.

3.Milliy va umuminsoniy qyo’adriyatlarga tayanish.

Avloniy yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bilan birga jahon ilm-fani va madaniyatining ilg’or yutuqlani o’rganish

4.Oila va maktab hamkorligi.

Abdullo Avloniy bola tarbiyasida oila va maktabning hamkorlgi zarur deb bilgan.Uning fikricha ,tarbiyanig muvaffaqiyai ota-ona va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyatiga bog‘liq.

Abdullo Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ilm haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:“Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ud bo‘lishimizga sabab bo’lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur.

“Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ta’lim-tarbiya masalalari insonparvarlik, ma’rifatparvarlik va milliy taraqqiyot g‘oyalari asosida tahlil qilingan.

Abdulla Avloniy ta’limni bilim berish, tarbiyani esa komil insonni shakllantirish vositasi deb hisoblaydi.

Asarning bosh g‘oyasi shundan iboratki, ilmli va yuksak axloqli avlodni tarbiyalash millat taraqqiyotining eng muhim shartidir.

Bu g‘oyalar bugungi ta’lim tizimi uchun ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.

Asarda tarbiya inson kamolotining bosh omili sifatida talqin etiladi. Avloniy tarbiyani faqat odob-axloqni shakllantirish vositasi emas, balki shaxsning butun hayot yo‘lini belgilovchi kuch deb baholaydi.

Uning:“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”ndegan fikri tarbiyaning jamiyat va millat taqdiridagi ahamiyatini ochib beradi. Muallif tarbiyani shaxsiy emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida ko‘radi. Ya’ni, bir insonning tarbiyasi butun jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi

Muallifning fikricha:

-tarbiyasiz bilim zararli bo‘lishi mumkin;

-axloqsiz ilm jamiyat manfaatiga xizmat qilmaydi;

-haqiqiy ta’lim insonning aqliy va ma’naviy kamolotini ta’minlashi kerak.

7-sinf “Tarbiya” darsligidan o‘rin olgan “Inson odobida aks etuvchi xulq -atvor ” mavzusida buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning quyidagi fikri g‘oyat qimmatlidir “Inson o‘zining his-tuyg‘ulariga hukmron, ular ni o‘zgartirishga, boshqarishga qodir, o‘z ruhi va ta nini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtaydigan narsalarga aylantirishga, uni tibbiy usul bilan ma’naviy davolashga hamda asta-sekin axloq ha qidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodir bo‘ladi”.

7-sinf “Tarbiya” darsligidan o‘rin olgan “Ilm va zakovat” mavzusida buyuk ajdodimiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur” degan fikrlari o’quvchilar hayotida muhim o;rin egallashi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari va yondashuvlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular ilm-fanni egallash, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish, mehnatsevarlikni tarbiyalash, ustoz-shogird an’analarini rivojlantirish hamda komil insonni voyaga yetkazishni ta’limning asosiy maqsadi deb bilganlar. Buyuk mutafakkirlarimiz ta’lim va tarbiyani o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin etib, insonning aqliy, ma’naviy va jismoniy kamolotini ta’minlashga alohida e’tibor qaratganlar.

Ajdodlarimizning boy pedagogik merosi zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish,

mustaqil fikrlaydigan, bilimli va ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, ularning pedagogik g‘oyalari va tarbiyaviy qarashlarini chuqur o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Natijada, ajdodlarimiz merosiga tayanilgan ta’lim-tarbiya tizimi barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston.138 bet.
2.Sh.Mirziyoyev. “O‘qituvchi va murabbiylar kunida”gi “O’qituvchi va murabbiylar yangi O’zbekistonni barpo etishda kata kuch ,tayanch va suyanchimizdir” mavzusidagi videoselekt,2020 yil
3.Sh.Mirziyoyev.Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston.137 bet
4.A.Zunnunov,R.Jo’rayev.O’quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,8-bet
5.A.Zunnunov,R.Jo’rayev.O’quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari,11-bet
6.Tarbiya fani darsligi,7-sinf,35-bet

TA’LIMDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISH YO‘LLARI

Xakimov Shuxrat Shodiyevich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan asosiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda hal etish yo‘llari tahlil qilinadi. Jumladan, ta’lim sifati, o‘qituvchilar malakasi, infratuzilma, raqamli tengsizlik, psixologik salomatlik, motivatsiyaning pasayishi kabi muammolar keng yoritilgan. Xorijiy tajribalar –Finlyandiya va Singapur modellari misolida ta’limdagi muvaffaqiyatli yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada ta’limni mehnat bozori bilan integratsiyalash, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish,

ota-onalarning ishtirokini kuchaytirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali mavjud muammolarni samarali hal etish takliflari ilgari surilgan. Ilmiy-nazariy yondashuvlar va statistik ma'lumotlarga asoslangan holda yozilgan ushbu maqola, ta'lim sohasidagi islohotlarga oid tahliliy yondashuvni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'limdagi muammolar, pedagogik yondashuv, o'qituvchi malakasi, raqamli bo'linish, ta'limda tengsizlik, psixologik salomatlik, ta'lim islohotlari, xorijiy tajriba, zamonaviy ta'lim, ijtimoiy sheriklik, motivatsiya, inkluziv ta'lim, ta'lim sifati, o'quv dasturlari.

Abstract: This article analyzes the main problems in the modern education system, their causes and solutions. In particular, such problems as the quality of education, teacher qualifications, infrastructure, digital inequality, psychological health, and decreased motivation are widely covered. Successful approaches in education are considered using foreign experiences - the Finnish and Singaporean models. The article also puts forward proposals for effectively solving existing problems through the integration of education with the labor market, the development of social partnership, increased parental involvement, and the use of digital technologies. This article, written based on scientific and theoretical approaches and statistical data, includes an analytical approach to reforms in the field of education.

Keywords: education system, problems in education, pedagogical approach, teacher qualifications, digital divide, inequality in education, psychological health, educational reforms, foreign experience, modern education, social partnership, motivation, inclusive education, quality of education, curricula.

Аннотация: В данной статье анализируются основные проблемы современной системы образования, их причины и пути решения. В частности, широко освещаются такие проблемы, как качество образования, квалификация учителей, инфраструктура, цифровое неравенство, психологическое здоровье и снижение мотивации. Рассматриваются успешные подходы в образовании с использованием зарубежного опыта – финской и сингапурской моделей. В статье также предлагаются способы эффективного решения существующих проблем посредством интеграции образования с рынком труда, развития социального партнерства, повышения вовлеченности родителей и использования цифровых технологий. Данная статья, написанная на основе научно-теоретических подходов и статистических данных, включает аналитический подход к реформам в сфере образования.

Ключевые слова: система образования, проблемы образования, педагогический подход, квалификация учителей, цифровое неравенство,

неравенство в образовании, психологическое здоровье, образовательные реформы, зарубежный опыт, современное образование, социальное партнерство, мотивация, инклюзивное образование, качество образования, учебные программы.

B

u

g

u

m

y

g

j

b

l

o

i

a

h

l

x

j

h

t

a

i

b

t

a

h

(

h

a

s

o

h

a

Jumladan, o‘quv dasturlari zamonaviy hayot va mehnat bozori talablariga to‘liq mos emas. Darsliklar muntazam yangilanmaydi yoki noaniq pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Bu holat yosh avlodning raqobatbardoshlik darajasining pasayishiga olib keladi.O‘qituvchilar malakasi va pedagogik yondashuvlar:Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy salohiyatiga bog‘liq. Afsuski, ayrim hududlarda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan xabardorligi yetarli emas. Bu esa talaba markazli, interaktiv darslarning samarali tashkil etilishiga to‘sqinlik qiladi.Infratuzilma muammolari

Qishloq joylardagi maktablarning moddiy-texnik bazasi shaharlardagiga nisbatan past darajada. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.Ota-onalar va jamiyatning ta’limdagi roliBa’zi hollarda ota-onalar farzandlarining ta’lim olish jarayoniga loqayd qaraydilar. Bu esa bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasining pasayishiga olib keladi. Ta’lim jarayoni –bu faqat maktab yoki universitet bilan cheklanmasdan, balki jamiyat bilan hamkorlikda olib borilishi lozim bo‘lgan murakkab jarayondir.Qo‘shimcha asosiy muammolarTa’limdagi tengsizlik va ijtimoiy adolat muammolariBugungi kunda ta’limga teng kirish imkoniyati jahon miqyosida dolzarb muammolardan biridir. Nogironligi bo‘lgan bolalar, past daromadli oilalar farzandlari, chekka hududlarda yashovchilar sifatli ta’limdan chetda qolmoqda. Bu esa ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiradi.Misol: UNICEF (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, past daromadli oilalardagi bolalar maktabni tark etish xavfi yuqori bo‘lgan guruh sifatida qayd etilgan.Raqamli bo‘linish (Digital Divide)Raqamli texnologiyalarni ta’limga keng joriy etish bilan birga, ularning mavjudligida katta tafovut mavjud. Aholining ayrim qatlamlari internet va zarur texnik vositalarga ega emas. Bu esa ta’limda raqamli tengsizlikni keltirib chiqaradi.Statistik fakt: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, chekka hududlarda 7–11 yoshdagi bolalarning 34 foizi uy sharoitida barqaror internet aloqasiga ega emas.

Ta’limni moliyalashtirishdagi muammolarKo‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim tizimi yetarlicha moliyaviy qo‘llab-quvvatlanmaydi. Bu esa darslik, o‘quv vositalari, pedagoglarga to‘lanadigan maosh hamda infratuzilmaning ahvoliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Masalan: 2023-yilda O‘zbekistonda ta’limga ajratilgan byudjet umumiy davlat byudjetining 17,3 foizini tashkil etgan (UNESCO tavsiyasi –kamida 20%).Yoshlar motivatsiyasining pasayishiZamonaviy yoshlar o‘rtasida ta’limga bo‘lgan qiziqishning susayishi kuzatilmoqda. Bu holatning asosiy sabablaridan biri —ta’limning hayot bilan bog‘lanmaganligi, ko‘nikmalar emas, diplomga asoslangan yondashuv, va o‘qitish uslublarining eskirganligidir.So‘rov natijasi: “Ziyo Forum” (2024) so‘rovnomasiga ko‘ra, 18–24 yoshdagi respondentlarning 41 foizi maktab yoki OTMda olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ishlatmayotganini bildirgan.Psixologik salomatlikning e’tibordan chetda qolishiO‘quvchilarning ruhiy holati, stressga bardoshliligi va emotsional intellekti ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Afsuski, ko‘plab o‘quv muassasalarda bu yo‘nalishdagi xizmatlar yetarli emas.

Tahlil: Xalq ta’limi vazirligi (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, umumiy o‘rta maktablarning atigi 38 foizida doimiy psixolog faoliyat olib boradi.Muammolarni hal etish yo‘llariO‘quv dasturlarini yangilashDasturlar mehnat bozori talablariga muvofiq holda doimiy yangilanib borishi zarur. STEAM yondashuviga asoslangan ta’lim tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.O‘qituvchilar malakasini oshirishO‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va interaktiv metodlar bilan ishlashga o‘rgatish kerak. Yosh mutaxassislarga imtiyozli ishga joylashish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi zarur.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishOnlayn ta’lim, sun’iy intellekt asosidagi platformalar, virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ayniqsa chekka hududlarda dolzarb ahamiyatga ega.

Ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishMaktab, mahalla, ota-onalar, nodavlat tashkilotlar, OAV va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik mustahkamlanishi muammolarni kompleks hal qilishga xizmat qiladi. Ilmiy yondashuv va xorijiy tajribaFinlandiya tajribasi:Stresssiz, o‘quvchiga ishonchga asoslangan ta’lim muhitini yaratish, malakali o‘qituvchilarni tayyorlash, texnologiyalardan faol foydalanish Finlyandiyaning muvaffaqiyatli modeli sifatida e’tirof etiladi.Singapur modeli:“Hayot davomida o‘rganish” tamoyiliga asoslangan ushbu tizimda har bir bosqichda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ta’limda samaradorlik va natijadorlik tamoyillari asosiy mezon hisoblanadi.Qo‘shimcha takliflarInkluziv ta’lim tizimini kengaytirishNogiron bolalar uchun moslashtirilgan

metodika va infratuzilma yaratish zarur.Ta’lim va mehnat bozorini uyg‘unlashtirishKadrlar tayyorlash dual tizim asosida olib borilishi lozim.Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirishMilliy va xalqaro baholash mezonlariga asoslangan tizim joriy etilishi lozim.

Ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni kuchaytirish“Maktab-oila-hamjamiyat” tizimini joriy etish ta’limda samaradorlikni oshiradi.“Hayotiy ko‘nikmalar maktabi”Moliyaviy savodxonlik, sog‘lom turmush tarzi, axborot xavfsizligi kabi fanlar asosida amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi zarur.Ta’limdagi muammolarni bartaraf etish —nafaqat davlat yoki vazirlik, balki butun jamiyat zimmasidagi dolzarb vazifadir. Sifatli ta’lim —raqobatbardosh, erkin

fikrlaydigan, innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalashning asosiy kalitidir. Shu sababli, tizimli yondashuv, ilmiy asos va ijtimoiy hamkorlik orqali ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. (2023). Ta’lim tizimidagi islohotlar holati va istiqbollari.

2.UNESCO Institute for Statistics. (2023). Education Financing in Developing Countries. Paris: UNESCO Publishing.

3.UNICEF Uzbekistan. (2023). Education and Equity Report. Tashkent: UNICEF.

4.Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2024). Raqamli ta’lim imkoniyatlari statistik sharhi. Toshkent.

5.Ziyo Forum. (2024). Yoshlar va ta’lim: motivatsiya holati bo‘yicha sotsiologik tahlil. Toshkent.

6.Darling-Hammond, L. (2017). Empowered Educators: How High-Performing Systems Shape Teaching Quality Around the World. Jossey-Bass.

7.Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.

8.OECD (2022). Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.

9.Ministry of Education Singapore. (2023). Lifelong Learning and Competency-Based Education in Singapore.

YOSH AVLOD TARBIYASIDA AJDODLAR MEROSI TUSHUNCHASI.

Xakimov Shuxrat Shodiyevich
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
"Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari"
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ajdodlar merosi tushunchasi bu milliy qadriyatlar, an'analar va tarixiy tajribalar orqali kelajak avlodga vatanparvarlik hissini berish haqida gap boradi. Yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ajdodlar merosi tushunchasi bu milliy qadriyatlar, an'analar va tarixiy tajribalar orqali kelajak avlodga vatanparvarlik hissini berish jarayonidir.

Kalit so'slar: Ma'naviy meros, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, an'analar, tarixiy tajriba, vatanparvarlik, milliy g'urur, shaxs shakllanishi, vatan tuyg'usi, yuksak axloq.

Abstract: This article discusses the concept of ancestral heritage in the formation of the spirit of patriotism in the upbringing of the younger generation, which is the process of instilling a sense of patriotism in the future generation through national values, traditions and historical experiences. The concept of

ancestral heritage in the formation of the spirit of patriotism in the upbringing of the younger generation is the process of instilling a sense of patriotism in the future generation through national values, traditions and historical experiences.

Keywords: Spiritual heritage, national value, universal value, traditions, historical experience, patriotism, national pride, personality formation, sense of homeland, high morality.

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция родового наследия в формировании духа патриотизма при воспитании молодого поколения, то есть процесса привития чувства патриотизма будущим поколениям посредством национальных ценностей, традиций и исторического опыта.

Ключевые слова: духовное наследие, национальная ценность, универсальная ценность, традиции, исторический опыт, патриотизм, национальная гордость, формирование личности, чувство родины, высокая нравственность.

K
i
r
i
s
h

Muhokama va natijalar.

O‘zbekiston tarixidagi muhim voqealar, ular asarlari va ajdodlarimizning qahramonliklari orqali yoshlar o‘zlarining vataniga sadoqat, jasorat va mas'uliyat hissini o‘zida rivojlantiradi. Tarixiy shaxslar, masalan, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati yoshlarni ilhomlantiradi. Vatanparvarlik haqidagi fikrlar ko‘plab olimlar, davlat arboblari, jumladan, O‘zbekiston Prezidenti va ajdodlarimiz tomonidan ifoda etilgan. Ushbu fikrlar yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish va milliy g‘ururni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Quyida vatanparvarlik haqida turli mashhur shaxslarning so‘zlari keltiriladi: Buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniy vatanparvarlik to‘g‘risida “Vatanparvarlik – bu inson qalbining chuqur his-tuyg‘usi bo‘lib, u yurtini asrash, xalqiga sadoqat bilan xizmat qilish va uning ravnaqi uchun o‘zini bag‘ishlashdan iboratdir" degan edi. Beruniyning ilmiy asarlarida Vatanga sodiqlik va unga bo‘lgan muhabbatning ahamiyati haqida ko‘plab fikrlar uchraydi, u ilmiy ishlarda ham milliy qadriyatlarni asrashni ta’kidlagan. So‘z mulkining sultoni

v
b
a
t

Alisher Navoiy ham vatanparvarlik to‘g‘risi juda chiroyli fikrlarni bildirganlar "Vatan tuyg‘usi – inson qalbining eng ulug‘ tuyg‘ularidandir. Bu tuyg‘u o‘z millatiga, xalqiga bo‘lgan muhabbat va sadoqat orqali namoyon bo‘ladi" degan edilar. Navoiy o‘z asarlarida insonni yurtparvar bo‘lishga, o‘z xalqining baxti va farovonligi yo‘lida xizmat qilishga undaydi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur "Kuch – adolatdadir, adolat esa o‘z Vataningni sevish va uni himoya qilishda namoyon bo‘ladi" der edilar. Amir Temur vatanparvarlikni o‘z davlatini himoya qilish va mustahkamlashning asosi sifatida ko‘rgan va bu tushunchani askar va fuqarolariga singdirishga harakat qilgan. Islom olami olimi Imom Buxoriy "Vatanparvarlik Allohning buyuk ne'matlaridan biridir. O‘z vataniga sodiq bo‘lgan insonning Allohning roziligiga erishish yo‘lidagi harakati savobdir" deb o‘z fikrlarida vatanparvarlikning diniy va ma’naviy jihatlarini aks ettiradi, musulmonlar uchun vatanini sevish va uni himoya qilish ulug‘ vazifa ekanligini bildiradi. Buyuk muhaddis Imom Termiziy o‘z fikrlarida "Vatan – insonning dinini, e'tiqodini, g‘ururini saqlaydigan joydir. O‘z vataniga muhabbat qo‘ygan inson hamisha Allohning marhamatiga loyiq bo‘ladi". Imom Termiziyning bu fikri vatanparvarlikni e'tiqod bilan bog‘lash orqali uning ahamiyatini oshiradi. Sharqning buyuk faylasufi Abu Nasr Forobiy "Davlat va vatan taraqqiyotiga xizmat qilish – eng ulug‘ burchdir. Har bir inson o‘z vatanini rivojlantirish uchun o‘z imkoniyatlarini ishga solishi lozim". Forobiy o‘z asarlarida davlat, vatan va jamiyat taraqqiyotini bir-biriga bog‘liq qilib tushuntiradi va insonlarning bu yo‘ldagi hissasi muhimligini ta’kidlaydi. Turkmanistonning buyuk shoiri va mutafakkiri Maxtumquli "Vatanim uchun jonim fido, desam arziydi. Chunki u mening barcha boyliklarim va g‘ururimning manbai". Maxtumquli she’rlarida vatanparvarlik, milliy g‘urur va yurt muhabbati haqida chuqur falsafiy ma’no mujassam.

Buyuk tilshunos va mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy "O‘z xalqining tilini, tarixini va yurtini sevmoq – bu millatni asrashning eng ulug‘ yo‘lidir. Vatanparvarlik – bu nafaqat o‘z yerini, balki o‘z xalqining ruhini sevishdir" deydi. Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Vatanparvarlik – bu yurtingni sevish, uni himoya qilish va uning ravnaqini ta'minlash uchun fidoyilik ko‘rsatishdir. Vatan bizning umumiy uydir, uni asrab-avaylash barchamizning burchimizdir", "Mustaqillik bizga milliy o‘zlikni, ajdodlarimizning qahramonlik tarixini qaytarib berdi. O‘z vatanini sevish, millatni ardoqlash – har bir o‘zbekistonlikning muqaddas burchidir" deb o‘z so‘zlarini juda chiroyli ifodalaganlar. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham "Vatanparvarlik – bu yurakdan chiqadigan buyuk tuyg‘u bo‘lib, yurtimizning har bir farzandida shu tuyg‘uni uyg‘otish, ularda O‘zbekistonni sevish va unga xizmat qilish ruhini shakllantirish barchamizning muqaddas burchimizdir"73,

"Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashini ta’minlash – bu bizning kelajagimizning kafolatidir" deb yoshlarga juda kotta motivatsiya berganlar. Bu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik – ajdodlarimiz va zamonamiz arboblari tomonidan yuqori baholangan qadriyatdir. Ular yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘z milliy qadriyatlarini qadrlash va hurmat qilish, ajdodlarimizning jasorati va merosini saqlashga alohida e’tibor qaratganlar. Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda o‘tmishda yaratilgan ma’naviy meros va harbiy sarkardalar jasoratidan bahramand etishni talab etmoqda. Bu haqda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayoti qadriyatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”74, deya ta’kidlab o‘tgan edi. Binobarin, xalqimizning buyuk milliy ma’naviyati va axloqiy asoslari va uning tarixini chuqur o‘rganish, anglash orqali Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni yagona maqsad sari muqaddas O‘zbekistonimiz uchun xizmat qilishimiz zarur ekanligini taqozo etmoqda. Bugungi kunda vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifamiz bu mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlashdir. Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yo‘lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliyqahramonlarimizning jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish ularda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ta’kidlash joizki, globallashuv sharoitida inson qalbi va ongiga rahna soluvchi tahdidlar ortayotganligi tashvishli holdir. Ayniqsa, tashqi ta’sirlar, tazyiqlar, tajovuzlar ortishi, axborot xurujlarining avj olishi dunyo jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda. Hozirda dunyo miqyosida tahlikali vaziyatni ortib borayotgani bizdan doimo hushyor, ogoh va sergak bo‘lishni talab etmoqda. Tarixdan ma’lumki, aksariyat tanazzulga yuz tutgan davlatlarda jamiyatning parchalanishida g‘oyaviy parokandaliklar asosiy sabablaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu o‘rinda, bugungi kun talabi barcha voqea hodisalar, ijtimoiysiyosiy jarayonlardan yetarli darajada xabardor bo‘lishni taqozo etmoqda. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik, yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg‘u bo‘lib, uning mazmuni vatanga mehr qo‘yish, Vatanni himoya qilish, uning xavfsizligi hamda yaxlitligini ta’minlashga bevosita va bilvosita mas’ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy vatanparvarlik o‘zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo‘yishni

talab etadi. Muhim jihati shundaki, undagi hissiyotlar tor vatanparvarlik doirasiga sig‘maydi, undan “chetga chiqadi”. Harbiy vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlagandek: “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o‘qitish, navqiron avlodimizni bizning xalqimizga mutlaqo begona bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish masalalariga zarur darajada e’tibor qaratilmadi. Ayniqsa, diniy ekstremizm g‘oyalariga berilib, yo‘ldan adashgan yoshlarni sog‘lom turmush tarziga qaytarishda biz Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan askar va ofiserlarimizning salohiyatidan foydalana olmayapmiz”75. Kezi kelganda ta’kidlash zarurki, vatanparvarlik, xususan, “fuqaro vatanparvarligi” bilan “harbiy vatanparvarlik” tushunchasini bir xil deb qabul qilish noto‘g‘ri. Harbiy qomusiy lug‘atlarda vatanparvarlikning mazmuni “yurtga sodiqlik, Vatanga muhabbat, el manfaatlariga xizmat va mamlakatni dushmandan himoya qilish”, deb talqin etiladi . Umuman olganda, harbiy vatanparvarlikning mazmun-mohiyati shu ta’rifda mujassam bo‘lganga o‘xshaydi. Biroq, fuqaro vatanparvarligi – huquqiy madaniyat va qonunga itoatkorlik haqidagi bilimlar tizimi bo‘lib, jamiyat va davlatdagi siyosiy-huquqiy hodisajarayonlarning yangiligini baholash, fuqarolik pozisiyasiga egalik, xalqiga xizmatda doimo tayyor turish va konstitusiyaviy burchini bajarishdan iboratligi ta’kidlash lozim.

Harbiy vatanparvarlik - umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas qismi bo‘lib, u O‘zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash sharoitida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois harbiy vatanparvarlikning metodologik asoslari, ilmiy-nazariy xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq va tahlil qilish har doim dolzarb axloqiymasala bo‘lib qolaveradi. Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o‘rni va ahamiyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga ham bog‘liq. Zero, bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bevosita Qurolli Kuchlar tizimi, harbiy soha, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilsa-da, oila, mahalla va ta’lim muassasasi uni bilvosita amalga oshirishga mas’ul hisoblanadi va bu borada har bir fuqaro milliy-ma’naviy va axloqiy jihatlarni yaxshi bilishi lozim. Hozirgi davrda harbiy vatanparvarlikning asosini - yurt tinchligi belgilab beradi. Bugungi tahlikali zamonda Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish, milliy armiyamizni modernizasiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ko‘z qorachig‘iday

asrash ushbu metodologiyaning asosiy sharti va kafolati hisoblanadi. Bu shartning axloqiy mohiyati quyidagi jihatlarni taqozo etadi: 1. Harbiy xizmatchilarning axloqiy ongi. Bu – xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g‘oya, qarash, ishonch, tuyg‘u kabi hissiyotlar tizimidan iborat bo‘lib, ularning jamiyatdagi, kundalik turmush, xizmat faoliyatidagi xattiharakatlarida namoyon bo‘ladi. Bu Vatanga bo‘lgan muhabbat, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas’ullik, milliy g‘urur va iftixor hissiyotlaridir. 2. Harbiy xizmatchilar axloqi. Bu – vatanparvarlik, mardlik, eng zamonaviy jang qurollari va vositalarni bilish, ularni har qanday sharoitda qo‘llay olish, jangovar o‘rtoqlik qoidalariga sodiq bo‘lib, jang maydonlarini tashlab ketmaslik, harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so‘nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turadi. Yuqoridagi tamoyillar hozirgi davrda harbiy vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan,

Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yoshlarga xos fazilatga aylanishini talab etmoqda. Chunki, Vatanga muhabbat va uning kelajagiga ishonch umumxalq manfaatlariga qaratilgan yagona maqsad asosida shakllangandagina harbiy vatanparvarlik o‘z taqdirini Vatan, millat taqdiri bilan bog‘lagan barcha kishilar fazilatiga aylanadi. Ta’kidlash joizki, harbiy vatanparvarlik milliy merosimizning qadimiy tarixi va ma’naviy manbalariga borib ulanadi. Jumladan, “Avesto” adabiy yodgorligida, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” singari qahramonlik dostonlarida, “Temur tuzuklari”, “Mahbub ul-qulub”, “Turkiy Guliston yohud axloq” kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti bilan bog‘liq masalalarni axloqshunoslik kontekstida o‘rganish g‘oyatda dolzarbdir. Chunki, yoshlarda g‘urur, or-nomus, sha’n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish bevosita harbiy vatanparvarlik shartlari asosida reallikka aylanadi. Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug‘lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog‘liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatlari aks etgan manbalarni chuqurroq tahlilqilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash zarurki, o‘zbek xalqining milliy-ma’naviyati va axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg‘u “muhabbat”, “ishonch”, “sadoqat” kabi ma’naviy va axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o‘z mavqeini

yo‘qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir. Vatanparvarlik o‘zida birlashtirish, yo‘naltirish, jipslashtirish, safarbar qilish kabi axloqiy sifatlarni mujassam etgani uchun o‘zbek xalqi ma’naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug‘lanadi. Bundan yuksak ma’naviy qadriyatimiz hisoblangan Islom dini ham mustasno emas. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi ,avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq. Ajdodlar merosi orqali yosh avlodga ma'naviy qadriyatlar, ahloqiy normalar va insoniy sifatlar o‘rgatiladi. Bu qadriyatlar ichida mehr-oqibat, adolat, sadoqat va vatanparvarlik tushunchalari muhim o‘rin tutadi va an'anaviy urf-odatlar va marosimlar ham vatanparvarlik tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Navro‘z bayrami, Kurban Hayit va boshqa an'anaviy bayramlar davomida yoshlar o‘z xalqining tarixi va madaniyati bilan tanishadilar. Ajdodlar merosi, yosh avlodning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ular o‘z ijodiy yondashuvlari bilan an'anaviy madaniyatni zamonaviy kontekstdan ko‘rsatishga qodir. Yosh avlod ajdodlar merosidan foydalanib, zamonaviy san'at va madaniyatda yangi g‘oyalarni yaratish va ulardan foydalanish orqali vatanparvarlik ruhini namoyon qilishlari mumkin. Ajdodlar merosi yoshlar o‘rtasida birlashuv va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘zaro hamjihatlik, o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqat va vatanparvarlik hislarini rivojlantiradi.

Ajdodlar merosiga asoslangan tarbiya, milliy birlik va totuvlikni kuchaytiradi, bu esa jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ijtimoiy tadbirlar va madaniyat festivallar ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bunday tadbirlarda faol ishtirok etish orqali o‘z milliy an'analarini va tarixini o‘rganadilar. Undan tashqari maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida ajdodlar merosiga oid darslar, seminarlar va tadbirlar o‘tkazish orqali yoshlar vatanparvarlikni chuqurroq o‘rganishlari mumkin.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ajdodlar merosini yosh avlodga yetkazish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ajdodlar merosi haqida ma'lumotlar tarqatish, yoshlar o‘rtasida qiziqish va muhokamalarni tashkil etish mumkin. Ta'lim muassasalarida ajdodlar merosi bilan bog‘liq zamonaviy darsliklar va metodikalar ishlab chiqish, vatanparvarlik ruhida ta'lim berish jarayonini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ajdodlar merosi muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat milliy identitetni shakllantiradi, balki yoshlarni o‘z xalqiga sadoqat, jasorat va mas'uliyat bilan tarbiyalashda muhim manba bo‘libxizmat qiladi. Ushbu jarayonda ta'lim

muassasalari, ota-onalar, mahalliy jamoatlar va davlat tashkilotlari birgalikda faol ishtirok etishlari zarur. Ajdodlar merosini o‘rganish va uni hayotga tatbiq etish orqali yosh avlod o‘zligini anglashga, o‘z tarixini va madaniyatini saqlashga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

a
irziyoyev, Sh. M. (2017). *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini*
b
ìm
n
5. Alisher Navoiy. (1990). *Mahbub ul-qulub*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
6. Amir Temur. (1991). *Temur tuzuklari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
7. Mahmudxo'ja Behbudiy. (1999). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.
dulla Avloniy. (2004). *Turkiy Guliston yohud axloq*. Toshkent: Ma'naviyat.
11. unnunov, A. (2004). *Pedagogika tarixi*. Toshkent: Sharq.

BOSHLANG'ICH TA'LIM-KELAJAK POYDEVORI

Olimova Shahlo Ibrohimovna
Buxoro viloyati Shofirkon tumani 4-umumiy o'rta ta'lim maktab
O'quv -tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
Tel: +998 97 306 67 74

Annotatsiya: Mazkur maqolada barkamol avlodni tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning o'rni va poydevorlik vazifasi tahlil qilingan BOSHLANG'ICH TA'LIM - KELAJAK POYDEVORI. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ta'lim va tarbiyani uyg'un holda berish mexanizmlari, shuningdek, milliy o'quv dasturining amaliyotdagi ahamiyati yoritib berilgan boshlang'ich ta'lim – bilimlar poydevori.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ta'lim va tarbiya, barkamol inson, kompetensiya, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, milliy o'quv dasturi.

Аннотация: В данной статье анализируются роль и основополагающее значение начального образования в воспитании гармонично развитого молодого поколения boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning global masalalari .... Освещены механизмы гармоничного сочетания обучения и воспитания учащихся начальных классов с использованием современных педагогических технологий, а также практическое значение обновленной национальной учебной программы boshlang'ich ta'lim – bilimlar poydevori.

Ключевые слова: начальное образование, образование и воспитание, гармонично развитая личность, компетенция, современные образовательные технологии, национальная учебная программа.

Abstract: This article analyzes the role and foundational importance of primary education in raising a well-rounded young generation boshlang'ich ta'lim – bilimlar poydevori. It highlights the mechanisms of harmoniously combining education and upbringing for primary school students using modern pedagogical technologies, as well as the practical significance of the national curriculum boshlang'ich ta'lim – bilimlar poydevori.

Keywords: primary education, education and upbringing, harmoniously developed person, competence, modern educational technologies, national curriculum.

Kirish.

Boshlang'ich ta'lim har bir inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir.Aynan shu davrda bolaning bilimga bo'lgan qiziqishi ,dunyoqarashi va

shaxsiy fazilatlari shakllana boshlaydi. Boshlang’ich ta’lim nafaqat o’qish va yozishni o’rgatadi, balki bolani hayotga tayyorlaydi. Ilk sinflarda o’qituvchi bolaning ota-onasiga aylanadi. Ustozning mehribonligi,sabr-toqati va bilimdonligi o’quvchining kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun boshlang’ich sinf o’qituvchisining zimmasida nihoyatda mas’uliyatli vazifa yotadi. Boshlang’ich ta’lim jarayonida bolalarda fikrlash, to’g’ri xulq-atvor, do’stlik va hurmat kabi fazilatlar shakllanadi. Bu bosqichda berilgan bilimlar keying ta’lim pog’onalari uchun mustahkam asos bo’lib xizmat qiladi.

Muhokama v natijalar.

Ana shunday kelajak poydevorini mustahkam qilishda ilk saboqni bergan , Shofirkon tuman 4- maktabga tamal toshini qo’ygan ustozlarimizdan Sa’di Saloyevni yuksak hurmat bilan tilga olamiz. Hali maktab bo’lib shakllanmasdan turib, hatto o’z yashab turgan xonadonlariga xalqning farzandlariga ilk saboqni berib, butun umrini bilim berishga bog’lagan S.Saloyev minglab o’quvchilar qalbiga ilk bilim urug’ini ekkan, jamiyat kelajagini barpo etgan ustoz hisoblanadi.

Boshlang’ich ta’limga asos solgan ustozimiz Sa’di Saloyev 1912-yilda Shofirkon tuman Mahalla qishlog’ida tug’ilgan. Dastlab ustoz bilan bir qatorda Elmurodov Hayit, Bekov Ahror, Jo’rayev Ramazon ,Hojiyev Samad, Ashurov Nuhammad, Hojiyev Toji, Bozorova Munavvar ,Oripova Baxshanda, Umrzoqov Qahramon, Oripova Sanobar, Safarova Bibirajab, Safarova O’g’iloy, Hasanov Fazliddin, Toshev Rayim, Shukurov Abdurasul, Jo’rayev Qudrat, Jabborov Jalol, Tosheva Gulnora, Jo’rayeva Hojibegim, Yo’ldosheva Qursiya, Abdullayeva Muhabbat, Yo’ldosheva Sharofat, Saloyeva Diloromlar fidoyilik ko’rsatib, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berganlar.

Ta’lim-tarbiyaning asosiy poydevorini mustahkam qilishda o’zining bilimini,g’ayratini ayamagan ustozlarimiz bisyor.Jumladan, Xudoyorov Mahmud, Jo’rayev Izzatillo, Jo’rayeva Habiba, Hasanova Saboat, Abdullayeva Gulnora, Nurillayeva Mayram, Sattorova Iroda, Jo’rayeva Sojida,Naimov Abduvohid, Sharipov Faxriddin,Norova Marhabo,Atoyeva Muhayyo kabi ustozlarimizga ta’zimdamiz. Maktabda endi qadam qo’yayotgan murg’ak qalblarga dunyoni tanitish,uni ilm ummoniga oshno etishdek mashaqqatli kasbni tanlagan Olimova Qumriya, Aslonova Sanobar, Qilicheva Lola, Tosheva Zuhra,Qilicheva Gavhar, Yo’ldosheva Nasiba,Yo’ldosheva E’tibor,Shirinova Saida,Bozorova Dilfuzalar ham ustozlar izidan borib umr yo’llarini yosh avlodga baxshida etdilar. 2013-yil jonkuyar ustozimiz Olimova Qumriyaning mehnatlari munosib qadrlanib ,,Xalq maorifi a’lochisi’’ ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

Hozirgi kunda ustozlarimiz izidan borib, fan- texnika asri bo’lgan ayni vaqtda ijodiy yondashuv orqali darslarni zamon bilan hamhafas holda o’tayotgan Dilfuza Qayumova, Gulsanam G’afforova , Roila Karimova, Shahlo Olimova, Dilorom Obidova, Hulkar Qodirova, Ruxsora Iskandarova, Shahnoz Tosheva ,Zumrad Jalilova, Yorqin Xudoyorov, Adiba Rasulova,Hulkar Latipova, Muxlisa Abdullayeva, Zebiniso Nurova, Gulhayo Xolmurodova,Muborak Aslonova, E’tibor Jalolova, Dildora Qodirova, Fotima Savriyeva, Durdona Nasimova,Gulchiroy Muhammedova, Dilfuza Safarova, Nigora Nishonova, Musallam Halimova, Oltinoy Rasulova, Donoxon Akramova, Mohichehra Xolmurodovalar ta’limni yangi bosqichga ko’tarmoqdalar.

Xulosa qilib aytganimizda, boshlang’ich ta’lim –bu jamiyat kelajagining poydevori.Ushbu poydevor qanchalik mustahkam bo’lsa ,kelajak ham shunchalik porloq bo’ladi.

Ahad Qilichevich 1944-yil 10-yanvarda Shofirkon tumani Rabot qishlog’ida tug’ilgan.1951-1961 yillarda Shofirkon tuman 4-maktabda tahsil olgan. 1962-1964 yillarda Buxoro kooperativ texnikumini o’qigan.1965-yildan Shofirkon RAYPOda oddiy savdo xodimi vazifasidan o’z faoliyatini boshlab, savdo sohasida peshqadamlikni ko’rsatgani uchun 1966-yilda ,,Ilg’or savdo xodimi’’ko’krak nishoni bilan taqdirlangan.1969-1974 yillarda Samarqand Kooperativ institutini imtiyozli o’qigan. 1970-yilda esa Vladimir Il’ich Leninning 100 yillik yubeleyi munosabati bilan ,,Fidokorona mehnatlari uchun’’ medali,1981-yil ,,Savdo a’lochisi’’ko’krak nishoni bilan taqdirlangan. 1981-1986-yillar ,,Non va non mahsulotlari’’ ishlab chiqarish korxonasida direktor lavozimida faoliyat yuritgan. 1986-yilda rahbarlikni ixchamlashtirish va xizmat ko’rsatishni takomillashtirish maqsadida Do’rman matlubot jamiyati tashkil etildi.

Bu savdo tashkilotiga Narziyev Ahad rahbar etib tayinlandi. Ish faoliyati davrida o’z kasbining ustasi sifatida tanilgan Ahad Qilichevich 1986-yilda ,,Mehnat Qahramoni’’ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.,,Savdoning otasi’’ deb tan olingan Ahad Narziyev nafaqat o’z davlati,balki chet davlatlarga ham savdo sohasida tanila bordi. Jumladan, 1991 –yil yetishtirilgan paxta hosilining 5 % ni ,yani 1050 tonnasini (1mln 210 000 AQSH dollori miqdorida) Do’rman matlubot jamiyati va Tabani korporeyshin firmasi orqali tuzilgan shartnoma asosida Singapur davlatiga tovar almashtirish hisobida sifatli mahsulotlarni o’z xalqining turmush darajasini ko’tarishga xizmat qildi.

Yuksak mehnatlari sharafiga 1991 –yil 2-marta ,,Mehnat Qahramoni’’ ko’krak nishoni bilan qadrlangan. 1993-yil Rossiyaga, 1994-yil Italiyaga savdo sohasida hamkorlikni yo’lga qo’ygan A. Narziyev SSSR hukumatining bir qancha

tashakkurnomalari bilan taqdirlangan. 1994-yilda Saudiya Arabistonda HAJ safari amalini bajarib kelgan Ahad Hoji Narziyev o’zi tug’ilib o’sgan Rabot qishlog’ida ,,Ahad Hoji Qilich o’g’li’’ jom’e masjidini qurib, musulmon xalqining olqishiga sazovor bo’ldi.

Savdo sohasidagi ustoz A.Narziyev o’z faoliyati davrida bir qancha shogirdlarga savdo sirlarini o’rgatib, xalq farovonligi yo’lida xizmat qilishga undadi.Jumladan, Shukur Kamolov, Ravshan Olimov, Samad Zoyirov, Nurali Hojiyev, Muhammad Saidovlar o’z bilim va g’ayratlarini ayamay mehnat qilib ,,Savbo a’lochisi’’ ko’krak nishoni olishga muvaffaq bo’ldilar .Biz 4-maktab pedagogik jamoasi maktabning sobiq bitiruvchilari bilan faxrlanamiz va ,,oliy inson’’lar yetishtirgan ona-maktabimizga tasannolar aytamiz!

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Samarqand,Toshkent, Xiva, Qo’qon, Buxoro va boshqa shaharlarda yangi madrasalar qad ko’tarilib, talabalarga diniy va dunyoviy bilimlar berish yo’lga qo’yildi . Ayniqsa ,Buxoro inqilobi 1920-yildan so’ng arab tili yozuvini puxta bilgan mahalliy yoshlar va Mir Arab madrasasini tugatganlar savotxon bo’lganlar.

Denovlik arab yozuvini bilgan mullo Sharif ,mullo Bozor ,mullo Arslon mullo Hamroqul,mullo Eshmurod,mullo Tog’oylar Mir Arab madrasasida ta’lim olganlar. Mahalla qishlog’ida tug’ilgan mullo Bozor va mullo Sharif Mir Arab madrasasida (mudarris) o’qtuvchilik qilgan .

1927-1930 yillarga kelib sobiq Sho’ro hukumati qishloqlarda savodsizlikni tugatish haqida qaror qabul qilib,har bir qishloqda chalasavodsizlik maktablari ochib aholiga lotin alifbosida so’ngra kiril alifbosida majburiy savod chiqarish keng yo’lga qo’yildi. 1929-yilda o’quvchilarni rejali tartibda o’qitish yo’lga qo’yildi. 1937-yilda joriy etilgan umumiy ta’lim Denovda tashkil etilgan maktablarda to’liq amalga oshirildi.

1934-1943 yillarda Oxinboboyev nomli to’liqsiz o’rta maktabda o’quvchilarni ilmli qilib tarbiyalash maqsadida Samarqand va Buxoroda tashkil etilgan 3 yillik “Uchitelskaya” o’rta maxsus texnikumlarga bir necha yoshlar tanlov asosida qabul qilindi. Shunday yoshlardan biri Sa’di Saloyevdir “Uchitelskaya” sabog’ini olib qaytgan Sa’di Saloyev tengqurlari Nuriddin Bozorov ,Qo’shsha Niyozov,Sulaymon Boboyev ,To’y Ro’ziyev,Savri Hasanov,Ibrohim Usmonov kabi muallimlar bilan Denovda tashkil etilgan (TO’M)da o’quvchilarga saboq bera boshladilar.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan Sa’di Saloyev tengqurlari bilan firotga ko’ngilli bo’lib bordilar.Urushdan jarohatlanib,bir oyog’idan ajralgan Sa’di Saloyev fitot ortini mustahkamlash uchun sevgan kasbi o’qtivchilikni davom etdirdi. Salkam

35 yil davomida murg’ak qalblarga kiril alifbosini joylab,ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali mehnat qildilar .

Ustoz o’gitlari va saboqlarini qalbiga muhurlab olgan shogirdlari orasidan ko’plab adabiyotshunoslar,fan nomzodlari, doktorlar,tibbiyot xodimlari,agranomlar,o’qtivchilar va boshqa soha vakillari yetishib chiqdilar.

Domloning urushda ishtirok etganligi va ko’p yillik o’qtivchilik davri xizmatlari Davlatimiz tomonidan e’tirof etilib ko’ksini “Xalq Maorifi a’lochi”si ko’krak nishoni va bir qancha jangovor orden va medallar bezab turibdi. Bugungi faravon va osoyishta kunlarda ustoz sabog’ini olgan shogirdlari ustoz ishining davomchisi sifatida 4-maktabda faoliyat ko’rsatib kelmoqdalar .

Foydalangan adabiyotlar:

1. **G'ulomova Z.** *Boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalar.* — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. **Qosimova K. va boshqalar.** *Boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi.* — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. **Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K.** *Pedagogika.* (Boshlang'ich ta'lim fakultetlari uchun darslik). — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2018.
4. **O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.** (So'nggi o'rnatish va qo'shimchalar bilan). — Toshkent: Adolat, 2020.

KASBIY RIVOJLANISH KUNLARIDA O'RGANILGAN PEDAGOGIK TAJRIBALARNI UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONIGA TADBIQ ETISHNING METODIK ASOSLARI

Narkulov Ulugbek Mamadaliyevich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
metodik xizmat ko'rsatish bo'limi ingliz tili fani metodisti
Email: ulugbekjon198102052011@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug'i asosida joriy etilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tizimining pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kasbiy rivojlanish kunlarida o'rganilgan pedagogik tajribalarni maktab o'quv jarayoniga joriy etishning metodik asoslari o'rganildi. Shuningdek, krk.avloniy.uz platformasi orqali kasbiy rivojlanish jarayonlarini raqamlashtirishning samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalari kasbiy rivojlanish tizimi pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda, innovatsion metodlarni joriy etishda hamda ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kasbiy rivojlanish, pedagogik tajriba, metodik xizmat, ta'lim sifati, innovatsion metodlar, pedagog kompetensiyasi, metodik faoliyat.

Аннотация. В статье анализируется значение системы «День профессионального развития» и «Час профессионального развития», внедренной на основании постановления Президента Республики Узбекистан № ПҚ-231 и приказа № 246. Исследованы методические основы внедрения педагогического опыта в образовательный процесс школ. Результаты показывают, что профессиональное развитие педагогов способствует повышению качества образования.

Ключевые слова. Профессиональное развитие, педагогический опыт, методическая служба, качество образования, инновационные методы, педагогическая компетентность, методическая деятельность.

Abstract. This article examines the methodological foundations for implementing pedagogical practices learned during professional development days into school educational processes. The study is based on national policy reforms and digital platforms. The results indicate significant improvements in teacher competence and educational quality.

Keywords. Professional development, pedagogical experience, methodological support, quality of education, innovative methods, teacher competence, methodological activity.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimining samaradorligi bevosita pedagoglarning kasbiy kompetensiyasiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimi pedagoglardan doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishni talab qiladi. Shu sababli pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori asosida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini yangi tizim asosida tashkil etish belgilandi[1]. Mazkur qarorga muvofiq, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish va ta'lim sifatini oshirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug'i asosida kasbiy rivojlanish tizimi amaliyotga joriy etildi[2]. Ushbu tizim pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Kasbiy rivojlanish tizimi doirasida krk.avloniy.uz platformasi ishlab chiqildi. Mazkur platforma pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayonlarini monitoring qilish, metodik materiallar bilan ta'minlash va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

So'nggi yillarda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi xalqaro va milliy miqyosda ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, OECD tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan Teaching and Learning International Survey (TALIS 2024) natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishda muntazam ishtirok etishi o'quvchilarning akademik natijalarini o'rtacha 21–28% ga oshirish imkonini berishi aniqlangan[3]. Tadqiqot natijalarida shuningdek, kasbiy rivojlanish jarayonlarida o'rganilgan metodlarning amaliyotga joriy etilishi ta'lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi alohida ta'kidlangan. OECD (2024) hisobotiga ko'ra, pedagoglarning kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etishi yetarli darajada samarali bo'lishi uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

– o'rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish mexanizmining mavjudligi;
– metodik kuzatuv va monitoring tizimining yo'lga qo'yilganligi;
– raqamli platformalar orqali metodik qo'llab-quvvatlash;
– mentorlik va metodik hamkorlik tizimining mavjudligi [2].

Mazkur omillar pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimini samarali tashkil etishda muhim metodik asos hisoblanadi. O‘zbekistonlik olimlardan N.A. Muslimov pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz ta’lim tizimining asosiy komponenti ekanligini ta’kidlab, pedagoglarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan[3].

Shuningdek, O.Tolipov pedagoglarning kasbiy rivojlanishi innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydi[4].

R.H.Ishmuhamedov esa pedagoglarning kasbiy rivojlanishi samaradorligini oshirish uchun metodik xizmat tizimini takomillashtirish zarurligini asoslab bergan[5]. Ushbu ilmiy qarashlar pedagoglarning kasbiy rivojlanishi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari va amaliy tahlil (samarqand viloyati misolida). Mazkur tadqiqot Samarqand viloyatining tuman va shaharlaridagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib borildi. Tadqiqot jarayonida:

– 20 dan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktabi;

– 100 dan ortiq pedagoglarning darslari;

– kasbiy rivojlanish kunlarida ishtirok etgan pedagoglar faoliyati kuzatildi va tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagoglarning aksariyati kasbiy rivojlanish kunlarida o‘rganilgan metodlar bilan tanish bo‘lsa-da, ularni amaliyotga joriy etish darajasi yetarli emas.

Aniqlangan muammolar quyidagilardan iborat:

– pedagoglarning 62% o‘rganilgan metodlarni dars jarayonida muntazam qo‘llamayotgani;

– pedagoglarning 48% innovatsion metodlardan foydalanishda metodik qiyinchiliklarga duch kelayotgani;

– pedagoglarning 54% metodik qo‘llab-quvvatlash yetarli emasligini bildirgani;

– pedagoglarning 46% raqamli metodik materiallardan foydalanmayotgani ko‘zga tashlanadi.

Dars kuzatuvlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab pedagoglar an’anaviy o‘qitish metodlaridan foydalanishda davom etmoqda, bu esa dars samaradorligining past bo‘lishiga olib kelmoqda. Xususan, quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

– interfaol metodlardan yetarli foydalanilmayapti;

– o‘quvchilarni faol ishtirokini ta’minlovchi metodlar kam qo‘llanilmoqda;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar yetarli darajada joriy etilmagan.

Natijada dars samaradorligi past darajada qolmoqda. Tadqiqot metodologiyasi va usullari. Mazkur tadqiqotda pedagoglarning kasbiy rivojlanish kunlarida o‘rganilgan pedagogik tajribalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga joriy etishning metodik asoslarini aniqlash va takomillashtirish maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy-pedagogik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: Birinchidan, nazariy tahlil usuli orqali pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, metodik xizmat faoliyati, pedagogik kompetensiya va innovatsion metodlarni joriy etish bo‘yicha milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Ushbu usul pedagoglarning kasbiy rivojlanishi tizimini ilmiy asosda tushunish, uning asosiy komponentlarini aniqlash va metodik asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ikkinchidan, pedagogik kuzatuv usuli orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagoglarning dars jarayoni tahlil qilindi. Ushbu kuzatuvlar pedagoglarning kasbiy rivojlanish kunlarida o‘rganilgan metodlardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini berdi. Kuzatuv jarayonida pedagoglarning interfaol metodlardan foydalanish darajasi, o‘quvchilar faolligini ta’minlash ko‘rsatkichlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati baholandi. Uchinchidan, so‘rovnoma usuli orqali pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimiga bo‘lgan munosabati, o‘rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etishdagi qiyinchiliklari va ehtiyojlari aniqlandi. So‘rovnomada ishtirok etgan pedagoglarning fikrlari kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish bo‘yicha muhim empirik ma’lumotlarni taqdim etdi. To‘rtinchidan, pedagogik eksperiment usuli orqali taklif etilgan metodik modelning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Eksperiment davomida pedagoglarga metodik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatildi va ularning dars samaradorligidagi o‘zgarishlar monitoring qilindi. Beshinchidan, statistik tahlil usuli orqali olingan natijalar umumlashtirildi va ularning ilmiy asoslanganligi ta’minlandi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimini chuqur o‘rganish va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi. Kasbiy rivojlanish kunlarida o‘rganilgan pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik tajribalarni amaliyotga samarali joriy etish ma’lum pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Ushbu shart-sharoitlar pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi pedagogik shart – metodik qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi hisoblanadi. Pedagoglar kasbiy rivojlanish kunlarida yangi metodlarni o‘rganishadi, biroq ularni amaliyotga joriy etish uchun metodik ko‘rsatmalar zarur. Metodik qo‘llab-quvvatlash pedagoglarga yangi metodlarni qanday qo‘llash, qaysi sharoitda foydalanish va qanday natijalarga erishish mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Ikkinchi pedagogik shart – pedagoglarning motivatsiyasi hisoblanadi. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ijobiy munosabati ularning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Motivatsiya mavjud bo‘lgan taqdirda pedagoglar yangi metodlarni o‘rganishga va ularni amaliyotga joriy etishga intilishadi.

Uchinchi pedagogik shart – metodik hamkorlik tizimining mavjudligi hisoblanadi. Pedagoglar o‘zaro tajriba almashish orqali kasbiy rivojlanish jarayonini samarali amalga oshirishlari mumkin. Metodik birlashmalar, seminarlar va treninglar pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchi pedagogik shart – raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli platformalar pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. krk.avloniy.uz platformasi pedagoglarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish, metodik materiallar bilan ta’minlash va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan metodik modelni amaliyotga joriy etish mexanizmi. Taklif etilgan metodik model pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, uning amaliyotga joriy etilishi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – diagnostika bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi darajasi aniqlanadi. Diagnostika pedagoglarning metodik bilimlari, pedagogik ko‘nikmalari va innovatsion metodlardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich – o‘rganish bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglar kasbiy rivojlanish kunlarida yangi metodlarni o‘rganishadi. Seminarlar, treninglar va amaliy mashg‘ulotlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich – amaliyotga joriy etish bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglar o‘rganilgan metodlarni dars jarayonida qo‘llashadi. Ushbu jarayon pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchi bosqich – monitoring bosqichi. Ushbu bosqichda pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayoni monitoring qilinadi. Monitoring pedagoglarning kasbiy rivojlanish samaradorligini baholash imkonini beradi.

Beshinchi bosqich – tahlil va takomillashtirish bosqichi. Ushbu bosqichda olingan natijalar tahlil qilinadi va zarur bo‘lgan takomillashtirish choralari ishlab chiqiladi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari pedagoglarning kasbiy rivojlanish tizimi ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Kasbiy rivojlanish kunlari pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Biroq, kasbiy rivojlanish jarayonining samaradorligi o‘rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish darajasiga bog‘liq. Tadqiqot natijalari pedagoglarning aksariyati o‘rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko‘rsatdi. Mazkur muammoni hal etish uchun metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarur.

Metodik asoslarni takomillashtirish zarurati. Tadqiqot natijalari kasbiy rivojlanish kunlarida o‘rganilgan pedagogik tajribalarni amaliyotga joriy etishning metodik asoslarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Mazkur muammoni hal etish uchun quyidagi metodik yondashuvlarni joriy etish zarur:

1. Metodik qo‘llanma ishlab chiqish

Kasbiy rivojlanish kunlarida o‘rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha maxsus metodik qo‘llanma ishlab chiqish zarur.

Mazkur metodik qo‘llanmada:

– innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar;

– dars jarayoniga joriy etish bosqichlari;

– amaliy misollar;

– metodik tavsiyalar keltirilishi zarur.

2. Metodik monitoring tizimini joriy etish

Pedagoglarning o‘rganilgan metodlarni amaliyotga joriy etish darajasini monitoring qilish zarur. Bu quyidagilar orqali amalga **oshiriladi: dars kuzatuvlari; metodik tahlil; platforma orqali monitoring;**

Taklif etilayotgan metodik model. Kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi metodik model taklif etiladi:

1-bosqich – Kasbiy rivojlanish kunlarida o‘rganish;

2-bosqich – Metodik qo‘llanma orqali mustahkamlash;

3-bosqich – Amaliyotga joriy etish;

4-bosqich – Raqamli platforma orqali qo‘llab-quvvatlash;

5-bosqich – Monitoring va tahlil.

Mazkur model pedagoglarning kasbiy rivojlanishini samarali tashkil etish imkonini beradi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy rivojlanish kunlari pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq o‘rganilgan pedagogik metodlarni amaliyotga joriy etish darajasi yetarli emas. Mazkur muammoni hal etish uchun quyidagilar zarur:

– metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish;

– raqamli platformalardan samarali foydalanish;

– metodik monitoring tizimini joriy etish;

– seminar va treninglarni ko‘paytirish.

Mazkur chora-tadbirlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231 qarori, 2024.
2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 246-son buyrug‘i, 2024.
3. OECD TALIS Report, 2024.
4. Muslimov N.A. Pedagogik kompetensiya, 2019.
5. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalar, 2015.
6. Ishmuhamedov R. Innovatsion metodlar, 2017.
7. krk.avloniy.uz platformasi materiallari, 2025.

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI: PEDAGOG-AKMEOLOGNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI OMILI

Xamrayeva Diyora
Burxon qizi- Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi.
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasi katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda akmeologik yondashuv va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining integratsiyasi masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda pedagog-akmeologning kasbiy kamolot bosqichlari, innovatsion faoliyat tarkibiy qismlari va SI vositalarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi tahlil qilingan. Maqolada sun'iy intellektning pedagogik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashdagi roli, imkoniyatlari va istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: akmeologiya, innovatsion faoliyat, sun'iy intellekt, pedagog-akmeolog, kasbiy kamolot, maktabgacha ta'lim, texnologik integratsiya.

АННОТАЦИЯ :В данной статье рассматриваются вопросы интеграции акмеологического подхода и технологий искусственного интеллекта (ИИ) в развитии инновационной деятельности педагогов. В исследовании анализируются этапы профессионального становления педагога-акмеолога, компоненты инновационной деятельности и применение инструментов ИИ в образовательном процессе. В статье освещаются роль, возможности и перспективы искусственного интеллекта в поддержке педагогических инноваций. Результаты исследования имеют практическое значение для педагогов дошкольных образовательных учреждений.

Ключевые слова: акмеология, инновационная деятельность, искусственный интеллект, педагог-акмеолог, профессиональное совершенствование, дошкольное образование, технологическая интеграция.

ANNOTATION (IN ENGLISH)

This article examines the integration of the acmeological approach and artificial intelligence (AI) technologies in developing teachers' innovative activity. The study analyzes the stages of professional development of a teacher-acmeologist, the components of innovative activity, and the application of AI tools in the educational process. The article highlights the role, opportunities, and prospects of artificial intelligence in supporting pedagogical innovations. The research findings

have practical significance for preschool education teachers.

Keywords: acmeology, innovative activity, artificial intelligence, teacher-acmeologist, professional development, preschool education, technological integration.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish va innovatsion faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi pedagogik mehnat mazmuni va shakllarini yangilanishini taqozo etmoqda.

Akmeologiya — insonning kasbiy kamoloti va yutuqlariga erishish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida pedagoglar faoliyatini tahlil qilishda yangicha metodologik asos yaratadi. Akmeologik yondashuv pedagogning o'z kasbiy "cho'qqisiga" (akme) erishishini maqsadli ravishda boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan akmeologik yondashuv bilan zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalarini uyg'unlashtirgan kompleks tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur maqolaning asosiy maqsadini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Akmeologiya fanining asosini B.G. Ananev, A.A. Bodalev, A.A. Derkach va N.V. Kuzmina kabi olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. A.A. Derkachning tadqiqotlarida akmeologik yondashuv shaxsning kasbiy rivojlanishi nuqtai nazaridan keng tahlil qilingan (Derkach, 2004). N.V. Kuzmina esa pedagogning kasbiy mahorati va akme darajasiga erishish mexanizmlarini ilmiy asoslab bergan (Kuzmina, 1990).

Pedagoglarning innovatsion faoliyati masalasi V.A. Slastyonin, L.S. Podymova, V.I. Zagvyazinskiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Innovatsion faoliyat pedagogning yangi g'oyalarni qabul qilish, ularga moslashish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini o'z ichiga oladi (Slastyonin, Podymova, 1997).

Sun'iy intellektning ta'limdagi roli bo'yicha xorijiy tadqiqotchilar W. Holmes, M. Bialik, C. Fadel (2019) va D. Cope (2021) muhim hissa qo'shgan. O'zbekistonda esa raqamli ta'lim va SI texnologiyalari sohasida N.Yo. Toshmatova, B.X. Xodiev kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, akmeologik yondashuv bilan SI texnologiyalarini

integratsiyalashgan holda o'rganuvchi tadqiqotlar hali yetarli emas. Bu esa mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib borishning ilmiy zaruriyatini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va ekspert baholash usullari. Tadqiqotning metodologik asosini akmeologik yondashuv, tizimli-faoliyatli yondashuv va kompetentlik yondashuvi tashkil etadi.

Tadqiqot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim muassasalari va pedagog malakasini oshirish markazlari tanlangan. Tadqiqotda 120 nafar pedagog ishtirok etgan bo'lib, ularning innovatsion faoliyat darajasi va SI texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari o'rganilgan.

ASOSIY QISM

1. Akmeologik yondashuv: mohiyat va tamoyillar

Akmeologiya (yunon. "acme" — cho'qqi, yuksaklik) — insonning kasbiy kamoloti qonuniyatlari, mexanizmlari va shartlarini o'rganuvchi fandir. Pedagogik akmeologiya pedagog shaxsining kasbiy "cho'qqisiga" erishish jarayonini o'rganadi va bu jarayonni maqsadli boshqarish usullarini ishlab chiqadi.

Akmeologik yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: (1) rivojlanish tamoyili — pedagog faoliyatini doimiy takomillashtirish; (2) sub'ektlik tamoyili — pedagogning o'z rivojlanishida faol sub'ekt sifatida ishtirok etishi; (3) optimallillik tamoyili — maksimal natijaga minimal resurs sarflagan holda erishish; (4) komplekslik tamoyili — kasbiy rivojlanishning barcha jihatlarini qamrab olish.

Pedagog-akmeologning innovatsion faoliyati uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi: motivatsion-qadriyatli (yangiliklarga ochiqlik, o'zgarishlarga tayyorlik), kognitiv-axborot (yangi bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish), hamda operatsional-faoliyat (innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish) komponentlari.

2. Sun'iy intellekt texnologiyalari va pedagogik innovatsiyalar

Sun'iy intellekt (SI) — insonning intellektual qobiliyatlarini modellashtiruvchi kompyuter tizimlari majmuasidir. Ta'lim sohasida SI texnologiyalari quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilmoqda: adaptiv o'qitish tizimlari, avtomatik baholash, shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'llari, tabiiy til bilan ishlash va pedagogik diagnostika.

Zamonaviy SI vositalari (ChatGPT, Gemini, Copilot, Claude va boshqalar) pedagoglarga quyidagi imkoniyatlarni beradi: dars rejalarini tezkor tayyorlash, differensiallashtirilgan topshiriqlar yaratish, o'quvchi natijalarini tahlil qilish, metodik materiallar ishlab chiqish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun manbalar topish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, SI vositalaridan muntazam

foydalanadigan pedagoglar innovatsion faoliyatning yuqori darajasini namoyish etadi. Xususan, so'rovnoma ishtirokchilarining 78 foizi SI yordamida dars tayyorlash jarayonining samaradorligi oshganligini ta'kidlagan.

3. Akmeologik yondashuv va SI integratsiyasining modeli

Pedagog-akmeologning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda akmeologik yondashuv va SI texnologiyalarini integratsiyalash uchun quyidagi model taklif etiladi:

Birinchi bosqich — diagnostik bosqich: pedagogning hozirgi kasbiy darajasi aniqlanadi, innovatsion faoliyatga nisbatan munosabati o'rganiladi va SI texnologiyalaridan foydalanish darajasi baholanadi.

Ikkinchi bosqich — motivatsion bosqich: pedagogda SI texnologiyalarini o'zlashtirishga ichki ehtiyoj shakllantiri-ladi, muvaffaqiyatli tajribalar namoyish etiladi va individual rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi.

Uchinchi bosqich — texnologik bosqich: pedagog konkret SI vositalarini o'rganadi, ularni o'z faniga moslashtiradi va darsda tatbiq etadi. Bu bosqichda akmeologik maslahatchining roli muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi bosqich — refleksiv bosqich: pedagog SI vositalarini qo'llash natijasida erishgan yutuqlarini tahlil qiladi, kamchiliklarni aniqlaydi va keyingi rivojlanish maqsadlarini belgilaydi.

4. Amaliy tajriba va natijalar

Tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagoglar bilan o'tkazilgan treninglar va seminarlar natijalari tahlil qilindi. Eksperimental guruhda (60 nafar pedagog) akmeologik yondashuv asosida SI texnologiyalaridan foydalanishga yo'naltirilgan maxsus dastur amalga oshirildi.

Nazorat guruhi bilan solishtirganda, eksperimental guruh pedagoglarida quyidagi ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshdi: innovatsion faoliyat darajasi — 34 foizga, kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish motivatsiyasi — 28 foizga, SI vositalaridan unumli foydalanish ko'nikmalari — 45 foizga.

Shu bilan birga, tadqiqotda ba'zi to'siqlar ham aniqlandi: texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning SI dan foydalanishga nisbatan qo'rquv va ikkilanish holatlari, hamda SI vositalarini o'quv dasturiga integratsiyalashda uslubiy yo'l-yo'riqlarning kamligi.

MUHOKAMA VA XULOSALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, akmeologik yondashuv va sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi. Akmeologik yondashuv pedagogni o'z kasbiy kamolotining faol sub'ektiga aylantirsa, SI

texnologiyalari bu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi kuchli vosita hisoblanadi.

Ushbu integratsiya ayniqsa maktabgacha ta'lim sohasida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki erta bolalik ta'limi pedagoglari zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda bolalar rivojlanishini yanada samarali ta'minlay oladi. SI vositalari tarbiyachilarga o'yin-mashg'ulotlarni individuallashtirish, rivojlanish diagnostikasini amalga oshirish va ota-onalar bilan muloqotni optimallashtirish imkonini beradi.

Kelajak tadqiqotlari uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli: SI texnologiyalarini akmeologik coaching bilan birlashtirish modellari, maktabgacha ta'lim pedagogi uchun SI savodxonligi standartlari ishlab chiqish, hamda milliy ta'lim tizimiga mos SI vositalarini lokallashtirishning metodologik asoslarini yaratish.

AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Pedagog malakasini oshirish dasturlariga akmeologik yondashuv va SI texnologiyalari modulini kiritish;

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagog-akmeolog va SI koordinatorlari lavozimlarini joriy etish;

Pedagoglar uchun SI vositalaridan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish;

Ta'lim muassasalarida SI texnologiyalarini qo'llash tajribasini almashish platformalarini yaratish;

Pedagoglarning SI savodxonligi darajasini baholash uchun akmeologik diagnostika vositalarini takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Derkach A.A. Akmeologicheskie osnovy razvitiya professionalizma. — M.: MPSI, 2004. — 752 b.
2. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya. — M.: Vysshaya shkola, 1990. — 119 b.
3. Slastyonin V.A., Podymova L.S. Pedagogika: innovatsionnaya deyatelnost. — M.: Magistr, 1997. — 308 b.
4. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. — Boston: CCR, 2019. — 175 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. — T.: 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellektni rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni. — T.: 2021.

7. Xodiev B.X. Raqamli ta'lim texnologiyalari. — T.: O'zbekiston, 2022. — 215 b.
8. Zeer E.F. Psikhologiya professiy. — M.: Akademicheskiy proekt, 2003. — 336 b.
9. Zagvyazinskiy V.I. Metodologiya i metody psikhologo-pedagogicheskogo issledovaniya. — M.: Akademiya, 2001. — 208 b.
10. Selinger V., Watcher S. Artificial Intelligence and Education: A Critical Review. — London: Oxford Press, 2022. — 290 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY-ESTETIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Murotqobilova Mahliyo Anvar qizi
Teacher, Department of "Methods of Preschool,
Primary and Special Education"
Samarkand Regional Center for
Pedagogical Excellence.

Annotatsiya: Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Musiqiy-estetik kompetensiya bolaning musiqani idrok etishi, baholashi, ijodiy ifodalashi va estetik didini namoyon etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda raqamli pedagogika, interaktiv metodlar, STEAM texnologiyasi va multimedia vositalaridan foydalanishning bolalar musiqiy rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan musiqiy faoliyat bolalarning ijodiy faolligi, ritmni his etishi, estetik dunyoqarashi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, musiqiy-estetik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli pedagogika, multimedia, STEAM, musiqiy tarbiya, estetik rivojlanish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данном тезисе проанализированы педагогические возможности инновационных технологий в развитии музыкально-эстетических компетенций детей дошкольного возраста. Музыкально-эстетическая компетенция включает способности ребёнка воспринимать музыку, оценивать её, творчески выражать свои чувства и проявлять эстетический вкус. В исследовании раскрыто влияние цифровой педагогики, интерактивных методов, STEAM-технологии и мультимедийных средств на музыкальное развитие детей. Также обосновано, что музыкальная деятельность, организованная на основе инновационных технологий, способствует развитию творческой активности детей, чувства ритма, эстетического мировоззрения и коммуникативных навыков.

Ключевые слова: дошкольное образование, музыкально-эстетическая компетенция, инновационные технологии, цифровая педагогика, мультимедиа, STEAM, музыкальное воспитание, эстетическое развитие.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING MUSICAL AND AESTHETIC COMPETENCIES OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This thesis analyzes the pedagogical opportunities of innovative technologies in developing the musical and aesthetic competencies of preschool children. Musical and aesthetic competence encompasses a child's ability to perceive, evaluate, creatively express music, and demonstrate aesthetic taste. The study highlights the impact of digital pedagogy, interactive methods, STEAM technology, and multimedia tools on children's musical development. Furthermore, it substantiates that musical activities organized on the basis of innovative technologies contribute to the development of children's creative activity, sense of rhythm, aesthetic worldview, and communication skills.

Keywords: preschool education, musical and aesthetic competence, innovative technologies, digital pedagogy, multimedia, STEAM, music education, aesthetic development.

Zamonaviy ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalarning estetik madaniyatini shakllantirish va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Musiqa san’ati bolaning hissiy dunyosiga bevosita ta’sir etib, uning tafakkuri, tasavvuri va ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim mazmuni va metodlariga ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqiy tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Musiqiy-estetik kompetensiya bolaning musiqani tinglash, his qilish, tahlil etish hamda uni ijodiy faoliyatda qo‘llashga oid bilim, ko‘nikma va malakalari majmuasini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya bolaning musiqiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, uning emotsional, intellektual va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Musiqiy-estetik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlariga musiqani emotsional idrok etish, ritm va ohangni his qilish, qo‘shiq kuylash malakalarini egallash, musiqiy harakatlar va raqs elementlarini bajarish, musiqaga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish hamda ijodiy musiqiy faoliyatda faol ishtirok etish kiradi. Ushbu kompetensiyalarning rivojlanishi bolalarda go‘zallikni anglash, san’at asarlarini qadrlash, estetik didni shakllantirish

va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, musiqiy-estetik kompetensiyalar shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bolalarning muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari hamda o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bolalarning o'quv faoliyatiga qiziqishini oshirish va ta'lim samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Musiqiy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- ta'limning interaktivligini oshiradi;
- bolalarni faol ishtirok etishga undaydi;
- individual yondashuvni ta'minlaydi;
- musiqiy materiallarni vizual va audiovizual shaklda taqdim etadi;
- mustaqil va ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Ayniqsa, multimedia texnologiyalari yordamida musiqiy obrazlarni vizual tasvirlar bilan uyg'unlashtirish bolalarning musiqani chuqurroq idrok etishiga xizmat qiladi. Bolalarni musiqiy ijodkorligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalarga erishishning bir yo'li hisoblanadi. Jumladan, STEAM yondashuvi musiqa, san'at, texnologiya va matematikani integratsiyalash imkonini beradi. Masalan, ritmik mashqlar orqali matematik tushunchalarni mustahkamlash yoki musiqa asosida ijodiy loyihalar yaratish bolalarda kompleks fikrlashni rivojlantiradi. "Musiqiy topishmoq", "Ritmni top", "Musiqiy sayohat", "Assotsiatsiyalar buluti", "Musiqiy detektiv" kabi metodlar bolalarning musiqiy qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar ta'lim jarayonini o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiradi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Raqamli pedagogika, multimedia texnologiyalari, STEAM yondashuvi va interaktiv metodlar musiqiy tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar bolalarning musiqiy qobiliyatlari, estetik dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ta'lim jarayonining sifatini ham oshiradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim amaliyotida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va pedagoglarning ushbu yo'nalishdagi kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vetlugina N.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy tarbiyasi. – Moskva.
2. Asafyev B.V. Musiqa pedagogikasi asoslari. – Moskva.

3. Yusupova M. Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2024.
4. UNESCO. Early Childhood Education and Digital Learning Report.
5. Qodirov R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2023.

MAVZU. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISHNING KONSEPTUAL MODELI

Mansurov Farrux Najmitdinovich,
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta 'lim
texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: farruxmansurov@gmail.com
Telefon: +998938359900

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini strategik boshqarish modelining nazariy-metodologik asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarning kasbiy rivojlanish jarayonidagi o'rni, pedagoglarning individual rivojlanish traektoriyasini shakllantirish mexanizmlari hamda monitoring va baholash tizimining samaradorligi ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv, kasbiy rivojlanish, pedagogik texnologiya, kompetensiya, individual rivojlanish traektoriyasi, monitoring, pedagogik innovatsiya.

Мансуров Фаррух Наджмитдинович
Старший преподаватель кафедры педагогики,
психологии и образовательных технологий
Самаркандского областного центра
педагогического мастерства
E-mail: **farruxmansurov@gmail.com**
Телефон: **+998 93 835 99 00**

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретико-методологические основы модели стратегического управления профессиональным развитием педагогов, её структурные компоненты, а также значение данной модели в повышении качества образования. Кроме того, проведён научный анализ роли педагогических технологий в процессе профессионального развития, механизмов формирования индивидуальной траектории профессионального развития педагогов, а также эффективности системы мониторинга и оценки.

Ключевые слова: стратегическое управление, профессиональное развитие, педагогическая технология, компетентность, индивидуальная траектория развития, мониторинг, педагогические инновации.

O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini strategik boshqarish modeli pedagogik faoliyatni faqat qisqa muddatli rejalashtirish yoki oddiy tartibga solish vositasi sifatida emas, balki pedagogning mavjud kasbiy holatidan maqsadli ideal darajaga uzluksiz va tizimli o‘tishini ta’minlovchi kompleks tizim sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv o‘qituvchining individual kompetensiyalarini rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy salohiyatini kengaytirish hamda ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan mustahkam metodologik asosga tayanadi. “O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini strategik boshqarish modeli pedagoglarning professional o‘sishini ta’minlashda uzluksiz va maqsadga yo‘naltirilgan rejalashtirish, doimiy o‘rganish hamda samarali boshqaruv mexanizmlariga asoslanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning davomiy professional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda strategik boshqaruv tamoyillari tizimli rejalashtirish, malaka oshirish, o‘zaro hamkorlik va ijobiy pedagogik muhitda rivojlanish jarayonini tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi”. Strategik boshqaruv modeli pedagogning kasbiy faoliyatining turli komponentlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, diagnostika va ehtiyojlarni aniqlash, individual rivojlanish traektoriyasini shakllantirish, malaka oshirish va professional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek refleksiv - amaliy mashg‘ulotlar orqali pedagogning malaka va kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Shu tariqa, mazkur model nafaqat o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘sishini rag‘batlantiradi, balki umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonining barqarorligini ta’minlaydi, ijtimoiy - iqtisodiy talablar bilan uzviy moslashuvchanlikni oshiradi va ta’lim sifatining uzluksiz yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tizim pedagogning individual xususiyatlarini, kasbiy tajribasi va rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashuvchan yondashuvni ta’minlaydi. Bu pedagogni o‘z faoliyatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni innovatsion va kreativ yo‘llar bilan hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi. Shu yo‘l bilan strategik boshqaruv modeli pedagogning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz, izchil va maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy - metodik vosita sifatida qabul qilinadi.

Strategik boshqarish modeli bir nechta asosiy bosqich va komponentlardan tashkil topadi:

1. Strategik tahlil va ehtiyojlarni aniqlash bosqichi pedagoglarning joriy kompetensiya darajasini aniqlash va maktabning rivojlanish imkoniyatlarini baholashga qaratilgan. SWOT - tahlil orqali pedagoglar jamoasining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tashqi xavflar o‘rganiladi. Shu bilan birga, diagnostik tadbirlar orqali har bir o‘qituvchining metodik, raqamli, psixologik va innovatsion kompetensiyalari aniqlanadi. 2. Maqsadlarni belgilash va individual rivojlanish traektoriyasi orqali strategik maqsadlar maktabning umumiy rivojlanish strategiyasiga muvofiq belgilanadi. Bu jarayonda KPI (Key Performance Indicators) tizimi orqali o‘qituvchilarning erishishi lozim bo‘lgan aniq ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Har bir pedagog uchun individual rivojlanish traektoriyasi ishlab chiqiladi, unda o‘qituvchining malaka oshirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar va muddatlar ko‘rsatiladi.
3. Kasbiy rivojlanishning shakllari esa bir qator usullari mavjud bo‘lib, bular quydagilardan iboratdir:
- gorizontal o‘rganish usulida “ustoz - shogird” tizimi, dars kuzatish va tajriba almashish orqali pedagoglar o‘zaro o‘rganadi;
- uzluksiz ta’lim tizimida malaka oshirish kurslari, vebinarlar, mikrota’lim platformalari (microlearning) pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini yangilash imkonini beradi; - professional jamoalar tizimida maktab ichidagi fan metod birlashmalari faoliyati strategik yo‘nalishda tashkil etilib, pedagoglarning jamoaviy hamkorligi va o‘zaro rivojlanishi rag‘batlantiriladi.
4. Resurslar bilan ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash tizimi ham ikkiga bo‘linadi:
- motivatsiya tizimi KPI asosida moddiy rag‘batlar (ustamalar, bonuslar) va nomoddiy rag‘batlar (sertifikatlar, e’tirof) tatbiq etiladi;
- resurslar bilan pedagoglarni zamonaviy AKT vositalari, metodik qo‘llanmalar va kutubxona resurslari bilan ta’minlash, shuningdek, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar orqali ularning texnologik kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi.
5. Monitoring va baholash pedagoglarning faoliyati o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi va maktabdagi ta’lim jarayonining natijadorligi bo‘yicha muntazam baholanadi. Qayta aloqa (feedback) mexanizmlari orqali o‘quvchilardan, ota-onalardan va boshqa pedagoglardan ma’lumotlar olinadi. Shu asosda strategik rejalar yangilanadi va individual rivojlanish traektoriyalari sozlanadi.

Shu bosqichlarni samarali amalga oshirish uchun pedagogik texnologiyalar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ta’kidlash joizki, “pedagogik texnologiya” termini ilmiy muomalaga XX asrning 60-yillarida rivojlangan mamlakatlarda kirib kelgan bo‘lsa-da, pedagogik faoliyatni tizimli asosda tashkil etish va

texnologiyalashtirishning nazariy hamda amaliy poydevori ancha ilgari, xususan A.S.Makarenko ijodida shakllangan. Uning “Pedagogik poema” asarida ilgari surilgan: “Bizning pedagogik ishlab chiqarishimiz hech qachon texnologik mantiqqa asoslanmagan, balki doimo axloqiy targ‘ib mantiqiga asoslangan” degan fikri pedagogik jarayonning tizimsizligi va texnologik asoslarning yetishmasligini chuqur tahlil qilishga undaydi. Shu bois 1933 - 1935-yillarda ishlab chiqilgan pedagogik tizimlarda texnologik jarayonni modellashtirish, operatsion ketma - ketlikni aniqlash, normativlashtirish va monitoring mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ta’lim samaradorligini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur holat bugungi kunda ham pedagogik faoliyatni tizimli va natijaga yo‘naltirilgan tarzda boshqarish zaruratini dolzarb masala sifatida saqlab kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogika ta’lim maqsadlarining o‘zgarishi, Davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan qator inqiroziy holatlarni boshdan kechirmoqda. “Texnologiya” atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “san’at haqidagi fan” (techne – san’at, mahorat; logos – so‘z, ta’limot, bilim) ma’nosini anglatadi va belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lgan aniq mahsulotni kafolatli tarzda olish yo‘lini bildiradi. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi muayyan evolyutsion rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Ushbu tushunchaning rivojlanish bosqichlari quyidagicha tavsiflanadi:

1-bosqich (1940-yillar – 1950-yillar o‘rtalari) “ –ta’limda texnologiya” termini o‘quv jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni anglatgan.

2-bosqich (1950-yillar o‘rtalari – 1960-yillar) “ –ta’lim texnologiyasi” deganda dasturlashtirilgan ta’lim tushunila boshlangan.

3-bosqich (1970-yillar) “ –pedagogik texnologiya” termini paydo bo‘lib, u aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan oldindan loyihalashtirilgan o‘quv jarayonini anglatgan.

4-bosqich (1980-yillardan boshlab) – kompyuter va axborot texnologiyalariga asoslangan ta’lim tizimlari yaratilgan.

“Pedagogik texnologiya” iborasi ingliz tilidagi “educational technology” – “ta’lim texnologiyasi” atamasining to‘liq bo‘lmagan tarjimasini anglatuchi tushuncha hisoblanadi. Pedagogik amaliyotda esa ko‘pincha “pedagogik texnologiya” va “ta’lim texnologiyasi”ning sinonim sifatida qo‘llanadi. Shu bilan birga, “ta’lim texnologiyasi” nomi bilan ham “pedagogik texnologiya”ga nisbatan kengroq qo‘lanilib, pedagogik jihatlar bilan bir qatorda ijtimoiy, boshqaruv, madaniyatshunoslik, psixologik-pedagogik, tibbiy-pedagogik, iqtisodiy va boshqa

sohalarni ham qamrab oladi. Boshqa tomondan, “pedagogik texnologiya” tushunchasi pedagogikaning barcha bo‘limlariga tatbiq etiladi. Pedagogik texnologiya muvaffaqiyatni kafolatlaydigan pedagogik harakatlarni qat’iy ilmiy asosda loyihalash va aniq takrorlash tushunchasini anglatadi. Pedagogik jarayon muayyan tamoyillar tizimiga asoslanib qurilganligi sababli, pedagogik texnologiyani ushbu tamoyillarni ularning obyektiv o‘zaro bog‘liqligida izchil amalga oshirishga yo‘naltirilgan tashqi va ichki harakatlar majmui sifatida talqin qilish mumkin. Bunda pedagog shaxsi to‘liq namoyon bo‘lishga xizmat qiladi. Ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti muammolari qadimgi davrlardanoq olimlar va faylasuflar e’tiborini tortib kelgan. Gippokrat va Aristotel mimika hamda plastik harakatlardan foydalanib temperamentni aniqlashni taklif etganlar. Buyuk faylasuf Suqrotning shogirdlari bilan olib borgan suhbatlari shaxsga nozik ta’sir ko‘rsatishning ko‘plab namunalarini o‘z ichiga oladi. Unda suhbatdoshlarining munosabatlariga ta’sir ko‘rsatish bilangina cheklanmay, ularni fikrlashga undaydi, munozaraga jalb etadi va o‘z-o‘zini tuzatishga o‘rgatadi. Ilmiy pedagogikaning asoschisi, chex gumanist mutafakkiri Ya.A. Komenskiy ham o‘quvchi shaxsiga pedagogik ta’sir ko‘rsatish muammosiga alohida e’tibor qaratgan. U o‘qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligi bevosita pedagogik vositalardan ongli va maqsadga muvofiq foydalanish darajasiga bog‘liq ekanini ta’kidlab, shunday yozadi: “Har bir o‘qituvchini pedagogik vositalardan foydalanishga o‘rgatish mumkin va zarur, zero, faqat shundagina uning mehnati yuqori samaradorlik kasb etadi va o‘qituvchilik quyosh ostidagi eng yaxshi kasbga aylanadi”. Shu tariqa mutafakkir o‘qituvchi shaxsining kasbiy mahorati va pedagogik madaniyatini ta’lim-tarbiya jarayonining yetakchi omili sifatida baholaydi. Keyingi o‘n yilliklarda pedagog olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilar e’tiborini pedagogik texnologiya masalasiga faol yo‘naltirdi. Pedagogik texnologiyalarni ilmiy tadqiqotlarda, hisobotlarda hamda maxsus davriy nashrlarda keng muhokama qilinishi uning ta’lim-tarbiya tizimidagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etmoqda. Dastlab ushbu jarayonlar mavjud ilmiy-materiallarni jamlash, ularning nazariy va amaliy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida tahlil qilish orqali ham pedagogik texnologiyalarning empirik asoslarini shakllantirish va ularni ilmiy bilimlar tizimiga kiritish bo‘yicha izchil izlanishlar olib borildi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik texnologiyaga bo‘lgan qiziqishning keskin ortishi tasodifiy hodisa emas. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilib, ta’lim jarayonini modernizatsiyalashning muhim mexanizmi sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv

YUNESKO tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, 1972-yilda “Ta’limni rivojlantirish masalalari” bo‘yicha Xalqaro komissiya tashkil etildi va zamonaviy texnologiyalar ta’limni modernizatsiyalashning harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholandi. Natijada, pedagogik texnologiyalarga e’tiborning ortishi va ularni ilmiy asoslarda tatbiq etish o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, pedagogik faoliyatning sifat va samaradorligini oshirish hamda ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion modelini shakllantirish imkonini beradi. Mazkur nazariy asoslar O‘IBDO faoliyati doirasida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini strategik boshqarish modelining muhim tarkibiy komponenti sifatida amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xususan, pedagoglar uchun individual rivojlanish traektoriyalarini ishlab chiqish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli resurslar (onlayn platformalar, interaktiv dasturlar, masofaviy o‘qitish modullari) orqali qo‘llab-quvvatlash o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish va ta’lim jarayonini samarali boshqarishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologik yondashuv jamoaviy refleksiya, innovatsion pedagogik amaliyotni rivojlantirish va maktabni “o‘rganuvchi tashkilot”ga aylantirish orqali ta’lim sifatining uzluksiz o‘sishini ta’minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini strategik boshqarish modeli zamonaviy ta'lim tizimining muhim boshqaruv mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu model pedagoglarning individual rivojlanish ehtiyojlarini ta'lim muassasasining strategik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish orqali kasbiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishni ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalar, monitoring, refleksiya, uzluksiz ta'lim va innovatsion boshqaruv yondashuvlari asosida tashkil etilgan strategik boshqaruv modeli nafaqat pedagoglarning professional o‘sishiga, balki ta'lim sifati, ta'lim muassasasining

Foydalanilgan adabiyotla ro‘yxati

1.Haydarova K. (2024). Effective strategies for managing and supporting teacher professional development. Академические исследования в современной науке, 3(36), 93–99.
2.Чернова Ю.К. Квалитативные технологии обучения.Тольятти.1998. С: 65.
3.Макаренко А.С. Педагогическая поэма. «Художественная литература», Ленинградское отделение, Ленинград.: 1977. С: 16.
4.Плаксина И.В., Дрозд К.В. Инновационные педагогические технологии: учеб.-метод. пособие. Изд-во ВлГУ, Владимир.: 2021. С: 100-101.
5. Коменский Я. А. Великая дидактика / Я. А. Коменский; пер. и коммент. Пискунова А. И. — Педагогика, М.: 1982. С: 242.

6. UNESCO. Report of the International Commission on the Development of Education, and comments by the Director-General (UNESCO-17-C-57; UNESCO-90-EX-6). Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. 1972.
7.Baturin S.O., Maktab ta'limidagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar, http://www.sch130.nsc.ru/people/staff/sovet/ Baturin S.O._170308.rtf. Davidov V.V. Teoriya razvivayushego obucheniya. - M.: "Intor",1996. – S. 544.

JADID MA’RIFATPARVARLARINING TA’LIM-TARBIYAGA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Gadoyeva Maqsuda Ibodovna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat
markazi katta o‘qituvchisi
Tel: +998 916486907

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya sohasidagi ilg‘or qarashlari, ularning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyati hamda zamonaviy pedagogik g‘oyalari tahlil qilinadi. Jadidlarning ilm-fan, dunyoviy bilimlar, milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiyani uyg‘unlashtirishga qaratilgan qarashlari yoritiladi. Shuningdek, jadid pedagogikasining bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati va uning zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan mushtarak jihatlari ko‘rsatib beriladi

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, ta’lim-tarbiya, yangi usul maktablari, pedagogika, milliy qadriyatlar, zamonaviy ta’lim, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov.

Аннотация

В данной статье анализируются прогрессивные взгляды джадидских просветителей в области образования и воспитания, их деятельность по организации школ нового метода, а также современные педагогические идеи. Освещаются взгляды джадидов, направленные на гармоничное сочетание науки, светских знаний, национальных ценностей и нравственного воспитания. Также раскрывается значение джадидской педагогики в современной системе образования и показываются её общие черты с современными образовательными концепциями.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, образование и воспитание, школы нового метода, педагогика, национальные ценности, современное образование, Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркори Абдурашидханов.

Abstract

This article analyzes the progressive views of Jadid reformers in the field of education and upbringing, their activities in establishing new-method schools, and their modern pedagogical ideas. The study highlights the Jadids’ approaches aimed at harmonizing science, secular knowledge, national values, and moral education. It also examines the significance of Jadid pedagogy in the contemporary educational system and demonstrates its similarities with modern educational concepts.

Keywords: Jadidism, enlightenment, education and upbringing, new-method schools, pedagogy, national values, modern education, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan muhim hodisalardan biri jadidchilik harakati hisoblanadi. Jadidlar xalqning ilm-ma’rifat darajasini oshirish, zamonaviy bilimlarni egallash va milliy taraqqiyotni ta’minlashni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘ydilar. Ular ta’lim-tarbiyani jamiyat taraqqiyotining bosh omili deb bilib, mavjud maktab tizimini isloh qilishga harakat qildilar.

Jadid ma’rifatparvarlari ta’lim sohasida yangi usullarni joriy etish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, dunyoviy fanlarni o‘qitish hamda yoshlarni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratdilar. Ularning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim nazariy asoslardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ma’rifiy maqsadlari Jadidchilik harakati XIX asrning ikkinchi yarmida musulmon dunyosida yuzaga kelgan ma’rifiy islohotlar ta’sirida shakllandi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni anglatadi. Harakat vakillari eski maktab va madrasalardagi ta’lim usullarini zamon talablariga javob bermaydi deb hisoblab, yangi pedagogik metodlarni joriy etishga intildilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining rivojlanishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma’rifatparvarlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ular xalqni jaholatdan qutqarishning eng samarali yo‘li ta’lim va tarbiya ekanligini ta’kidladilar.

Jadidlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:
-xalqning savodxonligini oshirish;
-zamonaviy fan va texnikani o‘rganish;
-milliy ong va tafakkurni rivojlantirish;
-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
-jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish.
-Jadidlarning ta’limga zamonaviy yondashuvlari
-Yangi usul maktablarining tashkil etilishi

Jadidlarning ta’lim sohasidagi eng muhim islohoti yangi usul maktablarini tashkil etish bo‘ldi. Bu maktablarda “usuli savtiya” deb ataluvchi tovush asosidagi o‘qitish metodi qo‘llanilgan. Mazkur metod o‘quvchilarning qisqa muddat ichida

avod chiqarishiga imkon yaratgan.

Eski maktablarda bolalar ko‘pincha yillar davomida o‘qib ham mustaqil mutolaa qila olmas edi. Yangi usul maktablarida esa o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinib, ta’lim jarayoni samarali tashkil etilgan Bu maktablarda:ona tili;matematika;geografiya;tarix;tabiiyot;adabiyot kabi fanlar o‘qitilgan.

Mazkur yondashuv hozirgi kompetensiyaviy ta’lim tamoyillariga yaqin bo‘lib, o‘quvchining amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim

Jadid pedagoglari ta’lim markazida o‘quvchi shaxsi turishi kerakligini ilgari surganlar. Ular bolalarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga, tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatish zarurligini ta’kidlaganlar. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida inson tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini alohida ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayon bo‘lib, bilimli va axloqli insonni tarbiyalash davlat ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi pedagogikada qo‘llanilayotgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish kabi tamoyillar jadidlar qarashlarida ham o‘z aksini topgan.

Jadidlar ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi

Jadid ma’rifatparvarlari yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlarga ham alohida e’tibor qaratganlar. Ular milliy o‘zlikni anglash, ona tilini rivojlantirish va madaniy merosni asrash tarafdori bo‘lganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’limning asosiy vazifasi yoshlarni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalashdan iborat deb hisoblagan. Uning fikricha, ilm-fan taraqqiyoti va milliy taraqqiyot bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Jadidlar quyidagi axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga intilganlar:
vatanparvarlik;
mehnatsevarlik;
halollik;
mas’uliyat;
insonparvarlik;
bag‘rikenglik.

Mazkur qadriyatlar bugungi kunda ham ta’lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi

Jadidlarning pedagogik merosida axloqiy tarbiya masalalari

Jadidlar nazarida tarbiya faqat bilim berish bilan cheklanmasligi kerak edi. Ular yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotiga alohida ahamiyat berganlar. Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir” degan mashhur fikri tarbiyaning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Uning asarlarida yaxshi xulq, odob, poklik, mehnatsevarlik va ilmga intilish kabi fazilatlar keng targ‘ib etilgan.

Abdurauf Fitrat ham yoshlarni zamonaviy bilimlarni egallash bilan birga, milliy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlagan.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni rivojlantirish kabi vazifalar jadidlar merosi bilan hamohangdir.

Jadid pedagogikasining zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida jadidlarning pedagogik merosidan samarali foydalanilmoqda. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida jadidlarning ko‘plab g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Jumladan:

-Ta’limning amaliy yo‘naltirilganligi;

-O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga e’tibor qaratish;

-Tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

-Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash;

-Zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘qitish;-Ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogik metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlar keng joriy qilinayotgan bo‘lsa-da, ularning mazmun-mohiyatida jadidlar ilgari surgan ma’rifiy g‘oyalar mujassamdir.

Jadid ma’rifatparvarlari Turkiston ta’lim tizimini yangilash, xalqning ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish yo‘lida ulkan xizmatlar ko‘rsatganlar. Ularning yangi usul maktablarini tashkil etish, dunyoviy fanlarni o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish hamda axloqiy tarbiyaga e’tibor qaratish borasidagi g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Jadidlarning pedagogik merosi zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash va milliy taraqqiyotni ta’minlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois ularning ilmiy-ma’rifiy qarashlarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyaga yondashuvlari shunchaki o‘z

davrining ehtiyoji emas, balki kelajakka qaratilgan ulug‘vor strategiya edi. Ular ta’limni shaklan va mazmunan yangilash orqali inson kapitalini rivojlantirishni, millat g‘ururini uyg‘otishni va pirovodida mustaqil davlat qurishni maqsad qilgan edilar.

Bugungi Yangi O‘zbekiston yoshlari jadid ajdodlarimizning ma’rifiy merosini chuqur o‘rganishlari, ularning Vatanga bo‘lgan sadoqatidan o‘rnak olishlari lozim. Jadidlar asos solgan zamonaviy ta’lim va milliy tarbiya tamoyillari bugun ham biz uchun eng to‘g‘ri va yagona yo‘l bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
3.Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
4.Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
5.Hasanboyev J., To‘raqulov X. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
6.Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.
7.Alimuhamedov A. Jadidchilik harakati va ta’lim-tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2015.
8.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Jadidchilik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
9.Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: ‘qituvchi,
10.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

TA’LIMDA AJDODLARIMIZ VA AVLODLARIMIZNING VORISLIGI

Tosheva Mohigul Ismoilovna
Buxoro shahar 1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimida ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini yosh avlodga yetkazish, avlodlar vorisligini ta’minlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari hamda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari yoritilgan. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va tarixiy xotirani mustahkamlashning ahamiyati ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, vorislik, ajdodlar merosi, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, innovatsion ta’lim, xorij tajribasi.*

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosidan samarali foydalanish, yoshlar ongida tarixiy xotira va milliy o‘zlikni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Buyuk allomalarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiylarning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z qimmatini saqlab qolmoqda. Ularning asarlari va hayot yo‘li yoshlarni ilm-fanga, ezgulikka va vatanparvarlikka undovchi muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi. Shu sababli ta’limda ajdodlar va avlodlar vorisligini ta’minlash dolzarb pedagogik masalalardan biridir.

Ajdodlar merosining ta’limdagi ahamiyati. Ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy va ma’naviy meros yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Ularning ilm-fan, madaniyat va ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasi o‘quvchilarda ilmga qiziqish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ta’lim jarayonida buyuk allomalarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish o‘quvchilarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantiradi. Shu bilan birga, yoshlarning tarixiy xotirasi mustahkamlanib, ular o‘z milliy ildizlariga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Mavjud muammolar. Bugungi kunda ta’limda avlodlar vorisligini ta’minlash yo‘lida ayrim muammolar mavjud.

Birinchidan, ayrim yoshlarning tarixiy meros va milliy qadriyatlarga qiziqishi sustlashib borayotganligiga axborot oqimining keskin ortishi va globallashuv ta'sirining yuqori ekanligi.

Ikkinchidan, ajdodlar merosini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar yetarli darajada qo'llanilmayotganligi hamda ko'plab hollarda mavzularning nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolayotganligi.

Uchinchidan, tarixiy va ma'naviy merosga oid raqamli ta'lim resurslari hamda multimedia vositalarining yetishmasligi natijasida ta'lim samaradorligining pasayishi kuzatilmoqda.

To'rtinchidan, oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik barcha hududlarda bir xil darajada va yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi, yaxlit tizimning mavjud emasligi.

Muammolar yechimlari. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ajdodlar merosiga oid elektron platformalar va virtual kutubxonalarni rivojlantirish;
- dars jarayonlarida interaktiv metodlar va loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalarini qo'llash;
- tarixiy obidalar, muzeylar va ziyoratgohlarga ilmiy-amaliy ekskursiyalar tashkil etish;
- maktab, oila va mahalla hamkorligini kuchaytirish;
- yoshlar o'rtasida ilmiy tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va konferensiyalarni muntazam o'tkazish;
- sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tarixiy merosni targ'ib qilish.

Xorij tajribasi. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida milliy meros va tarixiy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishga alohida e'tibor qaratadi.

Yaponiyada maktab ta'limining muhim qismi sifatida milliy madaniyat va axloqiy tarbiya o'qitiladi. O'quvchilar tarixiy obidalar va muzeylarga muntazam tashrif buyurib, amaliy bilimlarga ega bo'ladilar.

Janubiy Koreyada tarixiy merosni o'rganishda raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi. Virtual muzeylar va interaktiv platformalar yoshlarning qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Finlyandiyada madaniy merosni o'rganish loyiha asosidagi ta'lim bilan bog'langan bo'lib, o'quvchilar tarixiy mavzularda mustaqil tadqiqotlar olib boradilar.

Singapurda esa "National Education" dasturi orqali yoshlarning fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Mazkur tajribalar O'zbekiston ta'lim tizimida ham ajdodlar merosini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Ta'limda ajdodlarimiz va avlodlarimiz vorisligini ta'minlash yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Buyuk allomalarimizning ilmiy va ma'naviy merosi yosh avlodning ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavjud muammolarni bartaraf etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali avlodlar vorisligini yanada mustahkamlash mumkin. Bu esa kelajakda yuksak ma'naviyatli, bilimli va raqobatbardosh yoshlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
5. Ibn Sino A.A. Donishnoma. – Toshkent: Sharq, 2004.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
7. UNESCO. Education for Sustainable Development. Paris, 2022.
8. OECD. Education Policy Outlook. Paris, 2023.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYA HAQIDAGI

Alimova Shaxlo Bafaevna
Buxoro viloyti Pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari hamda ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Alisher Navoiylarning pedagogik merosi o‘rganilib, ilm-ma’rifat, komil inson tarbiyasi, axloqiy kamolot, ilmiy tafakkur va ma’naviy qadriyatlar haqidagi g‘oyalari yoritilgan. Shuningdek, allomalar tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlarning bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, uzluksiz ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy tarbiya jarayonlari bilan uyg‘un jihatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Sharq mutafakkirlari merosi yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularda mustaqil fikrlash, ma’naviy immunitet va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim metodologik manba ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Sharq mutafakkirlari, ta’lim-tarbiya, pedagogik meros, komil inson, ma’naviy barkamollik, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ma’naviy qadriyatlar.

Neyrotarmoq modelining xavf guruhidagi talabalarni (C-Profil – kognitiv qiyinchilikka ega talabalar) aniqlash aniqligi 95% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich o‘qituvchiga darsning dastlabki ikki haftasidayoq qaysi talabalar bilan maxsus korreksion ishlar olib borish zarurligini aniq ko‘rsatib beradi.

Semestr yakunida eksperimental va nazorat guruhlarining akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qiyoslandi. Shuningdek, talabalarning darslarni keyinga qoldirish (akademik prokrastinatsiya) darajasi ham maxsus korrelyatsion tahlil qilindi.

Nazorat guruhi ($n_2 = 50$): O‘rtacha ball – 70.6; Akademik prokrastinatsiya ko‘rsatkichi – 44%.

Eksperimental guruh ($n_1 = 50$): O‘rtacha ball – 84.8; Akademik prokrastinatsiya ko‘rsatkichi – 12%.

Guruhlar o‘rtasidagi farqning tasodifiy emasligini isbotlash uchun olingan ma’lumotlar Student t-kriteriysi yordamida tekshirildi. Hisoblangan empirik qiymat $t_{emp} = 7.42$ ga teng bo‘ldi. Erkinlik darajasi f = 98 va ishonchlilik darajasi α = 0.01 bo‘lganda jadval qiymati $t_{jad} = 2.63$ ni tashkil etadi.

$t_{emp} > t_{jad}$ (7.42 > 2.63) ekanligi ishonchlilik darajasi 99% dan yuqori bo‘lganda neyrotarmoq asosida qurilgan individual trayektoriyaning ta’lim sifatiga ta’siri yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Talabalarda kognitiv yuklamaning kamayishi hisobiga o‘quv motivatsiyasi oshgan va darslarni tashlab ketish, topshiriqlarni kechiktirish (prokrastinatsiya) ko‘rsatkichlari 3,6 barobarga kamaygan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi:

1. Neyrotarmoq texnologiyalari (xususan, ko‘pqatlamli perseptron modeli) talabalarning raqamli o‘quv izlari asosida ularning yashirin kognitiv qiyinchiliklarini 95% gacha aniqlikda diagnostika qilish imkonini beradi.

2. Sun’iy intellekt asosida loyihalashtirilgan individual ta’lim trayektoriyasi an’anaviy ta’limdagi „hamma uchun bir xil kontent“ tamoyilidan voz kechib, har bir talabaning individual kognitiv sur’ati va imkoniyatlariga moslashuvchi (adaptiv) ta’lim muhitini yaratadi.
3. Empirik natijalar neyrotarmoq ko‘magida o‘qitilgan talabalarning akademik o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqorilashini (t = 7.42) va kognitiv charchoq tufayli kelib chiquvchi prokrastinatsiya ko‘rsatkichi 12% gacha pasayishini ko‘rsatdi.
4. Oliy ta’lim tizimida neyrotarmoq modellarini keng joriy etish uchun universitetlarning LMS platformalarini sun’iy intellekt API modullari bilan integratsiya qilish hamda pedagoglarning „AI-didaktika“sohasidagi malakalarini oshirish strategik zaruriyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi „Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ-4996-son Qarori.
2. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. – London: UCL IOE Press, 2018. – 234 p.
3. Romero C., Ventura S. Educational Data Mining: A Review of the State of the Art. // IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics. – 2020. – Vol. 40, No. 6. – pp. 601-618.
4. Woolf B. P. Building Intelligent Interactive Tutors: Socially Centered Educational Technology. – Morgan Kaufmann, 2010. – 480 p.
5. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyotda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash va ularning pedagogik jihatlari. – Toshkent: Akademiya, 2023. – 192 b.
6. Blinov V.I., Sergeev I.S. Artificial Intelligence in Digital Didactics. // Pedagogy and Psychology of Education. – 2022. – No. 2. – pp. 45-56.
7. Tursunov A.E. Oliy ta’limda neyrotarmoqlar yordamida talabalar bilimini tahlil qilish modelini yaratish. // Kognitiv pedagogika va raqamli ta’lim jurnali. – Toshkent, 2026. – №2. – B. 12-20.

DARS MASHQ ‘ULOTLARIDA METOD VA VOSITASINI oqilina TANLASH

Farida Hazratova
O’quv faoliyati bo ‘limi metodisti

Annotatsiya: Maqolada dars shakli, turi, va vositasini tanlash va samarali qo‘llashning pedagogik jihatlari tavsiflangan va uni oqilona tanlashning afzalliklari zamonaviy o‘qituvchi faoliyatidagi roli ko‘rsatilgan
Kalit so‘zlar: metod, dars turi, oqilona tanlash, vosita
Abstract: The article describes the pedagogical aspects of the choice and effective use of the form, type, and tool of the lesson, and the advantages of its rational choice are shown in the role of the modern teacher.
Key words: method, type of lesson, rational choice, tool

Aslida metodni o‘qituvchiga darsni qanday tashkil etish bo‘yicha beriladigan tavsiyalar majmuasi deb tushunish mumkin. Metodlarning tanlanishi asosida darsning shakli aniqlanadi. Hozirgi kunda metodik adabiyotlarda ko‘plab o‘qitish metodlari ishlab chiqilgan bo‘lib ular o‘qituvchilarning amaliy faoliyati uchun tavsiya etilayapti.

Har bir o‘qituvchi metodlar xilma-xiligi mavjud ekanligidan ozmi ko‘pmi ma'lumotga ega bo‘lsada. lekin ayni shu darsda qaysi metodlarni tadbiq qilish kerakligi to‘g‘risida unga bevosita yo‘riqnoma berilmagan. Har bir fan uchun, har bir dars uchun standartlashtirilgan metodlar majmuasini berish amaliy jihatdan mumkin emas. Metodni o‘qituvchi o‘zi tanlaydi, bu uchun metodlarning umumiy turlarini bilish va ulardan foydalana bilish maxoratiga ega bo‘lishi kerak(metodlar shkalasi har bir o‘qituvchining yon daftarida yozalgan bo‘lishi kerak).

Ayrim o‘qituvchilarning darslarini kuzatganda darsni qaysi metodda tashkil qilayotganligini aniqlashga qiynalib qolamiz, chunki o‘qituvchi goho u usulni, goho bu usulni qo‘llab bolalarda to‘g‘ri fikr oqimining bir maromda kechishiga xalaqit beradilar, natijada o‘quvchilar mavzu mazmuniga befarq, loqayd bo‘lib qoladilar. Metodni tanlashni nimadan boshlash kerak? Aynan shu darsga qaysi metodlarni qo‘llasa darsning maqsadi hal bo‘ladi? Bu savolarga o‘qituvchilar turlicha javob beradilar. Kimdir mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda tanlash lozim desa, boshqalari esa, dars ko‘rinishi va shaklidan kelib chiqqan holda tanlashni ma'qul ko‘radilar.

Metod darsning shakli, turiga qarab tanlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: Dars amaliy mashg‘ulot darsi yoki, yozma ish olish(sinov) darsi bo‘lishi mumkin, bular darsning turi bo‘lib, shakl jihatdan jamoa faoliyati yoki indvidual

faoliyat tartibida shakllantiriladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, darsda qo‘llaniladigan metodlarini tanlash jarayoni quyidagi tartibda amalga oshadi:

- Dastlab darsning turi aniqlanadi. Bular yangi bilimlar beriladigan dars, bilimlarni takomillashtirish(masala va mashklar ishlash, takrorlash) darsi, bilimlarni umumlashtiruvchi dars, amaliy mashg‘ulotlar; nazorat darslari va xokazo.
- Keyin dars metodlarining shu dars turiga mosligi tanlanadi.

Dars turlariga muvofiq ayrim metodlarni tanlash namunasini quyidagi jadvalga keltiramiz:

Metodlar	Darslarning ko‘rinishlari				
	Yangi bilimlar beriladigan dars	Bilimlarni takomillashtirish (mashk msalalar yechish, takrorlash) darsi	Umumlash-tiruvchi dars	Amaliy mashgulotlar darsi	Nazorat darsi
Ma'ruza	+				
Lobarotoriya Metodi				+	+
Aqliy hujum	+		+		
Ish o‘yini		+	+		
Pinbord usuli		+	+		
Muammoli topshiriqli metod	+	+	+		
Indvidual metod			+	+	+
Loyixalash metod		+	+	+	

Har bir metodni qo‘llashda o‘qituvchi quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Ma'ruza metodida: o‘quv materialni o‘z fikri orqali erkin ishonchli, mantiqiy, savodli, hissiyot bilan bayon eta olish, asosiy ma'noni ajrata olish va ko‘rsata olish mantiqiy izchilligi asosida bayon qilish, zarur hollarda yozdirish, nutq va pedagogik takt texnikasini mukammal bilish, o‘quvchilarni pedagogik usullar bilan faollashtirish.

- Laboratoriya metodida: tajribalar o‘tkazish samarali texnikasini egallash, eksprement va tadqiqotlar bilan shug‘ullanish, zamonaviy laboratoriya asboblari bilan ishlash va virtual kompyuterli labora toriyalardan foydalanish malakasiga ega bo‘lish. Laboratoriya natijalarini hayot bilan bog‘lay olish.
- Aqliy hujum metodida: muammoni to‘g‘ri qo‘ya bilish, g‘oyalarni to‘g‘ri ifodalash, fikrlarni asoslay bilish, darsining ssenariyasini ishlab chiqish va uni boshqarib borish.
- Didaktik o‘yinlar metodida: uyining rejasini tuza olish, vaziyat yuzaga keltirish, uyinda ishtirok etuvchilarni tanlash, ishtirokchilarni o‘yin maqsadiga yo‘llash va natijaga erisha bilish. O‘quvchilarning umumlashtirish va xulosalar chiqarishga o‘rgatish, shuningdek savol berish texnikasiga o‘rgatish. Hayotda qo‘llanish jihatlarini ocha olish.
- Pinbord usuli metodida: topshiriqni ifodalay olish, javoblar va savollar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni belgilash va xulosalar chiqara olish. savol – javobli ta'limni tashkil etish.
- Muammoli topshiriqlar metodida: muammoli topshiriqlarni tayyorlay bilish, muammo doirasini belgilash. turli tipdagi muammoli mashqlarni ishlashni aniqlab tashkil etish va ularni hal qilishga o‘quvchilar faoliyatini yunaltira bilish, yakunlash va xulosalay olish.
- Indvidual dars metodida: maxsus tayyorgarlik ko‘rish va individual psixologik xususiyatlarga mos kognitiv sifatlarni rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya texnikasini qo‘llay olish.
- Loyihalash metodida: loyihaning mavzusini va maqsadlarini to‘g‘ri tanlay olish, tasniflash va amal qilish doirasini ишlab chiqish. uning ishtirokchilari bilan ishlashda ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlay olish va o‘quvchilar faoliyatini unga yunaltira bilish.

Biz yuqorida o‘qituvchi uchun namuna sifatida keltirilgan ayrim metodlarni qo‘llashda nimalarga etiborni qaratishi kerakligini ko‘rsatdik.

Umuman olganda metodlarni oqilona tanlash ularni samarali qo‘llash o‘qituvchining mohirligiga bog‘liq. Ayrim o‘qituvchilar zarur metodni tanlay olmaydi, buning sababi shundaki, o‘qituvchi o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini bilmaydi, undan foydalana olmaydi. Masalan, o‘qituvchi nutqiy qobiliyati rivojlangan bo‘lsa, bunday o‘qituvchi uchun ma'ruza, suhbat, savol-javob darslari maqsadga muvofiq keladi.

Ayrim o‘qituvchilar darsini muammo qo‘yish bilan boshlaydi, bu ham o‘ziga xos usul bo‘lib o‘qituvchining indvidualligiga bog‘liq. Agar o‘qituvchi o‘z ustida ishlasa va nazariyani o‘qisa (pedagogik nazariya), metodlarni oqilona tanlashda o‘z

imkoniyatini, mavzu mazmun va o‘quvchilar tayyorgarlik darajasini bir-biriga bog‘lay olsa, to‘g‘ri metodlarni tanlay oladi va ishlata biladi.

Har qanday ta'limni amalga oshirish biror–bir vositasiz bo‘lmaydi. So‘zlash, tushuntirish, ko‘rsatish, shittirish, jalb qilish. harakat qildirish va hakozolar bilimni o‘zlashtirish vositalari hisoblanadi. Odatda biz ko‘rgazma deganda; qog‘ozga chizilgan, yasalgan biror bir tasvir taqdimot yoki namunadan foydalanishni tushunamiz. Agar biz ko‘rsatayotgan narsalarimiz harakat qilsa, u texnika vositasiga aylanadi. Eng oddiy harakat vositasi bu o‘qituvchining doskaga bo‘r bilan chizayotgan holati. Ushbu harakat jamlanmasini ham texnika vositasi deb qarash mumkin. Aytish joizki, har qanday yangi tushunchani, bilimni idrok etish, uni tasavvur qilish uchun uning tabiiy nusxasi bo‘lishi kerak. Agar shunday nusxa bo‘lmasa uning modeli bo‘lishi zarur. Ko‘rgazma o‘qituvchi uchun yillar davomida xizmat qiladigan eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Ko‘rgazmalar bevosita foydalanadigan, namoyish etiladigan va tajribalarda qo‘llaniladiganlarga bo‘linadi. Bevosita foydalanadigan ko‘rgazmalarga quyidagilar kiradi; didaktik ta'minotni boyituvchilar bularga topshiriqlar, savollar yozilgan kartotekalar, kichik hajmdagi rangli rasmlar, ko‘rgazmali slayd taqdimotlari, mulyajlar va boshqalar shular jumlasidandir. Namoyish etiladigan ko‘rgazma vositalariga kinolavhalar, videolavhalar, slayd taqdimotlar, rang tasvir chizilgan katta hajmdagi suratlar kiradi. Tajribalarda ishlatiladigan asboblar, qo‘llaniladigan ko‘rgazmalar hisoblanadi. Ta'lim vositalarini quyidagicha turlash mumkin:

1. Noverbal vositalar: imo-ishora, qo‘l, gavda harakatlari orqali biror ma'no-mazmunni ifodalash yoki ta'kidlash.
2. Vizual (ko‘rgazmali) ta'lim jarayonida o‘quvchilar ko‘z bilan ko‘rishlari uchun mo‘ljallangan barcha vositalar.
3. Audivizual vositalar: bir vaqtning o‘zida eshitish va ko‘rishga xizmat qiluvchi vositalar hisoblanadi.
4. Tabiiy vositalar: ta'lim jarayonida o‘rganish ko‘zda tutilgan barcha tibiiy vositalar (odam, jonivorlar, o‘simliklar, asbob-uskunalar, mashina mexanizimlar va boshqalar).

Ta'lim sifat va samaradorligining oshishida ta'lim vositalaridan mohirlik bilan foydalana bilish o‘qituvchining ijodkorligiga uning izlanuvchanligiga har tomonlama bog‘lik bo‘ladi.

Ayrim o‘qituvchilar ko‘rgazma vaositalardan o‘z o‘rnida foydalana olmaydi, ularning darslarida ko‘rgazmalar shunchalik ko‘payib ketadiki natijada o‘qituvchi ko‘rgazmaning qaysi birini ishlatishni bilmay to‘g‘ri kelganini tadbiq qilaveradi. Bunday hollarda izchillik, mantiqiylik o‘z-o‘zidan so‘nadi, o‘quvchi asosiy fikrdan

chalg‘iydi va jarayoning bundan keyingi borishiga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Ta'lim vositalaridan oqilona foydalana olishlik, dars natijaviyligini oshiradi va o‘zlashtirishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O.Xasanboeva va boshq. Pedagogika tarixi.-T.: “G‘.G‘ulom, 2004.-312 b.
2. B.Ziyomuhammadov. Pedagogika.-T.:“Turon-Iqbol”. 2006.-112 b.
www.edu.uz
www.ziyonet.uz
.

GENERATIV SUN’IY INTELLEKT (CHATGPT, CLAUDE) SHAROITIDA AN’ANAVIY UY VAZIFALARI INQIROZI VA YANGI DIDAKTIK YECHIMLAR

D.Farmonov
Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi,
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi
o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada LLM (Large Language Models) – yirik til modellariga asoslangan generativ sun’iy intellekt (ChatGPT, Claude, Gemini) tizimlarining shiddatli rivojlanishi natijasida zamonaviy didaktikada yuzaga kelgan an’anaviy uy vazifalari inqirozi tadqiq etilgan. Talabalarning mustaqil ishlarini loyihalashda an’anaviy referat, esse va standart test topshiriqlarining funksional samarasizligi hamda ularni neyrotarmoqlar yordamida generatsiya qilish (ko‘chirmachilik) ko‘lamlari tahlil qilingan. Maqolada ushbu inqirozni bartaraf etishga qaratilgan yangi didaktik yechimlar – „Flipped Classroom“ (To‘ntarilgan sinf), muammoli va loyihaviy o‘qitish, kognitiv tahlil hamda AI-gibrid topshiriqlarni loyihalash tamoyillari ilmiy jihatdan asoslangan. Pedagogik eksperiment natijalari asosida yangi didaktik baholash modellarining talabalar kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligi empirik baholangan.

Kalit so‘zlar: generativ sun’iy intellekt, ChatGPT, Claude, uy vazifalari inqirozi, raqamli didaktika, oliy ta’lim, tanqidiy fikrlash, To‘ntarilgan sinf, akademik halollik, kognitiv transformatsiya.

Abstract

This article explores the crisis of traditional homework assignments in modern didactics resulting from the rapid development of generative artificial intelligence systems (ChatGPT, Claude, Gemini) based on LLMs (Large Language Models). The functional inefficiency of traditional essays, reports, and standard test assignments in designing students' independent work, along with the scale of generating (plagiarizing) them using neural networks, is analyzed. The study scientifically substantiates new didactic solutions aimed at overcoming this crisis, including the "Flipped Classroom" model, problem-based and project-based learning, cognitive analysis, and the design of AI-hybrid tasks. Based on pedagogical experiment results, the effectiveness of new didactic evaluation models in developing students' creative and critical thinking has been empirically evaluated.

Keywords: generative artificial intelligence, ChatGPT, Claude, homework crisis, digital didactics, higher education, critical thinking, Flipped Classroom, academic integrity, cognitive transformation.

KIRISH

Raqamli didaktika va ta’lim texnologiyalarining evolyutsion taraqqiyoti 2022-yil oxiriga kelib, generativ sun’iy intellekt (Generative AI) tizimlarining, xususan, OpenAI kompaniyasining ChatGPT hamda Anthropic kompaniyasining Claude modellarining ommalashishi bilan keskin inqilobiy burilish davriga kirdi. Yirik til modellariga (LLM) asoslangan ushbu dasturlar inson tilini mukammal tushunish, matnlarni tahlil qilish, dasturlash kodlarini yozish, ilmiy insholar (esse) va murakkab masalalarni soniyalar ichida yechish imkoniyatiga ega.

Ushbu texnologik sakrash oliy ta’lim tizimida asrlar davomida shakllangan fundamental didaktik institutlardan biri – an’anaviy uy vazifalari (mustaqil ishlar) tizimining inqirozini keltirib chiqardi. Bugungi kunda talaba o‘quv dasturi doirasida berilgan har qanday referat, esse, hisobot yoki dasturiy kodni o‘z kognitiv mehnatisiz, generativ intellekt yordamida osongina tayyorlab, an’anaviy plagiatni tekshirish (Antiplagiat) tizimlaridan ham muammosiz o‘tkazib olmoqda. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va intellektual izlanish ko‘nikmalarining pasayishiga (kognitiv passivlikka) sabab bo‘lmoqda.

Mazkur muammoni faqat taqiqlash yoki nazoratni kuchaytirish yo‘li bilan hal etib bo‘lmaydi. Raqamli didaktika fani generativ sun’iy intellekt sharoitida uy vazifalarining mazmuni, shakli va baholash mezonlarini tubdan qayta loyihalash bo‘yicha yangi pedagogik yondashuvlarni taqdim etishi shart. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ham aynan generativ AI keltirib chiqargan didaktik inqirozni tizimli tahlil qilish va oliy ta’lim uchun yangi muqobil topshiriqlar modellarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Generativ sun’iy intellektning ta’lim paradigmasiga ta’siri xalqaro ilmiy doiralarda eng ko‘p muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. S. Khan (Xon akademiyasi asoschisi) o‘zining so‘nggi ishlarida generativ sun’iy intellektni ta’limni yo‘q qiluvchi kuch emas, balki har bir talabaning individual intellektual tyutori (AI-tutor) sifatida qayta shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Didaktik topshiriqlar inqirozi muammosini tadqiq etgan D. Blikstein va uning hammualliflari an’anaviy „matn yozish va eslab qolishga“ asoslangan uy vazifalari tizimi o‘z umrini o‘tab bo‘lganini, endilikda baholash jarayoni natijaga emas, balki

talabaning fikrlash jarayoniga (Process-oriented assessment) yo‘naltirilishi lozimligini ko‘rsatib o‘tadilar.

Respublikamiz olimlaridan B.X. Xodjayev, A.A. Abduqodirov va raqamli pedagogika tadqiqotchilari oliy ta’limda mustaqil ishlarni tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini o‘rganganlar. Biroq, ChatGPT va Claude kabi platformalar ommalashgan hozirki real vaqt (2026-yil) voqeorligida, an’anaviy topshiriqlar inqirozini bartaraf etishga qaratilgan konkret didaktik modellar va amaliy metodikalar tizimli ravishda ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida an’anaviy va yangi didaktik yechimlar samaradorligini qiyoslash maqsadida kompleks metodologiyadan foydalanildi:

1. Didaktik dekonstruksiya: An’anaviy uy vazifalari turlarini (esse, referat, test) ularning AI tomonidan generatsiya qilinish xavfi darajasi bo‘yicha tasniflash.
2. Pedagogik loyihalash: Generativ AI yordamida ham talabaning tanqidiy fikrlashini faollashtiruvchi „AI-gibrid topshiriqlar“ modelini yaratish.
3. Pedagogik eksperiment: O‘zbekiston Milliy universiteti talabalari (N = 140 nafar bakalavr) o‘rtasida tajriba o‘tkazildi. Eksperimental guruhda ($n_1 = 70$) an’anaviy esse va referatlar butunlay bekor qilinib, „To‘ntarilgan sinf“ (Flipped Classroom) va AI-tanqidiy tahlil topshiriqlari joriy etildi. Nazorat guruhida ($n_2 = 70$) esa an’anaviy uy vazifalari shakli saqlab qolindi.
4. Kognitiv tahlil: Talabalarning topshiriqni bajarishdagi shaxsiy hissasi va ijodkorlik darajasi Blum taksonomiyasining yuqori darajalari (Tahlil, Sintez, Baholash) bo‘yicha test qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqotning birinchi bosqichida an’anaviy didaktik topshiriqlarning generativ sun’iy intellekt (ChatGPT-4o, Claude 3.5 Sonnet) qarshisidagi turg‘unligi tekshirildi va reyting shakliga keltirildi:

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatadiki, axborotni shunchaki jamlash, qayta ishlash yoki umumiy xarakterdagi matn yozishga asoslangan har qanday an’anaviy topshiriq raqamli didaktika sharoitida o‘z funksional qiymatini butunlay yo‘qotgan.

Inqirozdan chiqish uchun tadqiqot jarayonida uchta muqobil didaktik model ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi:

1. „Flipped Classroom“ (To‘ntarilgan sinf) va Sinfrashtirilgan nazorat: Talaba nazariy materialni (matn, video) uyda (LMS orqali) o‘rganadi. Uy vazifasi sifatida hech qanday matn yozmaydi. Uy vazifasining natijasi auditoriyada – jonli munozara, debat, loyihani himoya qilish va muammoli vaziyatni individual tushuntirib berish shaklida (og‘zaki va guruhli) tekshiriladi.

2. AI-Gibrid (Eshittirilgan Prompt) topshiriqlari: Talabaga ChatGPT/Claude platformalaridan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha, majburiy qilib belgilanadi. Masalan, topshiriq: *„Berilgan mavzu bo'yicha ChatGPT tayyorlagan esseyni generatsiya qiling. So'ngra, ushbu matndagi 3 ta mantiqiy xatolik, subyektiv yondashuv va O'zbekiston milliy kontekstiga mos kelmaydigan jihatlarni aniqlab, unga tanqidiy raddiya yozing".*
3. Shaxsiy tajribaga yo'naltirilgan (Context-Bound) loyihalar: Topshiriq mazmuni global internet ma'lumotlariga emas, balki talabaning bevosita o'zi yashayotgan hudud, u o'qiydigan universitet yoki u amaliyot o'tayotgan aniq korxonaning real muammosiga (lokal kontekstga) bog'lanadi. Bunday ma'lumotlar AI bazasida bo'lmaganligi sababli, neyrotarmoq uni tayyor shaklda generatsiya qila olmaydi.

Yangi didaktik yechimlarning talabalar tanqidiy fikrlash darajasiga ta'sirini baholash uchun semestr boshida va yakunida maxsus kognitiv testlar o'tkazildi. Baholash mezonlari sifatida Blum taksonomiyasining yuqori bosqichlari (Tahlil va Baholash kompetensiyalari) olindi (100 ballik shkala bo'yicha).

Eksperiment natijalarining qiyosiy tahlili:

Nazorat guruhi (n_2 = 70, an'anaviy vazifalar): Semestr boshida o'rtacha ko'rsatkich 62.4 ball, semestr yakunida esa 64.1 ball (Kognitiv o'sish – 1.7 ball, statistik jihatdan ahamiyatsiz). Talabalarning 78% qismi topshiriqlarni sun'iy intellekt yordamida shunchaki nusxalaganini tan olgan.

Eksperimental guruh (n_1 = 70, yangi didaktik yechimlar): Semestr boshida o'rtacha ko'rsatkich 61.8 ball, semestr yakunida esa 79.6 ball (Kognitiv o'sish – 17.8 ball).

Guruhlararo farqning statistik qiymatini aniqlash uchun Pearsonning muvofiqlik kriteriysi (χ^2) qo'llanildi. Hisoblangan empirik qiymat \(\chi^2_{emp} = 14.36\) ga teng bo'lib, u kritik qiymatdan (\(\chi^2_{krit} = 5.99\), d.f.=2, α=0.05) sezilarli darajada yuqori chiqdi.

Bu esa generativ sun'iy intellekt imkoniyatlarini taqiqlash emas, balki gibrid va tanqidiy topshiriqlar orqali ta'lim jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish (Critical thinking) kompetensiyalarini statistik jihatdan sezilarli darajada oshirishini isbotlaydi.

XULOSA

Generativ sun'iy intellekt sharoitida uy vazifalari inqirozi va uning yangi didaktik yechimlarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

hatGPT va Claude kabi tizimlar an'anaviy „axborotni qayta ishlash va matn shakliga keltirishga" asoslangan uy vazifalari (referat, esse) modelini to'liq

i

2. Ta'lim tizimida sun'iy intellektni taqiqlash metodologik jihatdan xato va samarasiz yo'ldir. Zamonaviy raqamli didaktika o'quv jarayonini AI bilan hamkorlikda ishlash (AI-human collaboration) tamoyillari asosida qayta qurishi lozim.
3. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, „To'ntarilgan sinf" (Flipped Classroom) modeli hamda AIdan olingan matnlarni tanqidiy tahlil qilishga yo'naltirilgan gibrid topshiriqlar talabalarning kognitiv kompetensiyalarini 25% dan ziyodga oshiradi va akademik halollik muammosini tabiiy ravishda hal qiladi.
4. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar uchun topshiriqlarni loyihalashda „Prompt-engineering va raqamli didaktika" kurslarini tashkil etish, baholash tizimini natijaga emas, balki jarayonga yo'naltirilgan (Process-oriented) modelga o'tkazish strategik zaruriyatdir.

a

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta'lim jarayonlariga innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid metodik ko'rsatmalari.
2. Khan S. Brave New Words: How AI Will Revolutionize Education and Why It's Your Turn. – New York: Viking, 2024. – 288 p.
3. Blikstein D., Schneider B. Beyond the Essay: New Assessment Models for the Age of Generative AI. // Journal of Educational Computing Research. – 2025. – Vol. 62, No. 4. – pp. 445-462.
4. Xodjayev B.X. Oliy ta'limda talabalarning mustaqil fikrlashini shakllantirish texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 188 b.
5. Romero C., Ventura S. Generative AI in Higher Education: Academic Integrity and New Didactic Principles. // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2024. – Vol. 6. – pp. 100-115.
6. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va didaktik tizimlar transformatsiyasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2021. – 210 b.
7. Tursunov A.E. Generativ sun'iy intellekt sharoitida talabalarning tanqidiy fikrlashini baholash metodikasi. // Kognitiv pedagogika va raqamli ta'lim jurnali. – Toshkent, 2026. – №3. – B. 5-14.

XORIJ TILINI O‘RGANISHDA NEYROLINGVISTIK DASTURLASH IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Ubaydulla Axrorovich Kosimov
Buxoro viloyati PMM “Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri ps.f.n., dotsent

Annotasiya: Maqolada ingliz tilini o‘rganishda neyrolingvistik dasturlash orqali maqsad-niyatni ijobiy ko‘rinish qolipiga solish orqali ong ostlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyati tahlil etilib tavsiyalar berilgan
Kalit so ‘zlar:neyrolingvistik dasturlash, maqsadga-niyatga yetishish

Neyromingvistik dasturlash- bu shunday bilim sohasiki, u sub'ektiv tajriba, malaka, ko‘nikma tarkibi, uning tuzilmasini tadqiq etish orqali, uni tavsiflash tili va ro‘yobga chiqish mexanizmlarini o‘rganadi. Neyromingvistik dasturlashning birinchi nomi “Metabilimlar”-bo‘lib u sub'ektiv (omadli, muvafaiyatli)tajribani modellashtirish asosida uni boshqalar faoliyatiga ko‘chirish bilan singdirishni nazarda tutadi.

Neyrolingvistik dasturlash nomining “Neyro” qismida sub'ektiv tajribani tavsiflashda miya neyrologik jarayonlarining axborotlarni qabul qilish, saqlash qayta ishlash va uzatish uchun javobgar jarayonlari o‘z ifodasini topadi.

“Lingvistik” qismi esa tilning muhim belgisi sifatida tafakkur qilish va xulqning ro‘yobga chiqish xususiyatlari mexanizmlari va kommunikatsiyani tashkil qilish jarayonlarini tavsiflashni o‘z ichiga oladi. “Dasturlash” esa fikrlash va xulqni namoyon qilishning tizimliligiga ishora qilib, ularni ma'lum tartibda namoyon bo‘lishini bildiradi. Chunki “programma-dastur” grek tilida ma'lum bir aniq maqsad natijalariga erishishda aniq ketma-ketlik harakat qadamlari degan ma'noni bildiradi.

Shunday qilib, neyromingvistik dasturlash hayotga, ma'lum bir sub'ektiv ijobiy muvoffaqiyatli, omadli maqsadga tayangan tajribaga ta'luqli tizimli jarayonlardir.

Bu o‘z navbatida inson mukammalligining neyrolingvistik modelini tuzish va uni boshqalarga ko‘chirish orqali, uni sub'ektiv tajribasini takomillashtirish bilan, uning maqsadlariga samarali va oqilona yetishish uchun hayotini omadli muvaffaqiyatli qilishdan iborat, psixotexnikalar, texnologiyalardir.

Aytish joizki, yuqorida ta'kidlanganidek, bu psixotexnika va psixotexnologiyalarni samarali qo‘llanilishi orqali, insonning har qanday psixik,

psixologik holatlarini o‘zgartirish, uni muvofiq ravishda sozlash, yangi ijtimoiy-psixologik xislatlarni shakllantirish imkoniyatlariga erishiladi.

Neyrolingvistik dasturlash amaliy psixologiyaning eng zamonaviy samarali ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, inson psixikasi zahiralaridan mukammal foydalanish imkoniyatini ochadi. Bu o‘z navbatida inson psixologik faoliyatining deyarli barcha jabhalarini sozlash, o‘zgartirish, dasturlash, qayta dasturlash bian ong ostlik faoliyatini samarali ishga tushiradi.

Odatda deyarli barcha odamlar agar biror maqsadlaridan natija olmasalar, ular buning sabablarini muammolar orqali xaspo‘shlab maqsadning amalga oshuviga xalaqit bergan o‘tmishdagi to‘siqlar qiyinchiliklarni ikkir-chikirigacha tavsiflashni yaxshi uddalashdi. Aslida bu ularning maqsadlariga samarali, muvaffaqiyatli yetishlariga foyda bermaydi.

Buni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Maqsadga yetishmaganlikning sababi nima? Qanday xatoga yo‘l qo‘yildi? Kim aybdor? Nima aybdor? Nima uchun buning oldi, olinmadi? Va hakazo. Albatta bu o‘z-o‘zidan bizni o‘tmish bilan bog‘lab salbiy emotsional his tuyg‘unining ilmog‘ini mustaxkamlaydi va bizning hozirimizga o‘tmishni olib o‘tadi. Bu esa o‘z navbatida bizga ichki botiniy kuchimizni o‘tmish to‘siqlari va xatolarini tahlil qilish, aybdorlarni qidirish, yangi qo‘rquvlarni paydo qilish kabi befoyda narsalarga sarflashga olib keladi.

Haqiqatda maqsad-natijalariga bizni qiyinchiliklar, xatolar, omadsizliklarning sabablarini ro‘kach qilish emas balki maqsadni aniq, to‘g‘ri, ijobiy ko‘rinishi qolipiga solish samarali eltadi.

Ijobiy qolipdagi niyat-maqsad bu ayni vaqtda diqqat e'tiborda turgan real amaliy qadam bosish mumkin bo‘lgan ichki ruhiy botiniy kuch bilan sug‘orilgan psixologik tayyorlikdir. Aytish joizki neyrolingvistik dasturlashda maqsadlari to‘g‘ri ijobiy ko‘rinish holatiga solishning o‘ziga xos talablarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Maqsad-niyat ijobiy ko‘rinishida “yo‘q”, “emas”, “ma” inkor so‘zlarini qo‘llash joiz emas. Axborotni qayta ishlash jarayonida ongimiz ularni teskarisini bajaradi. Masalan agar shu haqda fikrlama deyilsa u aksincha shu narsalar haqida fikrlab taranglashadi. Yoki men boshqa bunday qilmayman degan fikr odam tasavvurida yorqin ranglarda aynan shu holatni keltiradi. Demak kundalik hayotimizda biz ko‘pchilik hollarda maqsad niyatini to‘g‘ri ifoda etolmay salbiy ko‘rinish qolipiga solamiz va teskari natijani olamiz. Bu ayni chog‘da ta'lim va tarbiya jarayonida ko‘p uchraydigan holatlardandir.

Ingliz tilini o‘rganish jarayonida ko‘p uchraydigan salbiy ko‘rinish qolipiga solingan maqsadlarni misol keltirish mumkin:

Men ingliz tilini harflarini o‘rganish va talaffuz qilishdan boshlayman va ularni xato qilmasdan talaffuz qilaman va doimo xato qilmasdan yozaman. (Ijobiy ko‘rinishdagi qolip:…ularni to‘g‘ri talaffuz qilaman, to‘g‘ri yozaman) Yoki ingliz tili harflarini o‘rgansam yozganda kamroq xato qilaman (Ijobiy ko‘rinishdagi qolib… harflarni to‘g‘ri o‘rganaman, to‘g‘ri yozaman.).

2. Maqsad-niyatni aniq va hozirgi zamon ko‘rinishda ifoda etish. Aytish joizki, ”balki yetishishim mumkin”, «agarda”, “shunday qilganimda edi”, “bir urinib ko‘raychi” kabi ifodalar maqsad yo‘lidagi to‘siq hisoblanadi. Men o‘rganyapman, so‘zlar xotiramda saqlanyapti, men ko‘p narsaga erishyapman va hokazo.

3. Taqosslash, solishtirish ifodalari maqsadni amalga oshuvida inkor qilishdek to‘siq hosil qiladi. Shuning uchun ingliz tilini o‘rganishda maqsad-niyatda «yaxshiroq”, “kamroq” noaniq ifodalarini ishlatish natija olishga to‘sqinlik qiladi. Ular o‘rniga lo‘nda, yig‘iq mazmunli so‘zlarni aniq ishlatish joiz.

Masalan:

“Yozganda kamroq xato qilaman”(ijobiy ko‘rinishdagi qolib to‘g‘ri yozaman)

“Ingliz tilida hozirgidan ko‘ra yaxshiroq gapiraman(... ingliz tilida erkin so‘zlashaman, burro gapiraman va talaffuz qilaman.)

4. Maqsadga-niyatga yetishishni aniq hissiyotlar bilan tasavvur qilish.

Ingliz tilida to‘g‘ri erkin gaplashish va to‘g‘ri yozishni aniq tiniq yorqin ranglarda, tovushlarda harakatlarda vizual, audal va kinestetik his etish. Ya'ni fikr, niyat, maqsadni audal, vizual, kinestetik axborot qabul qilish kanallarida mukammal ifoda eta olish talab qilinadi. Maqsad , niyatni oldindaan loyihasini tasavvur qilish, bunda tasavvur obrazlarining rangi, katta kichikligi, hajmi, uzoq-yaqinligi, harakati, tovushi kabi ko‘rsatkichlarini yorqin, tiniq, aniq darajalarda iifodalanishi talab etiladi.

5. Maqsad-niyatga yetganlikni aniqlovchi konkret sana, belgilangan (fiksatsiyalashgan)miqdor o‘rnatish joiz. Ya'ni «bir oz vaqtdan keyin”, “yaqinda”, “bir ikki oy o‘tsa”, “rivojlantiraman”, “takomillashtiraman”, kabi noaniq (kriteriy) ifodalardan voz kechish va 3 kunda, bir hafta bir oy, yoki 30 kunda erishaman deb belgilash joiz.

6. Maqsad-niyatlarning amalga oshuvida birinchi va ikkinchi darajali “afzallik” va “to‘siqlar” ta'sirini tekshirish va hisobga olish kerak.

Ya'ni maqsadni “ekologik nazoratdan” o‘tkazish lozim. Bu maqsad-niyat amalga oshuvida nimalardan kechish kerakligi va nimalarga yetishishni tadqiq etadi va maqsadga erishuvida gumon, ikkilanishlar, shubhalar va bezovtaliklarni bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бендлер Р. Управление собственным мозгом. Электронный источник.
2. Гриндер Д., Бендлер Р. Структура магии. Электронный источник.
3. Гриндер М. Исправление школьного конвейера. Электронный источник.
4. Еремеева Н. Запоминаем английские слова легко // English for you. Электронный источник.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЗНАНИЯ ЛИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Эргашева Нодира Авазбековна
Центр педагогического мастерства
Наманганской области
методист русского языка
+99891-362-42-58

Аннотация

В статье рассматриваются изменения сознания личности, процессы идентификации и социализации в условиях активного развития цифровых технологий и искусственного интеллекта. Анализируются положительные и отрицательные последствия влияния цифровой среды на человека.

Ключевые слова: цифровизация, искусственный интеллект, сознание личности, идентичность, социализация, цифровая среда.

Abstract

The article examines the transformation of individual consciousness, as well as the processes of identification and socialization in the context of the active development of digital technologies and artificial intelligence. The positive and negative effects of the digital environment on human beings are analyzed.

Keywords: digitalization, artificial intelligence, individual consciousness, identity, socialization, digital environment.

Введение

Современное общество развивается в условиях стремительной цифровизации. Интернет, социальные сети, мобильные приложения и системы искусственного интеллекта стали неотъемлемой частью жизни человека. Цифровая среда влияет не только на экономику и образование, но и на сознание личности, способы общения и восприятия мира.

Актуальность темы заключается в том, что цифровые технологии постепенно формируют новые модели поведения, ценности и способы самоидентификации человека. Искусственный интеллект становится активным участником информационного пространства, влияя на мышление и поведение пользователей.

Цель статьи — рассмотреть особенности трансформации сознания личности и процессов социализации в цифровую эпоху.

Трансформация сознания личности

Цифровая среда создаёт новую форму реальности, в которой человек

получает большую часть информации через экраны и цифровые платформы. Это влияет на когнитивные процессы, внимание, память и мышление.

Современный человек ежедневно сталкивается с огромным объёмом информации. В результате информация часто воспринимается фрагментарно, снижается способность к длительной концентрации внимания и глубокому анализу. Люди всё чаще используют цифровые устройства как внешнюю память, доверяя поисковым системам хранение информации.

Социальные сети оказывают значительное влияние на сознание личности. Они формируют зависимость от внешней оценки через лайки, комментарии и подписчиков. У человека появляется стремление создавать идеальный образ себя в интернете, который не всегда соответствует реальности.

Искусственный интеллект также становится важным фактором трансформации сознания. Алгоритмы рекомендаций предлагают пользователю определённый контент, формируют интересы и влияют на принятие решений. Это упрощает доступ к информации, но одновременно может снижать самостоятельность мышления.

Несмотря на существующие риски, цифровые технологии имеют и положительные стороны. Они расширяют доступ к знаниям, способствуют развитию цифровых компетенций и создают новые возможности для образования и самореализации.

Особенности идентификации личности в цифровой среде

В условиях цифровизации процесс формирования личности приобретает новые особенности. В виртуальном пространстве человек может создавать различные варианты своей идентичности и представлять себя по-разному в зависимости от ситуации.

Цифровая идентичность отличается гибкостью и изменчивостью. Пользователь самостоятельно выбирает, какую информацию публиковать, какие фотографии размещать и каким образом общаться с окружающими. В социальных сетях формируется так называемое «цифровое Я».

Человек может одновременно выполнять несколько ролей: профессиональную, социальную, личную или анонимную. Это расширяет возможности самовыражения, однако иногда приводит к внутренней нестабильности и зависимости от общественного мнения.

Особую роль играют цифровые платформы и алгоритмы, которые формируют информационное пространство пользователя. Под влиянием рекомендаций и популярного контента меняются интересы, взгляды и модели поведения человека.

Социализация личности в цифровую эпоху

Цифровая среда существенно изменила процессы социализации. Интернет позволяет людям общаться независимо от расстояния, участвовать в международных сообществах и быстро обмениваться информацией.

Однако вместе с положительными возможностями возникают и определённые проблемы. Снижается качество живого общения, развивается интернет-зависимость, увеличивается распространение недостоверной информации. Виртуальное общение нередко заменяет реальные социальные контакты.

Системы искусственного интеллекта становятся посредниками коммуникации. Они участвуют в обработке информации, организации общения и формировании цифрового пространства человека.

Заключение

Таким образом, цифровые технологии и искусственный интеллект оказывают значительное влияние на сознание личности, процессы идентификации и социализации. Формируются новые типы мышления и способы взаимодействия людей в обществе.

Цифровая среда предоставляет широкие возможности для образования, общения и развития, однако одновременно создаёт риски, связанные с поверхностным восприятием информации, зависимостью от технологий и снижением самостоятельности мышления.

В современных условиях особенно важным становится развитие цифровой культуры, критического мышления и ответственного отношения к использованию технологий.

Список использованной литературы

1.Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. — М.: ВШЭ, 2000.
2.Бауман З. Текучая современность. — СПб.: Питер, 2008.
Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. — Oxford University Press, 2014.
4.Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. — 2001.
5.Туркл Ш. Одинокие вместе. — М.: Corpus, 2012.

INKLYUZIV TA'LIM – TENG IMKONIYATLAR VA IJTIMOIY ADOLAT ASOSI

Talipova Mastura Ulmasbayevna
O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish
Respublika tashxis markazi metodisti

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati, maqsadi, asosiy tamoyillari va zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv ta'limning alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga jalb etishdagi o'rni, ta'limda teng imkoniyatlarni ta'minlashdagi ahamiyati hamda o'quvchilarning ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik va ijtimoiy jihatlari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, ta'limda tenglik, inklyuziya, ijtimoiylashuv, ta'lim muhiti, pedagogik qo'llab-quvvatlash, maxsus ehtiyojli bolalar.

Annotation

This article discusses the essence, objectives, principles and significance of inclusive education in the modern educational system. The role of inclusive education in involving children with special educational needs in the general educational process, ensuring equal educational opportunities, and supporting their socialization and personal development is analyzed. The pedagogical and social aspects of creating an inclusive educational environment are also highlighted.

Keywords: inclusive education, special educational needs, equality in education, inclusion, socialization, educational environment, pedagogical support, children with special needs.

Аннотация

В данной статье раскрываются сущность, цели, основные принципы и значение инклюзивного образования в современной системе образования. Анализируется роль инклюзивного образования в обеспечении участия детей с особыми образовательными потребностями в общем образовательном процессе, создании равных возможностей для получения образования, а также в их социальной адаптации и личностном развитии. Рассматриваются педагогические и социальные аспекты формирования инклюзивной образовательной среды.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, равенство в образовании, инклюзия, социализация,

образовательная среда, педагогическая поддержка, дети с особыми потребностями.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri barcha bolalar uchun sifatli va teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish huquqini ta'minlashga intilmoqda. Ana shu maqsadlarga erishishda inklyuziv ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlaydi, balki jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga ham xizmat qiladi.

"Inklyuziya" atamasi barcha bolalarni, ularning jismoniy, ruhiy, intellektual yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, umumiy ta'lim tizimiga jalb etishni anglatadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni jamiyatdan ajratmasdan, ularning tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishini ta'minlashdir. Bu jarayonda o'quv dasturlari, o'qitish metodlari, baholash mezonlari va ta'lim muhiti bolalarning individual imkoniyatlariga moslashtiriladi.

Inklyuziv ta'lim har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim muhitini tashkil etishni nazarda tutadi. Bunday muhitda bolalar o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladilar, muloqot qilish, bilim olish va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari :

Inklyuziv ta'lim insonparvarlik va tenglik g'oyalariga asoslanadi. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– inson qadri uning qobiliyatlari yoki yutuqlari bilan emas, balki shaxs sifatidagi qimmati bilan belgilanadi;
– har bir inson his qilish va fikrlash qobiliyatiga ega;
– har bir inson muloqot qilish va o'z fikrini bildirish huquqiga ega;
– barcha insonlar bir-biriga muhtoj;
– ta'lim haqiqiy ijtimoiy munosabatlar orqali samarali amalga oshadi;
– har bir bola tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj;
– o'quvchining yutug'i uning imkoniyatlari doirasida baholanishi lozim;
– insonlar o'rtasidagi turfa xillik jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Ushbu tamoyillar ta'lim muassasalarida har bir o'quvchi uchun qulay va xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limning ahamiyati:

Inklyuziv ta'lim barcha bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar tengdoshlari bilan birga ta'lim olish orqali ijtimoiy hayotga moslashish, mustaqillik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu bilan birga, sog'lom tengdoshlar ham bag'rikenglik, hamjihatlik, o'zaro yordam va insonparvarlik kabi muhim ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradilar. Natijada jamiyatda kamsitish va ijtimoiy ajralish holatlari kamayib, o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar shakllanadi.

Inklyuziv ta'limning yana bir muhim jihati shundaki, u har bir bolaning imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni bolaning ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tashkil etilgani sababli o'quvchilar o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etish imkoniga ega bo'ladilar.

Inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, har bir bolaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. U barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish, jamiyatda bag'rikenglik va ijtimoiy adolatni qaror toptirish, bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shu bois ta'lim muassasalarida inklyuziv muhitni shakllantirish, pedagoglar va mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash inklyuziv ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim – bu har bir bolaning qadri, huquqi va imkoniyatlarini e'tirof etuvchi insonparvar ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda pedagogning o'rni

Inklyuziv ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki turli ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash metodikasini ham puxta egallagan bo'lishi kerak.

Pedagog har bir o'quvchining imkoniyatlarini aniqlashi, individual yondashuvni qo'llashi, qulay psixologik muhit yaratishi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini rag'batlantirishi zarur. Shu bilan birga, o'qituvchi ota-onalar, psixologlar, defektologlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi lozim.

Oila va maktab hamkorligining ahamiyati

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq. Ota-onalar farzandining rivojlanishidagi o'zgarishlarni kuzatib borishi, pedagoglar bilan muntazam muloqot qilishi va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi muhimdir. Maktab va oila hamkorligi bolada ijobiy motivatsiya

shakllanishiga, uning ijtimoiy moslashuviga va o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu hamkorlik bolani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi. U teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish va bolalarning har tomonlama kamol topishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Bugungi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim muassasalarida qulay va moslashtirilgan muhit yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim – bu har bir bolaning qadr-qimmatini e’tirof etuvchi, uning imkoniyatlariga ishonuvchi va kelajagini qo‘llab-quvvatlovchi insonparvar ta’lim tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. *“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun*. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Inklyuziv ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror*. – Toshkent, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. *Inklyuziv ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar*. – Toshkent, 2022.
4. Allanova M. *Inklyuziv ta’lim asoslari*. – Toshkent: Pedagogika, 2019. – 180 b.
5. Karimova D. *Maxsus pedagogika va inklyuziv ta‘lim*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 210 b.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ СОЦИАЛЬНОЙ СИТУАЦИИ РАЗВИТИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Эргашев Жахонгир Маманазрович
Преподаватель Ташкентского
университета прикладных наук

Аннотация. Рассматривается вопросы теоретическая и практическая значимость исследования связана с обогащением научных представлений о социальной ситуации развития детей в условиях новой модели образования: выявлением особенностей и возрастной динамики характеристик объективного и субъективного аспектов социальной ситуации развития младших школьников в инклюзивных классах начальной школы, представляющих собой неоднородные учебные сообщества.

Ключевые слова. Теоретическая, практическая, значимость, развития младших школьников, обучающихся в инклюзивном образовании

THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO STUDYING THE SOCIAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS STUDYING IN INCLUSIVE EDUCATION

Ergashev Jakhongir Mamanazrovich, Lecturer, Tashkent University of Applied Sciences

